Nigora ABDULLAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: fashionable01@mail.ru

O'zMU dotsenti, f.f.n. D.Agzamova taqrizi asosida

ANALYSIS OF CONCEPTUAL METAPHORS REFLECTING THE PERIOD OF THE CORONAVIRUS PANDEMIC IN ENGLISH

Annotation

In this article, online journalistic texts that reflect the conceptual metaphor of covid 19 related to the pandemic period are interpreted as a ready resource for studying how humanity perceives the pandemic. A conceptual metaphor analysis of metaphors related to COVID-19 on English-language social media platforms was conducted using the theory of critical metaphor analysis. According to various socio-historical factors, as well as the active choices of users in expressing their values and judgments, texts in which metaphors of war, disaster and zombies are widely used were analyzed and described with examples.
Key words: Coronavirus, conceptual metaphor, Covid 19, source domain, target domain, war metaphors, Forest fires metaphors, zombie apocalypse metaphors.

АНАЛИЗ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ МЕТАФОРОВ, ОТРАЖАЮЩИХ ПЕРИОД ПАНДЕМИИ КОРОНАВИРУСА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается онлайн-публицистические тексты, отражающие концептуальную метафору Ковид 19, связанную с периодом пандемии, интерпретируются как готовый ресурс для изучения того, как человечество воспринимает пандемию. Концептуальный метафорический анализ метафор, связанных с Ковид 19, на англоязычных платформах социальных сетей был проведен с использованием теории критического метафорического анализа. Согласно ему, были проанализированы и описаны на примерах различные социально-исторические факторы, а также активный выбор пользователей при выражении своих ценностей и суждений, тексты, в которых широко используются метафоры войны, катастрофы и зомби.
Ключевые слова: Коронавирус, концептуальная метафора, ковид 19, исходный домен, целевой домен, метафоры войны, метафоры лесных пожаров, метафоры зомби-апокалипсиса.

INGLIZ TILIDA KORONAVIRUS PANDEMIYASI DAVRI AKS ETGAN KONSEPTUAL METAFORALAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada pandemiya davri bilan bog'liq kovid 19 konseptual metaforasi aks etgan onlayn publistik matnlar insoniyatning pandemiyani qanday qabul qilishini o'rganish uchun tayyor manba sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilidagi ijtimoiy media platformalarida kritik metafora tahlili nazariyasidan foydalangan holda KOVID-19 bilan bog'liq metaforalarning konseptual metaforik tahlili o'tkazildi. Unga ko'ra turli xil ijtimoiy-tarixiy omillar, shuningdek, foydalanuvchilarning o'z qadriyatlari va mulohazalarini ifoda etishdagi faol tanlovlari bilan bog'liq, urush, ofat va zombi metaforalari keng qo'llanilgan matnlar tahlil qilindi va misollar bilan tavsiflandi.
Kalit so'zlar: Koronavirus, konseptual metafora, kovid 19, manba tuzilmasi, maqsad tuzilmasi, urush mataforlari, o'rmon yong'inlari mataforasi, zombie apokalipsis metaforalari.

Kirish. Tilning metaforik tizimi madaniy-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar, ularning ta'sirida doimiy ravishda yangilanib turadi, ma'lum bir til jamoasining milliy madaniy merosi va tajribasini va xususiyatlarni aks ettiradi. Metaforalar ko'pincha ma'lum bir til madaniyati so'zlovchilari uchun dolzarb bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega jarayonlar va tildan tashqari voqelikni aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.A. Krasavskiyning fikriga ko'ra, kontsept kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchasi bo'lib, dunyoni bilish jarayonini, inson faoliyati natijalarini, uning dunyo haqidagi tajribasi va bilimlarini aks ettiruvchi ko'p o'lchovli psixik konstruksiya, dunyo va bilim manzarasi haqida ma'lumotni saqlash kvanti sifatida talqin etiladi. Konseptual metafora bu bilimning turli xil sohalarga tegishli konseptlar o'rtasidagi aloqani o'rnatishga asoslangan muhim kognitiv mehanizm hisoblanadi. Metafora esa Lakoff, Johnsonning fikriga ko'ra bir turning mohiyatini boshqa turning mohiyati nuqtai nazaridan tushunish va his qilishdir. Metaforani an'anaviy "lingvistik" tushunishdan farqini Lakoff tafakkurning universal xususiyati deb ataydi. Bu faqat til sohasiga tegishli emas balki og'zaki ya'ni verbal va noverbal bo'lmagan tarzda ya'ni rasmda, musiqada, imo-ishoralarda ifodalanishi mumkin. Shunday qilib, kontseptual metafora nazariyasi - bu inson tafakkuri darajasida yuzaga keladigan, so'ngra lingvistik tuzilmalarda aks etadigan jarayondir. J. Lakoff va M. Jonson nazariyasiga ko'ra ikkita kognitiv tuzilma yoki sohaning o'zaro ta'siri sifatida manba (source domain) va maqsad (target domain) tuzilmalariga modellashtirilgan. Maqsadli maydon manba maydoniga o'xshash tuzilgan, ya'ni ular orasida metaforik xaritalar (metaphorical mappings) o'rnatiladi.

Publistik diskursda "koronavirus" so'zi tor va keng ma'noda turli tillarda so'zlashuvchilar tomonidan qo'llaniladi:

• tor ma'noda "koronaviruslar oilasining o'ziga xos vakili, ya'ni 2019-yilning ikkinchi yarmida topilgan SARS-CoV-2,

• kengaytirilgan ma'noda - "koronavirus infeksiyasi pandemiyasi, inson salomatligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun barcha salbiy oqibatlarga olib keladigan millionlab odamlarning hayotiga tahdid soladi") [1].

Biz "Koronavirus" konseptini ifodalovchi metaforalarni asosiy qatlam komponentlari sifatida (kontseptsiyaning yadrosi, uning tasviri), pertseptiv-kognitiv xususiyatlari (lingvistik madaniyat so'zlovchisi ongidagi sezgi a'zolari yordamida uning aks etishi natijasida shakllangan) va majoziy belgilarini (shakllangan muhitdagi biror narsa yoki hodisani metaforik tushunish orqali) ko'rib chiqamiz[8]. Konseptni aks ettiruvchi metaforik modellar ma'lum bir tipik sxemalar bo'yicha birlashtirilgan kontseptual sohalar va jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi [9].

Masalan, social bubble –oila a'zolari va do'stlarining kichik guruxi bir-birlarini ko'rishga ruhsat beriladi, chunki COVID 19 uydan chiqmaslik choralari asta sekin yumshatiladi.

Metaforik tilning odamlarga ta'sirini hisobga oladigan bo'lsak, metafora ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan salomatlik haqidagi hikoyalarda keng tarqalganligi ajablanarli emas. Urush haqidagi metaforalarini biz ko'pincha covid-19 haqidagi xabarlarda ko'rishimiz mumkun. Bunga virusning hayot uchun xavfli ta'siri va o'zini himoya qilishning turli usullari bilan bog'liq metaforalardan foydalanish kiradi.

Tahlil va natijalar. Ommaviy axborot vositalarida Covid-19 haqidagi xabarlarda urush metaforalari keng tarqalgan. Biz buni gazetalarda 2020 yil aprel oyida "New Statesman" jurnalida paydo bo'lgan (The fight against COVID-19: What does winning look like when the enemy is a virus?) "Covid-19 ga qarshi kurash: dushman virusga chalinganda g'alaba qanday ko'rinadi?" kabi sarlavhalar yoki bayonotlar bilan ko'ramiz. 2021-yil iyun oyida Garvard Business Review nashrida. esa "Daromadga ega mamlakatlar covid bilan kurashish uchun innovatsiyalar qilmoqdalar", The New York Times gazetasi "O'q-dorisiz urushda" 'At War With No Ammo' (2020) sarlavhali maqolada shaxsiy himoya vositalarining yetishmasligi haqida xabar berdi. 2020 yil iyun oyida Kaliforniya Gubernatori Gevin Nyusom virus haqidagi matbuot anjumanida bir nechta urush metaforalarini ishlatdi: 'We will crush this pandemic.'"biz bu pandemiyani yo'q qilamiz. We will annihilate it Biz uni yo'q qilamiz. . We'll get past this, but we're going to have to be tougher. Biz buni ortda qoldiramiz, lekin biz birlasishimiz kerak." Bu qo'llanishlarning barchasi urush va zo'ravonlikka ishora qiluvchi metaforalarning chuqur ildiz otgan tizimini aks ettiradi.

Noyabr oyida Amerika Qo'shma Shtatlarda oq uyda matbuot brifingida doktor Entoni Fausi (qo'shma shtatlardagi yuqumli kasalliklar bo'yicha eng yaxshi mutaxassis) shunday dedi: "Agar siz jang qilayotgan bo'lsangiz va otliqlar yo'lda bo'lsa, siz otishni to'xtatmaysiz." ("If you're fighting a battle and the cavalry is on the way, you don't stop shooting.") [3]

Nyu-Yorkda aholi yangi holatlar va qurbonlar portlashiga duch kelganda, gubernator Endryu Kuomo matbuot anjumanida urush metaforasini keng qo'lladi:

("The soldiers in this fight are our health care professionals. It's the doctors, it's the nurses, it's the people who are working in the hospitals, it's the aids. They are the soldiers who are fighting this battle for us.")

" Ushbu jangdagi askarlar bizning sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislarimizdir. Ular shifokorlar, hamshiralar, kasalxonalarda ishlaydigan yordamchilar. Ular biz uchun bu jangda qatnashayotgan askarlardir"[4].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Kotibi Antonio Gutierrez G20 Virtual Sammitida Kovid-19 pandemiyasi bo'yicha so'zlagan nutqida pandemiya bilan urushni taqqosladi: "biz virus bilan urushyapmiz - va uni yuta olmayapmiz. ... Bu urushga qarshi kurashish uchun urush vaqti rejasi kerak. ("we are at war with a virus – and not winning it. …this war needs a war-time plan to fight it.) [5]

Urush davri tasvirlarini pandemiya davri bilan qiyoslaganda turli xil oxshatishlarga duch kelamiz masalan, dushmanni (enemy) visrusga qiyoslansa, frontdagi jangchilarni- the front-line warriors (sog'liqni saqlash xodimlari- health-care personnel) ,, uy frontini- the home-front (uyda izolyatsiya qilingan odamlar -people isolating at home , Xoinlar va qochoqlar- the traitors and deserters (people breaking the social-distancing rules- ijtimoiy ajratish qoidalarini buzadigan odamlar) kabi metafralarga duch kelamiz.

Urush metaforasidan foydalanish toifalarni hiyla-nayrang bilan aralashtirib yuboradi. Masalan, biz endi fuqaro emasmiz; biz hozir mojaroda "askar"miz. Shunday ekan, siyosatchilar ogohlikka emas, itoatkorlikka chaqirib, birdamligimizga emas, vatanparvarligimizga chorlaydi.

Kuchli demokratik institutlarga ega bo'lgan buyuk britaniyada koronavirus to'g'risidagi qonun hukumat vazirliklariga odamlarni hibsga olish va izolyatsiya qilish, ommaviy yig'ilishlarni, shu jumladan norozilik namoyishlarini taqiqlash va portlar va aeroportlarni yopish vakolatlarini berdi. Sog'liqni saqlash vaziri mett xankok bu haqda shunday dedi:

"Men aytib o'tgan chora-tadbirlar tinchlik davrida misli ko'rilmagan. Biz bor narsamiz bilan bu virusga qarshi kurashamiz. Biz ko'rinmas qotilga qarshi urushdamiz va uni to'xtatish uchun qo'limizdan kelganini qilishimiz kerak".

"The measures that I have outlined are unprecedented in peacetime. We will fight this virus with everything we have. We are in a war against an invisible killer and we have to do everything we can to stop it"[6].

Boliviyalik Evo Morales, "Men Xitoy uchinchi jahon urushida o'q uzmasdan g'alaba qozonganiga ishonaman" dedi. Evo Morales from Bolivia, who stated "I believe China won the third world war without firing a shot." [7].

Ijtimoiy media foydalanuvchilari o'zlarining his-tuyg'ulari, tajribalari va fikrlarini ifodalash uchun metaforalardan foydalanadilar, hukumat hisobotlari esa siyosat qarorlarini xabardor qilish va sog'liqni saqlash choralarini boshqarish uchun metaforalardan foydalanadi. Ikkala nutq turi ham pandemiya haqidagi jamoatchilik tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va har birida ishlatiladigan metaforalar odamlarning inqirozni qanday tushunishi va unga munosabat bildirishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunga qaramay, internet foydalanuvchilari pandemiya haqidagi tushunchalarini faolroq ifoda etadigan onlayn ijtimoiy platformalarda qo'llaniladigan covid-19 bilan bog'liq metaforalarga qaratilgan tadqiqotlarning nisbatan kamligi kuzatildi. Ijtimoiy media matnlarida tildan foydalanish rasmiy hujjatlardagidan sezilarli darajada farq qiladi.

Ingliz tilidagi pandemiya haqidagi matnlarda biz urush metaforalaridan foydalanganlik holatiga duch kelamiz. Masalan: "Your home is your fortress, (sening uying – qal'ang)", "medics are soldiers (tibbiyotchilar askarlardir)," kabi iboralar asosiy misollardir. Ingliz tilidagi matnlarda faktik tavsiflar uchun asosan urush metaforalaridan foydalaniladi. O'z-o'zidan tuzilgan korpusda inglizcha urush metaforalariga tegishli jami 46 ta asosiy atamalar aniqlangan bo'lib, eng ko'p uchraydigan 10 ta atama: "jang"/"fight", "qalqon"/"shield", "urush"/"war", "jang"/"combat", "qurol-yarog' ombori/arsenal". "bombardimon qilmoq"/"blitz", "frontda hizmat qilayotganlar"/"front line, "harbiy"/"military", "xoin"/"traitor". Bu atamalar, birinchi navbatda, tavsiflovchi atamalar bo'lib, hissiy ahamiyatga ega emas. Matnli misollar quyida keltirilgan:

Your home is your fortress, so stay safe at home. Sizning uyingiz sizning qal'angiz, shuning uchun uyda xavfsiz bo'ling. Masalan, 1-matn "uy"ni "qal'a"ga o'xshatib, aholini o'z qal'asini askarlardek qo'riqlashga va tegishli ruxsatisiz tark etmaslikka undaydi.

The un-jabbed are the ones getting sick and dying. Sort of a poetic justice. The traitors in this war against covid19 are dying off. Jabrlanmaganlar kasal bo'lib, o'layotganlardir. Qandaydir poetik adolat. Covid19 ga qarshi bu urushda xoinlar o'lishmoqda. Matnda vaksinani olmagan shaxslar metaforik tarzda insoniyatga xiyonat qilgan va virus tomoniga qo'shilgan "xoinlar" sifatida tasvirlangan.

Covid19 best war tactic is to present itself as mild, while increasing it's toll. Covid19-ning eng yaxshi urush taktikasi - bu o'zini yumshoq qilib ko'rsatish, shu bilan birga qurbonlar sonini oshirish.

In this war staged against humanity (covid19), let the health guidelines take the frontline as we follow in safeguarding our health. Make masks, soap and sanitizer your weapons as well as social distancing a war tactic. Insoniyatga qarshi uyushtirilgan ushbu urushda (covid19), sog'lig'imizni asrashda sog'liqni saqlash bo'yicha yo'riqnomalar oldingi o'ringa chiqsin. Qurollaringiz niqoblar, sovun va dezinfektsiyalash vositalari bo'lsin, shuningdek, ijtimoiy masofani urush taktikasiga aylantiring.

3 va 4 matnlar ijtimoiy masofani "urush taktikasi" ga, niqoblar, sovun va dezinfektsiyalash vositalarini esa "qurol" ga o'xshatilgan.

1–4-matnlarda biz urush doirasida "ittifoqchilar"/ "allies", "qal'alar"/"fortresses", "xoinlar"/"traitors", "urush taktikasi" /"war tactics" va "qurollar"/"weapons kabi asosiy elementlarning takroriy qo'llanilishini ham kuzatamiz.

Shuningdek, E .Semino o'zining "Not Soldiers But Fire-Fighters" nomli maqolasida –COVID-19 pandemiyasi uchun metafora Sifatida "O'rmon yong'inlari/Forest fires " qo'llanilgan.

Masalan, xuddi odamlar o'rmon yong'inlarida issiqlik va yuqori haroratni his qilishlari kabi, COVID-19ga chalingan bemorlar ham yuqori tana haroratining qiynoqlarini boshdan kechirishadi. Shu bilan birga, ingliz tilidagi matnlarda tabiiy ofat metaforalarining boshqa turlari ham uchraydi, masalan, "tsunami metaforalari/tsunami metaphors" va "bo'ron metaforalari/storm metaphors" odamlarning COVID-19 epidemiyasi jiddiyligi haqida xabardorligini uyg'otishga qaratilgan[2].

Ingliz tilidagi matnda zombi apokalipsisi metaforasi keng qo'llaniladi. "Zombi" atamasi fransuzcha "zombi" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'likdan tirilgan o'lmagan tanani anglatadi. Elektron o'yinlar, ommaviy axborot vositalari va filmlarda "zombi" elementlarining ko'payishi bilan "zombi apokalipsisi" ning yangi tushunchasi paydo bo'ldi, va bu zombi oqimi bilan insoniyat sivilizatsiyasining bosqichma-bosqich qulashi demakdir. "Zombi apokalipsisi" ning ba'zi versiyalarida bu viruslar yoki parazitlarning infektsiyasi tufayli yuzaga keladi va zombi huquqni muhofaza qilish idoralari, harbiy tashkilotlar va sog'liqni saqlash tashkilotlari kabi zamonaviy jamiyatning asosiy institutlarini yo'q qilib tashlaydi. Asosiy ijtimoiy xizmatlar to'xtab qoladi va omon qolganlar faqat oziq-ovqat, qurol-yarog' va asosiy materiallarni yig'ib olishlari mumkin va faqat xavfsiz zonalarda yashashlari mumkin. Ingliz tilida so'zlashadigan dunyoda ushbu mavzuni o'z ichiga olgan madaniy va ko'ngilochar mahsulotlarning mashhurligi bilan "zombi" va "zombi apokalipsisi" juda ko'p.

COVID-19 pandemiyasi davrida dunyoni zombi apokalipsisi bilan solishtirgan. Masalan:

1-matn: Anti-maskers keep spreading COVID19 like a zombie apocalypse.

Niqobsizlar zombi apokalipsisi kabi COVID19 ni tarqatishda davom etmoqda.

1-matnda niqob kiyishga qarshi bo'lganlar zombilarga qiyoslangan.

2-matn: If COVID19 has taught us anything it's that at least 1/3 the population is selfish and would hide infected bites in a real zombie apocalypse.

2-matnda esa COVID-19 virusini yuqtirgan, ammo davolanishdan bosh tortgan shaxslar zombilarga qiyoslanadi.

Agar COVID19 bizga biror narsa o'rgatgan bo'lsa, demak, aholining kamida 1/3 qismi xudbin bo'lib, haqiqiy zombi apokalipsisida infektsiyalanganliklarini yashiradi.

3-matn: I think what this Covid19 pandemic has proven is that humans would never win against a zombie apocalypse, people's egos and pure stupidity would kill us all.

Menimcha, bu Covid19 pandemiyasi isbotlagan narsa shundaki, odamlar zombi apokalipsisiga qarshi hech qachon g'alaba qozona olmaydilar, odamlarning egolari va sof ahmoqligi barchamizni o'ldiradi. 3 -matn butun COVID-19 pandemiyasini zombi apokalipsisi bilan taqqoslaydi[10].

Xulosa va takliflar. Yuqorida aytib o'tilgan uchta matnning har biri "zombi apokalipsisi" tushunchasidan foydalangan, ammo har bir matn bu tushunchadan turli narsalar uchun metafora sifatida foydalanadi. Ushbu metafora vaziyatni qo'rqinchli va dahshatli deb biladigan odamlarning umidsizlik tuyg'usini yetkazish uchun ishlatiladi. U vaziyatning jiddiyligini va virus tahdidining jiddiyligini yetkazish uchun kuchli ritorik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu odamlarga o'z qo'rquvlari va tashvishlarini yanada qulayroq va mos keladigan tarzda ifodalash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Lakoff, G., and Johnson, M. Metaphors we live by Chicago, IL: University of Chicago Press. 1980.
2. Semino, E. "Not soldiers but fire-fighters" – metaphors and Covid-19. Health Commun. 2021. 36, 50–58.betlar doi: 10.1080/10410236.2020.1844989
3. HTTPS://THEPOLYPHONY.ORG/2021/01/26/COVID-AND-ITS-METAPHORS/
4. HTTPS://WWW.REV.COM/BLOG/TRANSCRIPTS/GOVERNOR-ANDREW-CUOMO-NEW-YORK-COVID-19-PRESS-CONFERENCE-TRANSCRIPT-MARCH-30
5. HTTPS://WWW.UN.ORG/EN/CORONAVIRUS/WAR-NEEDS-WAR-TIME-PLAN-FIGHT-IT
6. Https://theconversation.com/war-metaphors-used-for-covid-19-are-compelling-but-also-dangerous-135406
7. Https://www.securefreesociety.org/wp-content/uploads/2020/04/trt-journal_venezuela-disinformation-campaign-of-covid-19_april-2020-1-3.pdf
8. Стернин И. А. Методика исследования структуры концепта / И. А. Стернин //Методологические проблемы когнитивной лингвистики. Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001. - С. 58 – 65.
9. Чудинов А. П. Политическая лингвистика / А. П. Чудинов. – Москва : Флинта, Наука, 2007. – 42 с
10. Qingshu Xu (2023) Comparing COVID-19 metaphors in Chinese and English social media with critical metaphor analysis. Front. Psychol. 14:1198265. doi: 10.3389/fpsyg.2023.1198265

Umida ABDULLAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail:umidaabdullayeva0306@icloud.com

TKXU "Ingliz tili" kafedrasi mudiri D.Sh.Tursunova taqrizi asosida

COVERAGE OF THE FEMALE IMAGE IN UZBEK FICTION (BASED ON THE "STARRY NIGHTS" BY PRIMKUL KADYROV)

Annotation

This article mainly talks about the illumination of the female image in Uzbek fiction. The article highlights the distinctive features of the female characters in Pirimkul Kadyrov's "Starry nights" from the point of view of literary studies as well as linguistics. This work is dedicated to the life path of the ruler and poet Zahiriddin Muhammad Babur, and deals mainly with the women who played an important role in Babur's life, their inner world, their dreams. In principle, such vivid aspects as the illumination of female images in the work, women's thoughts on sensitive issues, their ability to behave in difficult and complex periods are analyzed in more depth.

Key words: The image of a woman, the place of a woman in the family, the place of a woman in society, Qutlug Nigar Khanum, Khonzodabegim, linguistic analysis, issues of literary studies.

ОСВЕЩЕНИЕ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА В УЗБЕКСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (ПО МОТИВАМ "ЗВЕЗДНЫХ НОЧЕЙ" ПРИМКУЛА КАДЫРОВА)

Аннотация

В этой статье в основном говорится об освещении женского образа в узбекской художественной литературе. В статье освещаются отличительные черты женских персонажей романа Пиримкула Кадырова "Звездные ночи" с точки зрения литературоведения, а также лингвистики. Это произведение посвящено жизненному пути правителя и поэта Захириддина Мухаммада Бабура и посвящено в основном женщинам, сыгравшим важную роль в жизни Бабура, их внутреннему миру, их мечтам. В принципе, более глубоко анализируются такие яркие аспекты, как освещение женских образов в работе, мысли женщин по щекотливым вопросам, их умение вести себя в трудные и запутанные периоды.

Ключевые слова: Образ женщины, место женщины в семье, место женщины в обществе, Кутлуг Нигяр ханум, Хонзода Бегим, лингвистический анализ, вопросы литературоведения.

O'ZBEK BADIIY ADABIYOTIDA AYOL OBRAZINING YORITILISHI (PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada asosan o'zbek badiiy adabiyotida ayol obrazining yoritilishi haqida so'z boradi. Maqolada Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asaridagi ayol qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlari adabiyotshunoslik hamda tilshunoslik nuqtai nazaridan yoritiladi. Ushbu asar shox va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'liga bag'ishlangan bo'lib, unda asosan Boburning hayotida muhim o'rin tutgan ayollar, ularning ichki dunyosi, orzu-umidlari haqida so'z boradi. Asosan ayol obrazlarining asarda yoritilishi, ayollarning nozik masalalar borasidagi fikrlari, og'ir hamda murakkab davrlarda o'zlarini tuta bilishlari kabi yorqin jihatlari yanada chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ayol obrazi, ayolning oiladagi o'rni, ayolning jamiyatdagi o'rni, Qutlug' Nigor xonim, Xonzodabegim, lingvistik tahlil, adabiyotshunoslik masalalari.

Kirish. Ayollarning oilada, jamiyatda, umuman olganda, hayotning har bir jabhasida tutgan o'rni beqiyos. O'zbek adabiyotida ayol zotining ichki va tashqi go'zalligi, iffatiyu-donoligi, aql-farosati, jozibasi aks etgan benazir asarlar yozilgan. Taniqli o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov qalamiga mansub bo'lgan "Yulduzli tunlar" asari buyuk shoir va mohir sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning hayotiga bag'ishlab yozilgan tarixiy roman hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning asosiy manbasi bo'lgan "Yulduzli tunlar" asari o'zbek badiiy adabiyotida nihoyatda muhim o'rin tutishining asosiy sababi shundaki bu asar ilmiy asosda yozilgan bo'lishiga qaramasdan, ommabop ham bo'lib, kitobxonlarga juda manzur bo'lgan. Mazkur asarda Boburning bolaligidan tortib, vafotiga qadar sodir bo'lgan voqealar, boshidan o'tgan qiyinchiliklar, jang-u jadallar, hiyonat, vafo, adolat hamda taqdir o'yinlari yoritib beriladi. Ushbu asar Pirimqul Qodirovning o'n yillik mehnatlari samarasi hisoblanib, 1969-1978 - yillar oralig'ida yozilgan. Yozuvchi asarni yozish jarayonida asosan "Boburnoma" hamda "Humoyunnoma" kabi nodir biografik asarlardan foydalanganligi tufayli ham asar nihoyatda jonli hamda jozibali chiqqan.

Asar dunyoning turli tillari shu jumladan rus, Bengal, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, turk, yapon tillariga tarjimaga qilingan. Bundan tashqari asar ingliz tiliga ikki marta tarjima qilingan bo'lib, birinchi tarjima 2019-yilda Samarqand davlat chet tillari universiteti xodimlari tomonidan amalga oshirilgan hamda Samarqandda chop etilgan. Ikkinchi tarjima esa taniqli ingliz tarjimoni Karol Ermakova tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan hamda ushbu tarjima Nouveau Monde nashriyot uyida chop etilgan.

1- rasm. "Yulduzli tunlar" asarining Samarqandda chop etilgan tarjimasi

2-rasm. "Yulduzli tunlar" asarining Karol Ermakova tomonidan qilingan tarjimasi

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek badiiy adabiyotini ayol obrazisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tadqiqot manbai sifatida o'rganilayotgan "Yulduzli tunlar" asarida esa oddiy o'zbek ayolining obrazi emas, balki buyuk Temuriylar sulolasining davomchisi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur xonadoni xonimlari haqida so'z boradi. Boburning shoh va sarkarda sifatida bosib o'tgan taqdir yo'li oddiy hamda oson kechmaganligi sir emas, albatta. Aynan shu tufayli ham Boburning atrofidagi ayollar, uning onasi, opasi, zavjalarining taqdiri ham qiyin o'tgan. Chunki har bir o'zbek ayoli borki, hayotidagi har bir erkak, xoh u otasi, turmush o'rtog'i yoki farzandi bo'lsin u bilan hamisha hamnafas, unga suyanch hamda yupanch bo'lib yashaydi. O'zbek ayoli, u oddiy oilaning oddiy ayoli bo'lsin, yo buyuk sulolaning vakili, og'ir damlarda yonidagi erkakni qo'llab quvvatlaydi, qiyinchiliklarni birgalikda yengib o'tishga tirishadi, yoriga umid bag'ishlaydi.

Tahlil va natijalar. Asarda Qutlug' Nigor xonim, Xonzodabegim, Oisha begim, Fotima Sulton, Mohim begim kabi ayol obrazlari uchraydi. Ushbu maqolada asarning boshidan oxirigacha ishtirok etgan hamda ko'proq yoritilgan Qutlug' Nigor xonim hamda Xonzodabegim obrazlari chuqurroq tahlil qilinadi.

Qutlug' Nigor xonim - mo'g'ullar sulolasidan bo'lgan Yunusxonning qizi, Umarshayx Mirzoning rafiqasi, Bobur Mirzoning onasi. Asarni o'qish jarayonida Qutlug' Nigor xonim bilan yanada yaqindan tanishib borar ekanmiz, uning qanchalar oqila, mehribon, insonparvar hamda samimiy ayol ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ushbu obraz ayniqsa, o'zining donoligi, siyosat masalalarida ham oqil fikrlari bilan esda qoladi. Buni asardan olingan quyidagi misollar bilan yanada yoritib o'tsak.

Umarshayx Mirzo vafot etgach taxtga uning 12 yashar o'g'li Bobur Mirzo o'tiradi. Boburning yosh ekanligidan foydalanib qolmoqchi bo'lgan beklar, yanada ko'proq boylik orttirish maqsadida uni Samarqandga yurish qilishga undaydilar. Boburning onasi Qutlug' Nigor xonim esa bunga qarshi bo'ladi hamda Boburning ishongan beklaridan bo'lgan Qosimbekam ham bu firkdan qaytarishga kirishadi. Qutlug'Nigor xonim nega bunga qarshi chiqqanini quyidagi jumlalardan bilib olamiz:

Vaqti-soati kelur. Samarqand orzusiga ham etishursiz, — deb davom etdi Qutlug' Nigor xonim. — Biroq hozir raiyyat osoyishta umr ko'rishga mushtoq. Qanotingiz ostida Qosimbekdek tadbirkor amiru umarongiz bor. Mana shu O'shdagi hujrani qurgan me'mordek hunarpeshalar sizning xizmatingizda. Endi onangiz sizdan iltimos qilur: Samarqand muhoribasini besh-olti yilga kechiktirsangiz. Barchamizga bosh bo'lib, vodiyni obod qilsangiz, Andijonda, Marg'ilonda, O'shda katta obidalar qursangiz[1]!

Yuqoridagi parchadan shuni tushunishimiz mumkinki, Qutlug' Nigor xonimning Samarqand yurishiga qarshi chiqishining bir necha sabablari mavjud. Shulardan birinchisi, albatta, ona sifatida yosh jigargo'shasining urush girdobiga kirishini istamasligidir. Boshqa tarafdan esa saltanat malikasi sifatida o'z xalqini o'ylab, qonli urushlar oddiy xalqning tinkasini quritishini, xalq allaqachon urushlardan to'yganini bilgani uchun ham bunga qarshilik qiladi. Yurtni urushlar bilan emas, aksincha bunyodkorlik ila boshqarishni maslahat beradi.

Boburning ishongan beklaridan bo'lgan Qosimbek esa boshqa beklar yangi yurishlar tarafdori ekanliklarini ta'kidlab, hozir Boburning hokimiyati katta-katta bunyodkorliklar qilishga biroz ojizligini aytadi va yana urush qilib yangi o'ljalar bilan moddiy ahvolni yaxshilash lozim deb turib oladi. Ayni shu o'rinda Qutlug' Nigor xonim Qosimbek bilan bo'layotgan bunday nizoli vaziyatda juda o'rinli asoslar keltirib o'z fikrida qat'iy turadi.

— Janob Qosimbek, ulug' obidalarni faqat Amir Temurdek sohibqironlargina qurgan emas, — dedi Qutlug' Nigor xonim. — Hirotda Alisherbek Ixlosiya, Unsiya otliq binolar qurmishlar, Bobur Mirzoning hokimiyatlari Alisherbekning hokimiyatlaricha emasmi? Axir Alisherbek bir tojdorning musohibi bo'lsalar, Bobur Mirzo mustaqil davlatning podshosilar-ku[1]!

Qutlug' Nigor xonimning nozik masalalarda qat'iy tura olishi, o'z nuqtai nazarini o'rinli mulohazalar ila himoya qila olishi tahsinga sazovor. Qutlug' Nigor xonimning qizi, Boburning opasi Xonzodabegim ham aql zakovatda onasidan qolishmagan. Xonzodabegim o'zining donoligi, serqirraligi bilan o'sha davrning boshqa temuriy malikalaridan ajralib turgan.

Shunda o'n sakkiz yoshli Xonzoda begimni ravonda kanizlar orasida setor chalib o'tirgan paytida yana bir ko'rdi-yu, o'z ko'zlariga zo'rg'a ishondi. Chunki bir vaqtlar yigitcha kiyinib chavgon o'ynagan o'sha qiz endi setorda shunchalik nafis, shunchalik mayin kuy chalar, uning o'zi ham shu qadar nafosatga to'lib o'tirar ediki, mulla Fazliddin beixtiyor uning sehriga berilib, g'alati bo'lib ketdi[1].

Xonzodabegim nafaqat setor chalish-u, chavgon o'ynash, balki siyosiy masalalarda ukasiga maslahatgo'y, ukasi nihoyatda g'amga botgan paytlarda unga yelkadosh bo'lib, uni qo'llab quvvatlagan. Bu iliq munosabatlar asarda juda go'zal tarzda yoritib berilgan.

- Amirzodam, Samarqand yurishining sarfu xarojatiga Andijonda saroylar, madrasalar qursangiz bo'lur. Andijon ham Samarqanddek sayqali ro'yi zamin bo'lsa nomingiz Ulug'bek Mirzoning nomidek shuhrat qozonsa— biz mushtiparlaringizning orzuimiz shu[1]!

Xonzodabegimning qanchalar samimiy va jonkuyarligini qarang. Uning yangi yurishga qarshi chiqishining asosiy sababi nafaqat ukasining jonidan havotir olayotganligi, balki xalqiga bo'lgan chuqur hamdardligi ham ayni shu misralarda yorqin namoyon bo'ladi. Yurishga sarflanadigan yirik mablag'ni bunyodkorlikka va xalq koriga yaraydigan inshootlar qurishga ajratishni afzal ko'radi.

— Amirzodam, siz Navoiyning dostonlarini yod bilursiz. Farhod qanday ajib binolar qurganini bir eslang. Men bir munglik egachingiz doim orzu qilurmen: siz ham Farhoddek Bunyodkor bo'lingiz! Dunyoda bundan ulug', bundan savobli ish yo'q[1]!

Xonzodabegim ukasining Mirzo Ulug'bek hamda Alisher Navoiyga ixlosi nihoyatda baland ekanligini, ularga o'xshashni juda qattiq istashini yaxshi bilardi. Shu tufayli ham ukasining o'z orzularidan sira ham kechmay, ularni amalga oshirishiga chorlagan. Asar davomida Xonzodabegimning ukasi uchun o'z manfaatlaridan voz kechgan o'rinlar juda ko'p uchraydi. Ukasini qamaldan qutqarish uchun otasidan ham yoshi katta inson, Boburning ashaddiy dushmani Shayboniyxonga turmushga chiqishga majbur bo'ladi. Bobur o'z yurtidan quvilganda esa Xonzodabegim ham ukasi bilan yelkama-yelka turib har qanday qiyinchilikni birgalikda boshidan kechiradi. Og'ir vaziyatlarda ukasiga juda o'rinli tasalli beradi.

— Boburjon, egachingizning so'ziga ham ishoning. "Davlat manfaatlari" deb o'zingizni ko'p ezmang. Siz bilan biz uchun ham bu umr g'animat. O'z ko'nglimizga ham ishonishimiz kerak! Ko'ngil toza bo'lsa, kishini aldamaydir[1]!

Xonzodabegim o'sha davr malikalaridan aql-u zakovati, insoniyligi bilan ham ajralib turgan. U davr malikalari hamda aslzoda xonimlarining asosiy tashvishi munosib turmush o'rtoq topib, hayotining so'ngiga qadar hech nimaga muhtoj bo'lmasdan, zeb-u ziynatlarga ko'milib yashashdangina iborat bo'lgan. Shunday bir vaziyatda Xonzodabegim o'z jigari Bobur Mirzo bilan hamisha yelkama-yelka turib, uni qo'llab-quvvatlab, ukasining taqdiri va u qabul qiladigan qarorlarning oqibati haqida chuqur qayg'urgan, o'z maslahatlarini ayamagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, shu ikki ayol timsolida buyuk Boburiylar sulolasi asoschisi Boburning hayotida ayollarning tutgan o'rnini ko'rishimiz mumkin. Ayollarga ko'rsatilishi lozim bo'lgan hurmat-e'tibor asarda Boburning o'zidan juda go'zal tarzda bayon etilgan:

— Falakning gardishi ajib! — dedi Bobur. — Ayollarga munosabat hamisha ilmu san'atga munosabat bilan rost kelur. Ilmu san'at barq urgan davrlarda ayollarning hurmati ham baland. Chunki ilmu san'at ayollarning ishtiroki bilangina astoydil yuksalgan. Ma'naviy inqiroz davrlarida olimlaru san'atkorlar nechog'lik xor bo'lsa ayollar ham shunchalik kamsitilmishdir[1].

Boburning ayollarga bo'lgan hurmati naqadar kuchli bo'lganini yuqoridagi jumlalardan anglab olish mumkin. Boburning o'zi ta'kidlaganidek, ayolga hurmat bilan qaralgan jamiyatda o'sish, rivojlanish bo'ladi, ayol kamsitilgan jamiyat esa tanazzulga yuz tutadi. Boburiylar sulolasining gullab yashnashining sababi ham ayollarning e'zozlanishi bo'lsa ne ajab!

ADABIYOTLAR

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar. Ilm-ziyo-zakovat. Toshkent. 2020.
2. To'xtasinov I.M, Yo'ldoshev U.R, Hamidov A.A. Starry Nights Babur. Samarqand. 2019.
3. Ermakova C. Babur Starry nights. Nouveau Monde. 2023.
4. An Haim. Women and Islam. – Oxford. 1997.
5. Cameron D. Feminism and Linguistic Theory. – New York: Palgrave, 1992.
6. Elaine Showalter. Towards a Feminist Poetics. – New York: Pantheon Books, 1985.
7. Elizabeth Grosz, Space. Time and Perversion: Essays on the Politics of Bodies. New York and London: Routledge, 1995.
8. Kurbanova M. O'zbek tilida diskursning gender xususiyatlari. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –T., 2012.
9. Mainstreaming politics: Gendering practices and feminist theory. https://digital.library.adelaide.edu.au/dspace/bitstream/2440/64322/2/hdl_64322.
10. Занковец О.В. Гендерные различия при переводе художественных текстов [Электронный ресурс]. URL: http://www.alba-translating.ru/index.php/ru/articles/2010/178-zankovets.html (дата обращения: 12.04.2021).;
11. Строд М. С. Гендерные особенности перевода художественного текста (на материале переводов новеллы Проспера Мериме «Кармен») [Электронный ресурс]. URL: https://izron.ru/articles/o-voprosakh-i-problemakhsovremennykh-gumanitarnykh-nauk-sbornik-nauchnykh-trudov-po-itogam-mezhduna/sektsiya-20-romanskie-yazykispetsialnost-10-02-05/gendernye-osobennosti-perevoda-khudozhestvennogo-teksta-na-materiale-perevodovnovelly-prospera-meri/

Asila ABDURAKHMONOVA,
The master degree student of Linguistics (English) department at
Karshi state university
E-mail: asilaabdurakhmonova@gmail.com

EXPLORING PUNCTUATION FEATURES IN LINGUISTICS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS

Annotation

Punctuation marks are essential characteristics of written language that convey meaning and improve readability. This article examines punctuation from a linguistic standpoint, focusing on its grammatical and logical aspects. This article seeks to provide a full knowledge of the importance of punctuation elements in written communication by evaluating the relationship between linguistic features and punctuation, analysing instances, and summarizing research undertaken by leading scientists in the subject.

Key words: punctuation, linguistics, features, grammatical, logical, communication.

ИЗУЧЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ПУНКТУАЦИИ В ЛИНГВИСТИКЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Знаки препинания являются важнейшими характеристиками письменной речи, которые передают смысл и улучшают читаемость. В данной статье пунктуация рассматривается с лингвистической точки зрения, уделяя особое внимание ее грамматическому и логическому аспектам. Эта статья призвана дать полное представление о важности элементов пунктуации в письменном общении путем оценки взаимосвязи между языковыми особенностями и пунктуацией, анализа примеров и обобщения исследований, проведенных ведущими учеными в этой области.

Ключевые слова: пунктуация, языкознание, особенности, грамматика, логика, общение.

TILIDAGI TINISH BELGILARNING XUSUSIYATLARINI KASHF ETISH, TAHLIL QILISH

Annotatsiya

Tinish belgilari yozma tilning muhim xususiyatlari bo'lib, ular ma'noni bildiradi va o'qishni yaxshilaydi. Ushbu maqola tinish belgilarini lingvistik nuqtai nazardan ko'rib chiqadi, uning grammatik va mantiqiy jihatlariga e'tibor beradi. Ushbu maqola til xususiyatlari va tinish belgilari o'rtasidagi bog'liqlikni baholash, misollarni tahlil qilish va ushbu sohadagi yetakchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirish orqali yozma muloqotda tinish belgilarining ahamiyati haqida to'liq ma'lumot berishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: tinish belgilari, tilshunoslik, xususiyatlar, grammatik, mantiqiy, aloqa.

Introduction. Punctuation is an essential component of written language, helping to organize and clarify the structure of text. While many people are aware with the grammatical applications of punctuation marks, their logical qualities are also important for efficient communication. In this article, we will look at punctuation in linguistics, including the relationship between linguistic features and punctuation, the significance of grammatical and logical elements, examples, and a review of pertinent scientific studies.

Understanding punctuation's linguistic properties provides vital insights into how written language functions and conveys meaning. Exploring the junction of linguistic concepts and punctuation usage allows us to obtain a better understanding of punctuation's function in supporting efficient communication. In addition to analyzing grammatical and logical principles, this article will look at the intricacies of punctuation marks, their location, and how they affect textual interpretation. Through this investigation, we hope to give readers with a thorough knowledge of punctuation's importance in linguistic analysis and written communication.

Linguistic aspects include phonology, morphology, syntax, and semantics. Punctuation marks, while not typically regarded as linguistic elements, exhibit characteristics that overlap with certain language domains.

For example, the placement of punctuation marks can influence a sentence's syntactic structure and semantic interpretation. Punctuation marks work with linguistic qualities like sentence structure, word order, and discourse markers to influence the overall meaning and clarity of written language. For example, using commas to divide clauses within a phrase impacts its syntactic structure, whereas quote marks indicate direct speaking or the use of certain terms. Furthermore, the lack or misplacement of punctuation marks can create ambiguity or change the intended meaning of a phrase, emphasizing their importance in linguistic research and communication theory.

Literature review. The study of punctuation's historical development reveals its gradual evolution from simple markers in ancient scripts to the complex systems used today. Early works, such as those by Parkes (1993), provide an in-depth examination of the origins of punctuation, tracing its beginnings to the scripts of ancient civilizations. Parkes' research highlights how the Greeks and Romans introduced rudimentary forms of punctuation to aid oral reading, a practice that significantly influenced the punctuation systems of later periods.

M. B. Parkes' "Pause and Effect: An Introduction to the History of Punctuation in the West" (1993) is seminal in this field, detailing how punctuation evolved alongside the needs of readers and writers. Parkes explains that medieval scribes began using punctuation marks to indicate pauses and intonations, which were essential for reading aloud. This practice laid the foundation for modern punctuation, which became more standardized with the advent of the printing press.

Punctuation serves various functional roles, influencing syntax, semantics, and pragmatics. Nunberg, Briscoe, and Huddleston (2002) in "The Cambridge Grammar of the English Language" provide a comprehensive analysis of punctuation's syntactic functions. They argue that punctuation marks are crucial in delineating sentence structures, thereby guiding readers through the complexities of written text.

Lynne Truss' "Eats, Shoots & Leaves: The Zero Tolerance Approach to Punctuation" (2003) popularized the discussion of punctuation's semantic and pragmatic roles. Truss emphasizes how punctuation can alter meaning and affect interpretation, using humorous examples to illustrate common punctuation errors and their consequences. Her work underscores the importance of correct punctuation in preserving the intended meaning and preventing ambiguity.

Comparative studies on punctuation across different languages reveal significant variations and unique features. Crystal (2004) in "The Stories of English" discusses the specific

rules governing English punctuation and compares them with practices in other languages. Crystal's work shows that while some punctuation marks, like periods and commas, are universally used, their application can differ widely.

Research methodology. Punctuation and Features: Punctuation markings provide visual indicators for written language structure, organization, and intonation. They work with linguistic elements including sentence structure, word order, and discourse markers to efficiently express meaning. For example, putting a question mark at the end of a sentence denotes interrogative syntax, whereas commas help to separate clauses and phrases within a sentence.

Punctuation marks help readers through the text, suggesting pauses, emphasis, and transitions. The combination of punctuation and linguistic elements aids comprehension and interpretation of written material. For example, exclamation marks indicate enthusiasm or emphasis, but colons initiate lists, explanations, or citations. Furthermore, the intentional arrangement of punctuation marks can affect a sentence's rhythm and tone, influencing how the reader perceives and understands it. Thus, understanding the relationship between punctuation and linguistic elements is critical for efficient communication and textual coherence.

Features of punctuation. Punctuation marks have both grammatical and logical aspects. Grammatical features include commas, periods, and semicolons, all of which follow established syntax and sentence structure standards. Logical features, on the other hand, are the placement and purpose of punctuation marks in conveying content, emphasis, or rhetorical effect.

Analysis and results. Grammatical elements include the use of periods to indicate the end of a phrase, commas to separate items in a list or clauses in a complicated statement, and semicolons to join closely related independent sentences. These markings follow precise grammatical rules and norms, which improves the text's clarity and coherence. On the other hand, logical aspects include the intentional placement and use of punctuation marks to convey content, accentuate specific elements, or generate stylistic effects. For example, ellipses (...) can represent a pause or omission of thoughts, whereas dashes (-) can highlight a point or introduce a parenthetical remark. Writers can effectively communicate their desired message while engaging readers with precise and subtle expression.

The Importance of Grammatical and Logical Features: Writing clarity and coherence requires adherence to linguistic conventions and syntactic rules. Meanwhile, logical elements help to improve comprehension and convey subtle meanings by indicating pauses, emphasis, or transitions in the text. Grammatical and logical elements are both necessary for effective punctuation since they help the writer and the reader communicate more effectively.

Grammatical elements guarantee that written language follows established rules and practices, enhancing clarity and coherence in communication. By adhering to syntactic norms, writers can create sentences that are both grammatically correct and understandable. On the other hand, logical aspects help readers understand and comprehend the text by leading them through its structure and stressing crucial themes. For example, the intentional use of punctuation marks can assist explain complicated ideas or give emotional depth to a story. By adding both grammatical and logical characteristics into their writing, authors can improve the efficiency of their punctuation, allowing for clearer communication and establishing a stronger connection with their audience.

Examples of Grammatical and Logical Features: Grammatical features include using periods at the end of sentences, commas to separate items in a list, and apostrophes to denote possession. Ellipses imply omission or suspense, dashes highlight a point or add a parenthetical remark, and quote marks denote direct speech or irony. These examples illustrate how grammatical features adhere to established rules of syntax and sentence structure, ensuring consistency and clarity in written communication. Meanwhile, logical features serve to enhance the expressiveness and interpretive richness of the text, allowing writers to convey nuanced meanings and engage readers on multiple levels. By mastering both grammatical and logical features of punctuation, writers can wield these tools effectively to craft compelling narratives, persuasive arguments, and engaging prose.

Conclusion. To conclude, punctuation marks align with linguistic principles, improving written language clarity, consistency, and expressiveness. Understanding the grammatical and logical aspects of punctuation is critical for good communication because it allows authors to express meaning, structure content, and engage readers effectively. By considering the relationship between linguistic features and punctuation, analyzing examples, and reviewing relevant research, we can deepen our understanding of the role of punctuation in written communication. Whereas grammatical aspects enforce linguistic rules for clarity and consistency, logical factors improve text understanding and interpretation by guiding readers and underlining crucial ideas. The intentional use of punctuation marks, as demonstrated by both grammatical and logical qualities, can clarify difficult ideas and provide emotional depth to a story. By mastering these characteristics, authors may use punctuation more successfully, resulting in clearer communication and deeper connections with their audience. Thus, understanding and applying both grammatical and logical punctuation elements are critical for efficient written communication.

REFERENCES

1. Chomsky, N. (1957). Syntactic Structures. The Hague: Mouton.
2. Crystal, D. (2006). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Lakoff, G. (1971). Linguistics and Natural Logic. Chicago: University of Chicago Press.
4. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman.
5. Schiffrin, D. (1987). Discourse Markers. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Trask, R. L. (1999). Key Concepts in Language and Linguistics. London: Routledge.
7. Yule, G. (2016). The Study of Language. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Crystal, D. (1997). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Pinker, S. (1994). The Language Instinct. New York: William Morrow and Company.
10. O'Grady, W., Dobrovolsky, M., & Aronoff, M. (1993). Contemporary Linguistics: An Introduction. New York: St. Martin's Press.
11. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
12. Jackendoff, R. (2002). Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution. Oxford: Oxford University Press.
13. Hopper, P. J., & Thompson, S. A. (1980). Transitivity in Grammar and Discourse. Language, 56(2), 251-299.

Sevara ABDURAXMONOVA,
O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sevarmuhammad10102020@gmail.com

O'zMU professori M.Kurbonova taqrizi asosida

ISSUES OF IMPROVING LEXICAL COMPETENCE OF B2 LEARNERS USING ONLINE DIGITAL TOOLS IN LINGUISTIC UNIVERSITIES

Annotation
This article explores the challenges and potential solutions in enhancing the lexical competence of B2 learners through the utilization of online digital tools within linguistic universities. By examining the current issues faced by students at this proficiency level, as well as the benefits and drawbacks of incorporating technology into language learning, this study offers insights into effective strategies for improving vocabulary acquisition in a digital age. Through a blend of theoretical analysis and practical considerations, the research aims to provide educators with valuable recommendations for optimizing language instruction and fostering greater linguistic proficiency among B2 learners in academic settings. Besides article discusses the most prominent scientists' research in the field. To achieve concrete results, the researcher used interviews, observation, experiments, and statistical methods.
Key words: Lexical competence, online digital tools, active level, passive level, Lexical knowledge, CALL, language proficiency, idiomatic competence.

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ B2 С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ОНЛАЙН-ИНСТРУМЕНТОВ В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Аннотация
В данной статье рассматриваются проблемы и потенциальные решения, связанные с повышением лексической компетенции студентов уровня B2 посредством использования цифровых онлайн-инструментов в лингвистических университетах. Изучая текущие проблемы, с которыми сталкиваются студенты на данном уровне владения языком, а также преимущества и недостатки внедрения технологий в процесс обучения языку, данное исследование предлагает взглянуть на эффективные стратегии для улучшения усвоения лексики в цифровую эпоху. Благодаря сочетанию теоретического анализа и практических соображений исследование призвано дать педагогам ценные рекомендации по оптимизации преподавания языка и содействию повышению уровня владения языком среди учащихся B2 в академической среде. Кроме того, в статье рассматриваются исследования наиболее известных ученых в данной области. Для достижения конкретных результатов исследователь использовал интервью, наблюдение, эксперименты и статистические методы.
Ключевые слова: Лексическая компетенция, цифровые онлайн-инструменты, активный уровень, пассивный уровень, лексические знания, CALL, владение языком, идиоматическая компетенция

LINGVISTIK UNIVERSITETLARDA RAQAMLI ONLAYN VOSITALARDAN FOYDALANGAN HOLDA B2 TALABALARINING LEKSIK KOMPETENTSIYASINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya
Har qanday jamiyat vakillari uchun borliq va unda shu kecha-kunduzda kechayotgan jarayonlar haqida aniq axborot olish va uning xolisligini tekshirish muhim hisoblanadi. Buning uchun har qanday til egalarining bugungi kun davriga mos qulayliklaridan o‘rinli foydalanishlari, yuqori texnologiyalarga asoslangan qurilmalar orqali dunyoni kuzatishga intilishlari tabiiy holdir. Bundan tashqari, globallashgan Internet tarmog‘idan informatsiya olish, uzatish va munosabat bildirish engil va ziddiyatli tusga kirayotgani holda axborotning tildan tilga uzatilishida retsipientlarning o‘z maqsad-manfaatlaridan kelib chiqib, so‘zlarni rang-barang talqin qilish imkoniyati mavjudligi ham muhokamali masalaga aylanmoqda.

Uzatilayotgan axborotlar ijtimoiy tarmoqlardan o‘zga tarmoqlarga tez va qisqa fursatlarda ko‘char ekan, shu asnoda so‘zlarning tildan tilga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tishi jarayoni ham tezlashib bormoqda. Natijada begona til so‘zlarining yangi tilga o‘tishida milliy til tabiatining manfaati hisobga olinmayapti. Aniqroq aytganda, o‘zlashayotgan so‘zga tildagi munosib muqobillarini izlash, kalkalash usuli, tilda mavjud so‘zlarga yangi ma’no yuklash – polisemiya hodisasi, tilning ichki imkoniyati asosida yangi so‘z yasash imkoniyati kabi omillar chetda qolyapti.

To‘g‘ri, yangi bir so‘zning ijtimoiy tarmoq, messenjerlar va undagi faollar tilida ko‘chib yurgani bu so‘zlarning leksikaga munosib o‘rnashdi, degani emas. Lekin ularning ta’siri millionlab insonlar ongiga chuqur kirib boradi, ularning tarmoqdan tarmoqqa takrorlanishi esa bu insonlar uchun shu so‘zlar qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Afsuski, ijtimoiy tarmoq faollari tomonidan axborotlarni uzatishda chellenj sifatida qabul qilinayotgan yangi so‘zlarning xalq orasida ommalashish ta’siri yuqori bo‘lyapti. Aniqroq aytganda, ko‘p sonli tarmoq kuzatuvchilarining bu kabi yot so‘zlarni ko‘r-ko‘rona qabul qilishga ko‘niktirib qo‘yayotgani, til egalari saviyasining kundan kunga pasayishi uchun xizmat qilayotgani ham ayni haqiqatdir. Bu hodisa blogerlarning ma’lumot uzatishlari uchun qulay engillik yaratsa-da, biroq til manfaati uchun kelajakdagi murakkab muammo va xavflarni paydo qilish ehtimoli yuqori hisoblanadi. Bugungi kun yangi o‘zlashmalari “O‘zbek tili izohli lug‘ati”ga nutqdagi ishlatilish ko‘lamidan kelib chiqib kiritilmasligi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, bu lug‘atda “... G‘arbiy Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar soni 2828 so‘zni tashkil qiladi”[6].

Tilshunos olim N.Mahmudov tilda o‘zlashma so‘zlar me’yori va milliylik masalasini ko‘tarar ekan, “Bundan 130 yil ilgari mashhur olmon tilshunosi Herman Paul o‘zining “Til tarixi tamoyillari” kitobida geografik nomlar va atoqli otlar, shuningdek, xorijdan olib kelinayotgan tovarlar nomlari eng ko‘p o‘zlashtiriladigan so‘zlar bo‘lishini”[7] ta’kidlaydi. Albatta, buning isboti bugungi kun har qanday til leksik zaxirasini taftish qilishda osonlik bilan namoyon bo‘lishi tabiiy hol.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martdagi “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son Qaroriga muvofiq “... davlat tili qoida va me’yor lariga muvofiq keladigan, milliy qadriyatlarga mos hamda obyektlarga qo‘yish tavsiya etiladigan nomlar zaxirasini onlayn rejimida shakllantirish hamda uni doimiy yangilab borish”[8] talabi ham kun tartibidagi dolzarb masalalardan biridir.

Lug‘at boyligimizda paydo bo‘layotgan yangi birliklar orasida toponimlarning o‘rni ham salmoqli. N.Isakova ta’kidlaganidek, “...yangi aholi paydo bo‘lganda, yangi mikrotoponimlar paydo bo‘ladi, bular onim-neologizmlardir”[9;75].

Sog'lom raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida kompaniya yoki mahsulotga nom tanlash yoki ularni tartibga solish muhim masala bo'lib, bu jarayon marketologiyada tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslar tomonidan uzoq muhokamalarda bo'ladi.

Ma'lumki, tadbirkorlik bilan endigina shug'ullanishni boshlayotgan shaxslar kompaniya yoki mahsulotlarga nom tanlashda ayrim qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Ularning nazarida go'yo obyekt uchun leksikadagi nomlar allaqachon tanlab bo'lingan, yangi nomlar uchun esa tilda munosib muqobil birliklar topilmay qolganday tasavvur paydo bo'ladi. Biroq muayyan mahsulot yoki kompaniyani tanilishi uchun jarangdor nomning o'zigina etarli bo'lmaydi. Avvalo, yangi mahsulot va kompaniyani tanitish uchun tanlanadigan munosib nom maqsadga erishish uchun tashlangan birinchi qadami hisoblanadi. Bu pog'onaviylikka asoslangan uzoq jarayon bo'lib, ishning keyingi bosqichlari muvaffaqiyatli amalga oshmasa, ko'zlangan nom ommaning nazaridan bir "ruhsiz kalima" sifatida e'tiborsiz qolaveradi.

Kompaniya yoki mahsulotga munosib nom tanlashning muhimligini tadbirkor va ommaga tushuntirish zarur hisoblanadi. To'g'ri nom tanlashga doir umumiy va tavsiyaviy qoidalar mavjud bo'lib, ular mahsulot nomining sifati va kuchini baholashning yaxshi mezonlari hisoblanadi. Bunday tavsiyaviy qoidalar qatoriga tanlanadigan nomning: "noyobligi; jozibadorlik; yengil talaffuz; to'g'ri talaffuz; oson yodda qolishlik; yorqinlik darajasi; bozorga monandlik; narx kategoriyasiga moslik; tasavvur va o'xshatish"[10] kabi mezonlari ahamiyatli hisoblanadi.

Albatta, ishning keyingi bosqichlarida nimalar muhim bo'ladi, degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Nom orqali tanilishi nazarda tutilgan mahsulot yoki kompaniyaning mashhur brendga aylanishi uchun mahsulot yoki xizmatni oliy sifat darajasiga olib chiqish, uning bozorgirligini ta'minlash, xaridorlarni muntazam o'rgatib borish, obyekt haqida iliq tasavvur paydo qilish uchun mushtariylarbop rang-barang yondashuvli reklamalar yaratish, sog'lom raqobat jarayoniga mos strategiyalar ishlab chiqish, mahsulot yoki xizmat turini dunyo standartlariga moslashtirib borish va hokazolar talab etiladi. Agar bu jarayon ketma-ketlikda va rejali amalga oshirilar ekan, maqsad sari tanlangan nom, u qaysi so'z turkumi bo'lishdan qat'i nazar, xaridorlar uchun "ohanrabo nom"ga aylanadi. Hattoki ko'zlangan neym nafaqat ot, balki sifat yoki boshqa turkumdan tanlab olingan bo'lsa ham, uning jozibasi oshsa, oshadiki, kamaymaydi.

Xulosa va takliflar. Nom tanlash o'ziga xos murakkab jarayondir. "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida geografik obyektlarning nomlariga doir talablar qatorida "Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirishda mahalliy aholining fikrini hisobga olish"[11] moddasi ham mavjud. Ayniqsa, tarixiy joy nomlariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularni imkon qadar asrab-avaylash muhim hisoblanadi.

Xullas, nom tanlashda leksikadagi uzoq tarixiy jarayon bosqichlaridan o'tib, sayqallanib kelayotgan zaxira so'zlarimizni chetga surib qo'yib, tilimizga o'zlashib ulgurmagan xorijiy so'zlarga ko'proq murojaat qilar ekanmiz, tilning o'zida nomlash an'anasi va uning tarixiy ildizlariga darz keta boshlaydi. Natijada o'zbek tilini maishiy til darajasiga tushirib qo'yish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shunga ko'ra, tilning uzoq tarixiy nomlash an'anasini davom ettirish va unga barqaror vorislik mas'uliyati asosida avlodlarni tarbiyalash hamda shakllantirib borish o'zbek millatiga mansub barcha til egalarining muhim vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Шукуров О. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври): филол. фан. доктори (DSc) … дисс. – Қарши: 2022. – 255 б.
2. Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. Muhokamat ul-lug'atayn. – T.: G'afur G'ulom, 2013. – 692 б.
3. Холманова З. "Бобурнома" лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 176 б.
4. Давлятова Э. Мустақиллик даври ўзбек тилидаги Ғарбий Европа ўзлашмаларнинг маданиятлараро тадқиқи: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. автореф. –Термиз: 2021. –58 б.
5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. 6-сон. –Б. 3-10.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 144-сон "Савдо, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш объектларига ном беришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори. 16.03.2021. https://lex.uz/ru/docs/5334047
7. Исакова Н. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили ("Халқ сўзи" газетаси материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Самарқанд: 2020. – 143 б.
8. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Номлар тил меъёрларига мос бўлсин // Халқ сўзи, 2019 йил 22 октябрь. –Б. 4: № 218 (7748).
9. Madiyeva M. Brendlarning nominativ funksiyasi va lingvomadaniy aspekti: filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) … diss. avtoref. – Qo'qon: 2023. – 59 b.
10. https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/kompaniya_eki_mahsulotga_nom_qanday_tanlanadi
11. O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni. 2011-yil 26-avgust. https://lex.uz/acts/1881472

Laylo BAYMURADOVA,
Qarshi davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:laylob@bk.ru

QarDU dotsenti M.B.Nizomova taqrizi asosida

ANALYSIS OF SPEECH ACTIVITY AND EXPRESSION OF SPEECH STRATEGY
Annotation

In world linguistics, special attention is paid to the analysis of the purpose of communication, effectiveness of speech, national-cultural characteristics of speech, communicative strategy for the purpose of communication, speech strategy, expressive methods of communicative tactics, and pragmatic tasks. From this point of view, studying them in a cross-linguistic comparative direction acquires important practical importance with the relevance of determining the linguistic and cultural features of communicative methods in each language, national means of expression, text and discourse pragmatics, and communication strategy related to the psycho-emotional impact of speech events in the language.

Key words: communication in linguistics, effectiveness of speech, national-cultural characteristics of speech, communicative strategy aimed at the purpose of communication, speech strategy, methods of expression of communicative tactics, analysis of pragmatic tasks.

NUTQIY FAOLIYAT TAHLILI VA NUTQIY STRATEGIYA IFODASI
Annotatsiya

Jahon tilshunosligida muloqot maqsadi, nutqning ta'sirchanligi, nutqning milliy-madaniy xususiyatlari, muloqot maqsadidan ko'zlangan kommunikativ strategiya, nutq strategiyasi, kommunikativ taktikalarning ifodalanish usullari, pragmatik vazifalari tahliliga alohida e'tibor qaratiladi. Shu nuqtai nazardan ularni tillararo qiyosiy yo'nalishda o'rganish tilda nutqiy hodisalar psixoemotsional ta'sirchanligiga taalluqli milliy ifoda vositalari, matn va diskurs pragmatikasi va muloqot strategiyasi har bir tildagi kommunikativ usullarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashning dolzarbligi bilan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tilshunosligida muloqot, nutqning ta'sirchanligi, nutqning milliy-madaniy xususiyatlari, muloqot maqsadidan ko'zlangan kommunikativ strategiya, nutq strategiyasi, kommunikativ taktikalarning ifodalanish usullari, pragmatik vazifalari tahlili.

АНАЛИЗ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ВЫРАЖЕНИЕ РЕЧЕВОЙ СТРАТЕГИИ
Аннотация

В мировой лингвистике особое внимание уделяется анализу цели общения, эффективности речи, национально-культурных особенностей речи, коммуникативной стратегии с целью общения, речевой стратегии, экспрессивных способов коммуникативной тактики, прагматических задач. С этой точки зрения их изучение в межъязыковом сравнительном направлении приобретает важное практическое значение с актуальностью определения лингвокультурологических особенностей коммуникативных способов в каждом языке, национальных выразительных средств, прагматики текста и дискурса, стратегии общения, связанных с ним. к психоэмоциональному воздействию речевых событий на языке.

Ключевые слова: общение в лингвистике, эффективность речи, национально-культурные особенности речи, коммуникативная стратегия, направленная на цель общения, речевая стратегия, способы выражения коммуникативной тактики, анализ прагматических задач.

Kirish. Til semiotik sistema sifatida baholansa-da, uning bosh maqsadi ma'lumot yetkazish va muloqot qilish sanaladi. Aynan muloqot kishilar o'rtasidagi munosobatni ta'minlovchi, jamiyatni faollashtiruvchi vosita sifatida amal qiladi. E.Koseriu til o'z vazifasiga ega hodisalar turkumiga tegishli, degan g'oyani takomillashtirgan holda "til – sistema ekanligi uchun emas, balki, ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun bajaradigan o'z vazifasiga ega sistema sanaladi"[1] degan fikrni ilgari suradi. O'z navbatida til va nutq masalasiga ham oydinlik kiritib o'tish muhim sanaladi. Til muloqot jarayonida birgina muloqotni ta'minlab qolmasdan, axborot yetkazuvchi, insonlarning ichki va tashqi emotsiyalarini namoyish etuvchi, inson psixologiyasini verbal ko'rinishini ta'minlovchi, muloqotchilarning dinamik xarakterdagi o'zaro munosabatni ko'rsatuvchi kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga til muloqot ishtirokchilariga emotsional, psixologik ta'sir o'tkazuvchi kuchli vosita sifatida ham baholanadi. Til resurslari nafaqat muayyan vaziyatni tasvirlabgina qolmay, balki so'zlovchi va tinglovchi uchun zarur bo'lgan olam to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish, vaziyatni idrok etish, vaziyatni boshqarish, uning ijobiy yoki salbiy baholanishini ta'minlash imkonini beradigan asosiy qurol sanaladi. Tildan bu usulda foydalanish kommunikativ strategiya tushunchasi yordamida amalga oshiriladi. Ilmiy adabiyotlardagi turli xil kontekst va ma'nolarda keng qo'llaniladigan "strategiya" tushunchasi nutq faoliyatining kognitiv qismi bilan kerakli semantik va mazmunli ma'lumotlarni tanlash va filtrlashdagi aqliy operatsiyalar yordamida amalga oshiriladigan freym shakllanishi bilan bog'liq[2]. Kommunikativ strategiya maxsus tadqiqotlarda "so'zlovchining sherigi harakatlari borasida yetarli ma'lumot bo'lmagan sharoitda optimal kommunikativ vazifalarni hal qilishga qaratilgan muloqotning kognitiv rejasi"[3] sifatida izohlar berildi. Kommunikativ strategiyani ehtimoliy ma'lumotlarga asoslanilgan holda til vositalaridan vazifani yechish uchun samarali foydalanish usuli sifatida baholash mumkin. Muloqot jarayonida ishtirokchilar o'zaro munosabatlar tengligini ta'minlash uchun kommunikativ maqsadga mos keladigan harakatlar rejasini tuzadilar va ushbu rejani amalga oshirish imkonini beradigan lisoniy vositalarni tanlaydilar. Kommunikativ maqsad ifodasi ikki yo'sinda kechishi ma'lum. Bularning biri intensiyaning yashirin ifodasi bo'lsa, ikkinchisi fikrni ochiq izhor qilishdir[2]. Odatda, ma'lum kommunikativ maqsadga erishish uchun adresant oldindan muloqot, suhbat kechimini ta'minlovchi asosiy lisoniy vositalardan foydalanish, fikrlarini bayon etish usullarini rejalashtiradi. Ba'zi hollarda (to'g'ridan to'g'ri maqsadga qarab) suhbatni rivojlantirishning asosiy variantlarini emas, balki o'ziga xos kommunikativ xarakatlarni ham e'tiborga olish juda muhim sanaladi. Bu esa muloqot qurilishining strategiyasi vazifasini bajaradi. Mazkur vaziyatlarda, bir yoki bir necha muloqot strategiyasini tanlash imkoni yuzaga keladi. Kommunikativ strategiya alohida nutq taktikasi va kommunikativ harakatlarga aylanadi. Nutqning taktikasi doirasida muloqot strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan bir yoki bir nechta

xarakatlarda o'z aksini topadi. Ko'rinadiki, har qanday muloqot o'z vazifasiga ko'ra "strategik ahamiyatga ega"[3], chunki, shaxslar tomonidan quriladigan muloqot ma'lum maqsad asosida olib boriladi. Maqsad kommunikativ hatti-harakatlar vositasida ko'zlanilgan rejani amalga oshirish hisoblanadi. Ko'zlanilgan maqsad asosida tilning ifoda birliklari tanlanadi hamda ma'lum strukturaga solinadi. Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ strategiyani aniqlashda turlicha yondashuvlar, ularning tasnifidagi xilma-xillikni kuzatish mumkin. Shuning uchun ham kommunikativ strategiya nutq faoliyati va ijtimoiy faoliyatning barcha sohalariga aloqador hodisa sanaladi. Shuningdek, muloqot kommunikativ jarayonning samarali kechimi, muloqotdoshga ta'sir doirasi, mavjud shart-sharoitga bog'liqligi, vaziyat taqozosi nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Muloqot jarayonida qo'llaniladigan kommunikativ strategiya muloqot vositalarining barcha sathlarini qamrab oladi. Jumladan, muloqotning formal kechimi, muloqot mazmuni, muloqotdoshlarning ijtimoiy statusi, kognitiv-psixologik omillar, tildagi semantik-pragmatik vositalar, muloqot vaziyati kabilar kommunikativ strategiyani belgilaydi. Muloqot strategiyasi, o'z navbatida, nutqiy strategiyani yuzaga keltiradi. Nutqiy strategiya muloqotdoshlar tomonidan qo'llaniladigan til birliklarining pragmatik, stilistik, semantik tanlovi hisoblanadi. Muloqotning pragmatik mazmuni, muloqot jarayonida nutqiy strategiya nazariyasiga bag'ishlangan aksariyat ishlarda[4] nutq va kommunikativ strategiya tushunchalari alohida hodisa ekanligiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, mazkur tushunchalarni sinonim sifatida baholagan ishlarga ham[5] guvohi bo'lishimiz mumkin. Fikrimizcha, mazkur tushunchalarning ifoda usuli, vaziyatga aloqadorligi, ifodalanish jarayonini e'tiborga olgan holda alohida talqin qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Chunki, muloqot jarayoni juda keng qamrovli bo'lib, u og'zaki muloqotning turli aspektlari bilan bir qatorda og'zaki bo'lmagan vositalardan foydalanishni qamrab oladi. Ma'lumki, kommunikativ strategiyada nutq qurilmalari tuzilishi, pragmatik mazmun, paralingvistik vositalardan ma'lum tinglovchi yoki tinglovchilarga ta'sir ko'rsatishda, muloqot kechimini ta'minlashda, muloqot maqsadini yoritishda, muloqot maqsadini amalga oshirishda foydalaniladi. Nutq strategiyasida esa til tizimidan foydalanish keng auditoriyaga qaratiladi. Lekin, nutq vaziyati "kommunikativ strategiya" hamda "nutq strategiyasi" borasidagi farqlanishni yo'qqa chiqarishi mumkin. Chunki, nutq vaziyati ular o'rtasidagi fundamental farqni yuzaga keltirmasligi mumkin. Shuning uchun ham nutq vaziyati bilan bog'liq tarzda yuzaga keladigan hollarda har ikkala atamaning ham qo'llanilishini hisobga olgan holdagina ushbu terminlarni sinonimlar sifatida baholash mumkin.

Sh. Safarov ta'kidlashicha, muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan «hamkor»ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo'ysundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi[6]. Bu jarayon kommunikativ maqsadni qo'yilishini yuzaga keltiradi. Kommunikativ maqsadning qo'yilish darajasiga ko'ra aniq, xususiy va umumiy kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan kommunikativ strategiya umumiy va xususiy turlarga ajratiladi. Taniqli tilshunos T. van Deyk nutqiy strategiyaning xususiy turini nutqiy harakatlar ketma-ketligida til birliklarini funksional qo'llash va bu orqali maqsadli nutqiy yurishni amalga oshirish sifatida baholaydi[7]. Nutqiy strategiya kommunikativ strategiyadan muloqot jarayonida til vositalari tanlovini samarali qo'llash bilan ham farqlanadi.

Kommunikativ strategiya, o'z navbatida, kommunikativ taktika turini ham qamrab oladi. Kommunikativ taktika muloqot jarayonining kichik kechimida nutq vositalaridan unumli foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ma'lum maqsadni amalga oshirish sanaladi. Kommunikativ strategiya esa muloqot kechimini oldindan tuzishga yo'naltirilgan umumiy maqsadli hatti-harakatlar hisoblanadi. Kommunikativ taktika kommunikativ strategiyani amalga oshirishda qo'llaniladigan til birliklari jamlanmasidan nutqiy ta'sir etish vositasi sifatida foydalanish usuli, deb baholash ham mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda, muloqotdoshga maqsadli ta'sir etishning nutqiy modelidir. Strategik mo'ljal esa nutqiy kechimni belgilovchi til vositalari va

usullarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham nutqiy strategiya va taktika bir – biri bilan chambarchas bog'liq holda amal qiladi[8].

M.L. Makarovning ta'kidlashicha, kommunikativ strategiya har qanday kommunikativ jarayondagi pragmatik modelning markazini tashkil qiladi. Shunday ekan, muloqot mazmunining pragmatik voqelanishi ma'lum strategiyalar asosida quriladi. Strategiyaning pragmatik sharoitda amalga oshirilishi tildagi kognitiv va semantik ifodasiga bog'liq bo'ladi. Bu esa kommunikativ strategiyaning pragmatik voqelanishida kommunikativ strategiyaning mohiyatini aniqlash uchun xizmat qiladi. M.L. Makarov kommunikativ strategiyaning mohiyatini belgilovchi ikkita mulohazani keltirib o'tadi: kommunikativ strategiya "so'zlovchining til vositalari va nutqiy harakatlari asosida quriladigan qarorlari ifodasining ketma-ketligi" sifatida belgilansa, boshqa tomonlama "muloqot kechimida qo'llaniladigan til vositalarning samarali amalga oshirilishidir"[9]. Demak, so'zlovchi muloqot maqsadiga erishish uchun o'ziga eng maqbul bo'lgan til vositalaridan foydalanadi, hamda u tomonidan qo'llaniladigan har bir ibora, so'z, nutq birligi ma'lum vazifani bajaradi. Bu kabi maqsadli jarayon inson ongidagi ma'lum operatsiyalar yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, kommunikativ strategiyani kognitiv hodisa sifatida tan olish talab etiladi. Bunda nutq maqsadi, nutq kechimi, til vositalari tanlovi bir-biriga mos tarzda quriladi. Mazkur jarayon shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni belgilashda, maqsadli rejalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxslararo maqsadli masalalarni hal etishda til va nutq vositalaridan samarali foydalanish talab etiladi. Mazkur hodisalarni amalga oshirish jarayoni nutq strategiyasi atamasi bilan ma'lum. T. Van Deyk tavsificha, strategiya maqsadga erishishda qo'llaniladigan nutqiy vositalarning mental ifodasi bo'lib, muloqot jarayonida yuzaga keladigan alternativlardan unumli foydalanishdir[7].

Kommunikativ strategiya tushunchasining muomalaga kiritilshi muloqot jarayoniga aloqador bo'lgan barcha, kommunikativ maqsad, kommunikativ intensiya, kommunikativ taktika, kommunikativ istiqbol, kommunikativ tajriba, kommunikativ kompetensiya kabi tushunchalarni farqlash va mazkur tushunchalarga murojaat qilishni talab qiladi[11]. Ushbu tushunchalarning izohi borasidagi qarashlar bir-biridan farq qiladi va ularni belgilashda aniq to'xtamga kelinmagan. Jumladan, Ye.V. Klyuev mazkur tushunchalarni ikki guruhga ajratib tahlil qilishni taklif etadi: kommunikativ strategiyani tashkil etuvchi va kommunikativ taktikani tashkil etuvchi. Kommunikativ strategiya muloqot maqsadiga erishishga yo'naltirilgan oldindan rejalashtirilgan nazariy yurishlar va shu jarayonda amalga oshiriladigan kommunikativ aktlar nazarda tutilsa, kommunikativ taktika haqqoniy nutq muloqoti kechimida amaliy yurishlardan foydalanish tushuniladi. Muallif, kommunikativ intensiya shaxsga tegishli bo'lib, kommunikativ strategiyani harakatga keltiruvchi tushuncha sifatida ta'riflaydi. Kommunikativ maqsad esa kommunikativ aktga yo'naltirilgan strategik reja natijasi, deb izohlanadi. U kommunikativ kompetensiya tushunchasini kommunikativ strategiyani faollashtiruvchi ma'lum shaxs yoki guruhga xos bo'lgan hodisa sifatida baholaydi. Ye.V. Klyuev ta'kidlagan tushunchalar tarkibiga kommunikativ topshiriq hodisasini ham kiritadi. Muallif kommunikativ topshiriq kommunikativ maqsadni harakatga keltiruvchi amaliy taktik yurish[12], degan izohni keltirib o'tadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, nutqiy strategiya va nutqiy maqsad alohida tushunchalar bo'lish bilan bir qatorda, ular o'zaro bog'liq tarzda amal qiladi. Jumladan, nutqiy maqsad strategik hamda taktik maqsadlardan tashkil topgan bo'ladi. Nutqiy strategik maqsad butun nutq vaziyatini qamrab olsa, taktik maqsad nutq vaziyatida alohida nutqiy yurishlarni amalga oshirish bilan maqsadga erishish sanaladi. Muloqot – maqsadli faoliyat va bu faoliyat doirasida bajariladigan har bir harakat ham o'z maqsadi, intensiyasiga ega[6] sanaladi.

Kommunikativ strategiya biror masalani amalga oshirish uchun sahna ko'rinishi tarzida ham qurilishiga qiyoslash mumkin. Bunda, maqsad va nutq harakatlari ketma-ketligi oldindan tuziladi hamda adresatning nutqiy va psixo-emotsional harakatlari taxminiy ishlab chiqiladi. Nutqiy vaziyat adresant tomonidan boshqariladi. Mazkur jarayon ijtimoiy, siyosiy, kundalik hayotiy,

kommunikativ, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda keng qo'llaniladi. Unda qo'llaniladigan nutqiy tuzilmalar, foydalaniladigan til birliklar tanlovi oldindan tuzib chiqiladi. O'z navbatida, kommunikativ strategiya ijtimoiy faoliyatning barcha qatlamlarida keng qo'llanilishi barobarida, u lingvomadaniy asoslarga ham ega. Shuning uchun ham kommunikativ strategiya bilan bog'liq tadqiqotlar alohida tillar yoki qiyosiy tipologik miqyosida amalga oshirilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, O.I. Issers "Коммуникативные стратегии и тактики русской речи"[3] ishida rus lingvomadaniyatiga xos bo'lgan nutqiy strategiya va taktikalarni tahlil qiladi. O'z navbatida, muallif kommunikativ strategiyaning umumiy va xususiy tomonlarini ham yoritib beradi. O.I. Issersning ta'kidlashicha, nutqiy strategiyaning samarali kechimi ijtimoiy hamkorlikning natijasi yoki oqibatlari bilan belgilanadi. Bunda, olingan natija maqsadli, rejali bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmaydi[3]. Nutqiy strategiyaning asosini tashkil qiluvchi omillar sifatida so'zlovchi va shuningdek adresatning maqsadli hatti-harakatlari hamda ma'lum vaziyatda kerakli yo'lni tuta bilish imkoniyatlari, vaziyatga moslashishi, nutqiy ifodani vaziyatga mos kechimda davom ettirish kabilar tashkil qiladi.

Xulosa. Kommunikativ va nutqiy strategiya borasida amalga oshirilgan nazariy manbalar asosida, ishimiz badiiy adabiyotlardan olingan misollar tahlili bilan bog'liqligi sabab,

nutqiy va kommunikativ strategiyaga oid tadqiqotimizni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirishni joiz deb topdik: kommunikativ strategiyani tashkil qiluvchi til va nutqiy birliklar tahlili; nutqiy strategiyani tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi lisoniy vositalar doirasida tahlilni olib borish; nutqiy strategiyani kognitiv modellashtirish orqali muloqotdoshlarning maqsad va vazifalarini aniqlash, nutq kechimini tahlil qilish; muloqot maqsadi natijasiga erishilishda lisoniy birliklarning samarali qo'llanilishi; nutqiy strategiyani amalga oshirilishida semantik tarkibning voqelanishi; muloqot kechimini muvaffaqiyatini ta'minlovchi pragmatik hodisalarning samarali ishtiroki; muloqotdoshlarning psixo-emotsional vaziyatida nutqiy strategiyaning unumli qo'llanilishi; so'zlovchi va tinglovchining nutq vaziyatidagi taktik ifoda usullari; nutqiy strategiyani amalga oshirishda ritorik, sintaktik strategiyalardan foydalanish usullari va imkoniyatlari; nutqiy strategiyani amalga oshirishda mavzuni o'zgarish strategiyasidan samarali foydalanish jihatlari. Umuman olganda, kommunikativ strategiyani adresant tomonidan aniq maqsadni amalga oshirishda ishlatiladigan hamda muloqot jarayonida muloqotdoshga yo'naltirilgan verbal va noverbal xatti-harakatlarning kombinatsiyasi sifatida nazarda tutamiz. Boshqa tomondan esa, bu puxta ishlangan, muvaffaqiyatni ta'minlaydigan, muloqotdosh fikri va muloqot jarayonini mohirlik bilan boshqaradigan kommunikativ taktikalar majmui sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Косериу Э., "Синхрония, диахрония и история: Проблема языкового изменения" Серия: Лингвистическое наследие XX века. – Пер. с исп. Изд. 3., 2010. – С. 156.
2. Сафаров Ш. Лингвистика дискурса, 2018. – С. 209
3. Иссерс, О. С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи, 2008. – С. 263.
4. Астафурова Т. Н., Стратегии коммуникативного поведения в профессионально-значимых ситуациях межкультурного общения: Лингвистический и дидактический аспекты: диссертация - Москва, 1997. – С. 24. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику. М., 2001. – С. 45. 3. Белова А. Д. Лингвистические аспекты аргументации: Лингвистика. Теория коммуникации. Английский язык / А. Д. Белова . – 2-е изд. – К.: Логос, 2003. – С. 34.
5. Димова Г.В. Основные стратегии французского университетского педагогического дискурса: дисс. … канд. филол. наук: спец. 10.02.05-Иркутск, 2004. – С. 43.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т. - 2008. –Б. 58.
7. Т. А. ван Дейк, Язык. Познание. Коммуникация - Москва: Прогресс, 1989. – С. 274.
8. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. В поисках новых путей развития лингвострановедения: концепция рече-поведенческих тактик. – М., 1999. – С. 84.
9. Макаров М.Л. Основы теории дискурса. М., 2003. – С. 200.
10. Teun A. Van Dijk, Strategies of Discourse Comprehension. - New York: Academic Press – 1983. – P. 89.
11. Григорьева, В.С.Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивный аспекты: монография / В.С. Григорьева. – Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2007. – С. 88.
12. Клюев, Е.В. Речевая коммуникация : учеб. пособие / Е.В. Клюев. – М. : ПРИОР, 1998. – С. 10.
13. Людерс Т. М. Актуальные тенденции объективизации регулятивных стратегий и тактик в англо и немецкоязычном публицистическом дискурсе Новосибирск: СибАК, 2011. – С. 23 – 33.

UDK:372.8

Марина БАЛЯСНИКОВА,
Старший преподаватель кафедры Самаркандский государственный институт иностранных языков
E-mail:balyasnikovam@mail.ru

По отзыву доктор филологических наук, доцент Т.Кучкаров

ZOOSYMBOLS IN ENGLISH PHRASEOLOGY
Annotation

The article is dedicated to the analysis of word-symbols that include the meaning of phraseological units (hereinafter - PU) of a non-paroemial and non-phraseological character. Their usage in phraseological research expands the range of the described meanings of a word, makes it possible to trace the relationship of secondary figurative meanings in the sense structure of a word, gives way to the analysis of a polysemantic word through the semantics of set expression.

Key words: zoosymbol, zoonym, zoosemism, component-symbol, word-symbol, symbolic meaning of a word, image, imagery associations, connotation, metaphorization, expressive and figurative usage of words, secondary figurative nomination, indirect nomination, occasional symbolism, phraseologically bound meaning, PU, background knowledge.

ЗООСИМВОЛЫ В АНГЛИЙСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ
Аннотация

Статья посвящена анализу слов-символов, включающих в себя значение фразеологических единиц (далее - ФЕ) непаремийного и нефразеологического характера. Их использование во фразеологических исследованиях расширяет круг описываемых значений слова, даёт возможность проследить взаимосвязь вторичных образных значений в смысловой структуре слова, открывает путь постижения многозначности слова через семантику устойчивой единицы.

Ключевые слова: зоосимвол, зооним, зоосемизм , компонент-символ, слово-символ, символическое значение слова, образ, образные ассоциации, коннотация, метафоризация, экспрессивно-образное употребление слов, вторичная образная номинация, косвенная номинация, окказиональная символика, фразеологически обусловленное значение, ФЕ, фоновые знания.

INGLIZ FRAZEOLOGIYASIDA ZOOSIMVOLLAR
Annotatsiya

Maqola paremik bo'lmagan va frazeologik bo'lmagan xarakterdagi frazeologik birliklarning (bundan keyin FB deb ataladi) ma'nosini o'z ichiga olgan so'z belgilarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Frazeologik birliklarning tadqiqotlarda ishlatilishi so'zning tasvirlangan ma'nolari doirasini kengaytiradi, so'zning semantik tuzilishidagi ikkilamchi majoziy ma'nolarning munosabatlarini kuzatishga imkon beradi, barqaror birlik semantikasi orqali so'zning noaniqligini tushunishga yo'l ochadi.

Kalit so'zlar: zoosimvol, zoonim, zoosemizm, komponent-belgi, so'z-belgi, so'zning ramziy ma'nosi, obraz, majoziy birlashmalar, ma'no, metaforizatsiya, so'zlarning yekspressiv-majoziy ishlatilishi, ikkilamchi obrazli nominatsiya, bilvosita nominatsiya, okkazional ramziy ma'no, frazeologik shartlangan ma'no, FB, fon bilimlari.

Введение. В языковой системе наряду со стилистически нейтральными единицами, ориентированными прежде всего на выражение понятийно-логического значения и способными приобретать эмотивно-образную функцию только в результате индивидуального речевого употребления, существует относительно немногочисленная группа других единиц, стилистически маркированных в том смысле, что передача ими эмотивного или образного значения свойственна им именно как элементам системы и неизменно имеет место при их актуализации в речи. Эти единицы можно назвать системно-экспрессивными. Кроме указанного выше характера семантики, системно-экспрессивные единицы, как правило, отличаются определённой структурной аномальностью, в частности необычностью, нестандартностью своего строения. Наибольшее количество таких единиц содержится, естественно, в лексике и фразеологии. Идея слов-символов получила распространение в литературоведении, где изучается в основном окказиональная, носящая чаще речевой характер символика языка писателей и поэтов. И хотя многие речевые символы базируются на ставшими традиционными ассоциациях, тем не менее они носят окказиональный характер, так как не всегда являются узуально закрепленными языковой системой.

Методы исследования. В настоящей работе при описании системно-экспрессивных единиц (зоосимволов) основными методами исследования выступают:1) выделение идеографических группировок, 2) дистрибутивный анализ, 3) метод минимального компонентного анализа экспрессивно-образных (символических) значений.

Результаты исследования. Вопрос о происхождении поэтической символики был впервые поставлен Н.И.Костомаровым [9-10], который рассматривает символику как стилистическую категорию, которая представляет собой отличительную особенность народной лирики. Взгляды Н.И.Костомарова сложились под сильным влиянием немецких романтиков, так он ставит и решает вопросы происхождения и развития народной символики как образного отражения народного духа, народного мышления. "Народные символы, - писал Н.И.Костомаров, - расположенные в системе, составляют символику народа, которая служит нам важным источником для уразумения его духовной жизни" [9, 26] . В работе "Об историческом значении русской народной поэзии" [9] Н.И. Костомаров высказывается о причинах возникновения отдельных песенных символов и их связи с народным бытом. Вопрос о народной символике рассматривается и А.А. Потебней [12]. А.А.Потебня объясняет происхождение и развитие символики закономерностями развития языка в целом. Слово, в трактовке А.А.Потебни, - это символ понятия, поэтому отделить рождение символики от общего становления языка невозможно. Любое слово таит в себе образ, любой символ соотносится с мифом, нужно только уметь увидеть и то и другое через вековые напластования, поскольку одновременно с лексическим ростом языка исчезает "первоначальное впечатление, выраженное словом". "Потребность восстановить забываемое собственное значение

слов” была одной из важнейших причин образования символов [12, 1, 2].В термин “символ” различные авторы вкладывают разное содержание. Например, В.И.Еремина дает определение символа применительно к песенному жанру как “устойчивого, строго дифференцированного по содержанию представления, вызывающего постоянный круг ассоциаций в определенной поэтической системе” [8]. Конец этой дефиниции “в определенной поэтической системе” не подходит для рассмотрения узуально закрепленных слов-символов, скорее следует говорить “в рамках определенного языка”. В остальном можно согласиться с указанным определением, так как в нем отражена сущность рассматриваемого явления. Символы, как правило, однозначны и строго дифференцированы по содержанию, что рождает устойчивость и приводит к образованию символа. Этому способствует частота использования образа. Широта образа, его большая ёмкость препятствует фиксации строго постоянных ассоциаций, а следовательно, образованию символа. В отдельных лингвистических работах, [7] под символом понимают возможности значений, проявляющиеся в различных устойчивых сочетаниях слов. Из такого понимания символа логически вытекает положение о взаимосвязи фразеологически обусловленных значений с самостоятельными экспрессивно-образными употреблениями слов. Однако такое понимание символа не подразумевает возможности самостоятельного развития символа, не реализующегося в разного рода сочетаниях слов.Под словами-символами мы понимаем слова как в их самостоя-тельном употреблении, так и в составе устойчивых словесных комплексов, которые вызывают в сознании носителей языка характерные для данного языка устойчивые узуально закрепленные образные ассоциации. Проследить некоторые закономерности образования и функционирования слов-символов является задачей данной статьи.Материалом служат зоосемизмы (словесные обозначения животных) и устойчивые единицы, в которые они входят. Появление и функционирование слов-символов в языке обнаруживает связь с образами, сложившимися и функционирующими (или функционировавшими) в составе устойчивых единиц. Совместный анализ устойчивых единиц различных структурных типов позволяет проследить взаимосвязь единиц, возникших в результате вторичной образной и косвенной номинации, раскрывает новые оттенки значения устойчивых словесных комплексов. ФЕ и символические значения слов связаны воедино тем обстоятельством, что, будучи результатом вторичной образной и косвенной номинации, они вызывают в сознании говорящих часто перекрещивающиеся образные ассоциации. Совместное их рассмотрение позволяет дать более полную картину образных ассоциаций и представлений, неизбежно возникающих в сознании говорящих в процессе функционирования этих единиц.Так, многие слова-символы сложились на основе и выводятся путем анализа устойчивых единиц. ФЕ в таких случаях является источником символа. Благодаря этому процессу происходит обогащение лексики на базе фразеологии. Возникшие путем фразеологической деривации экспрессивно-образные символические значения слов часто в своем функционировании тесно связаны с ФЕ. Например, в устойчивом сочетании he won't say “Bo” to a goose (ср. русск. он мухи не обидит (компонент goose) в русском зооним муха) символизирует существо слабое, которое нетрудно обидеть. Во фразеологизме to make cow eyes зооним cow символизирует кротость, грусть. В устойчивых сочетаниях sheep's eyes; to make /cast/ sheep's eyes зооним sheep символически обозначает влюбленность. В ряде таких устойчивых сочетаний, как to lose the sheep for a ha'porth of tar; as well as he hanged for a sheep as for a lamb , зооним sheep имеет иное значение: он символизирует нечто ценное. Подобного рода фразеологически обусловленные значения носят символический характер. Такие компоненты-символы часто представляют собой стяженные фразы, обозначающие меткую характеристику лица на основе образа, возникающего при актуализации устойчивых сочетаний слов.

Часто слова-символы, реализующиеся во фразеологически обусловленных значениях, соединены в составе устойчивой единицы противопоставлением. Например, flies go to the lean horse; hares may pull dead lions by the beard; baited cat may grow as fierce as a lion. В данных фразеологизмах компоненты fly, hare, cat символизируют слабое и трусливое существо; зоосимволы horse и lion, наоборот, обозначают сильного человека. Противопостав-ление малого большому заключено в символических употреблениях зоосемизмов ox, calf, cow в следующих устойчивых сочетаниях слов: better an egg in peace than an ox in war; he that will steal an egg will steal an ox; if you agree to carry the calf they'll make you to carry the cow.

Противопоставление слабого сильному символически обозначено во многих устойчивых единицах со словами-зоонимами: a sheep among wolves; when the cat is away the mice will play; a lonely sheep is in danger of the wolf; he that makes himself a sheep the wolf will eat him; to set a wolf to keep the sheep; to give a wolf the weather to keep; to set a fox to keep one's geese.

Многие зоосимволы иногда проявляются не в одном, а в целом ряде устойчивых сочетаний слов. Функционируют они иногда одновременно не только в составе фразеологизмов, но и как самостоятельные слова-символы. Например, слово dog символически служит для обозначения существа гонимого, ведущего жалкую, беспросветную жизнь. Этот символ реализуется и в целом ряде устойчивых сочетаний слов: to lead a dog's life (existence); a dog's luck; to treat one like a dog; a dog's life; miserable dog; to stand a dog's chance; not to have a dog's chance; to die like a dog. Это же положение справедливо и для символического употребления зоонима ass. Он используется для характеристики глупого и упрямого человека и реализуется во многих фразеологизмах: all asses wag their ears; to make an ass of oneself; to make an ass of somebody; sell your ass; to be an ass for one's pains; never bray at an ass; as stubborn as an ass; jest with an ass and he will flap you in the face will his tall; ass in grain; the braying of an ass does not reach heaven; asses as well as pitchers have ears.

Образное метафорическое использование в одном и том же значении (как в самостоятельном экспрессивном употреблении, так и в составе устойчивых словесных комплексов) свойственно зоосемизмам ox и calf : оба они символизируют такое качество, как глупость: to make an ox of one: to play the giddy ox; as dull-witted as an ox; like a stuffed calf; face of dying calf.

Как следует из приведенного материала, многие пословицы, поговорки, фразеологизмы непаремийного и нефразеологического характера, а также самостоятельные условно-символические значения слов имеют единый образный стержень, т.е. отражают определенное качество, присущее предмету, иногда зафиксированное и в других языках, а иногда выделенное лишь в данном языке. Сема, отражающая это качество, зачастую носит скрытый характер и поэтому не всегда легко выделяется, но играет ведущую роль в формировании смысла многих устойчивых единиц. Совокупность таких признаков отражает характерное для данного народа представление о предмете и составляет фоновые знания говорящих на данном языке.Следовательно, многие символы реализуются во всем комплексе значений слова – в ФЕ и самостоятельных экспрессивно-образных значениях слов. Такова, как правило, форма реализации наиболее релевантного для данного коллектива, а поэтому высокочастотного признака. Указанное обстоятельство позволяет нам сделать вывод о том, что изобразительно-образные символические значения слов, ФЕ и малые жанры фольклора - пословицы, поговорки, хотя и являют собой качественно различные образования, тесно связаны друг с другом, так как имеют единую систему образов. И не случайно многие исследователи включают пословицы и поговорки в состав фразеологии. Следовательно, информативность слова неразрывно связана с информа-тивностью устойчивой единицы - если слову свойственна коннотация, то аналогичную коннотацию можно обнаружить и в других единицах - пословицах, поговорках,

фразеологизмах непаремийного характера. Однако во многих случаях область реализации символа не повсеместна, т.е. он фиксируется либо в пословицах и фразеологизмах непословичного характера, но не функционирует как самостоятельное слово-символ, т.е. является фразеологически обусловленным. С другой стороны, некоторые слова-символы могут употребляться лишь самостоятельно: их использование в определенном значении в составе устойчивых словесных комплексов не зафиксировано. Такая высокая степень символизации, абстракции является характерной для английского языка. Например, зоосемизм filly - шустрая девчонка; horse - ловелас; horsy - крикливо одетый человек в указанных значениях не употребляются в составе устойчивых сочетаний слов. Однако необходимо отметить, что форма реализации слова-символа не является существенной: поскольку символ зафиксирован в данном языке, то он входит в состав связываемых со словом ассоциаций, а значит, является частью фоновых знаний.Большой интерес представляет вопрос о том, как складываются слова-символы, что именно предопределяет процесс их становления в языке. Образование символа представляется нам процессом более

поздним, чем процесс образования метафоры. Сначала человек, сопоставляя все, что видел, устанавливал новые отношения между вещами, таким образом познавая их, и только когда эти отношения закрепились в сознании, когда они привычно стали вызывать постоянный круг ассоциаций, могли возникнуть символы. Символ - это образ, получивший определенную устойчивость, он несет отработанные веками представления. Символы, как нам представляется, - это более высокая ступень развития образности в языке. Не все образные значения слов доходят до этой ступени абстракции. Несомненно, то, что процессу символической метафоризации способствует распространенность объекта, частота соприкосновения с ним. Однако, как показывает наш материал, процессу символической метафоризации подвержены не только наименования широко распространенных, но и редких и даже экзотических животных.

Заключение. Символическая метафоризация - весьма распространенное явление в языке. Процесс символической метафоризации тесно связан с формированием устойчивого фонда языка - пословиц, поговорок, ФЕ - всем комплексом экспрессивно-образных значений слова.

ЛИТЕРАТУРА

1. Concise Oxford English Dictionary / Edited by Catherine Soanes and Angus Stevenson. – 11 ed. – Oxford: Oxford Univ. Press, 2004. – XX, 1708 p.
2. Ad. de Vries. Dictionary of Symbols and Imagery. – Amsterdam – London, 1974. – 523 p.
3. Большой фразеологический словарь русского языка / Сост. Л.В. Антонова. – М.:ООО "Дом Славянской книги", 2021. – 928 с.
4. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь/ Лит.ред. М.Д. Литвинова. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Рус.яз., 1984. – 944 с.
5. Новый Большой англо-русский словарь: В 3 т. / Ю.Д. Апресян, Э.М. Медникова, А.В. Петрова и др.; Т.1 под общ. рук. Э.М. Медниковой и Ю.Д. Апресяна; Т.2 – 3 под. общ. рук. Ю.Д. Апресяна – 3-е изд., стереотип. – М.: Рус.яз., 1998.
6. Белкина З.В. К вопросу о символическом употреблении слова // Сопоставительно-семантические исследования русского языка. – Воронеж: Изд-во Воронежск. ун-та, 1979. – С.15-19.
7. Гвоздарёв Ю.А. Основы русского фразообразования. – Ростов н/Д. : Изд-во Ростовск. ун-та , 1977.- 184 с.
8. Еремина В.И. Поэтический строй русской народной лирики. – Л.: Наука, 1978. – 184 с.
9. Костомаров Н.И. Об историческом значении русской народной поэзии. – Харьков, 1843. – 218 с.
10. Костомаров Н.И. Историческое значение южнорусского народного песенного творчества// "Беседа", кн. 4, 1870. – С. 5-68.
11. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии// История русского языка и общее языкознание (Избранные работы). Учебное пособие для студентов пед.
12. ин-тов/ Сост. проф. Б.Л. Богородский, проф. Н.А. Мещерский. – М.: "Просвещение", 1977. – С. 125-149.
13. Потебня А.А. О некоторых символах в славянской народной поэзии// Слово и миф/ Сост., подготовка текста и примеч. А.Л. Топоркова. – М.: Изд-во "Правда", 1989. – С. 285 -378. – (Сер. " Из истории отечественной философской мысли").

Ra'no BEGMATOVA,
O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.n
E-mail: rano@rambler.ru
Dilrabo MAMATAYEVA,
O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

O'zDJTU dotsenti, f.f.n L. Xaliyarov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF THE STRATEGY OF TOLERANCE IN ENSURING COOPERATION IN COMMUNICATION OF GERMAN SPEAKERS

Annotation

This article examines the role of the tolerance strategy for achieving cooperation in dialogue between native speakers of German language. At the same time, there are two tactics that are often found in communication between representatives of these people: increasing the status of the speaker and not paying attention to mistakes.
Key words: Verbal communication, native speakers of German, ensuring cooperation, tolerance strategy, tactics.

ЗНАЧЕНИЕ СТРАТЕГИИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КООПЕРАЦИИ В РЕЧЕВОМ ОБЩЕНИИ НОСИТЕЛЕЙ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье рассматривается роль стратегии толерантности для достижения сотрудничества в диалоге между носителями немецкого языка. При этом выделяют две тактики, часто встречающиеся в общении представителей немецкого народа: повышение статуса говорящего и не обращать внимание на ошибки.
Ключевые слова: Речевое общение, носители немецкого языка, обеспечение кооперации, стратегия толерантности, тактики.

NEMISZABON SO'ZLOVCHILAR NUTQIY MULOQOTIDA KOOPERATSIYANI TA'MINLASHDA TOLERANTLIK STRATEGIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemiszabon so'zlovchilari orasida bo'lib o'tadigan muloqot davomida kooperatsiyaga erishish maqsadida tolerantlik strategiyasi qo'llanilishining o'rni to'g'risida so'z yuritilgan. Bunda nemis xalqi vakillari muloqotida ko'p uchragan ikki taktika: so'zlovchining mavqeini ko'tarish hamda xatoga ko'z yumish kabilar ajratilgan.
Kalit so'zlar: Nutqiy muloqot, nemiszabon so'zlovchilar, kooperatsiyani ta'minlash, tolerantlik strategiyasi, taktikalar.

Kirish. Lingvistik kooperatsiya mavzusi tilshunoslikda nutqiy muloqot jarayonini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ strategiya va taktikalar ushbu jarayonning asosiy unsurlari hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Strategiyalarning asosiy vazifasi nutqiy jarayonlarni "boshqarish, prognoz qilish va rejalashtirish" kabi jarayonlarni o'z ichiga olishi belgilanganligi ushbu strategiyalarning universal mohiyatidir [1], chunki ular har qanday kommunikativ vaziyatda samarali muloqotni ta'minlash uchun moslashuvchan yondashuvlarni talab qiladi. Ye.A. Kuznetsovaning ta'kidlaganidek, strategiyalar muhitga va maqsadga qarab turlicha bo'lishi mumkin [2], ular ma'lum bir ssenariy yoki vaziyatga moslashgan holda ishlab chiqiladi.

Tolerantlik – bu kooperatsiyani ta'minlashga xizmat qiluvchi, boshqa shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish strategiyasi bo'lib, suhbatdoshning fikrlariga, qarashlariga va xatti-harakatlariga bag'rikenglik bilan yondashishni anglatadi. Bu strategiya insonlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlaydi va nizolarning oldini olishga yordam beradi.

Ijtimoiy fanlarda tolerantlik tushunchasi boshqa shaxslarning dunyoqarashi, hayot tarzi, xulq-atvori va urf-odatlariga nisbatan sabr-bardoshli, chidamli bo'lishni izohlab kelsa-da, biroq, tolerantlik tushunchasi loqaydlik yoki beparvolik ma'nosini kasb etmaydi, chunonchi tolerantlik boshqa insonlarning qarashlarini, hayot tarzini to'liq qabul qilish emas, balki ularga o'z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda yashash huquqini berish demakdir. Madaniyatlararo aloqalarda boshqa madaniyatlarning urf-odatlari, xulq-atvori va boshqa jihatlarining o'ziga xos xususiyatlarini e'tirof etish va ularga nisbatan tolerantlikni shakllantirish zarurdir. Zero, tolerantlik – o'z pozitsiyasining mustahkamligiga ishonch, o'z dunyoqarashini

boshqalar bilan solishtirishdan qo'rqmaslik va ma'naviy raqobatdan qochmaslik, turli g'oyalar va qarashlarga ochiqlik belgisi. Madaniyatlararo muloqotda suhbatdoshning nutqidagi xatolarga ko'z yuma olish, zarur bo'lganda ularni tuzatish hamkorlik jarayonining silliq va uzluksiz davom etishini ta'minlovchi omillardan biridir.

Tilshunoslikda tolerantlik lingvokulturologik, sotsiolingvistik va kommunikativ kategoriya sifatida tadqiq etiladi. Lingvistik tolerantlik deganda shaxsning o'zidan farq qiladigan boshqa insonlar bilan muloqotda verbal va noverbal nutq vositalarining majmuasidan foydalanishi tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan tolerantlik samarali muloqotning asosidir. Tolerantlik insonning o'zini tutish paradigmasini shakllantirgani uchun regulyativ vazifani bajaradi. Tolerantlikning kommunikativ kategoriya sifatida tasniflanishi uning kognitiv, pragmatik va etik asoslarga tayanishini ko'rsatadi. Kognitiv asos begonalik kategoriyasi, ya'ni o'zimizniki-begona qarama-qarshiligi va o'ziga xoslik tushunchalarini o'z ichiga olganligi bois kommunikant tomonidan o'z davri boshqa guruhlardan ajratiladi va chegaralanadi hamda jarayon biz, bizniki va siz, sizniki, ular, ularniki kabi olmoshlarning qo'llanilishi orqali amalga oshiriladi. O'zini boshqalardan keskin va qo'pol tarzda ajratish muloqotda ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Tolerantlikning pragmatik asosi suhbatdoshlarning muloqot jarayonidagi xatti-harakatlari va munosabatlarini ifodalaydi. Tolerantlikning etik asosi esa motivatsiyani anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nemis tilida kooperatsiyani ta'minlovchi tolerantlik strategiyasining taktikalari 1-chizmada ko'rsatilgan. Ushbu chizma tolerantlik strategiyasining ikki asosiy taktikasini, ya'ni xatoga ko'z yumish va mavqeini ko'tarish taktikalarini aks ettiradi (Qarang: 1-chizma).

1-chizma

Nemis tilida kooperatsiyani ta'minlovchi tolerantlik strategiyasining taktikalari

Xatoga ko'z yumish

Mavqeini ko'tarish

Tahlil va natijalar. 1-chizmada ko'rsatilgan taktikalar tolerantlik strategiyasining muhim qismlaridir. Xatoga ko'z yumish taktikasi suhbatdoshning xatolariga e'tibor bermaslikni va ularni kechirish, suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo'lish va uni qo'llab-quvvatlash orqali kooperatsiyani mustahkamlaydi. Mavqeini ko'tarish taktikasi ham suhbatdoshga nisbatan hurmatni ifodalash va kooperatsiyani ta'minlashga yordam berishga yshnaltirilgan, biroi uning mohiyati suhbatdoshning ijobiy jihatlarini ta'kidlash va uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan.

1. Xatoga ko'z yumish taktikasi. Dialogimizni tahlil qilar ekanmiz, shunga amin bo'lamizki, kooperatsiyani ta'minlanishida lingvistik tolerantlikning ham o'z o'rni mavjud.

Misol-1 (M-Mirzoxid, o'zbek blogeri. G-Gerxard, nemis jurnalisti). [4]

M.: Jawohl, Ja, Servus mein Lieber Gerhard!

G.: Ja, grüße Gott! Sagt bei uns in Bayern, liber Mirso!

M.: Bayrische Manner sagen so!

G.: Ich freue mich, dass du heute hier bist in München.

M.: Danke.

G.: Dass du uns besuchst.

M.: Danke, vielen Dank! Fuer diese Gastfreundschaft oder so was.

G.: Wir freun uns, dass du da bist.

M.: Danke, Ja, mein Lieber Gerhard. Wir haben uns in Usbekistan kennengelernt. Es ist schon zwei Jahre voruebergegangen/ Es war am 2008 6 Jahr ya?

G.: Ja, richtig,

M.: Es war Praesidentenauswahl.

G.: Genau

M.: Und ich habe ein Paar Fragen. Wann waren sie zum ersten Mal eigentlich in Uzbekistan? Ich denka damals war nicht zum ersten Mal. Oder?

G.: Nein, das war schon ein bisschen spaeter das stimmt. Meine erste Reise war im September 2011

M.: 2011

G.: Das ist schon ein bischen laenger her gewesen meine private Reise zu Freunden nach Usbekistan. Nach Taschkent.

M.: Ok

Kommunikativ tahlil:

Komumnikativ maqsad. Ushbu keltirilgan misolda so'rashish nutq aktidan foydalanilgan bo'lib, Mirzoxid o'z savollarini bermoqda. Komumnikativ maqsad ma'lumot almashish bo'lib, axborot yetkazish va axborotga ega bo'lish.

Aloqa turi. Keltirilgan misolda savol-javob aloqa turi sifatida qo'llaniladi va ta'kidlash darak gaplar qo'llanilgan.

Baho. Ushbu dialogda nemis millatiga mansub suhbatdoshning ona tilisi nemis tili bo'lmagan suhbat sherigining nutqida xatolar mavjudligiga ko'z yummoqda. Masalan: Mirzoxid nemis suhbatdoshiga birinchi marta O'zbekistonga u qachon kelganligini so'radi va o'zi tezlik bilan javob berdi: Siz, prezident saylovlari bo'lganda kelgansiz, ammo prezident saylovlari jumlanisini nemis tilida xatto ifodaladi Es war Praesidentenauswahl, ya'ni wahl so'zining o'rniga auswahl so'zini ishlatdi. Ushbu so'zlar ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lganligi va tushunishga imkoniyat mavjudligi sababli, nemis so'zlovchisi xatoni to'g'rilamadi va suhbatni davom ettirib ketdi. Bu uning o'zbek suhbatdoshi o'zi xohlagandek nemis tilini bilish darajasi o'ta yuqori bo'lmasligi va bu qo'rqinchli holat emasligini anglagan holda, tolerantlikni namoyon qilayotganining guvohi bo'lamiz.

Mexanizm. Tolerantlik strategiyasining xatoga ko'z yumish taktikasini qo'llash natijasida suhbat uzilib qolmasligi va sifatli davom etishini ta'minlamoqda. Chunki suxbatdoshga nutqda xatosini aytish natijasida u uyalib, yana gapirishga tortinib

qolishi mumkin. Buni oldini olish maqsadida suhbatdoshning nutqdagi xatolariga ko'z yumish maqsadga muvofiqdir.

Kontekst. Ushbu misolda keltirilgan kontekst asosan maishiy bo'lib, u kasbga yo'naltirilgandir. Ikki madaniyat vakilining faoliyat turlari xaqida xususida kechmoqda.

Pragmatik tahlil:

Pragmatik maqsad. Ikki mamlakatning aloqalarini yuksaltirishni maqsad qilib olgan Mirzoxid va Birkl suxbati madaniyatlarni yanada yaqinlashtirmoqni maqsad qilgan. O'zining imkoniyatlarini namoyish qilish (reklama) orqali o'z tanish va ta'sir doirasini kuchaytirmoqda.

Madaniy kontekst. Ular kafedra o'tirishibdi. O'zbek madaniyatiga ko'ra esa o'z uyiga va oila davrasiga mexmonga chaqirgan bo'lardi. Gerxard ayniqsa o'zini erkin tutmoqda. Ya'ni yaqinlashib ham ketmaslikning oldini olib ijtimoiy masofa saqlanmoqda.

Strategiya qo'llanilishining ta'siri va tushunilishi. Xatoga ko'z yumish sodir bo'layetgan ushbu dialogda xayotiy bo'lmagan, balki tilga tegishli bo'lgan xatolarga nisbatan ko'z yumilmoqda, ya'ni e'tibor qaratmayotganligi suxbatning silliq kechishiga va fikrlarning bo'linmasligiga olib kelmoqda.

Strategiyaning kontekstldagi o'rni. Xatoga ko'z yumish taktikasini qo'llash orqali suxbatdoshiga ruxiy salbiy ta'sir qilishning oldi olinmoqda. Mirzoxidning o'zi sezmay qolgan holda bu ijobiy xolatga olib keldi.

Samaradorligi. Ushbu taktikaning samarasi shunda ko'rinadiki, muloqot uzulishlarsiz, do'stona, erkin holatda olib borilmoqda. Bu xolat bir necha bora kulgi orqali ham yuzaga chiqmoqda.

Sintezlangan tahlil:

1. Yaxshi ishchan va do'stona muhit o'rnatish maqsad qilinganligi tufayli ham tolerantlik strategiyasining xatoga ko'z yumish taktikasi qo'llash orqali muloqot davomida nafaqat o'zaro munosabatlar, balki ish faoliyati doirasidagi munosabatlarni ham kuchaytirmoqda.

2. Berkl tomonidan olib borilgan ta'kidlar Mirzoxidga tushunarli bo'lmoqda va yaxshi qabul qilinmoqda.

3. Xatoga ko'z yumish taktikasini ijtimoiy davomli aloqalar o'rnatishda o'zaro kelishuvga erishishda va ijobiy silliq qayta aloqaga ko'maklashdi.

4. Nemislarning grammatik xatolarga katta e'tibor bermasligi nemis tilini chet tili sifatida biluvchilarning nutqini uzmasdan, motivatsiyasini susaytirmasdan davom etishiga yo'l bermoqda.

5. Madaniyatlararo muloqotda xatoga ko'z yumish taktikasining nutq da muloqotda kooperatsiyaga erishishda samarali xisoblanib, misol sifatida turli millat vakillarining muloqotlari uchun ibrat bo'lishi mumkin.

Demak, madaniyatlari turlicha bo'lishiga qaramasdan, Berkl va Mirzoxidning bir birlarini avaylab olib borayotgan suhbatlari bir birlariga nisbatan bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va bir birlarini yanada yaqindan bilishlariga yo'l ochadi.

2. Mavqeini ko'tarish taktikasi. Quyida Germaniya Federativ Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Gunter Overfeld 15 mart 2019 yil HUDUD.TV teleko'rsatuviga bergan intervyusi keltiriladi.

Misol-2. [3]

– Xayrli kun, janob elchi. Bizga vaqt ajratganingiz uchun tashakkur bildirmoqchiman. Suxbatimizni yoshlar haqida boshlasak, aytingchi, Germaniya yeshlari bilan O'zbekiston yoshlarini qanday taqqoslagan bo'lardingiz.

– Meningcha, dunyodagi barcha yoshlar deyarli bir xil. O'zbekiston yoshlari va Germaniya yoshlarining bir biriga o'xshash jihatlari ko'p. Ular dunyo bo'ylab sayoxat qilishni istaydilar, erkin fiklaydilar, ko'p narsani o'rganishga harakat qiladilar, internetdan foydalanadilar va musiqa eshitishni

ixlosmandlar. Shuning uchun O‘zbekiston va Germaniya yoshlari o‘rtasida katta farqlar mavjud emas deb o‘ylayman.

– Yurtimizda yoshlar masalalarini ularning xuquq va erkinliklarini O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkiloti o‘rganadi. Shu ma’noda so‘ramoqchi bo‘lgandim Germaniyada yoshlar masalasiga qay darajada e’tibor qaratiladi.

– Yoshlar masalalari bilan sport klublar, universitetelar, maktablar xususiy tashkilotlar shug‘ullanishadi. Germaniya axolisi juda individual, shuning uchun Germaniyada yoshlar bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar yo‘q.

– Sizning davlatingizda yeshlarni kasbga yo‘naltirish va ularni ish bilan ta’minlash masalasiga qanday yondashiladi?

– Bizda bolalar 14-15 yoshga kirganda universitetlar yoki oliy ta’lim muassalari va kompaniya maktablariga tashrif buyurishadi. u yerda ularga tushunchalar beriladi va ular o‘z dasturlarini taqdim etadilar.

– Ular bo‘sh vaqtlarini ko‘proq nimalarga sarflashishadi. Ko‘proq kitob o‘qishni afzal ko‘radilarmi?

– Menimcha kitob o‘qish eski davrlarda edi. Bugungi kunda Germaniyadagi yashayotgan odamlar va men O‘zbekistonda ko‘rishim mumkin bo‘lgan yoshlar bo‘sh vaqtlarini kompyuterda sarflashadi va albatta sport bilan ham shug‘ullanishadi. Tabiat bag‘riga chiqishadi. Maktabda ta’tillar berilgach ular do‘stlari bilan juda ko‘p sayoxat qiladilar va sayoxatdan qaytgach yana o‘qishlarini davom ettiradilar.

– O‘zbekiston va Germaniya yoshlariga tilagingiz.

– Men ularning baxtli xayot kechirishlarini istayman. ularning karyeralarida muvaffaqiyat tilayman. Tilagim ular o‘z vaqtlarini jamoalari uchun, muhim maqsadlari uchun sarflashsin va muxtoj kishilarga albatta yordam berishsin.

Kommunikativ tahlil:

Komumnikativ maqsad. Ushbu madaniyatlararo yuz berayotgan muloqotdan kommunikativ maqsad ikki xalqni qiyoslab xulosa chiqarish singari fikr so‘ralmoqda.

Aloqa turi. Fikrni bayon etish savol va unga beriladigan javoblardan tashkil topgan.

Baho. Bunda bir-biriga yetkazilayotgan ma’lumotlar tez tushunilib, kommunikantlar tomonidan o‘z vaqtida javob reaksiyasi amalga oshirilmoqda. Germaniya elchisining tolerantlik strategiyasi mavqeini ko‘tarish taktikasidan foydalanishi jurnalist tomonidan kasbiy etiketga asoslanib neytral kutib olinmoqda va aniqlashtiruvchi savollar berilmoqda.

Mexanizm. Savol beruvchi o‘z savoli orqali xalqaro darajadagi qiyoslash ishini olib borib asosiy maqsadini yoshlar garchi ikki davlatda yashasada qiziqishlari o‘xshash ekanligi, dunyoni ko‘rish, o‘rganishga bo‘lgan intilishlari unikal ekanligiga e’tibor qaratmoqda. Bir davlat Yevropaning iqtisodiy rivojlangan davlatlaridan biri, ikkinchi davlat esa geografik jihatdan Markaziy Osiyo xududida joylashganligi rivojlanayetgan davlatlar guruxidan o‘rin olgan bo‘lsa-da, inson mavqei mohiyatan bir-biridan uzoq emasligiga urg‘u berilayotganligining guvoxi bo‘lamiz. Qolaversa, globalizatsiya jarayoni har bir mamlakatning yoshlari bir-biri bilan teng aloqaga kirishishlari mumkinligini va bir-birlaridan boxabar yashashlari imkoniyati mavjud ekanligini e’tiborga olish zarur ekanligiga bilvosita ko‘rsatma berishi ham sherigining mavqeini ko‘tarish taktikasi yordamida amalga oshayotganligining guvoxi bo‘lamiz.

Kontekst. Ushbu misolda siyosiy kontekst turi keltirilgan bo‘lib, unda bir komumnikant to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat vakili sanalib, u o‘z nomidan emas balki Davlat pozitsiyasidan fikrlarini bayon qilmoqda, ikkinchi kommunikant esa o‘zbek jurnalisti bo‘lib, u o‘z o‘rnida O‘zbekiston qiziqishlarini Germaniya elchisi bilan suhbatda savollar berish orqali namoyon qilmoqda.

Pragmatik tahlil:

Pragmatik maqsad. Ushbu suhbatning pragmatik maqsadi ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash va yaqin hamkorlikka erishishdir.

Madaniy kontekst. Tolerantlik strategiyasi mavqeini ko‘tarish taktikasi qo‘llanilishi madaniyatlararo muloqotning siyosiy kontekstida kooperatsiyaga erishishda samaralidir.

Strategiya qo‘llanilishining ta’siri va tushunilishi. Ushbu madaniyatlararo muloqotda mavqeini ko‘tarish taktikasi qo‘llanilishi o‘rinli ekanligi kontekst turiga bog‘liqligi hamda komumnikantlarning neytral pozitsiyalarda ekanligida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, ushbu intervyuda tolerantlik strategiyasining qo‘llanilishi kommunikantlarning qo‘ygan maqsadiga erishishga, o‘z fikrini boshqa suhbatdoshga yetkazishgayordam bermoqda.

Strategiyaning kontekstdagi o‘rni. Siyosiy kontekstda mavqeini ko‘tarish taktikasidan foydalanilishi, suhbatdoshning yuqori darajada diplomatik ko‘nikmalariga ega ekanligidan dalolat bermoqda hamda jurnalist tomonidan neytral qabul qilinmoqda.

Samaradorligi. Ushbu kommunikativ muloqot turida tolerantlik strategiyasining qo‘llanilishi samarasi yuqori bo‘lganini ma’lumot almashish silliq kechganida namoyon bo‘ldi.

Sintezlangan tahlil:

1. Komumnikantlarning ma’lumot almashish jarayoni natijasida ikki halqni qiyoslash asosida ularning o‘xshash va o‘xshamagan jihatlarini ko‘rsatish hamda ikki davlat munosabatlarini yaxshilashdir.

2. Fikrni bayon etish savol-javob tariqasida amalga oshirildi va tolerantlik strategiyasi mavqeini ko‘tarish taktikasi qo‘llanilishi madaniyatlararo muloqotning siyosiy kontekstida kooperatsiyaga erishishda samarali bo‘lganini kommunikantlarning neytral reaksiyalarida namoyon bo‘ldi.

3. Kommunikantlarning o‘z vaqtida savollar hamda ularga to‘liq javob berishi tolerantlik taktikasining o‘rinli qo‘llanilganidan dalolat berdi.

4. Madaniyatlararo muloqot jarayoni siyosiy kontekstida ikki kommunikantning turli mavqe darajalariga mansub ekanligi, ularning siyosiy pozitsiyasidan kelib chiqib halqlar vakillari mavqeini ko‘tarib gapirib ikki halq o‘rtasida iliqlik bo‘lishi orqali hamkorlikka erishishga ko‘maklashadi.

5. Ushbu bikultur kontekstda mavqeini ko‘tarish taktikasining qo‘llanilishi boshqa madaniyatlararo muloqotda ham qo‘llanilishi mumkinligini ifodalaydi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida qanday kontekst bo‘lishidan qat’iy nazar, tolerantlik strategiyasining mavqeini ko‘tarish taktikasi qo‘llanilishi ikki halq vakili o‘rtasida iliqlik, ijobiylikni shakllantiradi, o‘zaro xurmat, tolerantlikni namoyish etish orqali hamkorlikka erishish mumkin. Shuningdek, ikki kommunikantning turli mavqe darajalariga (ushbu misolda davlat elchisi va jurnalist) ega bo‘lganligida ayniqsa ushbu taktikanig qo‘llanilishi o‘rinli bo‘ladi. Bunda ikki halq o‘rtasidagi farqlarni, ikki davlat turli iqtisodiy rivojlanish hamda turmush darajalariga egaligini yumshatish orqali konstruktiv, bo‘rttirilmagan holatda mavqeini ko‘tarish orqali erishish mumkin.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, o‘rganishlar natijasiga ko‘ra, tolerantlik strategiyasi nemis tilida lingvistik kooperatsiyani ta’minlashda xatoga ko‘z yumish va mavqeini ko‘tarish taktikalari orqali amalga oshiriladi, uni qo‘llash tufayli suhbatdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va tushunish mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR
1. Issers O.S. Kommunikativnie strategii i taktiki russkoy rechi. M. Lenand. 2017. 308 s.
2. Kuznetsova Ye.A. Konfrontatsiya i kooperatsiya v rechevom povedenii vladimira poznera (na materiale avtorskogo tok-shou). Magitrskaya rabota. Yekaterinburg, 2017. – 29 s.
3. https://www.youtube.com/watch?v=mvioZkZrfQQ
4. https://www.youtube.com/watch?v=VN7lVEtPl8I

Firuza BURIYEVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti (PhD), Samarqand
E-mail:firuza@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, professor S.Zokirova taqrizi asosida

THE CREATIVE WORLD OF FAXRIYOR: THE PROGRESS OF FORMATION OF INDIVIDUAL STYLE AND POETIC SKILLS

Annotation

Although there is a lot of mention in literary studies that the leading feature of the work of Faxriyor is the style of modernism, in our eyes, his skill is due to his unique thirst, scattered in the poems of poetic fame, traditional classical word games, work and love, poems of hijra and visol content. Considered a representative of the literature of the 80s, it can be observed that, as early as the early blacks of the work of this poet, it was with responsibility for innovations, creative discoveries that Modernism had not yet entered Uzbek literature as a stream. This article will talk about the creative world of a veteran, about the leading factors that have caused his individual style. The poet's poems in various content and colourful genre-forms in the collections "The Shape of the Dard" (1997), geometric spring (2004), "The Feminine" (2000) are analyzed.

Key words: modernism, creative individuality, traditionalism, sonnet, innovatorism, absurd philosophy, thought poetry.

FAXRIYOR IJODIY OLAMI:INDIVIDUAL USLUB VA POETIK MAHORATNING SHAKLLANISH TADRIJI

Annotatsiya

Adabiyotshunoslikda Faxriyor ijodining yetakchi xususiyati modernizm uslubi ekanligi ko'p bora tilga olingan bo'lsa-da, nazarimizda, uning mahorati, shoirona mashhurligi she'rlarida sochilgan noyob tashbehlari, an'anaviy mumtoz so'z o'yinlari, ishq va oshiqlik, hijron va visol mazmunidagi she'rlari sabablidir. 80-yillar adabiyoti vakili hisoblangan ushbu shoir ijodining dastlabki pallalaridayoq, hali modernizm o'zbek adabiyotiga oqim sifatida keng kirib kelmagan paytlardayoq yangiliklarga, ijodiy kashfiyotlarga mas'ullik bilan yondashganini kuzatish mumkin. Mazkur maqolada Faxriyor ijodiy olami, uning individual uslubini yuzaga keltirgan yetakchi omillar haqida so'z yuritiladi. Shoirning "Dardning shakli" (1997), Geometrik bahor (2004), "Ayolg'u" (2000) to'plamlaridagi turli mazmun va rang-barang janr-shakldagi she'rlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: modernizm, ijodiy individuallik, an'anaviylik, sonet, novatorlik, absurd falsafa, fikriy she'riyat.

ТВОРЧЕСКИЙ МИР ФАХРИЁРА: ПРОГРЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНОГО СТИЛЯ И ПОЭТИЧЕСКОГО НАВЫКА

Аннотация

Хотя в литературоведении неоднократно упоминалось, что ведущей чертой творчества ветерана является стиль модернизма, на наш взгляд, его мастерство, поэтическая популярность обусловлены уникальными аллегориями, разбросанными по его стихам, традиционными классическими играми слов, романтикой и увлечением, стихами хиджры и висола. Этот поэт, считающийся представителем литературы 80-х годов, уже на ранних этапах своего творчества, когда модернизм еще не вошел в узбекскую литературу как течение, проявляет ответственный подход к нововведениям, творческим открытиям. В данной статье речь пойдет о творческом мире ветерана, о ведущих факторах, сформировавших его индивидуальный стиль. В сборниках "форма боли" (1997), "геометрическая весна" (2004), "женственность" (2000) анализируются стихи поэта различного содержания и разнообразных жанрово-образных форм.

Ключевые слова: модернизм, творческий индивидуализм, традиционализм, сонет, новаторство, философия абсурда, поэзия мысли.

Kirish. Faxriyor she'riyati deganda aksariyat hollarda istiqlol davri adabiyotida o'zgacha shakl va mazmuniy yangiliklar kiritib modernistik she'riyat namunalarini yaratgan shoir tushuniladi. Chunki uning ijodi bilan batafsil va yaqindan tanish bo'lmagan keng kitobxon ommasi shoir she'riyati haqida maktab darsliklari kiritilgan ma'lumotlar bilan shorning bir qatorlik "Oy – bolta"[1] kabi she'rlari yoki tinish belgisi va bosh harflarga amal qilinmay yozilgan she'rlari mavjudligidan xabardordirlar. Ozroq bo'lsa-da bu ma'lumotlar ham shoirning ijodi haqida bir qadar tushunchaga ega bo'lishga imkon beradi, albatta. Shoirning shakl va mazmun borasida jiddiy izlanishlar olib borib she'riyatda o'ziga xos yangiliklar qilgani va butun ijodiy individualligi bilan modernistik adabiyot vakili ekanligi ham ko'rinadi. Lekin 80-yillar adabiyoti vakili hisoblangan shoir ijodining dastlabki pallalaridayoq, hali modernizm o'zbek adabiyotiga oqim sifatida keng kirib kelmagan paytlardayoq yangiliklarga, ijodiy kashfiyotlarga mas'ullik bilan yondashganini kuzatish mumkin. Masalan, uning "Dardning shakli" (1997), Geometrik bahor (2004), "Ayolg'u" (2000) kabi to'plamlariga turli yillardagi she'rlari kiritilganligi uchun tahlil va talqin natijasida uning ijodini o'n yilliklarga bo'lib, 80-yillar, 90-yillar hamda 2000-yildan keyingi she'riyati tarzida o'rganilsa maqsadga muvofiq

bo'lishi ko'rinadi. Chunki shoirning 80-yillardagi she'riyati ijodining daslabki pallalari hisoblanib, mazkur yillarda yaratilgan ijod namunalari shakl borasida XX asr an'anaviy she'riyati qabilida ekanligi hamda ularda fikriylikdan ko'ra hissiylik, nekbinlikning ustun ekanligiga ko'ra meditativ lirika namunalari deyish mumkin. Aslida, bu ta'rifni ko'pchilik shoirlarga nisbatan ham aytsa bo'ladi. Aksariyat shoirlar ijod olamiga pokiza hislar, tiniq tuyg'ular bilan kirib keladi. Lekin Faxriyorning o'sha yillardayoq ijodga, dunyoga zukkolik va teran nigoh bilan boqqanligini, o'xshatishlar va ko'chimlarni sun'iy yaratmaganligi, balki mavjudlarini izlab topganligini ko'rish mumkin:

Taxir bir sharobsan, o shirin hayot,
Sabrim kosasiga seni quyarman,
Icharman ko'zyoshni ichganim kabi[2].

Ushbu misralarda shoir an'anaviy ramz-u timsollarga novatorlik bilan yondashadi, ya'ni Sharq adabiyotida may va sharobning Umar Xayyom ruboiylari va Hofiz g'azallaridan boshlab hayotning ramzi sifatida ishlatilgani bizga ma'lum. O'zining mashhur "Vaqt" she'rida

Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g'animatdir umrzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,

Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy[8], –, deya bu an’anani davom ettirgandi o‘zbek adabiyotining otaxon shoiri G‘afur Gulom. Shuningdek, sabr kosasi, ko‘z yoshlarni ichish kabi birikmalar ham ko‘p shoirlar ijodi hamda xalq og‘zaki ijodi namunalarida ishlatilgan, ammo sabr kosasiga hayot sharobini quyib ko‘z yoshidek ichish yangicha, novatorona talqin.

Yoki iztirobning tasviri bo‘lgan ushbu jumladagi aslida o‘lim va yashashning bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilganidek ifodalansa-da, ikki holatning bir ekanligi, yani o‘limning yengib borishi va yashashning qiynashi bir ruhiy holat ekanligi ham o‘ziga xos:

Meni yengib bormoqda o'lim,
Seni esa qiynaydi yashash... [2]
Yoki
Bahor hech narsani esdan chiqarmas.
Har safar gul qo'yar
har bir qabr poyiga[2].

Shoir hamma odamlar hayotida uchraydigan oddiy, lekin boshqalar e’tibor qilmagan holatlar haqida yozadi:

Endi, hatto, hech qachon, hech gap
bo'lmaganday o'rtada xuddi
nafaqaxo'r muhabbat haqda
so'zlash mumkin bemalol, jiddiy[2].

Shoir ijodining dastlabki pallalarida yozilgan she’rlar sirasida uning “Ona sog‘inchi” she’ri hislarning samimiyligi, tasvirning tiniqligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, mazkur she’rdagi shoirning kuzatishlari va hissiyotlari hosilasi sifatida yuzaga kelgan ko‘chimlar betakrorligi bilan kishining yodida qoladi:

Ko‘zlari to‘rt bo‘lgan onam yonidan
Tomlarga yugurib chiqar qizg‘aldoq
Menga yo‘l qaraydi uyning tomidan.
To‘rt qiblaga tutash yo‘l. Bari aldoq[2].

Bahorda qizg‘aldoqlarning loysuvoq qilingan tomlarda o‘sishi tabiiy hol. Shoir esa bunga onaning farzandiga bo‘lgan sog‘inch qiynoqlarni ko‘rishga chidolmaganlikni dalil qilib ko‘rsatadi va bu bilan mumtoz adabiyotda keng qo‘llanib kelingan husni ta’lil san'atining go‘zal namunasini yaratadi. Shuningdek, yo‘llarga “aldoq” sifatining berilishi ham originaldir.

Shoirning izlanishlarini faqat mazmun va tasvirda emas, balki shakl borasida ham ko‘zga tashlanadi. Uning mumtoz adabiyotda ko‘p qo‘llangan lavziy- ma’naviy san’atlar tajnis va iyhomni she’rlarida qo‘llab betimsol an’analarni davom ettirganligini ko‘rishimiz mumkin: “Tanga emas, sitam-u zorni zarb etadi yurak zarblarim”, “O‘ying yuragimni boradi o‘yib”, “Yuragim tovondir, yorilar, Yuragim tovondir to‘layman”, “Yodimni yodingga solmassan”, “Havolar yetmaydi havoyi holatimga”, “Sen kuymiding kuymasdan avval”[3] Shoir ijodidagi so‘z o‘yinlari orqali ham mazminiy, ham shakliy mukammallikka intilish uning ijodidagi alohida xususiyat bo‘lib, bu haqda shoir ijodi o‘rganilgan boshqa tadqiqotlarda ham atroflicha fikr yuritilgan. Masalan, adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Inja tuyg‘ular jilosi”[4] maqolasida ham shoirning so‘z shakli va ma’nosiga doir izlanishlari borasida to‘xtalinib, bu uning ijodidagi alohida o‘ziga xoslik ekanligi ta’kidlangan.

Shoir so‘zga nisbatan ham yangiliklarga intiladi. Ijodkorlarning ba’zan poetik majburiyat vajidan ayrim so‘zlar “kashf etishi” kuzatilib turadi. Faxriyor ijodida esa bunday holatlar ko‘proq ko‘zga tashlanib, ijodidagi o‘ziga xos xususiyatlardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Uning birgina “Geometrik bahor” to‘plamiga kiritilgan she’rlari so‘zlik jihatdan tahlil etilganda, shoirning omonimona, musibatpanoh, kuygu (tuyg‘uga o‘xshash), kunlandi, oylandi (o‘ylandiga o‘xshash), kimlanish, sayram (tishlam, yalam kabi so‘zlarga o‘xhash), vaqtlanish (faxrlanishga o‘xshash), parizor, alamzor(daraxtzorga monand), borlash (yo‘qlashga o‘xshash), , so‘lli(gulli, aqlliga monand), muhabbatjo‘y, oyloq (ovloqqa nisbatan), borsadim, ko‘rsadim (qo‘msadimga nisbatan)kabi so‘zlar yaratilganini ko‘rish mumkin.

90-yillardan boshlab shoir ijodida hissiylikdan ko‘ra intellektual falsafiylik ustunroq bo‘lganligi kuzatiladi. Buni o‘sha yillar she’riyatida modernistik uslubning yetakchi bo‘lib borayotganligi bilan izohlasa bo‘ladi. Dastlab she’rlarda modernizm uslubini eslatuvchi, ya’ni fikrlarning sovuqqonlik

bilan xulosalar tarzida berib she’rlar yaratgan shoirning keyinchalik shakl borasida ham bir qadar yangiliklarga intilganini kuzatish mumkin. Adabiy tanqidda oqlovchi va inkor etuvchi qizg‘in auditoriyasiga ega bo‘lgan modernizm uslubi Faxriyor ijodining yetakchi xususiyati ekanligi adabiyotshunoslikda ko‘p bora tilga olingan bo‘lsa-da, nazarimizda, uning mahorati, shoirona mashhurligi she’rlarida sochilgan noyob tashbehlari, an’anaviy mumtoz so‘z o‘yinlari, ishq va oshiqlik, hijron va visol mazmunidagi sonetlari sababdir. Darvoqe, Asqad Muxtor tomonidan “she’riyatning olifta kamzuli”[5] deb nomlangan sonetlar shoir ijodida keng qo‘llangan janr hisoblanadi. Haqiqatdan ham, so‘z san’atiga, shoirlikka o‘zgacha nazokat bilan yondashgan “inja tuyg‘ular” sohibi bo‘lgan shoir ijodi uchun ushbu janr juda mos bo‘lib, u ba’zan alohida sonetlar yaratadi, shuningdek, uning ijodida “Sonetariy” deb nomlangan sonetlar turkumi ham mavjud. O‘zbek she’riyatiga G‘arb adabiyotidan kirib kelgan ushbu janr Faxriyor ijodida mumtoz ishq talqini uchun shakl vazifasini o‘tab, yangicha imkoniyatlarini namoyon etdi. Sonetlarda qo‘llangan so‘zlar ham mumtoz she’riyatni yodga solishi bilan ahamiyatli:

Hayot yuragimni tilkalar
Sochlaringdan xanjarlar yasab.
Vayronko‘ngil otli o‘lkalar,
Sevgi bilan ichaman qasam!

Soching xanjaridan ozorlar
Kelur dilga, o‘zing kelmassan.
Yurakda umidlar mozori
Ortar faqat, karam qilmassan.

Sonetning ushbu katren bandlarida yurakning tilkalanishi, ko‘ngilning vayronligi, oshiqning karam qilmasligi kabi birikmalar mumtoz ishq talqinlarini eslatadi. She’rning terset bandlarida ham sharqona ohanglarda davom ettiriladi:

Muzlab qolgan yurak chatnaydi
Chaqnab yotar hajring yulduzi.
Ko‘ngil sen tarafga qatnaydi.

Men tog‘ emas, armonga botdim,
To‘lqinlari ko‘mar yuzimni,
Mavjlarining ostida yotdim[3].

Shoir ijodidagi deyarli barcha sonetlar hijron mavzusidadir. Hatto uning bir turkum sonetlari “Sensizlik” deb nomlanadi.

Demak, so‘z tanlashda mumtozlikka intilish, an’anaviy tashbehlarga novatorona yondashuv, ishq talqinlarida sharqonalik shoir intim lirikasining o‘ziga xosligi hisoblanadi. Umuman olganda, shoir ijodida mumtoz adabiyot namoyandalariga ergashish, shuningdek, zamondosh ustoz shoirlardan Usmon Azim, Xurshid Davron, Abduvali Qutbiddin she’riyatiga ham bir qadar yaqinliklar kuzatiladi. Masalan, uning xalqona uslubda Usmon Azim baxshiyonasi monand doston yaratib Elbek baxshi kabi Sobir baxshi obrazini yaratganligi[2], she’riyatida taqlid va undov so‘zlarni tuyg‘ular talqini vositasi sifatida ko‘p bora qo‘llagan Abduvali Qutbiddin she’rlarini eslatuvchi misralarini[2], Xurshid Davron “Uchbitik”lari singari uchlik[2] she’rlarni ko‘rishimiz mumkin. Bularning bari shoir ijodidagi an’anaviylik tushunchalari keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, shoir ijodida falsafiy intellektuallik yana bir muhim qirra hisoblanib, bu mazmundagi she’rlar uchun erkin vaznli qofiyasiz she’rlar shakl vazifasini o‘tagan. Adabiyotshunoslikda uning bunday she’rlari modernistik uslubda ekanligi aytiladi. “O‘zbek modern she’riyatining yana bir yorqin namoyandasi sifatida shoir Faxriyor e’tirof etiladi. Faxriyor o‘zbek she’rxonini yangicha obrazlar olami bilan tanishtirgan, o‘z tashbihlari bilan zamonaviy o‘quvchi didini o‘stira olgan sanoqli ijodkorlardan biri. Shoir chizgan manzaralar o‘ziga xosligi, yorqinligi, asosiysi, noodatiyligi bilan ajralib turadi:

ko‘ylagini yechayotgan ayolday
tunni yig‘ishtirib olar tabiat
borliq ustidan
va uni
farishtalar taxmoniga solib qo‘yadi
tun xudoning omonati

yulduzlar omonatga tushgan kuyadir
tunni ilma-teshik qilib tashlar yulduzlar"[6]

Ko'rinadiki, iqtibosda shoirning modern uslubida yozilgan she'ri sifatida e'tirof etilgan parchada she'riy vazn va qofiyalargina emas, oddiy imlo va tinish belgi qoidalariga ham amal qilinmagan. Yana bir adabiyotshunos olima N.Mamatqulova o'zining "Modern she'riyat va absurd falsafasi" maqolasida Faxriyor qalamiga mansub ushbu she'riy misralarni misol keltirib, unda inson jismini ruh bilan uyg'unlashtirish falsafasi mavjud ekanligini ta'kidlaydi:

"Odamni Qamab qo'ysa bo'lar bemalol,
Surgun qilsa bo'lar, hattoki…

Odatda ijodkorning adabiy qarashlari uning she'riy misralari qatidan izlanadi. Faxriyor she'rlarining biridagi o'xshatishda modern qofiyani "ilviragan" deb ta'riflaydi.

Bularning bari ijodkorning she'riyatga kirib kelgan dastlabki pallalardan boshlab shu kungacha har doim ijodiy yangiliklarga intilganini, mazmun va shakl, obrazlar, falsafiy qarashlarning noyobligiga intilganini, serqirra ijodiga g'oyat mas'ullik bilan qaraganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Umumoy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan 3-nashri./Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov. – T.: Yangi yo'l poligraf servis, 2014. –B/190.
2. Фахриёр.Дарднинг шакли. Шеърлар. Тошкент. "Ёзувчи" нашриёти. 1997 – Б.8.
3. Фахриёр. Геометрик баҳор. (Ўнгарилган тушлар): Шеърлар .– Т.: "Маънавият", 2004. –Б.43.
4. Қозоқбой Йўлдошев "Ёниқ сўз". "Янги аср авлоди", 2006. – Б.315.
5. H. Umurov .Adabiyotshunoslikka kirish. Akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. Toshkent. – B.204.
6. https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/modern-sheriyatida-tasvir/
7. https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/nargis-mamatqulova-modern-sheriyat-va-absurd-falsafasi-2005/
8. https://tavsiyalar.uz/gafur-gulom-eng-sara-sherlar-toplami/
9. https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/nargis-mamatqulova-modern-sheriyat-va-absurd-falsafasi-2005/

UDK :82/81

Xolida BURONOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali assistenti
E-mail:buranovaxolida@mail.ru

F.f.d, professor R.Saidova taqrizi asosida

HOMONYMY IN UZBEKI MEDICAL TERMS

Annotation

This article analyzes the types of medical terms in the Uzbek language according to the shape and mano relationship of words, in particular, the phenomenon of homonymy and its interspecific grouping.

Key words: term, semantics, homonymy, word category, prefix, folk medicine, attitude of form and meaning.

ОМОНИМИЯ В УЗБЕКСКИХ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНАХ

Аннотация

В данной статье анализируются виды медицинских терминов в узбекском языке по соотношению форм и Мано слов, в частности явление омонимии и ее межвидовая группировка.

Ключевые слова: термин, семантика, омонимия, категория слова, приставка, народная медицина, отношение формы и значения.

O'ZBEK TILI TIBBIY TERMINLARIDA OMONIMIYA

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi tibbiy terminlarning so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, xususan, omonimiya hodisasi va uning turkumlararo guruhlanishi tahlil qilingan.

Kalit sozlar: termin, semantika, omonimiya, so'z turkumi, prefiks, xalq tabobati, shakl va ma'no munosabati.

O'zbek tili tibbiy terminlari zamonlar osha fan-texnika taraqiyyoti bilan birgalikda o'sib, rivojlanib boradi. Tibbiyotga aloqador turli-tuman kashfiyot va ixtirolarning vazifaviy jihatiga ko'ra yangi nomlar bilan atala boshlanadi. Tibbiy terminlarining semantikasi ularning qo'llanish vazifasi yoki tayyorlanish xususiyatidan kelib chiqadi. Ma'lumki, ko'plab terminlarning semantik tarkibi xorijiy tillardan o'zlashma tarzda olingan. Olimlarning tadqiqicha, tibbiyot terminlarining asosi yunon-lotin tilidadir[1]. Masalan, poli-, giper-, ple(o)- kabi prefikslar yunon tilidan o'zlashgan bo'lib, ular so'zda bir xil mohiyatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ularning vazifasi termin semantikasiga ko'plik tushunchasini berishdan iboratdir. Tibbiy terminlarning mohiyati uning semantik tarkibi bilan aloqador sanaladi. Xususan, harakati faol, har jabhada qiziquvchan insonlarga nisbatan giperaktiv termini ishlatiladi. Bunda prefiksning mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, harakat yoki holatning me'yordan ortiqligi ma'nosini ifoda etyapti.

Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishida qadimgi Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokrat va Galenning muhim o'rni bor. Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta'sirini o'rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o'ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalar bilan shug'ullangan. Galen esa birinchi bo'lib organizmdagi a'zo va sistemalarning tuzilishi hamda funksiyalarini, asosan, hayvonlar (maymunlar) organizmida tajriba qilib o'rgangan. Uning anatomiya va fiziologiyaga doir asarlari to XVI asrgacha tibbiyotning asosi bo'lib xizmat qildi[2]. Bugungi kunga qadar tibbiy terminlarning semantikasi, uning tarkibiy xususiyatlari masalasida jahon tilshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, tibbiy terminlarni moldovan tili misolida G.I.Bejenar, ingliz biologiyasi va tibbiyotidagi sinonim atamalar hamda ilmiy terminologiyada lotin va yunon morfemalarining o'rnini bosishi to'grisida O.E.Nibekken[3], ingliz tibbiy terminlarining etimologik tadqiqi borasida Taylor R., tibbiy terminlar qatoriga kiruvchi 100 ta birlikning (approach, delivery, discharge, heart, va b.) terminologik va noterminologik ma'nolari kontekstual metod yordamida ochib bergan va ularning struktural-semantik jihatlari haqida Chupilina Y.I., tibbiy terminlar leksik-semantik,

morfologik, sintaktik va etimologik jihatdan tahlili to'g'risida Motchenko I.V., shuningdek, T.F.Izvekova, Y.V.Grishenko, S.N.Guseva, G.A.Savateyeva, Arnaudov G.D., Henrick R., Dunglison R.A., Tomas J.A., Dorland Newman W.A., Stedman T.L. kabi olimlar ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirishgan. O'zbek tilshunosligida tibbiy lingvistikadagi dolzarb masalalar xususida S.A.Nazarova, M.Y.Xojiyeva, dorishunoslik terminlarining tadqiqi, tibbiy atamalar lug'atlarining tashkil etilishi masalasida A.Qosimov, tibbiy terminologiyaning taraqqiyot bosqichlari borasida F.Qosimova, tibbiy matnlarning psixolingvistik xususiyatlari haqida M.Abuzalova, shuningdek, I.X.Maxmudova, Bobokalonov R.O., Karimova S.A., Obidova G.K., N.I.Muqimjonova kabi olimlar ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan.

Tibbiy terminlarning semantik tabiati boshqa sohalar kabi o'ziga xos sanaladi. O'zbek tilidagi tibbiy terminlari xilma-xilligi ularning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tasniflanishidan yuzaga kelgan. Umuman, tilshunolikda mustaqil ma'noli so'zlar shakl va mazmun jihatdan omonim, sinonim, antonim, paronim kabi turlarga bo'linadi. So'zlar shaklan bir xil, ma'no jihatdan turli xillikka ega bo'lish jarayoni omonimiya deb nomlanadi[3]. Tilning ushbu hodisasi barcha mustaqil so'zlar uchun xosdir. Masalan, uch – sanoq son, uch – harakat fe'li, uch – narsa yoki predmetning qirra qismiga nisbatan aytiladi. Ko'rinadiki, uch so'zi shaklan barcha so'zlarda bir xillikka ega, ammo ular anglatgan ma'nolari turlicha sanaladi. Bu masalada tadqiqot olib brogan olim R.O. Bobokalonovning fikriga ko'ra, tibbiy atamalarning leksik-grammatik tahlili ularning qaysi turkumlardan shakllangani, qanday asosda birlashgani va leksema semantikasidagi o'rni kabi masalalarga yechim topish mumkin. Demak, tibbiy atamalarning semantik xususiyatlari ularning morfologik asoslariga ko'ra aniqlanadi.

Grammatika va semantika hamohangligida ilmiy izlanish olib borgan olim I.V.Motchenko zamonaviy ingliz tibbiy terminologiyasidagi yangi termin-so'z va termin-frazalarning abbreviatsiya, affiksatsiya, konversiya, metaforizasiya, metonimizasiya, sinonimiya, terminlashish kabi usullarda yasalganligini aniqlagan. M.V.Tokareva esa soha terminlarining XII asrdan keyingi lingvistik taraqqiyot tendensiyalarini ochib bergan va struktural-semantik jihatdan tahlil qilgan. Ayniqsa,

tibbiy terminlarning sinonimiya hamda polisemiya xususiyatlariga katta etibor bergan. Shuningdek, tadqiqotchi mazkur soha terminlarini etimologik jihatdan tadqiq qilib, zamonaviy ingliz tibbiy leksikasida kelib chiqishi yunon-lotin tili bilan aloqador bo'lgan terminlar yetakchi ekanligini isbotlab bergan. Sintaktik jihatdan esa S.A.Nazarova ichak sanchig'i, kalla suyagi, ko'ruv maydoni, ko'rish analizatori kabi misollar yordamida tibbiy birikmalarning lisoniy imkoniyatlar mahsuli ekanligi va o'ziga xos lisoniy sintaktik qoliplar asosida shakllanishi masalasini chuqur tadqiq etgan.

Omonimiya manbalarini o'rganish natijasiga ko'ra shuni ta'kidlash joizki, u polisemiya natijasida turli yo'llan bilan geografik terminlarda ham yuzaga kelgan. Terminlarda omonimiyaning shakllanishi polisemantik hodisa bilan aloqadordir. Bu masalada I.Islomov transterminlashuv tushunchasiga to'xtalgan. Biror sohaning boshqa bir sohaga butunlay ko'chishi va sohalararo omonimiyaga aylanishi – transterminlashuv sanaladi. Olim geografik omonim terminlarning tadqiqi bilan shug'ullanar ekan, ularni ikki guruhga bo'ladi:

Bir so'z turkumi doirasidagi omonim geografik terminlar;
Turli turkum doirasidagi omonim geografik terminlar.

Bunda bir va turli so'z turkumi doirasidagi misollarni keltirish asosida geografik terminlarga xos omonimiya jarayoni va uning yuzaga kelish sabablari ilmiy asoslangan. Ushbu tadqiqotda keltirilgan misollar ichida tibbiyotga aloqador omonimik birliklar ham mavjud:

DEPRESSIYA I [lot. depressio – ezilish, bosilish] 1 tib. Tushkunlikka berilgan ruhiy holat; og'ir ruhiy holat. 2 iqt. Xo'jalik tizimida, ijtimoiy faoliyat sohasida yuz beradigan turg'unlik, harakatsizlik, o'sishdan to'xtash holati.

DEPRESSIYA II [lot. depressio - pasayish, chuqurlashish] geol., geogr. Quruqlikning dengiz sathidan past qismi.

Yuqoridagi misoldagi so'z ot so'z turkumi doirasida omonimiyani hosil qiladi. Unda iqtisodiyot, geografik, geologik, tibbiy termin o'zaro shakldoshlik kasb etgan va har bir sohada muhim ahamiyat kasb etuvchi birliklar sanaladi. Tibbiy termin sifatida "og'ir ruhiy holat"ga ishora bo'lsa, geografiya, geologiyada esa "quruqlikning dengiz sathidan ham past qismi"ga nisbatan ishlatiladi. Yuqoridagi tasnifga asoslanib o'zbek tilidagi tibbiy terminlarni ikkiga bo'lish mumkin:

bir so'z turkumi doirasidagi omonim tibbiy terminlar;
har xil so'z turkumidagi omonim tibbiy terminlar.

FE'L I – muhim irsiy xususiyatlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatga kirishuvidan yuzaga chiqadigan hamda individning hayot-faoliyatida real narsa-hodisalarga, jamiyatga, odamlarga munosabat-muloqotlarida, shuningdek, ularga nisbatan qo'llangan o'ziga xos xatti-harakatlarida namoyon bo'luvchi shaxs ruhiy hayotining takrorlanmaydigan, yaxlit va barqaror individual xislatlari majmui.

Rus. Xarakter.

FE'L II – kishining tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga kelgan muayyan vaqtdagi ruhiy holati, tushkunlik yoki ko'tarinkilik kayfiyati, aatrofdagilarga bo'lgan munosabatlaridaa akslanuvchi avzoyi.

FE'L III [a. – ish, harakat] tilsh. Harakat, shuningdek, holat va hodisani bildiradigan so'zlar turkumi vas hu turkumga oid har bir so'z.

Bu so'z tibbiy atama sifatida A.Qosimovning "Tibbiy atamalar lug'ati"da keltirilgan. Unga ko'ra fe'l so'zi "insonning ruhiy holati", "insonning individual xususiyatlari"ga nisbatan tibbiy atama sifatida qo'llanadi hamda ushbu so'z tilshunoslik termini ham bo'la oladi. Ya'ni "harakat, holat ma'nosini ifoda etuvchi so'zlar turkumi"ga nisbatan ishlatiladi. Tibbiy va tilshunoslik terminlari bir so'z turkumi doirasida shakldoshlikni yuzaga keltirgan.

BEL I 1 Orqa suyakning (umurtqa pog'onasining) pastki qismi. 2 Gavdaning ko'krak qafasi bilan bo'ksa o'rtasidagi eng xipcha qismi; biqin. 3 ko'chma Yon, cho'ntak yoki belbog' ma'nosida. 4 Biror narsaning o'rta qismi, o'rtasi. 5 ko'chma Jismoniy yoki moddiy kuchning ramzi. 6 geogr. Tog' va tepaliklarning egarsimon eng baland joyi.

BEL II Yer qazish, sochilgan narsalarni olib solish, to'plash uchun ishlatiladigan yog'och sopli temir qurol; belkurak.

Yuqoridagi omonim so'zning "orqa suyakning pastki qismi", "gavdaning ko'krak qafasi bilan bo'ksa o'rtasidagi eng xipcha qismi; biqin" ma'nolari tibbiyot termini sanaladi. Keyingi ma'nosi esa geografik atama sifatida "tog', tepalikning egarsimon eng baland joyi", shuningdek, "yer qazish uchun ishlatiladigan ish quroli" kabi semalarga ega va o'zaro omonimiyani hosil qilgan.

BO'YIN I 1 Odam va umurtqali hayvonlar gavdasining bosh bilan tanani birlashtiruvchi qismi. 2 Ba'zi asboblarning ingichka, uzunchoq qismi, bo'g'iz. 3. tex. O'q, val va shu kabilarning podshibnikka o'rnatiladigan qismi.

BO'YIN II geog. Suv bilan ajralib qolgan quruqlik qismlarini, hatto materiklarni bir-biriga qo'shadigan tor, uzunchoq yer bo'lagi.

BO'YIN III q. x. Haydalayotgan yer maydonining u boshidan bu boshigacha bo'lgan masofa (taxminan 120-150 qadam).

Umuman olganda, termosistemada bir so'zning turli ma'nolarda qo'llash unumli va ahamiyatli sanaladi. Bu tejamkorlikni yuzaga keltirib, muayyan nutqiy vaziyatlarda qulaylik kasb etadi. Yuqoridagi misollardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tibbiy terminlar nafaqat o'z doirasida, boshqa sohalarda ham omonimlikni yuzaga keltiradi. Ushbu xilma-xillik umumiste'moldagi birliklarda ham uchraydi. Shakldoshlikning bunday xususiyat kasb etishi milliy tilning naqadar jozibakor va serqirraligini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR

1. Doncu, Andronache.Medical language. Medicine. -2014. -B-348 .
2. Abuzalova M., Islomova Sh. Tibbiyot tili va tibbiy matnlarning psixolingvistik xususiyatlari. O'zMU xabarlari Вестник НУУз ACTA NUUz FILOLOGIYA 1/4 2023. – b. 197-200.
3. Bejenar G.I. Structural-semantic characteristics of French medical terms: Autoref. dis. ... sugar. Philol. -L., 1973. 20 p.
4. Извекова Т.Ф., Грищенко Е.В., Гусева С.Н., Савватеева Г.А. Деривационный аспект формирования русской медицинской терминологии на основе латинских терминоэлементов. Педагогические науки. № 4 – 2013.
5. Henrick R. Wulff. The language of medicine// Journal of the royal society of medicine, 2004. 97. – P.187.
6. Taylor R. The amazing language of medicine: understanding medical terms and their backstories. – Springer International Publishing AG, 2017. –P. 132.

Унгласин ДЖУСУПОВА,
Узбекский государственный университет мировых языков, доктор философии PhD
E-mail:unglasin@gmail.com

На основе отзыва д.ф.н., профессора УрГУ Эшонкулова Х.П.

КАЧЕСТВЕННО - КОЛИЧЕСТВЕННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СИНГАРМОНИЗМА В ОДНОСЛОЖНОМ СЛОВЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация
В данной статье впервые рассматриваются односложные слова узбекского литературного языка с позиции сингармонической фонологии. Лингвостатистический анализ односложных слов показал, что просодической доминантой односложного слова узбекского языка является сингармонизм (как и во всех тюркских языках). Нарушение сингармонизма в узбекском языке происходит в многосложном слове (как минимум, из двух слогов) в процессе присоединения к корню узбекского слова суффиксов и флексии, т.е. словообразовательный и формообразовательный процессы в узбекском языке в подавляющем большинстве случаев не подчиняются закону сингармонизма.
Ключевые слова: односложное слово, узбекский язык, сингармонизм, сингармонические, несингармонические, тембры, лингвотвёрдый, лингвомягкий, лингволабиотвёрдый, лингволабиомягкий.

O'ZBEK TILINING BIR BO'G'INLI SO'ZDAGI SINGARMONIZMNING SIFAT – SONI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya
Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilidagi bir bo'g'inli so'zlarni singarmonik fonologiya nuqtai nazaridan o'rganilgan birinchi maqoladir. Bir bo'g'inli so'zlarning lingvostatistik tahlili shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida bir bo'g'inli so'zning prosodik dominanti singarmonizm (barcha turkiy tillardagi kabi)dir. O'zbek tilida singarmonizmning buzilishi ko'p bo'g'inli so'zda (kamida ikki bo'g'inli) o'zbek so'zining o'zagiga qo'shimcha va fleksiya qo'shish jarayonida sodir bo'ladi, ya'ni. O'zbek tilidagi so'z va shakl yasalish jarayonlari aksariyat hollarda singarmonizm qonuniga bo'ysunmaydi.
Kalit so'zlari: bir bo'g'inli so'z, o'zbek tili, singarmonizm, singarmonik, nosingarmonik, tembrlar, lingvoqattiq, lingvoyumshoq, lingvolabioqattiq, lingvolabioyumshoq.

Наиболее значимый вклад в становление и развитие узбекского языкознания внесли ученые как отечественные, так и зарубежные: А. Фитрат [10], Е.Д. Поливанов [7], В.В. Решетов [8], Н. Кононов [4], А. Махмудов [5], Х. Неъматов [6] и др.

Уже много лет в научных исследованиях существуют различные подходы к рассмотрению проблемы современного узбекского вокализма и сингармонизма. Для определения качественных и количественных характеристик сингармонизма в односложном слове узбекского языка произведено статистическое исследование на материале словаря узбекского языка («Ўзбек тилининг изоҳли луғати». Икки томли, 60 000 сўз ва бирикмаси) [140]. В анализ вошла как исконно узбекская, так и заимствованная лексика. Она подразделена на следующие 3 группы.

I. Односложные слова с сингармоническим произношением и сингармоническим написанием. Данная группа односложных слов подразделяется на 16 типов, которые характеризуются однородным сингармотембром (или только сингармотвердостью, или только сингармомягкостью) [1; 2]. Сюда входят односложные слова исконно узбекского языка, заимствованные односложные слова из фарси, арабского языка и арабского языка или через русский язык [3]. Они подразделены на следующие типы:

исконно узбекские односложные слова с лингвотвердым сингармотембром – ЛТ: тахт [тахт] (трон), қат [қат] (слой);

исконно узбекские односложные слова с лингвомягким сингармотембром – ЛМ: бел [б˙ел˙] (поясница), дил [д˙ил˙] (душа);

исконно узбекские односложные слова с лингволабиотвердым сингармотембром – ЛЛТ: бут [б°ұт°] (целый), дон [д°он°] (зерно);

исконно узбекские односложные слова с лингволабиомягким сингармотембром – ЛЛМ: кўз [к˙°өз˙°] (глаз), пўк [п˙°өк˙°] (пустой внутри).

заимствованные односложные слова из фарси с лингвотвердым сингармотембром – ЛТ: хас [хас] (солома), рах [рах] (грань);

заимствованные односложные слова из фарси с лингвомягким сингармотембром – ЛМ: беш [б˙еш˙] (пять), гирд [г˙ир˙д˙] (окраина);

заимствованные односложные слова из фарси с лингволабиотвердым сингармотембром – ЛЛТ: хук [х°ұк°] (кабан), шон [ш°он°] (слава);

заимствованные односложные слова из фарси с лингволабиомягким сингармотембром – ЛЛМ: тўп [т˙°өп˙°] (мяч), дўст [д˙°өс˙°т˙°] (друг);

заимствованные односложные слова из арабского языка с лингвотвердым сингармотембром – ЛТ: халқ [халқ] (народ), қаср [қаср] (дворец);

заимствованные односложные слова из арабского языка с лингвомягким сингармотембром – ЛМ: жисм [ж˙іс˙м˙] (тело), сир[с˙ір˙] (тайна);

заимствованные односложные слова из арабского языка с лингволабиотвердым сингармотембром – ЛЛТ: нукс [н°ұк°с°] (недостаток), зот [з°от°] (род);

заимствованные односложные слова из арабского языка с лингволабиомягким сингармотембром – ЛЛМ: бўз [б˙°өз˙°] (сероватый);

заимствованные односложные слова из русского языка или через русский язык с лингвотвердым сингармотембром – ЛТ: балл [бал], лак [лак];

заимствованные односложные слова из русского языка или через русский язык с лингвомягким сингармотембром – ЛМ: ферзь [ф˙ер˙з˙], верфь [в˙ер˙ф˙];

заимствованные односложные слова из русского языка или через русский язык с лингволабиотвердым сингармотембром – ЛЛТ: фон [ф°он°], куб [к°уб°];

заимствованные односложные слова из русского языка или через русский язык с лингволабиомягким сингармотембром – ЛЛМ: тюль [т˙ул˙]; ключ [к˙л˙уч˙].

II. Односложные слова с сингармоническим произношением и несингармоническим написанием. Это односложные слова, образованные путем сложения двух противоположных сингармотембров, но произносимых с сохранением типа сингармонизма. Сюда входят односложные слова исконно узбекского языка, заимствованные односложные слова из фарси, арабского языка и русского языка или через русский язык. Это следующие 12 типов:

исконно узбекские односложные слова с лингвотвердым сингармотембром – ЛТ: пих [пых] (шпора), лиқ [лық] (полный);

"Bugun mamlakatimiz va xorijdagi bu soha mutaxassislari yakdil e'tirof etadilar: jadidchilik va jadid adabiyotini o'rganish bo'yicha ilmiy maktab O'zbekiston Milliy universitetida yaratildi va uning asoschisi O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimovdir. Ustoz Ozod Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda: "Butun O'zbekistondagi milliy uyg'onish davrini, uning adabiyotini o'rganishni istagan yoshlar Begali atrofida uyusha boshladi, butun bir ilmiy maktab shakllandi"[1]. "Sharq yulduzi" jurnalida bosilgan yuqoridagi maqolada olimning ma'naviy qiyofasi, hayotiy a'moli yaqqol ko'zga tashlanadi. Begali Qosimov o'ta talabchan (*bu xususiyat eng avvalo o'ziga nisbatan edi* – ta'kid bizniki Sh.Qosimov), ziyrak, mas'uliyatli, jonkuyar inson edi. U adabiyotning sofligi, ilmiy haqiqat, jamiyat foydasi uchun doimo kurashib yashagan. Jamiyatdagi loqayd, ilmdan moddiy manfaat kutuvchi, unvonu ordenlarga intiluvchi qatlamdan doimo nafratlangan. Yirik monografiyalarining birida uzoq yillar oldin talabasi yozgan diplom ishidan iqtibos keltirish va uni e'tirof etishni olimlik fazilati deb bilgan. Yoshlarga motivatsiya berishda, to'g'ri ilmiy faoliyatga yo'naltirishda chin ma'noda rahbarlik qilgan. Har bir insonda fidoyilik, muhabbat tuyg'usi bo'lsagina, tanparvarlik emas, chinakam vatanparvarlik bo'ladi, degan mulohazalari bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Xulosa. Shunday qilib ommaviy axborot vositalarida milliy uyg'onish davri adabiyoti goh intervyu, ba'zan reportaj, publitsistik nutq, voqea-hodisalarga olimlar nigohi bilan yondashuv shaklida birlashdi. Ularda jurnalistika va publitsistika qonuniyatlari asosida, voqelik, ma'lumot, tahlil, mulohazalar sodda, ravon tilda, hujjatlilik asosida qizg'in targ'ib etildi. Davr talabiga binoan jadidchilik va jadidshunoslik, yangi adabiyot masalalari faktlar, hodisalar ko'lami, voqelik natijalari to'g'risida tezkor, sifatli xabar berishga asoslandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston qiyofasi. Moziyga nazar, muhokama, mushohada. (Davra suhbati). // Ma'rifat, 1996, 6 mart. 0,1 b.t.
2. Milliy uyg'onish: uning mohiyati nimada? (intervyu: Nurboy Jabborov suhbatlashdi). // Fidokor, 2002, 21 noyabr. 0,4 b.t.
3. Adabiyatga aylangan lahza. *//Sharq yulduzi, 2012–6.*

Dilafruz MADALIYEVA,
teacher English language department, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University
E-mail: d.madaliyeva@tiiame.uz

Based on the review of TAQI associate professor G. Meiliyeva

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL STUDY OF ACCOUNTING-AUDIT TERMS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Annotation

The aim of this paper is to explore the comparability and understanding of accounting terms in two languages – Uzbek and English. The paper deals with the content and accuracy of the Uzbek equivalents of English accounting terms based on English-Uzbek-English professional dictionaries. By analysing the translations of in bilingual dictionaries the difficulty in translating and understanding accounting terms correctly, and the danger of miscommunication, is highlighted.

Key words: Accounting, bookkeeping, terminology, translation problems.

BUXGALTERIYA-AUDIT ATAMALARINI QIYOSIY-TIPOLOGIK O'RGANISH (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi atamalarini ikki tilda – o'zbek va ingliz tillarida taqqoslash va tushunishni o'rganish ko'rsatilgan. Maqolada inglizcha-o'zbekcha-inglizcha professional lug'atlar asosida inglizcha buxgalteriya atamalarining O'zbekcha ekvivalentlarining mazmuni va aniqligi ko'rib chiqilgan. Ikki tilli lug'atlarning tarjimalarini tahlil qilish orqali buxgalteriya atamalarini to'g'ri tarjima qilish va tushunishdagi qiyinchilik va noto'g'ri aloqa xavfi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Buxgalteriya hisobi, buxgalteriya hisobi, terminologiya, tarjima muammolari.

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКО-АУДИТОРСКИХ ТЕРМИНОВ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

Целью данной статьи является изучение сопоставимости и понимания бухгалтерских терминов на двух языках – узбекском и английском. В статье рассматриваются содержание и точность узбекских эквивалентов английских бухгалтерских терминов, основанных на англо-узбекско-английских профессиональных словарях. Анализ переводов, содержащихся в двуязычных словарях, выявил трудности в правильном переводе и понимании бухгалтерских терминов, а также опасность недопонимания.

Ключевые слова: Бухгалтерский учет, bookkeeping, терминология, проблемы перевода.

Introduction. Comparison as a method of scientific cognition has proved itself in many sciences. Linguistics is no exception. However, at each stage of the development of linguistics, the method of comparative language learning has its own characteristics. It is based on the theoretical foundations of linguistics of a separate period under consideration. At this stage, modern linguistic research is based on the achievements of cognitive linguistics. This fact naturally influences modern methods of comparative language learning.

The task set by the author in this article is to highlight and analyze the relationship between the most significant general theoretical positions of contrastive and cognitive linguistics. The obtained data can be effectively used for applied linguodidactic purposes, namely in the practice of teaching the Russian language in modern conditions.

At the current stage of the development of linguistics, cognitive research has become an integral part of modern linguistic science. Unlike traditional linguistics, to which we refer contrastive linguistics, and which mainly observes, describes, states and classifies, cognitive linguistics performs an explanatory function.

Materials and methods. It is necessary to clarify the terminology used in this study, since there is still no terminological unity in theoretical works of a comparative nature.

The researchers working in this direction were interested in the facts of language, which have a universal linguistic character, reflecting certain patterns of the linguistic structure peculiar to all languages.

The present work is devoted to the study of lexical, semantic, structural and grammatical characteristics of Uzbek and English accounting-audit terminology at the present stage of its development, the analysis of terminologization processes, and the identification of mechanisms for its development in a special accounting-audit. The introduction and operation of advanced, innovative technologies in accounting-audit in most developed countries requires consideration of various aspects of the formation of accounting-audit terms.

The new phenomena, the processes occurring in this terminological sublanguage, its development and formation in the comparative and typological aspect in Uzbek and English have not yet been sufficiently considered in the studies of domestic and foreign linguists. On the other hand, many issues of the system analysis of terminologization processes within a separately studied sublanguage remain comparatively insufficiently resolved. Accounting-audit terminology, especially Uzbek terminology, has not been studied before in linguistic and functional aspects. The limited number of dictionaries of the terminological accounting-audit under consideration, as well as its little-studied nature, complicates the implementation of information retrieval and processing of Uzbek-English terminology.

Many authors have acknowledged the importance of language, translations and terminology. We agree with Evans et al. that literature on accounting and language translation suggests that equivalent translation is considered very difficult or even impossible to achieve. According to Zeff, not only the accuracy of translation has constituted a problem, also the understanding of "alien" concepts in different contexts cause problems: «Thus, if one takes a concept embedded in the accounting traditions in one country but that has never been known or applied in another, even if it is translated as accurately as practicable into the language of the second country, the concept may not be understood. The words may be understood, but the concept may not be understood.

The same may be so, at least for a time, for elements of IFRS, which represent new concepts, or which address problems that have rarely if ever occurred in many national cultures even though the words are being translated into their national language».

Accounting language is a special register of language. Special registers often share terminology with «everyday» language, or «ordinary usage». The translation of such specialized terminology can be particularly problematic – what may not be an obstacle to understanding in «everyday» communication could lead to significant misrepresentations and misunderstandings in a highly specialized context, such as accounting. Thus, translation between languages is anything but straightforward.

Results and discussion. Having become acquainted with Uzbek-language specialized literature, including respectable reference and encyclopaedic literature [4], it should be noted that the use of Anglicisms in Uzbek -language accounting and financial literature has become the norm. This can be illustrated by the following terms:

«standart-kosting» (standard costing), «direkt-kosting» (direct costing), «target-kosting, taget-kosting» (target costing), «kayzen-kosting» (kaizen- costing), «AB-kosting» (activity based costing, ABC), «korporativ moliya» (corporate finance), «leveridj» (leverage), «operatsion lizing» (operating lease), «defolt» (default), «diskaunt» (discount), «pul» (pool), «xedj» (hedge), «xedjing» (hedging), «loding» (loading), «autsorsing» (outsourcing), «autrayt» (outright), «faktoring» (factoring), «forfeyting» (forfaiting), «forfeyter» (forfeiter), «varrant» (warrant), «franshiza» (franchise), «franchayzer» (franchiser), «franchayzi», (franchisee), «franchayzing» (franchising), «royalti» (royalty), «overdraft» (overdraft), «sekyuritizatsiya» (securitization), «listing» (listing), «venchurnыy kapital» (venture capital).

Table 1
Differences between bookkeeper and accountant

Basis of comparison	Bookkeeper	Accountant
Role	Required for identification, classification, and recording of all financial transactions.	Involved in interpreting, summarising and communicating the financial transactions
Tools used	Journals and ledgers	Income statement, Balance Sheet, and Cash Flow Statement
Complexity	Level of complexity is low	Comparatively high level of complexity
Financial Decisions	Decisions cannot be made based on bookkeeping	Decisions can be made based on the accountant's records.
Sub-Categories	Single entry accounting system; Double entry accounting system	Financial accounting, Managerial accounting, Cost Accounting, Financial statement analysis, Tax accounting, Audit
Management role	Generally, no role is played in the functioning of a bookkeeper	Management plays an active role since information is required for future decisions.

To fully appreciate the interrelationship of the income statement and balance sheet, we need to consider the definitions of and differences between three terms: cost, expense and expenditure. Although the three words seem synonymous at first sight, they have distinct meanings and purposes. Unfortunately, these terms tend to be used interchangeably even within the accounting terminology, which makes the difference difficult to understand for those people training to be accountants.

In Uzbek business literature, the word «xarajatlar» is used to explain English terms cost, expense and expenditure without any special delimitation of the scope.

A cost refers to the amount given to acquire an asset. Cost most closely equates to the term expenditure, so it means that you have expended resources in order to acquire something, transport it to a location, and set it up. However, it does not necessarily mean that the acquired item has already been consumed. Cost, like an expenditure, is also when you spend money. However, in business terms, a cost is when you spend money, but you also receive economic benefit(s) from the cost made. Expense. In simple words, expense is the cost that incur to earn revenues. In principle, expense refers to the cost of assets consumed or services used, by the firm during the course of the reporting period. It is that portion of cost that is written off (is expensed) in a reporting period. An expense is reported on the income statement in the period in which the cost matches the related sales, has expired or was used up. Thus, an expense indicates a decrease in economic benefit(s). Because an expense is always reported on

There are two terms in the English accounting vocabulary – accounting and bookkeeping – that, despite their different content, are often confused. This is especially true of colleagues from the former Soviet republics. The word «buxgalter» has been used in Uzbek for a long time. This compound word is borrowed from German (Buchhalter), where it is made up of parts: Buch – book and Halter – holder (Halter is derived from halten, which means keep). Buchhalter is the one who keeps the book, who is responsible for keeping it. Consequently, bookkeeper and bookkeeping are the exact English equivalents of the Uzbek words «buxgalter» and «buxgalteriya hisobi» (the direct translation of the latter is bookkeeper's registration).

It should be noted that Uzbek terms «buxgalteriya hisobi», «бухгалтерия» and «hisob yuritish» have differences in content and only the first two partially overlap. «Buxgalteriya hisobi» corresponds to the English term bookkeeping but none of the three Uzbek terms corresponds to the English term accounting.

Despite the fact that many use the terms bookkeeping and accounting interchangeably, it is clear that the former is the first step to the latter, i.e. bookkeeping is the stepping-stone of accounting. If the bookkeeping of records is done properly, then it is supposed that accounting will also be perfect and vice versa. However, accounting is much wider and analytical than bookkeeping. If bookkeeping focuses on recording and organising financial data accounting is the interpretation and presentation of that data to business owners and investors.

Accountants determine the financial status or well-being of the company and provide professional financial advice to company leaders. Bookkeepers cannot call themselves accountants. In short, the difference between a bookkeeper and an accountant is shown in Table 1.

the income statement, it is a cost that has already been consumed – «expired» – and therefore has no future value to the business.

In conclusion, it should be noted that the difference between cost and expense is that cost identifies an expenditure, while expense refers to the consumption of the item acquired.

Conclusion. The main contribution of this paper is that it examines the translation of fundamental accounting terms and demonstrates that they are incorrectly defined in the Uzbek. The reasons for this are following:

Accounting is an area with distinctive terminology characteristics. There are Uzbek and foreign (English) terms with no equivalents in the other language. Their meanings may (partly) overlap but they do not represent equivalent ideas and concepts. Translation inevitably leads to some distortion of meaning.

Translating accounting texts is not an easy task. It was (and still is) invention of new concepts, especially if to take into consideration more than 70 years of influence of Soviet accounting. Accounting systems used in the West and in the USSR were quite different, being the products of different economic and social environments. One of the main characteristics of Soviet accounting (it would be more accurate to say Soviet bookkeeping) was usage of undefined terms. The transition from a command economy to a market economy has been accompanied by a number of new terms and definitions, largely based on concepts terms and definitions that were (and still are) unknown in Uzbekistan. This has led to a lack of equivalent terminology between languages.

The difficulty in translation mainly rests with understanding precisely the meaning of the source text and correct using the appropriate specialized (subject- related) terminology to convey the original meaning. It is not possible to achieve exact equivalence in translation. In such case the translator must construct neologisms (new words from the material that exists in the target language) or has to choose between several near-equivalents in order to convey the meaning of a term in the original language. To avoid incorrect or inconsistent wording the translator must carefully consider the context when choosing how to translate the term.

Uzbek translators (including accounting experts) have been faced with the challenge of translating from a foreign language into their mother tongue as well as vice versa. While, in some disciplines, translators may be able to gain sufficient understanding of the text without in-depth background knowledge, this is not the case in accounting. Uzbek translators must therefore have a very high level of language proficiency in both Uzbek and foreign languages (for example, in different versions of English) and a good background in accounting. Today Uzbekistan has not such highly qualified translators.

It is clear that in Uzbek there is a need for terms that correspond to English accounting and accountant. There are two ways to get a missing term: create it in own (Uzbek) language or borrow it from another language.

REFERENCES

1. Burtsev, V.V. (2016). Accounting: issues of theory and practice. Financial statements of the organization, No. 2.
2. Burtsev, V.V. (2016). Accounting: a new accounting model for Uzbek organizations. Accountant's Advisor, No. 8.
3. Efremova T.F. (2010). New dictionary of the Uzbek language. Explanatory and word-formative. M.: Uzbek language.
4. Ivina, L.V., Vorontsov, V.A. (2016). Venture business. Explanatory dictionary of difficult-to-translate English terms. M.: Finance and statistics, Financial control.
5. Medvedev, M.Yu. (2011). Accounting academic dictionary. M.: Moscow Financial and Industrial Academy.

UDK:811.82

Nargiza MAMADJANOVA,
Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: n_mamadjanova@mail.ru

Andijon davlat chet tillar instituti professori M.Abduvaliyev taqrizi asosida

MUROJAAT KATEGORIYASINI IFODALOVCHI VOSITALARNING LINGVOKULTUROLOGIK O'RGANILISHI

Annotatsiya

Ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasini ifodalovchi til birliklarining lingvopragmatik o'rganish o'rganuvchilarning ingliz va o'zbek tillaridagi murojaat kategoriyasining ingliz tili farqlarini yanada oydinlashtirishga xizmat qiluvchi ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasining lingvo-pragmatik va lingvo-kulturologik xususiyatlarini yanada o'rganishning zaruriy sharti sifatida asoslandi.

Kalit so'zlar: Murojaat, kategoriya, madaniyat, muloqot, funksional, semantic, pragmatic, akt, leksema, leksik, fonetik, grammatik.

LINGUOCULTUROLOGICAL STUDY OF MEANS EXPRESSING THE CATEGORY OF ADDRESS

Annotation

The linguo-pragmatic study of language units representing the category of reference in English and Uzbek languages serves to further clarify the differences of the English language of the category of reference in English and Uzbek languages, and the linguo-pragmatic and linguo-cultural characteristics of the category of reference in English and Uzbek languages. was justified as a prerequisite for learning.

Key words: Reference, category, culture, communication, functional, semantic, pragmatic, act, lexeme, lexical, phonetic, grammatical.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ КАТЕГОРИИ ОБРАЩЕНИЯ

Аннотация

Лингвопрагматическое исследование языковых единиц, репрезентирующих категорию обращения в английском и узбекском языках, служит дальнейшему выяснению различий английского языка категории обращения в английском и узбекском языках, а также лингвопрагматических и лингвокультурологических характеристика категории обращения в английском и узбекском языках была обоснована как необходимое условие обучения.

Ключевые слова: Референция, категория, культура, общение, функциональный, семантический, прагматический, акт, лексема, лексический, фонетический, грамматический.

Kirish. Ingliz tilidagi murojaat kategoriyasi bilan bog'liq qator savollar majmuasi juda murakkab hisoblanib oxirigacha o'z echimini topmagan. Murojaat kategoriyasiga oid har xil nuqtai nazarlarni o'rganib chiqib, biz ingliz tilida uchta murojaat vositasi - darak (indikativ), murojaat (kon'yunktiv) vabuyruq (imperativ) murojaat vositalari mavjud degan tilshunoslar fikriga qo'shilamiz. Ingliz tilida so'zlarning Grammatik belgilarini ifodalashning analitik usullarining egallagan ahamiyatli o'rnini ta'kidlagan holda, biz fe'llik turdagi sub'ektiv olmoshning mavjud emasligi murojaatning shakllangan ko'rsatkichi hisoblanishi uni boshqa mayllarga qarama-qarshi vaziyatga qo'yadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'tgan asrning 50–yillarida izlanishlar olib brogan tilshunos olimlar ushbu masalagaadek va yechim toppish bo'yicha tinimsiz izlanishlar olib borishadi. O'sha yillari nashr etilgan murojaat maylini o'rganishga bag'ishlangan juda o'rinli maqolada A.V.Belskiy (1953); turli murojaat maylini bildiruvchi mazmundagi ma'nolarni bitta tizimga keltirishga urinib, asosiylari sifatida o'tinch, buyruq, talab, maslahat, taklif, chaqiriq kabilarni ataydi. Asosiy va hosil bo'lgan murojaat mayli ma'nolarini keyinchalik ham qator olimlar keltirib o'tishadi. (Krasheninnikova 1953: 469; Prokopchik 1955:II).

Tadqiqot metodologiyasi. Ulardan eng muvaffaqiyatlisi deb, biz M.F.Kosilovaning (1962), murojaat mayli turlarining mavjudligiga zamin yaratadigan quyidagi uch vaziyatni o'zichiga olgan, ya'ni sababchi hisoblanuvchi: so'zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat; so'zlovchining harakatga nisbatan munosabati; tinglovchining harakatga nisbatan munosabatini ifodalovchi murojaat ma'nolari tasnifini hisoblaymiz. Kommunikantlar orasidagi munosabatdan kelib chiqib murojaat mayli: buyruq, taklif va o'tinchga bo'linadi. Ammo insonlarning jonli muloqotida murojaat mayli ko'pincha emotsional tarzda ifodalanadi.

Quyidagi misollarning funksional-semantik va pragmatik jihatdan farqlanishini ko'rib chiqaylik.

1. "My boy, if I felt any better. I'd have to send for the doctor" old Spencer said, J.D.Salinger. CIR.p33

2. No, sir, not very much, I said.

3. Dear. Mr Spencer. That is all. (CIR. P36)

Bu gaplarda murojaat adabiy til me'yorlari talablariga mos keladigan shakllarda ifodalangan. Ularda biz Sir (2-chi gap); Mr. Spencer (3 gap); Dear, Mr. Spencer (3 gap); The Great srtrad later! (5 gap); My boy (5-chi gap, 1-chi gap); Landlord (6,7 gaplar) va boy (4chi gap); gentlemen. (8-gap).

Bularning hammasi so'zlovchining madaniy jihatdan ma'lum darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

Lekin tilda har doim, me'yor talablarida ro'y beradigan nutq vaziyatlari bo'lavermaydi. Muloqot aktlarinig aksariyat katta qismi norasmiy, tayyorgarliksiz vaziyatlarda sodir bo'ladi-ki so'zlovchida o'z nutqi ustida o'ylab o'tirishiga umuman vaqt bo'lmaydi. Natijada me'yordan chekinish holatlari murojaatda ham namoyon bo'ladi.

Masalan: 1) Well, Doc! (Hemingway. SS .p 36)

2) Don't talk that way, Doc! (E H. p36)

3) Now, Doc! (E H. p. 37)

Ularda biz quyidagi xususiyatlarni kuzatamiz:

1) YUqoridagi gaplarning ikkitasida "Oh" undov so'zi ishlatilgan (8 va 9)

2) Ulardan 3 tasida inkor shakldagi buyruq gaplarni kuzatamiz. (12, 2 gaplar)

3) 5 ta gapda buyruq shakllarini ko'ramiz. (14, 17, 8, 10, 9, 4 gaplar)

Tahlil va natijalar. Shuni aytish mumkin-ki, nutqning turli vaziyatlarida murojaatning mos keluvchi variantini tanlashga piruvchining xarakterini tavsiflovchi turli omillarga bog'liq. Xuddi mana shu nutqiy muloqot vaziyati talabiga binoan so'zlovchi me'yor talablari darajasida yoki me'yordan cheklangan shakllardan ham foydalanishi mumkin. Agar so'zlovchi o'zaro oshna-og'ayni yoki shu kabi yaqin bo'lsa, turli laqablardan ham foydalanish mumkin.

V.V.Vinogradovning konsepsiyasiga muvofiq (1975: 62) murojaat kategoriyasini biz ifodalanish rejasiga yoki mazmun rejasiga ega ob’ektivli-sub’ektiv kategoriya deya izohlaymiz.

Mazmun rejasida murojaat qator murojaat mazmunlar majmuasidan hosil bo‘lgan bo‘lib, ularning tasnifini yaratishga uzoq yillardan buyon ko‘plab tilshunos olimlar urinib kelishmoqda. O‘z vaqtida akademik D.V.Щерба (1947: 86) afsus bilan shuni ta’kidlagan, grammatika fanining rivojlanishiga qaramasdan na buyruq mayli shaklida ifodalangan belgilar tipologiyasi, na shunga yaqin intonatsiyalar tipologiyasini yaratish haqida harakat tugul gap ham bo‘lmadi.

Har qanday tilning nutqiy muloqotida murojaatning to‘g‘ri shaklidan foydalanish uchun ma’lum bir parametrlari yuzaga keladi. Jumladan, ingliz va o‘zbek murojaatlarining o‘ziga xos parametrlari murojaat ifodalovchi so‘zlarni to‘g‘ri tanlashni belgilashda muhim omil sanaladi. Qiyoslanayotgan tillar parametrlariga jins - yosh parametri; rol parametri; individual pozitsion parametr; hissiy va shaxsiy parametr; kommunikativ vaziyatning parametri; vaziyatning rasmiylik darajalarini murojaat ifodalovchi parametrlar sifatida kiritishimiz mumkin. Muloqotning turli vaziyatlaridagi barcha bu parametrlar kommunikatorlar tomonidan murojaatning shakllarini tanlashga turlicha ta’sir qiladi, ya’ni vaziyatga xosligi, chunki ularning har birining qiymatlari o‘zgarishi kommunikativ vaziyatning o‘zgarishiga olib keladi.

Notanish adresat bilan muloqotda, so‘zlovchi suhbatdoshning jinsi, yoshi (yosh toifasi), vaziyatdagi roli, ba’zan oilaviy ahvoli kabi adresat belgilarini inobatga olgan holda murojaat tanlaydi.Mas., - Lads, be silent! exclaimed Mr Yorke (Ch. Brontyo. Shirley). Bu – natijali muloqot o‘rnatish uchun bu kabi vaziyatlarda murojaat tanlash murakkab ekanligini isbotlaydi.

Muloqotda noma’lum adresatga murojaat qilgandak undalik-og‘zakinutq – ko‘chada, do‘konda, transportda, kutubxonada va boshqa jamoa joylarida nol murojaat formulasi asosan keng tarqalgan, ya’ni adresatni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatmasdan murojaat qilish. Ularga quyidagilarni misol tariqasida aytish mumkin: Excuse me, ...; Sorry, ...; Pardon me,…; I beg your pardon, ...; I say!; I say,…; Say…; Hi!; Hey! va boshqalar. Mas., Excuse me, which is the way to the theatre from here?; Excuse me, is there a post office near here; Excuse me, is that seat free?; Excuse me, could you tell me the time, please?.

Murojaatning bu kabi ko‘rinishlari yosh, jins, ijtimoiy farqlarni ko‘rsatmaydi, faqat informative aktamalga oshirilmoqda. Bu kabi murojaatlar nutqiy vaziyat va pozitsiyasiga moslanishi shart. Masalan, "Excuse me, could you tell me the time, please?" - ushbu xushmuomala shakl notanish odam bilan muloqot qilishda o‘rinli bo‘ladi va nutqning neytral uslubiga mos keladi, lekin bu murojaatni oila davrasida qo‘llansa g‘ayritabiiy yoki masxara deb qabul qilinishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, so‘zlovchi notanish adresatga suhbat davomida muloqot vaziyatiga moslab suhbatdoshlarni baholovchi murojaat shaklini ham tanlashi mumkin. Bu uslub o‘zbek tilida ham tez-tez uchratiladi: - Hoy qo‘rg‘on ustidagi azamatlar! Tartibingni tuzat, salomga tayyorlan! – deb qichqirib yurar edi. (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar).

1) O‘zbek tilida ogohlantirish vaziyatlarida “yo‘lbering, iltimos”, “o‘tib ketsam, maylimi”, “chetgachiqibturing, iltimos” kabi murojaati boralari ishlatilsa, ingliz tilida ular o‘rniga «Pardonme!»kechirim so‘rash murojaatini qo‘llashadi.

2) «Excuse me» (Pardon me; I beg your pardon) murojaatini politsiya xodimlariga, yuk tashuvchi yoki ofitsiantlarga nisbatan ishlatilmaydi.

Ammo, ba’zi hollarda ingliz so‘zlovchisi rasmiy muloqot yoki rasmiy bo‘lmagan muloqotlarda ham notanish adresatga iltifotli va xushmuomala bo‘lish maqsadida mumkin qadar rasmiy murojaatni ifodalovchi so‘zlar qo‘llaydi.

Xalq tamonidan o‘rnatilgan urf odatlarga ko‘ra, Sir yoshi, darajasi, mavqei yoki ijtimoiy mavqei kattaroq odamga nisbatan ishlatiladi. Mas., o‘quvchi→o‘qituvchi, askar→ofitser, sotuvchi→xaridor va x.k.: ‘Miss Havisham sent for me, sir,’ I explained. (Ch. Dickens. Great Expectations).Lekin, bu murojaat ayollarga nisbatan ishlatilmaydi.

Sir – O‘rta asrlarda Sire so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib70, u seigneur so‘zi bilan birga rivojlanib dastlab feodal erkaklar uchun hurmatni ifodalovchi rasmiy murojaat sifatida ishlatilgan: ‘It is not my house, sir; and Abbot says I have less right to be here than a servant.’ (Ch. Bronte. Jane Eyre). An’anaga ko‘ra, bu so‘z qonun va urf-odatlar bilan tartibga solinadi, sababi Sir qadimda ritsarlar va baronetlar (baronets) uchun ishlatilgan bo‘lsa: Sir, your glove ... (W. Shakespeare. The Two Gentlemen of Verona), bugungi kunda rasmiy idora vakillari uchun faxriy unvon nom sifatida ham qo‘llaniladi:

- You mean about Debra? - Yes, sir. About Debra. … (R. Crais. Chasing darkness,150-bet)

Miss - bu qizga yoki yosh ayolga nisbatan murojaat qilishning mumkin bo‘lgan shakli. Mas., ‘I should think I could, miss,’ said I, in a shy way. (Ch. Dickens. Great Expectations). Dastlab, miss XVII asrda mistress murojaatini misses/missusga aylantirilgan shakli edi va ularni qisqartma tarzda barcha ayollar uchun qo‘llanila boshlangan.

O‘zbek tili izohli lug‘atida Xonim so‘ziga quyidagicha ta’rif keltirilgan: 1. Ayollarga hurmat yuzasidan murojaat qilganda qo‘llaniladigan so‘z: Qudamiz Mirzakarim qutidorga va qudachamiz xonimga etib ma’lum bo‘lgaykim, bizlar bunda sog‘-salomatdirmiz. (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar.); 2.Hurmat yuzasidan ayollar ismiga qo‘shib aytiladi.Mas., Mukarrama xonim, Tamara xonim; 3. 98

So‘zlashuv tilida.o‘zal, barno ayol; xushbichim juvon. Hoy-hoy, xonim, yo‘l bo‘lsin, Qaerga yo‘rg‘alaysiz! (Qo‘shiqlar)71. Bu suveren yoki harbiy hukmdor uchun qo‘llanilgan Xon unvonining ayol ekvivalenti hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Murojaat vositalari va ularning lingvokulturologik o'rganishi, biror mamlakat yoki oila jamiyatida til, adabiyot, va kommunikatsiya odatlari va an'analari haqida ko'proq tushunishga yordam berishi uchun muhimdir. Bu, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish va muvofiqlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Murojaat kategoriyasini ifodalovchi vositalarning lingvokulturologik o'rganishi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish, tushunish va muvofiqlashtirish uchun juda muhimdir. Bu, global dunyo bo'ylab o'zaro munosabatni rivojlantirishda va murojaat tuzatishda katta yordam berishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Aripova A. Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari. Avtoreferat. – Toshkent, 2002.
2. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1980. – 121 b.
3. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘qituvchi, 1987. – B. 150.
4. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev YO. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent, 1992.
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
6. Brown Porger and Albert Gilman (1960). The pronounce of power and solidarity, in style, in language. – Cambridge, mass. Press. 253-276.
7. Ford Broun, Address in American English. The Journal of Abnormal and social psychology, p.1961. 62(2), 375-385 Ford FordБроwн, Р., & Форд, М. (1961).
8. David S A dictionary of linguistics and fonetics. –U.K. Blacrwell Publishshing Ltd, 2008. –p.36

UDK:808.3

Muhammadjon MAMAJONOV,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: Muhammadjon706@mail.ru
(ORCID: 0000-0003-3773-0552)

FarDU professori G.Z.Roziqova taqrizi asosida

IDROK VA UNING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya

Bir predmet, hodisa haqida sezgi a'zolari orqali barcha ma'lumotlar ongga qabul qilinadi, ular yaxlit holda jamlanib, ongda o'zlashtirilishi, so'ngra nutqda, faoliyatda aks etishi idrok jarayonining asosini tashkil qiladi. Bu jarayonning murakkabligi aks ettirishning subyektivligi bilan baholanadi, bir xil predmet, vaziyat shaxslar tomonidan turlicha aks ettirilishi – talqin qilinishi mumkin. Binobarin, idrok jarayonida sezgi, diqqat, xotira, tafakkur kabi psixologik jarayonlar, shaxsning tajribasi, hatto hissiyotlari ham ishtirok etishi mumkin.

Kalit so'zlar: muloqot jarayoni, idrok, kommunikativ jarayon, sixologik jarayonlar, shaxsning tajribasi, muloqotning perseptiv tomoni, appersepsiya.

ВОСПРИЯТИЕ И ЕГО ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Вся информация о предмете или событии поступает в сознание через органы чувств, собирается в целом, усваивается в сознании, а затем отражается в речи и деятельности и составляет основу процесса восприятия. Сложность этого процесса оценивается субъективностью отражения, один и тот же предмет, ситуация могут быть отражены - по-разному интерпретированы индивидами. Следовательно, в процессе восприятия могут быть задействованы такие психологические процессы, как интуиция, внимание, память, мышление, личный опыт и даже эмоции.

Ключевые слова: Процесс общения, восприятие, коммуникативный процесс, психологические процессы, индивидуальный опыт, перцептивная сторона общения, апперцепция.

PERCEPTION AND ITS PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS

Annotation

All information about an object or event enters consciousness through the senses, is collected as a whole, assimilated in consciousness, and then reflected in speech and activity and forms the basis of the perception process. The complexity of this process is assessed by the subjectivity of reflection; the same object or situation can be reflected - interpreted differently by individuals. Consequently, the process of perception may involve psychological processes such as intuition, attention, memory, thinking, personal experience and even emotions.

Key words: Communication process, perception, communicative process, psychological processes, individual experience, perceptual side of communication, apperception.

Kirish. Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning idroki bilan bog'liq jihatlar ham aks etadi, suhbatga kirishayotgan inson o'z idroki doirasida fikrlaydi, muloqot qiladi. Bunda suhbatdoshning nutqini tushuna olish ahamiyatlidir. Chunki nutqni tushunish uni idrok qilish uchun yo'l ochadi. Birgalikdagi faoliyatning muvaffaqiyatli ro'y berishi ko'p jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotgani, har bir ishtirokchida boshqa ishtirokchi haqida qanday tasavvurlar shakllanayotganligiga bog'liq. Bu esa muloqotning perseptiv tomonini o'rganish zaruriyatini vujudga keltiradi. Kishilarning bir-birini idrok etish jarayoni muloqotning ajralmas qismi bo'lib, u muloqotning perseptiv tomonini tashkil etadi [3]. I.Zemnyaya matnni va nutqni tushunishning uch bosqichi mavjudligini ta'kidlaydi:

1. Boshlang'ich bosqich. Bu bosqichda tinglovchi nutqning nima haqida ekanligini, muloqotning mavzusi nima ekanligini tushuna oladi, biroq masalaning mohiyatini anglay olmaydi.

2. Semantik tushunish bosqichi. Bu bosqichda tinglovchi tomonidan nafaqat nutqning nima haqidaligi, balki nima gapirilayotgani, masalaning mazmuni ham tushuniladi.

3. Yuqori bosqich. Ushbu bosqichda nutqning nima haqidaligi, mohiyati, mazmuni bilan bir qatorda nutqning nima uchun yaratilganligi, qanday lisoniy vositalardan foydalanilganligi ham idrok etiladi [1]. Aynan shu bosqichlar muloqotning samarali kechishini belgilovchi bosqichlar sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Muloqotda adresant tomonidan yuborilgan xabar doim ham ko'zlanganidek tushunilmasligi mumkin. Bunda adresatning idroki, saviyasi ahamiyatlidir. Professor S.Mo'minov tinglashning inson psixologiyasi bilan bog'liq xususiyati sifatida har kim o'zi xohlagan narsani eshitishini keltirib o'tadi [2]. Xabarni yetkazishda so'zlovchi boshqa ma'noni nazarda tutgan, lekin tinglovchi umuman boshqa ma'noda tushungan bo'lishi mumkin, bu so'zlovchi va tinglovchi idrok darajasining turlichaligi bilan bog'liq sanaladi.

Po'lat ota mahalladoshlariga vaziyatni tushuntirdi, "elga kelgan to'y", dedi g'amgin bir alfozda.

Nima, har kuni paxta terarmidik soqolimizni selkillatib, xo'jako'rsinga bir aylanib beramiz-da, – dedi bu xil ishlarni ko'raverib eti qotib ketgan oqsoqollardan biri.

– Har kuni biz termaymiz, to'g'ri, lekin bolalarimiz teradi-ku! – dedi Po'lat ota – "boshlang'ich sinflardan tashqari hamma maktab bolalari ertadan paxta yig'im-terimiga!" degan topshiriq ham keldi, Sotvoldivoy. Bunga nima deysan? Ertadan Ochil karnay ham ko'chada aylana boshlaydi. Aylanib, paykaldan tashqarida bitta odam ko'rsa, og'ziga karnayini tutib hayqirgancha, mashinasi bilan naq ustiga bostirib boradi. Borib, "Nega dalada, xalqning yonida emassan? Yo partiyaga, hukumatimizning paxta siyosatiga qarshimisan?.." deya baqirib, barini oldiga solib dalaga haydaydi.

– Tushunmadim, – gap boshladi soqol qo'yib, qo'liga hassa tutib olgan Erboy ota. – tushunmadim seni, oqsoqol, bu

bilan nima demoqchisan? Paxtani termaylik, raykomni, hukumatni chaqirig'iga "labbay" deb javob bermaylik, demoqchimisan? Yana mahalla oqsoqoli bo'liba!..

Muloqotdan keltirilgan parchada yaqqol namoyon bo'ladiki, Erboy Po'lat otaning fikrini noto'g'ri idrok etadi, natijada o'z talqinini verbal vositalar yordamida ifoda qiladi. Tushunmadim deb takrorlash ayni paytda ham idrok eta olmaganlik, ham ta'kid ma'nosini bildiradi, Erboy so'roq gaplardan foydalanish orqali o'zining qanday tushunganini bildirishga urinadi.

To'porining rus tiliga oid so'zni bilmasligi uning idrokiga ta'sir qilib, nutqiga ta'sir ko'rsatadi va suhbatdoshini tushunmasligiga sabab bo'ladi. Saidqul ham uning tushunmasligini bilgan holda, "geniy" so'zini o'z ma'nosida emas, "shinavanda" deb tarjima qilib beradi. Bundan tashqari, termin yoki maxsus sohalarga oid so'zlarni tushunmaslik ham aynan idrok jarayoni bilan bog'liq hodisa sanaladi: Jonivor xomroq bo'lsa qiynab qo'ymay, deb xavotir olib, jilovni tortgan edim, To'pori tag'in dalda berdi:

Beshinchiga uravering, Saidqul aka!

Qanaqa beshinchga? – dedim tushunmay.

Beshinchi tezlikka-da, dedi To'pori xoxolab. – sovitilgan ot, qo'rqmang, Saidqul aka! (Murod Muhammad Do'st, Lolazor)

Tahlil va natijalar. Idrok qilish, tushunish uchun inson ongida ma'lum bilimlar, tajribalar bo'lishi talab etiladi. Insonda mavjud bilim va tajribalar muloqotning to'g'ri idrok qilinishi uchun ahamiyatlidir. Yuqoridagi misolda Saidqul chavandozlar nutqida ham mashina tezligiga o'xshatib beshinchi tezlik kabi terminlar qo'llanishini tushunmaydi. Bu esa uzatilgan xabar ma'nosining iodrok etilishini qiyinlashtiradi. Shu sababli idrokka xos yana bir hodisa – appersepsiya ham muhim sanaladi. Tagma'noni tushunmaslik ham bevosita idrok jarayoni bilan bog'liq bo'lib, muloqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida tushunmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi:

Bobur otini Qosimbekning otiga yaqinlashtirib, past ovoz bilan so'radi:

– Asirlardan xabar olishga odam tayinlandimi?

Qosimbek bu savolning yashirin ma'nosiga tezda tushuna olmadi. – Amirzodam, qaysi asirlarni aytursiz?

Bobur otasi tengli Qosimbekning oldida qallig'ini tilga olishdan uyalar edi. U allanechuk iymanib qovog'ini solganidan Qosimbek gap nimadaligini fahmladi-yu: –Ha, asiralarmi? – deb Bobur aytolmagan so'zni o'zi aytdi. – Bu ishga No'yon Ko'kaldoshni tayin etgaymen. (Pirimqul Qodirov, Yulduzli tunlar, 129-bet)

Tagma'noni, bildirilmoqchi bo'lgan fikrning asl mohiyatini tushunish uchun ham oldindan ma'lum tajriba, bilimga ega bo'lish, ham yuqori idrok qilish qobiliyatini egallash talab etiladi. Aks holda, muloqotda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi yoxud suhbat umuman uzilib qolishi ham mumkin. Tagma'no aks etgan so'z o'yinini tushunmaslik ham idrok darajasi bilan bog'liq. Idrok, yuqorida ta'kidlanganidek, murakkab psixik jarayon sanaladi. Idrokka xos hodisalardan biri appersepsiya hodisasidir.

Appersepsiya – idrok jarayonining shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman ruhiy hayotining barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appersepsiya hodisasi tufayli odamlar o'zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadilar, ya'ni ular aynan bir xil narsani o'zining bilimi, saviyasi, nuqtayi nazari, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar [5]. Appersepsiya hodisasi muloqotda ham alohida o'rin tutadi. Muloqotning muvaffaqiyati suhbatdoshlarning appersepsiyasiga ham bog'liqdir. V.Belyanin appersepsiya mexanizmining retsipient, ya'ni tinglovchining muloqot jarayonidagi faolligi bilan bog'liqligini e'tirof etadi: "Aynan oldingi tajriba frazaning retsipient tomonidan qanday anglanishiga ta'sir ko'rsatadi" [1].

Muloqotning adekvatligini belgilovchi eng muhim omillardan biri bu kommunikantlarning umumiy bilim fondining mavjudligi, ramziy vositalarning umumiyligi va ijtimoiy tajribaning muayyan umumiyligidir. Shu bilan birga, muayyan milliy tildan foydalanishda muloqotning o'ziga xosligi quyidagilardan iborat: 1) ma'lum bir tilning grammatik qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan nutq zanjirini qurishning o'ziga xosligi va 2) tasvirlarning o'ziga xosligi, muayyan milliy madaniyat obyektlarini aks ettiruvchi ong [4].

Muhokama. Idrok uchun muhim jihatlardan biri ma'lum bilimlarga ega bo'lish sanaladi, shu sababdan ham muloqotda appersepsiya ahamiyatlidir. So'zlovchi suhbatdoshi haqida zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lmasa ham, muloqotda o'zaro tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

"Tushda kechgan umrlar" asarida rus millatiga mansub Grisha Toshkentga ko'chib kelgach, o'zbeklar udumlarini bilmagani va o'zbeklar haqida noto'g'ri tasavvarga ega bo'lgani sababli qo'shnisining gaplarini tushunmaydi, idrok eta olmaydi:

…Ehtiyotkorlik bilan kalitni buradi. Ostonada boshiga do'ppi, egniga ko'k to'n kiygan qariya turar edi. Qo'lida qappaygan sellofan xalta. Qiziq, Grishaning qo'lidagi boltaga qayrilib ham qaramadi.

– Xo'sh? – dedi Grisha "gapni cho'zma!" degan ma'noda.

– Gap bunday, qo'shni… - Qariya vazminlik bilan muqaddimani uzoqdan boshladi. – Men Ahmadaliyevman. Bugungi to'yning egasi. O'g'limni uylantirdim (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar).

Qariya muloqot davomida Grishani to'yga taklif qilib chiqsa, Grisha uyda yo'q bo'lgani, o'zining rus maktabda o'zbek tilidan dars bergani, farzandining to'yi uchun bir umr ter to'kib mehnat qilgani, bolalarini internatsionalizm ruhida tarbiyalagani, to'y kuni Grishaning noto'g'ri harakat qilganini tushuntirishga harakat qiladi. Keyin esa bir millatning udumlarini hurmat qilish zarurligini uqtirishga urinadi:

– Maqsad! – dedi Grisha tahdid bilan.

– Maqsad shuki, xalqning milliy udumlarini haqorat qilmang! – Qariya qo'lidagi sellofan qopchasini uzatdi. – Bu – sizning nasibangiz!

Grisha esankirab qoldi.

– Pora, deng! – dedi hushini to'plab. – Nima, meni sotib olmoqchimisiz?

Qariya allanechuk osoyishta kuldi.

– O'zbekda qo'shnining haqi degan gap bor. Siz to'yda qatnashmadingiz (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar).

O'zbeklarda to'ylarga qo'shnini albatta taklif qilish zarurligi, to'yga qatnasha olmasa, unga nasiba olib kirilishi odati mavjudligini rus millatiga mansub Grisha tushunmaydi, chunki u bundan bexabar edi. Aksincha, Grisha o'zining o'zbeklar haqidagi tasavvurlariga asoslanib, qo'shnisi olib chiqqan narsani pora deb o'ylaydi. Grishaning tasavvuriga ko'ra, o'zbeklarning barchasi poraxo'r, ular pora berib ish bitirishni yaxshi bilishadi, butun mamlakatda "o'zbeklar ishi" ovoza bo'lgan, O'zbekistonni poraxo'rlardan qutqarish kerak. Ana shunday yanglish tasavvurlariga asoslangan holda Grisha qo'shnisining o'zbekona udumlarga amal qilishini pora berish sifatida tushunadi. Bu holat esa muloqotda verballashib, Grisha tomonidan Pora, deng! Nima, meni sotib olmoqchimisiz? gaplarining yuzaga chiqishi uchun asos vazifasini bajaradi. Demak, appersepsiya idrok bilan bog'liq hodisa bo'lib, appersepsiya yordamida insonlar o'z tasavvurlari, bilim, tajribalariga asoslangan holda muloqotga kirishadilar. Inson ongida mavjud bilimlar tilga ko'chib, verballashishida appersepsiya hodisasi ham muhim sanaladi.

Pastga tushsa, aksiga olib, yo'lak ro'parasidagi harrakda Klava xola o'tirgan ekan. Grisha uni yoqtirmas edi. O'lgudek ezma kampir!

Salom, Klavdiya Sergeevna! – dedi qaddini g'oz tutishga urinib. Klava xola ensasi qotib, yuzini o'girdi.

Kecha qanaqa "qahramonlik" ko'rsatganingni bilasanmi? – dedi qahr bilan.

Nima qipman?!

Ahmoq! – Klava xola olmadek mushti bilan xarrakni urdi. – Nima haqqing bor birovning to'yini buzishga!

Men? Men buzibmanmi! Grisha astoydil hayratlandi. – Anavining o'zi urdi-ku meni! Militsiyaga shikoyat qilaman!

Boraqol, dedi Klava xola achitib. Ko'ramiz, qo'lingdan nima kelarkan? Odamlarga o'xshab, to'yda mehmon bo'lib o'tirsang, o'larmiding? Qirq besh yildan beri shular orasida yashayman, ahmoq! Bunaqa bag'rikeng xalq yo'q dunyoda. Men bilaman-ku! (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar, 54-bet)

Xulosa. Biror millat, uning madaniyati haqida aniq va to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lmaslik oqibatida Grisha berilgan hadyani pora sifatida tushungan bo‘lsa, ko‘p yillardan buyon o‘zbek millati ichida yashab kelayotgani uchun Klava xola bu holatni bag‘rikenglik deb tushunadi. Appersepsiya hodisasi idrok jarayonida hodisalarning mohiyatini, lisoniy birliklarning aniq ma’nosini ilg‘ashda shu jihatdan muhim sanaladi.

Shu o‘rinda V.Belyanin muloqotga nafaqat appersepsiya, balki ehtimoliy prognozlash ham katta ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Bunda appersepsiyaga, ya’ni saviya, dunyoqarash, oldingi bilim, tajribaga asoslangan holatda muloqotning qanday kechishini oldindan tahmin qilish nazarda tutiladi [1]. Bunday holda ehtimoliy prognozlash muloqot jarayonida suhbatdoshning qanday lisoniy birliklardan foydalanishi, suhbatni qanday olib borishi, qanday yakunlashi haqida ma’lum tasavvurlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Qachonlardir bo‘lib o‘tgan samimiy suhbat keyingi suhbatning ham samimiy va pozitiv kechishi haqida suhbatdoshlarga signal bersa, bosim ostida bo‘lib o‘tgan muloqot ta’sirida tinglovchi keyingi muloqotning ham bosimli, asabiy ruhda o‘tishini taxmin qilishi mumkin. Ba’zi insonlarga "xos" so‘z va iboralar mavjud bo‘ladi. Bu insonlarning nima deyishi, qanday lisoniy vositalarni qo‘llashlarini oldindan taxmin qilish mumkin. Bu ham ehtimoliy prognozlashning bir ko‘rinishi sanaladi.

Demak, idrok muloqot uchun muhim jarayonlardan biri sanalib, muloqotda suhbatdoshlar bir-birlarini to‘g‘ri tushunishlari, o‘zaro muvaffaqiyatli muloqot o‘rnatishlarida individual idrok darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Белянин В. Психолингвистика. Учебник. –Москва: «ФЛИНТА», 2016.
2. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий- лисоний хусусиятлари. Монография. –Фарғона.
3. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. –Toshkent, 2006.
4. Шхапацева М.Х. Коммуникация в зеркале психолингвистики// https://cyberleninka.ru/article/n/kommunikatsiya-v-zerkale-psiholingvistiki
5. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. –Toshkent, 2009. –B.157.
6. Purba Norita. The role of psycholinguistics in Language Learning and Teaching. Tell Journal, Volume 6, Number 1, April 2018. – P.47.
7. P.FraisseLa psycho-linguistique // Problems de psycho-linguistique. – Paris, 1965. – P.5.

Manzura MAMAJONOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail:manzurawebster94@gmail.com

PhD A.Murtazayev taqrizi asosida

IMPORTANCE OF IMPROVING PRAGMATIC COMPETENCE OF ESP LEARNERS.

Annotation

Recent years teaching English language became more complicated process. The reason is advances in teaching methods, interactive activities and implementation of technology. Furthermore, students are already coming to university with fundamental knowledge of English language. Even in universities where English is taught as ESP, learners possess at least elementary level. Some students obtained IELTS certificate which proves their ability in terms of speaking, writing, listening and reading. However, focusing only to these four skills does not guarantee to be fluent in English language. Pragmatic competence also plays crucial role in this process. Methods like observation, questionnaire and quantitative data collection are used in this research. The paper is focuses on improving the importance of improving pragmatic competence of ESP learners.

Key words: English for Specific Purposes (ESP), pragmalinguistic norms, pragmatic competence, intercultural pragmatics, social context, communication.

ВАЖНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ ESP.

Аннотация

В последние годы обучение английскому языку стало более сложным процессом. Причиной тому - прогресс в методике преподавания, интерактивные занятия и внедрение технологий. Кроме того, студенты уже приходят в университет с фундаментальными знаниями английского языка. Даже в тех университетах, где английский преподается как ESP, учащиеся владеют как минимум начальным уровнем. Некоторые студенты получили сертификат IELTS, который подтверждает их способности в области говорения, написание, прослушивание и чтения. Однако концентрация только на этих четырех навыках не гарантирует свободного владения английским языком. Прагматическая компетенция также играет решающую роль в этом процессе. В данном исследовании использовались такие методы, как наблюдение, анкетирование и количественный сбор данных. Статья посвящена повышению важности совершенствования прагматической компетенции учащихся ESP.

Ключевые слова: Английский язык для специальных целей (ESP), прагмалингвистические нормы, прагматическая компетенция, межкультурная прагматика, социальный контекст, коммуникация.

ESP STUDENTLARINING PRAGMATİK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLAHSTIRISHNING AHAMIYATI.

Annotatsiya

So'nggi yillarda ingliz tilini o'rganish yanada murakkab jarayonga aylandi. Buning sababi o'qitish usullari, interaktiv metodlar va texnologiyani joriy etishdagi yutuqlardir. Bundan tashqari, talabalar ingliz tilini fundamental bilimlari bilan universitetga kelishadi. Hatto ingliz tili ESP sifatida o'qitiladigan universitetlarda ham talabalar kamida boshlang'ich darajada gapirishadi. Ba'zi talabalar IELTS sertifikatiga ega bo'lib, ularning gapirish, yozish, tinglash va o'qish qobiliyatlarini tasdiqlaydi. Biroq, faqat ushbu to'rtta ko'nikmaga e'tibor qaratish ingliz tilida ravonlikni kafolatlamaydi. Bu jarayonda pragmatik kompetentsiya ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqotda kuzatish, anketalar va miqdoriy ma'lumotlarni yig'ish kabi usullar qo'llanildi. Maqola ESP talabalarining pragmatik kompetentsiyasini takomillashtirish ahamiyatini oshirishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), pragmalingvistik me'yorlar, pragmatik kompetentsiya, madaniyatlararo pragmatika, ijtimoiy kontekst, muloqot.

Introduction. In comparison to well-established fields such as phonetics and syntax, pragmatics is regarded to be a relatively recent discipline. 'Pragmatics explores the relationship between language form and a context, where that form is utilized, and how this connection is seen and realized in social interaction,' according to Taguchi (2019, p. 1). This definition of pragmatics considers various variables, including linguistic form, context, language use, interaction, and society. These factors are closely connected each other. Most learners focus only on linguistic form as they believe that this is the most difficult part. They learn English grammar but use language in the way of their native one. For example, during conversation they only think about word order, grammar rules but in terms of context, appropriate vocabulary, society they rely on L1. In this way speakers do not struggle if both speakers are from the same community. This leads to misunderstandings if the partner is foreigner or native speaker of English language. Lack of pragmatic competence is noticeably influences to the achievement of successful conversation in this process.

Yusupova (2021) considers that pragmatic competence aids in the study of language's function as a tool of cognition, given that language is a means of generating a specific notion.

Finally, if the use of language is part of the content of speech communication, and every communicative act includes a moment of contact between communication partners, pragmatic competence aids in the study of language's primary function - communication. (p.5). Mastering pragmatic competence serves to communicate without fails and misunderstandings during conversation. Rather than being categorically "right" or "wrong," pragmatic norms refer to a set of tendencies or social practices within which particular actions are considered more or less acceptable, appropriate, or desirable under current circumstances. Furthermore, pragmatic norms vary across languages and civilizations, as well as within a single language, language variation or culture, and can change dynamically over time and depending on circumstances.

Literature review. There are myriad of hypothesis in terms of pragmatics by different linguists. Most of them proved its importance in language acquisition. Pragmatics conveys numerous meanings depending on context. Isihara and Cohen (2010) described this term as a term which implies practicality. Pragmatics need to be used in all four skills: receptive (listening and reading), productive (speaking and writing). Most language learners think that pragmatics is not important in receptive skills.

However, comprehending context appropriately is also significant process. Without understanding completely the context it is impossible to respond properly.

In order to make logically and semantically appropriate conversation it is useful to acquire pragmalinguistic and sociopragmatic norms. Mirzaei, Roohani & Esmaeili (2012) pointed out that to reduce pragmatic failure, students should understand both pragmalinguistic and sociopragmatic components of using the target language. The word "pragmalinguistics" refers to understanding the techniques for carrying out speech intents as well as the linguistic objects used to communicate these intentions, whereas "sociopragmatics" refers to understanding the social factors that control language use. (79-102).

According to McConaughey (2019), pragmalinguistic norms are a standardized way of understanding the correspondence between linguistic forms and functions, while sociopragmatic norms involve an association—normative according to native speakers and their conception of appropriate language use—between the choice of a particular form and contextual features such as age, gender or role, among others. The ability to manage the complex interaction of language, language users, and interaction conditions is called pragmatic competence.

Zaxarova (2020) pointed out that pragmatics in ESP is based on the fusion of various concepts and theories, for example, the theory of speech acts, the concept of communicative competence, the principle of cooperation, and the theory of politeness. Thus politeness leads to positive conversation regardless nation and culture in any languages. In order to be able to support conversation between speakers of other language it is essential to be aware of the intercultural pragmatics.

Firth and Wagner (as cited in Block 2007) represented the concept of interlanguage arose at a time when SLA was dominated by extremely structuralist views of language, with language learning viewed essentially as acquiring a linguistic code. Although using the "interlanguage" idea to frame L2 pragmatics learning helped to widen the scope of SLA, it also introduced an ontology of language as a highly rule-governed system and the premise that native-like knowledge is the ultimate goal of learning.

According to Kecskes (2014) Intercultural Pragmatics examines how language is used in social interactions between individuals with various first languages, communicating in a common language, and representing diverse cultures. In these encounters, current pragmatic norms and developing co-constructed features coexist to variable degrees, creating a synergistic communication process. (p.14). Intercultural Pragmatics is a socio-cognitive viewpoint that emphasizes the importance of both individual and social experience in constructing and comprehending meaning. This is the reason why language learners struggle in constructing conversation with native speakers.

Research methodology. For this research students of University of Management and Future technologies were chosen. Freshmen students were attracted as English is taught only 1 year at this university. One group was taken for experiment with different levels. The lowest level student was in A1 level and the highest one is B2 level. The specialization of students was computer programmer. There were 10 students in group.

Interview was taken so as to identify her language needs, interests, weaknesses, strengths and background knowledge. It helped also to be aware of her language experience and language background.

Observation was also conducted to be sure of their level of English language and learning preferences of students. During the research researcher observed 3 lessons. It helped to identify the topics and teaching methods of instructor in the classroom.

Quessionnaire was taken to identify problems and weaknesses of students in pragmatic competence.

Quantitative data collection was used to analyze collected data. Analysis was made through comparing and contrasting the results of observation, answers during interview and questionnaire. Observation helped greatly to see real competence of participant and prove hypothesis.

Analysis and results. According to the interview it was clear that there were 5 A1 level, 2 A2 level, 2 B1 level and 1 B2 level student in the group. Most student are eager to learn English as they pointed out that in order to work in international companies they need English language fluently. There were all male students in the group. Most of them mentioned that they need mostly speaking skill, because they tend to fail during interviews. However, some of them said that they struggle in writing skill also while writing codes for programs. All students preferred to learn in a interactive way with activities especially based on technology.

Through observation it was clear that English classes are mainly taught in traditional methods. Lessons are based on teaching grammar structures and vocabulary. Terminology is priority during lessons. However, there is no any focus on communicative competence of learners. In addition, writing skill is also ignored during lessons.

For questionnaire was consists of 2 parts. 5 of them were in a test form and 5 of them practical tasks. They were based on pragmatic competence.


Figure 1. Statistical analysis of test 1

The result showed that 42 % of students are aware of difference between 2 cultures. Nobody knows what pragmatic competence is. 36 % of students prefer to learn English language based on computer. 6% of them think that body language is important. Finally only 15 % are able to start and finish writing letter in English language.

Other 5 tasks were to translate from Uzbek into English or complete sentences which are taken from different contexts.

Task 1 was completing the dialogue:
A: Hello, I missed you   B:…

Task 2 was taking appropriate action according to context.

Boss: It is cold

Employer: A). Answering: Yes it is; B). Close the window; C) Put of your jacket and give him

Task 3 completing the dialogue:

A: You are so brave and hardworking employer   B:….

Task 4 translate the word phrase "shvedskiy stol" from context in wedding.

Task 5 Reject your boss in polite way

Figure 2. Statistical analysis of task 2

According to table 34 % of students could deal with task 1. 27 % students could take appropriate action in task 2. 12 % of students could complete dialogue successfully in task 3. Only 1 student could translate ""shvedskiy stol" appropriately in English which is "smmorgasboard" others just translated word by word as "Swedish table" and fail communication. 18 % students could reject politely to their boss.

The result showed that 90 % of students are not able to comprehend and convey pragmatics in the communication. This proved how it is necessary to improve pragmatic competence of students in ESP.

Conclusion. Dan (2016) mentioned that pragmatic linguistic competence is built on grammatical competence, and it is an important component of communicative competence when learning a foreign language. It gives an adequate interpretation of speech actions by taking into account the situational significance of the utterance, socio-cultural context, mindset, age, education, and social standing of speakers, as well as the appropriateness and purposefulness of speech conventions. (p.2) According to Yule (as cited in Sharipov 2022) pragmatics in this sense is "the art of analyzing the unspoken". Leech mentioned that (as cited in Rühlemann, C., & Aijmer, K. 2014) the fundamental question in pragmatics is: "What does the speaker (writer) mean by what is said (written) and how is it understood by the listener (or reader) in a given situation?" (p.561)Communicative pragmatic competence is the capacity to utilize language effectively in a variety of social settings. This entails comprehending humor and sarcasm, recognizing nonverbal clues, knowing when and how to use polite language, and changing language to fit various audiences and circumstances. Essentially, it comes down to having social skills in terms of the language you use to interact with people and effectively communicate your message.

REFERENCES

1. Block, D. (2007). The Rise of Identity in SLA Research, Post Firth and Wagner (1997). Modern Language Journal. Retrived from https://www.researchgate.net/publication/229786631_The_Rise_of_Identity_in_SLA_Research_Post_Firth_and_Wagner_1997

2. Dan, L. (2016). Формирование прагматической способности как фактор развития российских кадров прикладного уровня. Педагогическое образование в России, (12), 88-91. Retrieved from https://core.ac.uk/reader/81697740

3. Ishihara, N., & Cohen, A.D. (2010). Teaching and Learning Pragmatics: Where language and culture meet. Great Britain: Pearson Education Limited.

4. Kecskes, I. (2014). Intercultural pragmatics. Oxford university Press. (P.14, 81) Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/330914780_Istvan_Kecskes_Intercultural_Pragmatics_New_York_Oxford_University_Press_2014_Pp_x_277_ISBN_978-0-19-0989265-5

5. Mirzaei, A., Roohani, A., & Esmaeili, M. (2012) Exploring Pragmalinguistic and Sociopragmatic Variability in Speech Act Production of L2 Learners and Native Speakers. The Journal of Teaching Language Skills. pp. 79-102.

6. McConachy, T. (2019). L2 pragmatics as 'intercultural pragmatics': Probing sociopragmatic aspects of pragmatic awareness. Journal of Pragmatics, 151, 167–176. https://doi.org/10.1016/j.pragma.2019.02.014

7. Sharipov, F. (2022). Pragmatic Competence as A Structural Component of Foreign Language Communicative Competence of Students. International Journal on Integrated Education, 5(6), 560-563.

8. Taguchi, N. (Ed.) (2019). The Routledge handbook of second language acquisition and pragmatics. Routledge.

9. Захарова,М.Н. (2020). К вопросу о прагматической компетенции студентов неязыковых направлений подготовки. Retrieved from https://scipress.ru/pedagogy/articles/k-voprosu-o-pragmaticheskoj-kompetentsii-studentov-neyazykovykh-napravlenij-podgotovki.html

10. Yusupova, N. N. (2021). ПРИМЕНЕНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Экономика и социум, (4-2 (83)), 1248-1253.

Buviniso MASHRABOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti kurs Tayanch Doktaranti
E-mail:buvinisomeliboyeva@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, dotsent T.Kuchkarov taqrizi asosida

THE ANALYSIS OF THE OBJECTS OF MEDIALINGUISTICS: DIFFERENT APPROACHES

Annotation
This article studies the different approaches to the objects of Media Linguistics, including radio, newspaper and magazine, transit media, television, Internet, and film language terms. Different approaches and analyzes of English, Russian, and Uzbek linguists to the terms are reviewed.
Key words: Linguistics, media, medialinguistics, mass media (media), mass communication, mass media - newspaper, magazine press, radio, television, internet and film language.

АНАЛИЗ ОБЪЕКТОВ МЕДИАЛИНГВИСТИКИ: РАЗНЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация
В данной статье изучаются различные подходы к объектам медиалингвистики, включая термины языка радио, газет и журналов, транзитных СМИ, телевидения, Интернета и кино. Рассмотрены различные подходы и анализы английских, русских и узбекских лингвистов к этим терминам.
Ключевые слова: Языкознание, СМИ, медиалингвистика, средства массовой информации (СМИ), массовая коммуникация, средства массовой информации – газета, журналь, радио, телевидение, Интернет и киноязык.

MEDIALINGVISTIKANING O'RGANISH OBYEKTLARI TAHLILI: TURLI YONDASHUVLAR

Annotatsiya
Ushbu maqolada hozirgi davr zamonaviy tilshunosligiga yangi tarmoq sifatida kirib kelgan Medialingvistikaning turli o'rganish obyektlari, jumladan radio, gazeta va jurnal, transit media, televideniya, internet va kino tili atamalariga izoh beriladi, ingliz, rus va o'zbek tilshunos olimlarinining bu atamalar xususida berilgan turli yondashuvlari va tahlillari ko'rib chiqiladi.
Kalit so'zlar: Lingvistika, media, medialingvistika, ommaviy axborot vositalari (OAV), ommaviy kommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari - gazeta, jurnal matbuoti, radio, televidenie, internet va kino nutqi va tili.

Kirish. Linguistika keng qamrovli fan hisoblanadi va u o'z navbatida sotsiolinguistika, pragmalinguistika, kognitiv linguistika, etnolinguistika, pragmalinguistika kabi boshqa tarmoqlarni ham o'z ichiga oladi. Albatta, bu tarmoqlar bir-biridan o'rganish obyektiga ko'ra farq qiladi. Medialingustika ommaviy axborot vositalaridagi til belgilarining maxsus funksionalligini o'rganishga qaratilgan linguistikaning zamonaviy tarmog'i hisoblanad. Medialinguistika yangi fan tarmog'i bo'lishiga qaramasdan, u ham ilmiy, ham akademik termin hisoblanib, allaqachon ilmiy jihatdan ham, akademik jihatdan hamkeng miqyosda o'rganilib kelinmoqda.

Medialingvistikasi ommaviy axborot vositalarini talqin qilish mexanizmi nima ekanligini o'rganishga imkon beradi, voqealar, media tasvirlarni yaratish uchun qanday lingvistik texnologiyalardan foydalanilganligini tahlil qiladi. Tillar va madaniyatlarning o'zaro ta'sirini hisobga olib, globallashuv davrida lingvistik imperializm kontseptsiyasi bilan tanishish, til o'rganishning an'anaviy ko'lamini kengaytiradi.

Medialingvistikaning har bir o'rganish obyekti bu fanning tarkibiy qismi hisoblanadi va ularning har birida ishlatilayotgan tilning tahliliga qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Radio bu axborot uzatish va almashinishda eng muhim vositalardan biri, va albatta, ommaviy axborot vositalarining eng dastlabki ko'rinishi deya ayta olamiz. O'z navbatida, radio tilini thalil qilish, o'rganish doimo tilshunoslarning diqqat e'tiborida bo'lib kelgan.

Nemis tilshunosi G.Kauffman radioda ishlatiladigan tilni tahlil qilib, uning sakkiz bosqichli o'zgaruvchan tipologik nazariy asosini ishlab chiqdi. U radiodagi til asosan rasmiy bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi, chunki radiostansiyalarning aksariyati hukumat tomonidan nazorat qilinadi. Shuningdek, u qisman norasmiy ekanligini ta'kidlaydi, chunki ko'ngilochar dasturlar va tok-shoular asosan norasmiy tilda olib boriladi. U radio tilining norasmiy yoki rasmiy ekanligini ularning qarama-qarshi xususiyatlaridan aniqlashga harakat qildi. U tilning o'zgarishi g'oyasini tushuntirdi, ya'ni agar radio mazmuni hukumatga tegishli bo'lsa, mahalliy tildan ko'ra rasmiy mavzular, ayniqsa xalqaro masalalar uchun hamma uchun eng ma'lum va har xil (ingliz tili) tildan foydalanish kerak [4].

Ingliz tilshunos olimlari K.D. Valentine, T.G.Kopcha va M.D.Vagle, fenomenologiyadan nazariya sifatida foydalanib, radio tilini ko'rib chiqdilar. Ular Qo'shma Shtatlardagi aksariyat radiostansiyalarda tadqiqot olib bordilar va radio tili yozma va og'zaki shakllarning kombinatsiyasi ekanligini aniqladilar. Shuningdek, ular radio turli xil vaziyatlardan kelib chiqib, turli nutq uslublaridan foydalanishi g'oyasini ilgari surdilar. Bu shuni anglatadiki, ular radio tili o'zgaruvchan va moslashuvchandir.

1968-yilgi Amerika prezidentlik saylovlarini radio orqali yoritilishi natijasida McCombs, M.Shaw, "Agenda-setting" nazariyasini taklif qildilar. Ushbu nazariya shuni ko'rsatadiki, ommaviy axborot vositalari har doim ham bizga nima haqida o'ylashimiz kerakligini aytishda juda muvaffaqiyatli bo'ladilar, bu esa ommaviy axborot vositalarining o'z auditoriyasiga katta ta'sirini anglatadi [6].

Medialingvistikaning yana bir o'rganish obyekti bu televideniyadir. Shubhasiz, ayta olamizki, televideniya bu ommaviy axborot vositalarining eng mashhur, eng keng tarqalgan va katta auditoriyaga ega vositasidir. Bizning fikrimizcha, televideniya nafaqat til, balki vizual nuqtai nazaridan ham tahlil qilinishi kerak. Televideniyaning tomoshabinga ta'sir doirasi radioga nisbatan kengroq, chunki inson ongi nafaqat eshitish orqali, balki ko'rish orqali ham malumotlarni yaxshiroq qabul qiladi va almashadi.

Ingliz tilshunosi Jon Tompson o'zining "Ommaviy axborot vositalari va zamonaviylik" kitobida zamonaviy ommaviy axborot vositasi sifatida televideniya tilini tahlil qiladi va "Ishlab chiqarish-matn-auditoriya" nazariyasini olg'a suradi. Uning nazariyasi ko'ra, har qanday televideniya orqali beriladigan nutq,

avvalombor, ishlab chiqariladi, shakl beriladi, sayqallanadi va matn holiga keltiriladi. Ana shu matnning yoki nutqning qabul qiluvchilari, albatta, bu auditoriyadir. U uchlikni bir-biri bilan uzviy bog'liqligini va ular televideniya tilining asosiy tarkibiy qismi ekanlini ta'kidlaydi.

Televideniya orqali efirga uzatiladigan dasturlaning, kinofilmlarning xilma-xilligi, tabiiyki, undagi til tuzilishini tahlil qilishni murakkablashtiradi. Ingliz tilshunosi M.Bednarek televideniya tilini o'rganishni murakkabliklarini hisobga olib, bir qancha yo'nalishlarini taklif qiladi:

televideniya orqali efirga uzatiladigan ko'p funksiyali dialogik nutqlarni o'rganish;

televideniya dasturlarining asosiy lingvistik xususiyatlarini aniqlash va tushuntirish;

teledialogda kodlashtirilmagan til hodisalarini tushuntirish;

mediamahsulotni omma e'tiboriga molik darajada ishlab chiqarish va efirga uzatish;

turli nutq uslublaridan foydalanishni tahlil qilish [2,4].

Yana bir ingliz tilshunosi R.Wardgaugh televideniya nutqini bir qancha ta'riflarini va o'ziga xos xususiyatlarini keltirib o'tadi:

televideniya nutqi tomoshabinga bog'liq bir qancha funksiyalarni bajaradi;

televideniya nutqi hayotiy reallikni aks ettiradi;

televideniya nutqi innovatsion xususiyatga ega bo'lib, kodlanmagan tilni o'z ichiga oladi.

Medialingvistikaning yana bir o'rganish obyektlaridan biri transit media: bannerlar, posterlar va e'lonlar taxtasidagi reklama tilidir. Reklama tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda stilistik vositalarning keng qo'llanilishidir. Reklama tili, asosan, lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalangan holda vujudga keladi, va u o'zining til qurilishiga ega deya ayta olamiz, chunki reklama nutqini hosil bo'lishi uchun qabul qiluvchining yoshi, madaniy va ijtimoiy qarashlari, psixologiyasi, yoshi hisobga olinadi [5].

Reklamani yaratishda ko'pincha til uslubi muhim ahamiyatga ega, chunki reklama qanday xabarlarni taklif qilmoqchi ekanligini to'g'ridan-to'g'ri tushuna olmaydi. Bizga ko'pincha reklama orqali aytiladigan gaplar yoki jumlalarning yashirin ma'nosi beriladi, shuning uchun reklama tilini stilistik bo'yoqqa ega deb ayta olamiz [7]. Ingliz tilshunos olimlari Mirabella va Ariananing fikriga ko'ra, reklama til uslublarini to'rt toifaga bo'lish mumkin: morfologik, sintaktik, ritorik va shiorli.

Reklama tiliga qo'yiladigan yana bir talablaridan biri bu tilning kuchli ta'sirga ega bo'lishidir. Agar siz biror insonga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lsangiz yoki uni biror ish-harakat qilishga undamoqchi bo'lsangiz, nutqingiz lisoniy va nolisoniy lingvistik vositalar bilan boyitilgan bo'lishi kerak. Lisoniy lingvistik vositalarga reklamaning matni, shiorini kirgizadigan bo'lsak, nolisoniy lingvistik vositalar o'z ichiga reklamadagi vizual tasvirni, musiqani, shovqinni oladi [8].

Demak, reklama tilining obyekti bu tomoshabin, subyekti esa tomoshabinning e'tiborini jalb qilishdir. Biz reklamani, uning matnini yaratishga ta'sir e'tuvchi omillar deb quyidagilarni taklif qila olamiz:

tomoshabinning jinsi;

tomoshabinning yoshi;

tomoshabinning madaniy qarashlari.

Fikrimizga izoh beradigan bo'lsak, reklama matnlari qaysi jins vakiliga qaratilganligiga ko'ra farqlanadi, masalan, ayollar uchun yaratilayotgan reklama matnlari, asosan, uslubiy va stilistik bo'yoqqa boy, naqshinkor, gajakdor bo'ladi, erkaklar uchun ishlangan reklama matnlarida qisqalik, lo'ndalik va ifodaviylik kuchli ro'l o'ynaydi. Shuningdek, tomoshabinning yoshi ham muhim ta'sir vositasi sanaladi. Yoshlar va bolalar uchun musiqaviy, o'ynoqi, shovqinli yoki rangdor, keksalar uchun esa sokin jimjimadorlikdan holi reklama matnlari yaratiladi. Madaniy qarashlarga to'xtaladigan bo'lsak, g'arbda yaratilayotgan reklamalarda ochiqlik, hissiy bo'yoqdorlik va shovqin kuchli, sharq madaniyatida esa milliy, hissiy kechinmalardan holi reklama matnlarini uchratish mumkin.

Medialingvistikaning yana bir o'rganish obyekti bu gazeta va jurnallar matnlaridagi tildir. Gazetani ommaviy axborot vositalarining eng dastlabki ko'rinishi deya ayta olamiz va hozirgi kunda gazetalar o'zining taraqqiyot cho'qqisiga erishgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ommaviy axborot vositalarining eng dastlabki ko'rinishi sifatida gazeta va jurnallar nutqidagi tilni o'rganish Yevropa, Amerika va Avstraliya, shuningdek, o'zbek tilshunos olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Ingliz tilshunos olimlari D.Kristal va D.Davining e'tiroficha, gazeta va jurnallardagi til juda ham boy va xilma-xil bo'lib, bir gazeta yoki jurnal bir nechta nutq uslublaridan foydalana oladi [3; 990]. Darhaqiqat, bir gazeta turli xil ma'lumotlarni, ko'ngilochar sahifalarni o'z ichiga oladi, masalan, o'zbek gazetalaridan biri hisoblangan "Darakchi" o'quvchilarga ham eng so'nggi yangiliklarni, turli badiiy hikoyalardan parchalarni, bolalar uchun sahifani, interviyularni o'z ichiga oladi. Tabiiyki, har bir sahifaning til uslubi, stilistik va lingvistik vositalardan foydalanishi turlichadir.

O'zbek tilshunos olimi A. Abdusaidovning fikricha, gazeta tili ko'p funksiyalilik xususiyatiga ega, chunki u bir qancha vazifalarni bajaradi, jumladan, informativlik, targ'ibot, tashkilotchilik, tarbiyaviylik, tashviqot, reklamalilik, ta'sirchanlik. Ta'chirchanlik matbuotning ijod jarayoni bilan bog'liq. Gazetada ta'sirchanlikni ta'minlashda quyidagi xususiyatlar nazarda tutiladi: obrazlilik, ommaviylik, emotsionallik, ekspressivlik, ixchamlik va konkretlilik [1].

Medialingvistikaning yana bir o'rganish obyekti bu internet tilidir. Internet tili ommaviy axborot vositalarining eng so'nggi, zamonaviy ko'rinishidir. Internet hayotimizga o'tgan asrda kirib kelgan bo'lishiga qaramay, hozirgi kunda foydalanish darajasi eng yuqori ommaviy axborot vositasidir.

Internet va unda ishlatiladigan tilni o'rganish tilshunos olimlarni shunchalik qiziqtirdiki, natijada tilshunoslikda yana bir yangi yo'nalish "Komputer lingvistikasi" vujudga keldi. Komputer tilshunosligi - yozma va og'zaki tilni tahlil qilish va tushunish uchun kompyuter fanini qo'llashdir. Fanlararo soha sifatida komputer tilshunosligi kompyuter fanlari va sun'iy intellekt (AI) bilan birlashtiradi va tilni hisoblash nuqtai nazaridan tushunish bilan shug'ullanadi. Til bilimiga ega bo'lgan kompyuterlar odamlarning mashinalar va dasturiy ta'minot bilan o'zaro aloqasini osonlashtirishga yordam beradi.

Bizning fikrimizga ko'ra, internet tili ham rasmiy, ham norasmiy uslubdan keng foydalanadi va bunda norasmiy uslubdan foydalanish darajasi ancha yuqori. Chunki, hozirgi kunda internetdan asosan kundalik so'zlashuv, fikr almashish uchun foydalanilmoqda.

Bizning tadqiqot obyektimiz bu medialingvistikaning ajralmas qismi hisoblangan kinolarning tilini tahlil qilishdir. Kinofilmlarni, shubhasiz, san'at va madaniyatning bir ko'rinishi deyishimiz mumkin. Har bir san'at asari o'zining ma'lumot tashish va almashish usuliga ega, jumladan kinolar ham. Lisoniy va nolisoniy lingvistik vositalar, albatta, kinolarning asosiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Tabiiyki, kinofilmlarda tilning turli uslublarida, ko'rinishlaridan, qo'llanilish doirasiga ko'ra turli xillaridan keng va samarali foydalanib kelinmoqda. Kinolar tili tahlil qilinganda quyidagi to'rt elementga asosiy urg'u beriladi:

Mise en scene (kino bo'layotgan sahna)

Montaj

Kinomatografiya

Tovush

Yuqorida keltirilgan elementlarni izohlab o'tishni joiz deb topdik. Avvalo, kinoni sahna, ya'ni orqa fonsiz tasavvur etib bo'lmaydi va u kinoning eng asosiy ajralmas qismi hisoblanadi. Orqa fon o'z ichiga suratga olish kadrida mavjud bo'lgan to'liq muhitni, kastyumlar, landshaft, yorug'likni o'z ichiga oladi. Kinematografiya esa ekrandagi harakatni suratga olish uchun filmni yaratish jarayonidagi yorug'lik va kamerani boshqarishni o'z ichiga oladi. Muayyan filmning dizayni, uslubi va ohangi rejissyor, operator va prodyuser bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Kinematografiya kadrlar, kadrlar o'lchami, suratga olish uzunligi, kamera burchagi va fokus chuqurligi kabi bir qancha komponentlardan iborat bo'lib, ular mohirlik bilan qo'llanilsa, kino sifati ham yuqori bo'ladi[9].

Rejissyorlik, aktyorlik, kinematografiya, ovozli dizayn va maxsus effektlarni mahorat bilan muvozanatlash - bu montajga

olib keladigan murakkab protsedura. Filmning suratlari muayyan effektlarga erishish yoki ishlab chiqarish uchun birlashtiriladi. Asosan, montaj - bu haqiqiy filmni yaratish bilan yakunlanadigan sintez jarayoni. Uzluksiz montaj orqali bir kadrdan ikkinchisiga uzluksiz o‘tish va mantiqiy o‘tish mumkin.

Kino nutqini jozibador bo‘lishida tovush ham muhim ahamiyatga egadir. Dastavval, filmlar faqatgina tovushlardan, musiqadan iborat bo‘lgan, dialogik, monologik nutq esa keyinchalik zamonaviy texnologik vositalarning inson hayotiga kirib kelishi bilan kinolarda ham qo‘llanila boshlandi.

Kino tilini tahlil qilish natijada, uning bir to‘rt turdagi ko‘rinishini tavsiya qila olamiz:

Dialogik
Monologik
Vizual

Taktik

Kinolarda dialogik muloqot kinoqahramonlar o‘rtasidagi nutqdir. Bu nutq turli xil uslublarda, ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin va kinoqahramonlar turli lingvistik, stilistik, pragmatik vositalardan foydalana oladi, asosan, og‘zaki uslubga xosdir. Monologik muloqot esa, kinoqahramonlarning ichki hissiyotlari, kechinmalarini ifoda etishga qaratilgan o‘z meni bilan kurash olib borish jarayonidir. Monologik muloqot nutqining tili ham boy va jozibadordir. Kino tili nafaqat lingvistik vositalardan foydalangan holda tomoshabinga ta’sir eta oladi, balki vizual hamda taktik ko‘rinishda ham ta’sir doirasi kengdir. Kinodagi sahna, kinoqahramonlarning ko‘rinishi, kadrlardagi muhit ham tomoshabinga ma’lum darajada ma’lumot berish va almashinish, ta’sir etish uchun ham qo‘llaniladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdusamatov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Filol.fan doktorlik dis. Avtoreferat. Samarqand, 2005, 17.
2. Bednarek, M. Language and Television Series. A Linguistic Approach to TV Dialogue. Cambridge: CUP. 2018. P 4.
3. Crystal, D. Davy, D. (1969). Investigating English Style.// Linguistic Society of America Vol. 47, No. 4, Dec., 1971. London. pp. 990-1000
4. Kaufmann G. Language maintenance and reversing language shift. //Volume 3: An international handbook of the science of language and society. 2008. pp 431–101442
5. Mamirova D.Sh. Basic features of advertising language. //Novateur publications. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal Issn No: 2581 - 4230 volume 6, issue 10, Oct. -2020. 325.
6. McCombs M, Shaw DL. The agenda-setting function of the mass media. 1972. Public Opin Q 36:176–185
7. Mirabela, A., & Ariana, S. M.The stylistics of Advertising. Fascicle of Management and Technological Engineering(2), 2010.183-188.
8. Qudratova Sh.Q. Reklama matnining o‘ziga xos xususiyatlari. Oriental Reneissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2, Issue 6. Issn 2181-1784. Toshkent. Iyun 2022. 398. 188-191.
9. Raja a Hamid Salih va Wala a Hashim Mohammed. Linguistic Concepts in Filmmaking World: A Study on Selected English // Movies and Series ISSN: 2708-4663 DNNLD :2020-3/1128 385-400

UDK: 82/81

Zeboxon MUSAYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi
E-mail:Zebohon121212@mail.ru

F.f.d, dotsent D.Saidqodirova Taqrizi asosida

THE CONCEPT OF PRAGMATICS AND ITS SIGNIFICANCE IN THE COMMUNICATION PROCESS
Annotation

This article examines the study of pragmatics, which is one of the relatively new fields of linguistics, and interprets the definitions that scientists around the world have given in relation to pragmatics and pragmalinguistics, as well as the tasks they currently perform in the process of learning a language.
Key words: syntactics, semantics, communication, pragmatics, speech acts, linguistic pragmatics, pragmatic competence.

ПОНЯТИЕ ПРАГМАТИКИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В КОММУНИКАЦИОННОМ ПРОЦЕССЕ
Аннотация

В этой статье рассматривается изучение прагматики, которая является одной из относительно новых областей лингвистики, и интерпретируются определения, которые ученые всего мира дали в отношении прагматики и прагмалингвистики, а также задачи, которые они выполняют в настоящее время в процессе изучения языка
Ключевые слова:синтактика, семантика, коммуникация, прагматика, речевые акты, лингвистическая прагматика, прагматическая компетентность.

PRAGMATIKA TUSHUNCHASI VA UNING MULOQOT JARAYONIDA AHAMIYATI
Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikning nisbatan yangi sohalaridan biri bo'lgan pragmatikaning o'rganilishi va dunyo olimlarining pragmatika va pragmalingvistika yuzasidan bergan ta'riflari, hamda hozirgi kunda til o'rganish jarayonidagi vazifalari talqin qilinadi
Kalit so'zlar:Kalit so'zlar: sintaktika, semantika , muloqot, pragmatika, nutq aktlari, lingvistik pragmatika, pragmatik kompetensiya.

Kirish. Dunyoda turli millat va elatlar istiqomat qiladi. Ularning qarashlari, maqsadlari,tillari xatto fikrlashlari turli xil. Tilshunoslik sohasi esa aynan shu millat va elatlarning o'ziga xos bo'lgan tili, muloqot shakllari va uslublarni o'rganib kelmoqda. Tilshunoslikning nisbatan yangi sohalaridan biri bo'lgan pragmatikaning muhim jihatlari va til o'rganish borasida tutgan o'rni borasida izlanish o'tkazish muhim deb sanadik. Inson nutqiy faoliyatidagi masalalarni o'rganish tilshunoslik sohasida ilmiy va nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu bois nutq faoliyati jarayonida pragmatikaning tutgan o'rni beqiyos.

Metodlar. "Pragmatika"- shunday so'zlardan biri, go'yo biror bir butunlay o'ziga xos va texnik tushuncha xaqida gap ketayotgandek taassurot uyg'otadi, ammo aslida esa uning yagona va aniq ma'nosi yo'q. Ushbu atamani o'rganish g'oyasi Charlz Morris va keyinchalik Rudolf Karnap tomonidan ilgari surilgan, va ushbu tashabbus asosan pragmatika, sintaksis [yoki "sintaktik"] va semantikani bir-biridan farqlashga qaratilgan edi.Morrisning ushbu eng qadimgi tafovut formulasiga binoan, sintaks "belgilarning bir biriga bo'lgan rasmiy munosabatini", semantika esa "belgilarning ushbu belgilar qo'llaniladigan ob'ektlarga munosabatlarini" va o'z navbatida pragmatika "belgilarning tarjimonlarga munosabatini" o'rganadigan soha deya tasniflangan edi.

Ammo ko'p o'tmay, pragmatika va semantika o'rtasidagi farqlov qoniqarsiz deya izohlandi. Masalan, qat'iy aytganda,yuqoridagi ta'riflardan pragmatika semantikaning bir sohasi ekanligi kelib chiqadi, chunki belgilar tarjimonlar uchun aniq "qo'llaniladi". Keyinchalik Morris bu ta'rifni o'zgartirdi va pragmatikani "semiotikaning belgilarning kelib chiqishi, ishlatilishi va ta'sirini o'rganadigan bo'limi" deb qayta ta'rifladi. Kamp , Morrisning pozitsiyasidan kelib chiqib bu sohada tadqiqot qilgan keyingi mualliflarga ta'sir qilgan ta'rifni berdi: Agar tadqiqot jarayonida so'zlovchiga yoki umuman olganda, til foydalanuvchisiga aniq murojaat qilinsa, biz buni pragmatika deb tasniflaymiz, agar biz tildan faqatgina iboralar va ularning tavsiflovchilarini ajratib olsak va tahlil qilsak, biz semantika sohasidamiz. Va nixoyat agar biz agar tavsiflarni ham alohida ajratib olsakda va faqat ifodalar orasidagi munosabatlarni tahlil

qiladigan bo'lsak, biz [mantiqiy] sintaksisdamiz. Yuqorida qayd etilgan uchta qismdan tashkil topgan til haqidagi butun fan "semiotika" deb ataladi[1].Tilshunoslikning amaliy tarmoqlaridan biri bo'lgan pragmatika til birliklarini nutq egasining kommunikativ niyati va nutqiy vaziyat bilan uzviy bog'liqlikda o'rganadi. Pragmalingvistikaning asosiy maqsadi nutq faoliyati samaradorligini, nutqning tinglovchiga kommunikativ ta'sirchanligini oshirishdir. Shuning uchun pragmalingvistika kommunikantlar, nutqning lisoniy va nolisoniy omillari, nutq faoliyatining samarali usullarini ishlab chiqish kabi masalalarga e'tibor qaratadi[2].

Natijalar va munozara. Pragmatika va pragmaling-vistika farqli jihatlari esa, pragmatika amaliyoti va kommunikatsiya jarayonlarini o'rganib, tilning insonlar orasidagi muloqotlar va mazmuni bilan bog'liq bo'lgan aspektlariga e'tibor qaratadi. Pragmalingvistika esa, tilning o'ziga xos tuzilishini va amaliyoti tushuntiradi. Ikki yo'nalish ham insonlar o'rtasidagi tilning amaliyoti va ta'siri bo'yicha foydalanishadi va bir-birini qo'llab-quvvatlaydi[3]. Hakimov esa pragmatika belgining insonga ta'siri,uning fikrlash uslubiga,axloqiga, his tuyg'usiga ta'sirini o'rganadi deb ta'kidlaydi[4]. Tilshunos olim Kolshanskiyning ta'kidlashicha, so'zlovchi sub'yekt his-tuyg'ulariga xos xususiyat belgilardan ajralgan ma'lum bir axborotni ifoda etishi mumkin emas.Nutq mazmuniga hamohang his –tuyg'u va barcha baholar konkret tinglovchiga qaratilgan bo'ladi.Ana shu tinglovchi uchun qaratilgan sub'yekt nutqiga mos munosabat belgilari-nutqdagi barcha bo'yoqlar yaxlit tarzda pragmatika deb nomlanadi.Ta'riflar va qarashlar turli bo'lishiga qaramay pragmatika nutqni samarali amalga oshirishda va muloqot jarayonlarida juda katta ahamiyat kasb etadi.butun dunyo olimlari o'z qarashlari bilan bo'lishib borayotganligi barobarida O'zbek olimlari ham o'z ilmiy qarashlarini va izlanish natijalarini biz bilan bo'lishib kelmoqdalar. O'zbek tilshunosligida xozirga qadar bir necha olimlar ish bolib borgan bo'lishlariga qaramay,pragmalingvistik tadqiqotlarning taraqqiy etishi va o'rganila boshlashida SH. Safarovning xissasi ulkan. Olim o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'zbek olimlari va tilshunoslari diqqat markazini bu masalaga qaratishlarida turtki bo'la boshladi.

Uning pragmalingvistika sohasida yozilgan qo'llanmasi, butun jahon olimlarining bu sohadagi fikrlari va qarashlarini o'rganib chiqish , o'xshash va zid ta'riflarni tadqiq qilish va bir umumiy fikrni o'rtaga tashlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Olimning pragmalingvistika sohasida uzoq yillik izlanishlari va xulosalaridan kelib chiqib xosil qilgan qarashlari quyidagicha:" pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikasiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy goyasi lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniklashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir[6].Pragmatika va pragmalingvistika til o'rganish sohasidagi ikki xil konseptdir.Ularni tushunish uchun, ularni bir-biridan farq qiluvchi shakllarda ko'ramiz:

Pragmatika, til matnlarining ko'rsatilgan ma'nosi va ma'nolari orasidagi aloqani o'rganuvchi tadqiqot yo'nalishi. Til o'rganish jarayonida, pragmatika, so'zlar va matnlar orasidagi mazmun, mazmunnin foydalanuvchisi va mazmunning ma'no va qatlamalari orasidagi munosabatlarni tushunishga yordam bera oladi. Pragmatika, tilning ilmiy tushunchalari bilan birga, tilning amaliyoti, o'zaro aloqasi, va so'zlar ma'nolari o'rtasidagi mustamlakalarni tushunish va tahlil qilishda ishlatiladi[7].

Pragmalingvistika, tilning ma'nosi va mazmuni bilan birga, matnlar orasidagi amaliy mazmunnin o'rganilishi va tushuntirilishi bilan shug'ullanadi. Pragmalingvistika, so'zlar va matnlar orasidagi o'zaro aloqani o'rganish, so'zlar va ifodalar orasidagi aloqani tushunish, insonlar o'rtasidagi kommunikatsiyani tahlil qilishga yordam bera oladi. Pragmalingvistika, til o'rgangan odamlarni turli til birliklari, dialektlar, so'zlash joylari va kontekstlar orasida ma'no va mazmunlarni nazariy va amaliy ravishda tushunishga tayyorlashda ishlatiladi[8].

Pragmalingvistikani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratish va uning o'rganish obyekti, predmetini aniqlash uchun lisoniy birliklarning turli kommunikativ muhitda pragmatik qiymati, «bahosi», mundarijasining namoyon bo'lishini ta'minlovchi omillarni izlamoq darkor. Lisoniy birliklarning har qanday sharoitda namoyon bo'ladigan belgilari ularning ontologik va vazifaviy (funksional) xususiyatlari namunasidir. Pragmalingvistik tadqiq metodologiyasi, birinchidan, o'z falsafiy asosiga ega bo'lishi kerak bo'lsa, ikkinchidan, xuddi shu xususiyatlarni (ontologik va vazifaviy) aniqlash imkoniyatini yaratmog'i lozim. Bunday metodologiyaning tayanch nuqtasi xizmatini, so'zsiz, faoliyat tamoyili yoki umuman faoliyat falsafasi o'tashi mumkin. Faoliyat kategoriyasining lingvistik tadqiqotlarda asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilinishi kommunikativ tizimning tarkibiy qismlari, ularning tuzilishi, lisoniy va nolisoniy mohiyati haqida batafsilroq bilimga ega bo'lish imkonini yaratadi. Muloqot jarayonining faoliyat tamoyili nuqtai nazaridan yoritilishi pragmalingvistikaga nazariy libos kiydirish bilan bir qatorda, olamni bilish va lisoniy faoliyatning tutashganligini isbotlovchi dalillar topishga zamin hozirlaydi. Axborot almashinuvini taqozo etuvchi nutqiy muloqot hissiy va ratsional (oqilona) bilish harakatlarining o'zaro aloqasi natijasidir[9].

Pragmatika va pragmalingvistika, til o'rganish sohasidagi muhim konseptlar bo'lib, insonlar o'rtasidagi kommunikatsiyada qanday ma'noda so'zlashganligi, so'zlar va so'zlashish usullarining insonlar orasidagi mazmuni va mazmun tushunchalariga o'tishini o'rganuvchi ilmiy dissiplinlar hisoblanadi. Pragmatika, so'zlashishda aks etadigan tushunchalarga, so'zlar va gaplar orasidagi bog'lanishni o'rganadi. Insonlar arasidagi o'zaro aloqalarda so'zlashgan paytda, so'zlar qanday ma'noda ishlatilayotganligi, ularning ma'nosi va mazmuni, xabar o'tkazish usullari, odamlarning fikrlarini ifodalash xususiyatlarini o'rganadi. Pragmatika, tilni funksional bo'yicha o'rganadi, ya'ni tilni amaliyotda qanday ishlatish, mazmuni, mazmun va ma'nosi qanday o'zgaruvchanliklar ko'rsatadi[11].

Pragmatika til o'rganishda o'rganuvchilar bilishi muhim bo'lgan omillardan biridir. Kasper va Rouzning so'zlariga ko'ra, pragmatika o'z navbatida tushunish va til faoliyati (lingvistik faoliyat)ni yaratishni anglatadi. Eng muhimi, ikkala atama ham lingvistikada muloqotga kirishishdagi ikki muhim tarkibiy qismlardan sanaladi. Ta'kidlab o'tish joizki, pragmatik bilimning tanqisligi o'quvchilar uchun ba'zi muammolar tug'diradi. Bu borada Kohenning qarashlari ham juda yaqin. O'quvchilar leksik birliklar va grammatik tuzilmalarni juda yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari mumkin, ammo shunda ham biror bir ma'lumotni(niyatlarini) to'g'ri yetkazishda muvaffaqqiyatsizlikka uchrashlari sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayon. Bu esa pragmatik va funksional bilimlarni yetarlicha egallamaganliklaridan dalolatdir. Til o'rganishda ma'daniyatning ham alohida o'rni borligini inobatga olgan holda "Pragmatika-til va ma'daniyatning o'zaro to'qnashuvidir" deydi Kohen o'z ilmiy ishida[11].

O'rganilayotgan til pragmatikasini o'qitishning ahamiyati va muhim jihatlari

Hozirgi kunda xorijiy tillar pragmatikasini o'qitishning ahamiyatini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Masalan bu borada Taguchi oxirgi 30 yil ichida xorijiy tillar pragmatikasini o'qitish doirasida 58 dan ziyod ilmiy ishlarga mualliflik qildi. Ushbu keng qamrovli tadqiqotning xulosalaridan biri shundaki, pragmatikani izchil o'qitilish natijasida xorijiy til o'rganuvchilarining bilim va ko'nikmalari samarali o'sib boradi. Shuning uchun o'qituvchilarning bilim berishdagi hissalarini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, chunki pragmatikani mustaqil o'rganish talabalar uchun qiyin bo'lishi mumkin[11]. Bundan xulosa qilish mumkinki, pragmatika bosqichma bosqich egallab borilishi va mustahkamlanishi zarur bo'lgan jarayon deb ayta olamiz.Malakali mutahassis bo'lib yetishish va tildan samarali foydalanish uchun til o'rganuvchisiga lingvistik shakl va ma'nolardan ko'ra ko'prog'ini bilish mas'uliyati yuklatiladi. Pragmatik ko'nikmalarni egallash uchun til bilan tanishish etarli emas.Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki,til o'rganuvchilarining pragmatikani o'rganishga katta ehtiyojlari bor. Pragmatikani o'qitishning asosiy maqsadi talabalarga duch keladigan vaziyatlar uchun ijtimoiy jihatdan maqbul tilni topishga yordam berishdir[12] Kenel va Svenning fikricha, til o'rganish murakkab jarayondir. Xorijiy tilni o'rganishda talabalar to'rt turni o'z ichiga olgan kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishlari kerak. Bular grammatik, diskursiv, strategik va pragmatik kompetentsiyalar .

Xulosa. Pragmatika – bu til foydalanuvchilarining til birliklariga bo'lgan munosabatini anglatsa, undagi xususiyatlar esa tilshunoslikning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda qo'shimcha ravishda aytib o'tish kerakki, tilshunoslikdagi pragmatika tushunchasi faqatgina til birikmalarining pragmatikasi tushunchasini o'z ichiga olmaydi balki muloqot jarayonida muloqot vakillarining malaka, ko'nikma hamda ma'daniyatlari bilan ham pog'liq bo'lgan jarayondir.Chunki, muloqot tushunchasi gapirish, gaplashish tushunchalaridan ancha kengdir. Gapirishdan farqli o'laroq, muloqot qila olish ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxslar atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish bilan ular: Tushunish va qabul qilish; Atrofdagi insonlarning fikriga munosabar bildirish; Boshqalar bilan suhbat qilganda bardosh bilan odob saqlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Demak, muloqot faqatgina ikki insonning suhbati bo'lib qolmay, balki tushunish hamda munosabat bildira olish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Bunda esa pragmatik ko'nikmalarning hamda nutq aktlarining o'rni sezilarli.

ADABIYOTLAR

1. J. R. Searle, F. Kiefer, and M. Bierwisch (eds.), Speech Act Theory and Pragmatics,
2. Pardayev A,S O'zbek tili yordamchi so'z turkumlarining lisoniy tizimdagi o'rni va lingvopragmatikasi,Toshkent-2017
3. Maslova A.Yu.Vvedenie v pragmalingvistiku. – M., 2010.

4. M.Xakimov. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari , Akademnashr 2013
5. Zebokhon Musaeva Muzaffarovna. (2022). PRAGMATICS AND SPEECH ACT THEORY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 368–373. Retrieved from https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/3586
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika.-Toshkent:O'zME, 2008
7. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, 2013.
8. Gaziyeva M.M. Mulokot jarayonida prosodik vositalarning lingvopragmatik xususiyatlari – Farg'ona, 2018.
9. A. Vosiljonov, Pragmalingvistika va uning tahliliy shakllanish tarixi, 2022. 10.Петров, В. В. Философия, семантика, прагматика,1985
10. Cohen, Andrew D. The teaching of pragmatics by native and nonnative language teachers: Adam Mickiewicz University, Kalisz SSLLT 6 (4). 2016. 12.Pirogova, Nadezhda, The role of pragmatic competence in English language teaching,Apuntes Universitarios; Tarapoto Том 12, Изд. 3, (2022):

Sevaraxon NAZAROVA,
Andijon davlat chet tillari institutI doktoranti
E-mail: nazarovasevara94@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent I.Rasulova taqrizi asosida

COMPARATIVE ANALYSIS OF STRUCTURAL ASPECTS OF POLYTAXEMES IN ENGLISH AND UZBEK
Annotation

Despite the fact that structural aspects of certain types of polytaxemes, including their polycomponential types, have been studied to a certain extent in the special literature, the issues of their terminological system and their unification have hardly been investigated. From this point of view, this article provides a comparative systematic analysis of the structural schemes of polytaxemes in English and Uzbek languages. In addition, in the article a special terminological apparatus of polytaxemes is developed and proved with the help of examples.

Key words: polytaxeme, coordination, subordination, mixed connection, unitaxeme, diotaxeme, triataxeme, quartetaxeme, pentetaxeme.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ АСПЕКТОВ ПОЛИТАКСЕМ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ
Аннотация

Несмотря на то, что структурные аспекты определённых типов политаксем, в том числе их поликомпонентных типов, в некоторой степени изучены в специальной литературе, вопросы их терминологической системы и унификации практически не исследованы. С этой точки зрения в данной статье проводится сравнительный систематический анализ структурных схем политаксем английского и узбекского языков. Также в статье разработан специальный терминологический аппарат политаксем и обоснован с помощью примеров.

Ключевые слова: политаксема, сочинение, подчинение, смешанная связь, унитаксема, диотаксема, триатаксема, куартетаксема, пентетаксема.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA POLITAKSEMALARNING STRUKTURAL JIHATLARI QIYOSIY TAHLILI
Annotatsiya

Maxsus adabiyotlarda politaksemalarning ma'lum turlari, shu jumladan, ularning ko'p komponentli turlarining struktural jihatlari ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, ularning atamalar tizimi va ularning unifikatsiyasi masalalari deyarli o'rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada politaksemalarning strukturaviy sxemalarini ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy sistematik tahlil qilish ko'zda tutiladi. Shuningdek, maqolada politaksemalarning maxsus terminologik apparati ishlab chiqiladi va misollar yordamida dalillanadi.

Kalit so'zlar: politaksema, teng bog'lanish, tobe bog'lanish, aralash bog'lanish, unitaksema, diotaksema, triataksema, kuartetaksema, pentetaksema.

Kirish.Til insoniyatga to'laqonli muloqot vositasi sifatida xizmat qilar ekan, unda yirik kommunikativ birliklar sanaluvchi gaplar muhim o'rin tutadi, chunki samarali muloqot jarayonini sodda gaplar, ayniqsa qo'shma gaplar turlarisiz tasavvur qilish qiyin. Bunga asosiy sabab muloqotdoshlarning muayyan kognitiv asosga ega bo'lgan murakkab kommunikativ intensiya (muddao)larini o'z suhbatdosh(lar)iga to'laqonli va tushunarli qilib yetkazishlarida nisbatan katta qamrovga ega bo'lgan qo'shma gaplar muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shma gaplar yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning ko'p komponentli turlari strukturasi, hajmi masalasida izlanishlar kam. Ko'p komponentli qo'shma gaplar (KKQG)ning strukturaviy tahlili politaksemalar qismlarining bog'lanish xarakterini va ularning orasidagi o'zaro aloqani tavsiflashni o'z ichiga oladi.

Adabiy an'ana- dunyoni badiiy idrok etish, bilish sohasida davrdan-davrga, avloddan-avlodga o'tib kelgan adabiy tajribalar: estetik qarashlar, tasviriy vositalar, tildagi obrazlilik, emotsionallik va uslubdagi rang-baranglikdir. O'tmish yozuvchilarining ijod tajribasida sinalgan, ustvor va muqim g'oyaviy-badiiy boyliklarni yosh bo'g'in o'z davri talabiga ko'ra qayta ishlab, ijodiy rivojlantiradi. Adabiyot va san'atda an'ana tarixiy hodisa bo'lib, muayyan davr ijtimoiy-badiiy xususiyatlarni aks ettiradi. O'zbek adabiyoti eskirmagan, zamon sinovidan o'tgan, barhayot, ilg'or an'anaga suyanadi. Ilg'or adabiy an'ana hamma vaqt novatorlikka chorlaydi. Binobarin, an'ana va novatorlik orasida mantiqiy aloqa bor. Ularni bir-biridan ajratib, ham tasavvur qilib bo'lmaydi[2].

Adabiy an'analarning avloddan avlodga o'tib kelishida, rivojlanib, boyib borishida adabiy ta'sir masalasi ham o'z o'rniga ega. Ijodkor hayot haqiqatini badiiy haqiqat asnosida tasvirlar, badiiy adabiyotning mavjud adabiy an'analarni davom ettirar ekan, ilgari surgan g'oyani asoslash, tasvirlash, kitobxonni bunga ishontirish uchun o'qib o'rgangan va qalbiga mahkam o'rnashib qolgan asar, asar qahramonlari yoki unga ta'sir o'tkazgan asar g'oyasiga zarur o'rinlarda murojaat etadi. Aytmoqchi bo'lgan g'oyasini, xulosalarini asardan parcha keltirish yoki asar voqealariga ishora tarzida ham ifodalashi mumkin. Ijodkor o'qigan asarining ta'siridan ilhomlanish natijasida asarini yanada sayqallashi va aksincha uyg'un asarlardan keskin farq qiluvchi xulosalar bilan yakunlashi mumkin. "Yozuvchi bo'lmoq qalbingni odamlarga ishonib ochib bermoqdir",-deya ta'riflaydi adibni "Yozuvchi bo'lmoq nima degani" maqolasida Yuxan Borgen. Darhaqiqat, ijodkor ongidagi fikrlarini, ko'nglida asrab-avaylab yurgan tuyg'ularini kitobxon bilan bo'lishadi. U bilan maroqli

suhbat quradi. Hayotni kuzatish asnosida olgan tajribasini kitobxonga yetkazadi. Yozuvchi xalqining oddiy kitobxondan farqi ham shundaki, oddiy odamlar ilg'amagan haqiqatni ijodkorlar ilg'ay oladi. Kitobxonning nazari tushmagan voqea-hodisalar yozuvchi nigohida alohida mavzu sifatida gavdalanadi. Hech bir ijodkor yo'qki, biror mutolaa qilgan asaridan ta'sirlanmagan yoki adabiy ta'sir samarasi asarlarida iz qoldirmagan. Noyob iste'dod egasi Abdulla Qodiriy asarlari va buyuk ijodkorlarning ko'plab adiblar qatorida ijodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani, adabiy ta'siri yozilajak asarlariga turtki bo'lganligi, asarlarda adabiy an'analar davomiyligini aks ettirgani xususida Turkman yozuvchisi Berdi Kerboboyev shunday deydi: Mening o'zim ham Tolstoydan, Gorkiydan, Sholoxovdan o'rganmasam, tatar yozuvchisi Ibrohimovning "Bizning kunlar"ni, "Qozoq qizi"ni, o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ini, "Mehrobdan chayon"ini o'qib, shulardan ibrat olmasam "Dadil qadam"ni boshlay olmagan bo'lardim deya ta'kidlasa, [3] taniqli shoir E. Vohidov "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari ta'siri natijajida ularni e'tirof etib quyidagicha baholaydi: Kishi umrida o'qigan kitoblari ichida shundoq kitoblar bo'ladiki, ular umrining bir qismiga, inson o'zligining tarkibiga aylanib qoladi. "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" men uchun ana shunday kitoblardan. Ular meni odam qilib shakllantirgan. Dunyoqarashim, yuragim holatini belgilagan, umrim boyligi bo'lgan kitoblar sirasiga kiradi.

Yuqoridagi fikrlar Abdulla Qodiriy asarlariga berilgan yuksak baho bo'lishi bilan bir qatorda adabiy ta'sir jarayonining natijasini ham ko'rsatadi. …badiiy so'z qudratini bevosita his etmagan, uning ilohiy ta'siriga berilmagan o'quvchida tuyg'u uyg'onmaydi[4]. Oddiy kitobxon sara asarlardan ta'sirlanishi, yillab asar voqealarini unutolmasigi mumkin. Ammo unda tug'ma iste'dod, san'atkor qalbi, turmush hodisalarini, odamlar hayotini, qalbidagi nozik jarayonlarni ko'rish, ko'rsatish bilan barobar ularni butun vujudi bilan his etish, shu nozik tuyg'ularni boshqalarga yetkaza olish xislati bo'lmas ekan adabiy ta'sir

natijasida asar tug'ilmaydi. Shunday ekan, adabiy ta'sir iste'dod egalarini yana bir bor kashf etuvchi va adabiy an'analarni rivojlantiruvchi vositalardan biri desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Abdulla Qahhor san'atkorlarning badiiy adabiyot durdonalarini o'qib-o'rganib tengi yo'q asarlar yaratilish jarayonini quyidagicha baholaydi: Oqsoqol yozuvchilarimiz katta ish qilishdi: rus va o'zbek klassik adabiyoti xalq adabiyotidan bahra olib, umuminsoniy g'oya bilan qurollanib hozirgi yangi adabiyotni yaratdi. Demak, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, muhabbat va nafrat, do'stlik va sotqinlik kabi badiiy adabiyotdagi umuminsoniy g'oyalar va mavzular turli janrdagi asarlarda turlicha tasvirlanishining zamirida xalq og'zaki ijodiyoti ta'sirining o'rni beqiyos. Har bir xalqning og'zaki ijodiyoti, avvalo, avlodlariga, shuningdek, dunyo kitobxonlariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ijodkorlarning asarlarining yaratilishida folklore namunalarining ta'sirining o'rni ham beqiyos ekanligini ta'kidlashimiz joiz. H. Homidiy, Sh. Abdullayeva va S.Ibrohimovalar tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoshlik terminlari lug'ati"da Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg'" nomli she'riy ertaklari o'zbek xalq ertaklari asosida yaratilgani haqida ma'lumotlar bor. Bu ma'lumotlarda "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonining yozilishiga yana shoirning buvisi o'zbek xalq ertaklarini mahorat bilan ijro etganligi va bu bo'lajak shoirning ijodkor sifatida shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatganligini va yillar o'tib ham yodida qolganligini qo'shimcha qilmoqchimiz. Zero, mahorat bilan ijro etilgan asar va ijro qonuniyatiga asoslanmay ijro etilgan san'at hodisalari o'rtasida farq katta. Ijro mukammal bo'lsa, o'sha asarning kitobxonga ta'siri darajasi ham yuqori darajada bo'ladi. Shu bois ham, bizningcha H. Olimjon "Oygul bilan Bahtiyor" asarida ertakni buvisidan eshitganini ta'kidlaydi:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitardim,
So'ylab berardi buvim.

Shuningdek, Abdulla Qodiriy tarbiyasi, ijodi va romanlarining maydonga kelishiga otasidan eshitgan voqea-hodisalar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham adib o'z asarlarida otasini ehtirom bilan tilga oladi, hikoyalaridan birini otasiga bag'ishlaydi[5, 6]. Jumladan, "Jinlar bazmi" hikoyasidagi voqelikni adibning otasi yosh Abdullaga so'zlab beradi yoki adib "O'tgan kunlar" romanidagi ayrim voqealarni otasidan eshitganligini ta'kidlaydi. Abdulla Qodiriy asarlari yaratilishiga turtki bo'lgan omillardan biri hayot bergan materiallar, turmush saboqlari otasidan eshitgan hikoyalar hamda ularning ta'siri demakdir. "Biz haqiqatni hayotdan oldik. Hammadan ilgari shaxs o'zini tanisin! Zero, "O'zini bilmagan o'zgani bilmas" so'zi turmush onasining dard chekib tuqqan to'ng'ich o'g'lidir", deydi adib Abdulla Qodiriy bu xususida.

"Ijodiy ta'sir jarayonidagi tadrijiylikni har bir iste'dodli san'atkor u yoki bu tarzda bosib o'tishi mumkin bo'lgan an'anaviy bosqich deb ta'riflasa bo'ladi',-deya ta'kidlaydi

filologiya fanlari doktori, professor, adabiyotshunos olim U. Qosimov. Darhaqiqat, har bir ijodkor kitob mutolaa qilar ekan, o'z hissiyot dunyosidan kelib chiqib, asarni o'zicha tushunib, o'zicha xulosa chiqarishi mumkin. Ijodiy jarayonda ilhomlanib, asar yozayotgan san'atkor bir vaqtlar o'qib ta'sirlangan, ulug' adiblar ijodi bilan yaqindan oshno bo'lgan san'atkor ularning yuksak g'oya va an'analaridan ta'sirlanmasligi, oziqlanmasligi mumkin emas.

Rus adabiyotining mashhur yozuvchisi Feoder Dostevskiyning "Telba" romanida buyuk masalnavis Ezop va XVII asr rus adabiyoti masalnavisi Krilov masallariga murojaat etganligini ko'rishimiz mumkin. Asarda Ferdishchenko generalga o'z mavqeyi haqida shunday so'zlaydi. "Men buni o'tgan safar ahli jamoatga batafsil aytib bergan edim, siz zoti oliylari uchun yana bir karra takrorlayman. Ko'rib turibsiz, zoti oliylari, hammaning zehni o'tkir, mening esa zehnim o'tkir emas. Mana shuning evaziga men rost gapirishim huquqini o'zimga tilab oldim. Hammaga ma'lum zehni o'tmas odamlargina doim rost gapiradilar buning ustiga men juda kekchi odamman, kekchilligimning sababi ham zehnim o'tmasligidan. Men birov ozor bersa, bo'ynimni egib turaveraman, dilozor sal qoqilguncha shunday: qoqildimmi, tamom, darhol unga eslatib qo'yaman va shu zahoti o'chimni olaman, Ivan Petrovicho'zi hech qachon Ptisinning tabiri bilan aytganda, tepaman, lekin Ivan Petrovichning o'zi hech qachon hech kimni tepmagan. Krilovning zarbulmasali esingizda bormi, zoti oliylari: "Arslon va eshak"?Ana xuddi o'sha siz-u men, biz haqimizda yozilgan[6].

Muallif antik davrning buyuk masalnavisi Ezop hamda rus masalnavisi Krilov asarlarini puxta o'zlashtirgan va adabiy ta'sirida bo'lgan. Bu adabiy ta'sir "Telba" romanida kerakli o'rinlarda san'atkor tomonida mahoratli tarzda foydalanilgan.

Biz badiiy ijod deganda san'atkor ongida ijodiy niyat yetilib, "bo'shanish" zarurati yuzaga kelgan paytdan to asarga so'ngi nuqta qo'yilguniga qadar bo'lgan vaqtni ko'zda tutamiz. Ayni shu vaqt oralig'ida san'atkor ongida kechgan ijodiy-ruhiy jarayon badiiy asarda akslanadi. Shu bois ham mazkur jarayonning o'ziga xos xususiyatlariga ayricha e'tibor zarur. Avvalo shuki, ijod onlaridagi ijodiy-ruhiy holat san'atkorning bungacha kechirgan hayoti, ko'rgan-kechirganlari zaminida yuzaga keladi. Grek masalnavisi Ezop va rus masalnavisi Krilov masallariga "Telba" romanida zarur o'rinlarda muallif tomonidan foydalanilishi, avvalo, ijodkorning badiiy adabiyotning yetuk bilimdoni ekanini ko'rsatishi bilan birga, qahramonlar aytmoqchi bo'lgan fikrlarni masal tilida so'zlashi yozuvchi mahoratini ochib beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, adabiy ta'sir adabiy an'ana rivojlanishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan estetik tafakkur mahsuli bo'lib, ijodkorning adabiy tajribalari ortishida ahamiyatli bo'lgan yetakchi omillardan biridir. Badiiy asarni mahorat bilan ijro etish natijasida adabiy ta'sir samarasi yanada ortadi. Shuningdek, adabiy ta'sir san'atkor mahorati yuzaga chiqaruvchi vositahamdir.

ADABIYOTLAR

1. U. Qosimov. Adabiy estetik tafakkur: Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Tog'ay Murod. T.: 2023. 78-b.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "Davlat ilmiy nashriyoti" www.ziyouz.com "A"harfi 179-bet
3. B. Karimov. Jadidlar. Abbdulla Qodiriy. Yoshlar nashriyot uyi. T.: 2022. 142-b
4. Q. Yo'ldosh. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. Tafakkur nashriyoti. T.:2023. 283-b
5. B. Karimov. Jadidlar. Abbdulla Qodiriy. Yoshlar nashriyot uyi. T.: 2022. 6-b
6. Fyodor Dostoyevskiy "Telba" Toshkent-2019, 190-b

Istoraxon SOTVOLDIYEVA,
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
E-mail: i.sotvoldiyeva@mail.ru

O'zMU professori, filol.f.d. A.Mamatov taqrizi asosida

SEMANTIC ANALYSIS OF COLLOQUIAL ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

Today, in world linguistics, researchers are focusing on the issue of researching colloquial lexicon as well as literary language units. Most of these studies are mainly devoted to the problems of slang, jargon and slang. However, there are almost no studies devoted to the cross-sectional study of colloquial units used by English and Uzbek speakers in live communication. From this point of view, in this article, the lexical units of the adjective parts of speech in English and Uzbek colloquial units are analyzed semantically and their similarities and differences are revealed.

Key words: Colloquial speech, colloquialism, colloquial adjectives, positive evaluation, negative evaluation, semantic class.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КОЛЛОКВИАЛНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Сегодня в мировой лингвистике внимание исследователей сосредоточено на проблеме исследования разговорной лексики, а также единиц литературного языка. Большинство этих исследований в основном посвящено проблемам сленга, жаргона и сленга. Однако исследований, посвященных поперечному изучению разговорных единиц, используемых англоговорящими и узбекскоязычными людьми в живом общении, практически нет. С этой точки зрения в данной статье семантически анализируются лексические единицы прилагательных частей речи в английских и узбекских разговорных единицах и выявляются их сходства и различия.

Ключевые слова: Разговорный речь, просторечие, коллоквиальные прилагательные, положительная оценка, отрицательная оценка, семантический класс.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOLLOKVIAL SIFATLARNING SEMANTIK TADQIQI

Annotatsiya

Jahon tilshunosligida bugungi kunda adabiy til birliklari qatorida so'zlashuv leksikasini ham tadqiq qilish masalasi tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati, asosan, argo, jargon va sleng muammolariga bag'ishlanadi. Lekin, ingliz va o'zbek tili sohiblari tomonidan jonli muloqotda ishlatiluvchi kollokvial birliklarning chog'ishtirma tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar deyarli mavjud emas. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada ingliz va o'zbek kollokvial birliklari tarkibidagi sifat so'z turkumiga oid leksik birliklar semantik jihatdan tahlil qilinadi hamda ularning o'xshash va farqli tomonlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: So'zlashuv tili, kollokvializm, kollokvial sifatlar, ijobiy baho, salbiy baho, semantik sinf.

Kirish. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi kollokvial sifatlarning o'ziga xos xususiyatlarini chog'ishtirgan holda o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot materiali ikkala tilning leksikografik manbalarini o'z ichiga oladi. Kollokvial leksik birliklarning semantik strukturasini o'rganishda so'zning asosiy va kollokvial ma'nolari o'rtasidagi o'zaro munosabatni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki, kollokvializatsiyaning semantik jarayonlari tarkibidagi o'xshash hodisalar ikkala tilda ham kollokvial so'zlar semantik komponentlarining funksional umumiyligi bilan aniqlanadi. Ushbu kollokvial leksik birliklarning xilma-xil struktur turlari mavjud bo'lib, ularning har-biri semantika va so'z hosil qilish jihatidan ma'lum o'ziga xoslikka ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida ingliz so'zlashuv tiliga doir ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, uning evolyutsion rivojlanish tarixiga nazar solinsa, so'zlashuv tilining leksik jihatiga bag'ishlangan dastlabki ishlar E.Partrij [1] tomonidan amalga oshirilganligi, G.Uentvort va S.Fleksnerlar tomonidan esa ingliz tili amerika varianti so'zlashuv tilining leksikografik tomonlari o'rganilganligini qayd etish lozim [2]. So'zlashuv tili, jumladan, sodda til hamda shevalarni o'rganishdagi sotsiolingvistik yondashuv U.Labovning ishlarida o'z aksini topsa [3], uning stilistik xususiyatlari I.Arnold tomonidan o'rganilgan [4]. XXI asrga kelib mazkur muammoga bag'ishlangan izlanishlar J.Grin [5], T.Proshina [6], L.Mesimova [7], P.Kollins va X.Yao [8], S.Al-Alami [9] kabilarning tadqiqot ishlarida olib borilgan.

O'zbek tilshunosligida so'zlashuv nutqining leksik-stilistik jihatlariga bag'ishlangan dastlabki ishlar sirasiga B.O'rinboyevning o'zbek so'zlashuv nutqining sintaktik muammolariga bag'ishlangan tadqiqot ishini kiritish mumkin [10]. Shuningdek, M.Tursunpo'latovning o'zbek so'zlashuv tilining leksik xususiyatlari borasidagi dissertatsiyasi ham katta qiziqish uyg'otadi [11].

Bundan tashqari, so'zlashuv tilining quyi kollokvial birliklari doirasida G'.Rahimov [12], D.Satimova [13] hamda B.Sotvoldiyev [14]lar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mazkur muammoning areal, stilistik, leksik hamda onomastik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Kollokvial sifatlarning semantik xususiyatlarini aniqlash uchun mazkur maqolada komponent tahlil metodidan foydalaniladi hamda ularni ajratib ko'rsatish uchun kollokvial birliklarning lug'aviy ma'nolari ham keltiriladi. Aytish lozimki, komponent tahlil metodi so'z semantik tuzilishining tizimli xarakterini ifodalashga asoslangan bo'lib, paradigmatik qatordagi barcha so'zlar o'z semantik doiralarida qandaydir umumiylikka ega va ayni paytda, ushbu qatorga kiruvchi so'zlarning har-birida o'zini boshqa so'zlardan ajratib turuvchi qandaydir o'ziga xoslik ham mavjud bo'ladi. Komponent tahlil metodining asosiy maqsadi shuki, u differensial semantik belgilar, ya'ni so'z ma'nolarida mavjud bo'lgan elementar farqlarni aniqlashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Kollokvial sifatlarning semantik sinflar bo'yicha tahlili ikkala tilda salbiy xususiyatni ifodalovchi leksik birliklarning miqdori ijobiy konnotatsiyaga ega leksik birliklar sonidan ustun ekanligini ko'rsatdi. Bunday leksik birliklar konnotatsiyasida adresantning nuqtai nazaridan referentning salbiy bahosini ifodalovchi semantik komponentlar

muhim rol o‘ynaydi. Ikkala tilda tahlil qilingan semantik maydonlar o‘zlarining miqdoriy xususiyati orqali integral belgilar sifatida kundalik hayot tarzining turli jabhalariga oid bo‘lgan baholovchi tushunchalarni ishlatadi. Semantik maydonlarning klassifikatsiyasi undagi ba’zi tushunchalarning milliy-tilga oid spesifikasini, ularning til sohiblari uchun ijtimoiy ahamiyatini ma’lum darajada namoyon qiladi.

Kollokvial leksikani uning tematikasi, integral belgilari asosida semantik sinf, guruh, mikro guruh va maydonlarga ajratish nuqtai nazaridan o‘rganish taqqoslanayotgan tillarning umumiy hamda xususiy jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Bizni o‘rab turgan voqelikni semantik sinflarga ajratgan holda tahlil qilish ikkala tilda ham taxminan o‘xshash manzarani namoyish qiladi. Tahlil natijalari so‘zlashuv leksik birliklarining asosan kundalik, doimiy tarzda bo‘lib turadigan turmush tarzi tematikasiga tegishli bo‘lgan tushunchalarni aks ettirishini ko‘rsatdi, bu umuman so‘zlashuv nutqi uchun xarakterli jihat hisoblanadi. Ushbu holat kollokvializm ma’nosi va uning strukturasidagi differensial vazifani bajaruvchi hamda so‘zning predmetga oid ma’nosini aniqlashtiruvchi semantik komponent, maishiy xarakterga ega bo‘lgan ekstralingvistik voqelikning ma’lum sohasi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishini anglatadi. Bundan tashqari, ikkala tilda salbiy referentga ega so‘zlarning miqdor jihatdan ustunligi kollokvial leksikaning, ko‘pincha, peyorativ ma’noda qo‘llanilishiga guvohlik beradi. Kollokvial leksik birliklarning semantik strukturasida salbiy bahoga ega bo‘lgan komponent muhim rol o‘ynaydi.

Kollokvial sifatlar ingliz tilidagi kollokvial leksik birliklar umumiy sonining 21,7 foizini, o‘zbek tilida ushbu ko‘rsatkich 32,3 foizni tashkil etdi. Mazkur kollokvial birliklarning semantik xususiyatlarini o‘rganish davomida quyidagi semantik sinflar ajratib olindi:

“ijobiy xususiyat” semantik sinfi:
cute – attractive, pretty, clever;
fetching – alluring, attractive;
folksy – friendly or sociable;
chopag‘on – tez, yaxshi yuguradigan;
korafta – tajribali;
shaqshaqador – turli-tuman bezakli, ziynatli, xashamatli, hashamdor;
“neytral xususiyat” semantik sinfi:
freewheeling – free of restrict, carefree;
mind-blowing – shocking, suprising;
post-mortem – discussing, evaluting card play after a game;
ikkiqat – homilador;
o‘ntalik – o‘nta bir-xil narsadan iborat;
hazilkam – hazil yo‘li bilan qilingan, nojiddiy;
“salbiy xususiyat” semantik sinfi:
backwater – rustic, lacking culture;
fake – fraud, counterfeit;
quvbosh – ayyor, quv;
qishloqi – qishloqda tug‘ilib o‘sgan, qishloqcha hayot kechiradigan, shaharga xos muomala va boshqalarni bilmaydigan;
o‘ng‘aysiz – bir ish-harakat uchun yaxshi imkon bermaydigan, noqulay.

“Ijobiy xususiyat” semantik sinfida ingliz tilidagi kollokvial sifatlar orasida “a’lo, zo‘r” referentlarini ifodalovchi leksik birliklar:
boss – excellent, superior;
cool – excellent;
grand – fine, very good.
hamda “zamonaviy, modadagi” referentlariga ega bo‘lgan leksik birliklar ajralib turadi:
classy – highgrade, stylish;
hightoned – stylish;
in – in vogue.

Bu semantik sinfning o‘zbek kollokvial sifatlari orasidan quyidagi integral belgilariga ega bo‘lgan semantik maydonlarning mavjud ekanligi aniqlandi:
1. Zo‘r/yaxshi/ko‘ngildagidek/me’yordagidek:
ajabtovur – binoyiday, durustgina;
nozanday – yomon emas, tuppa-tuzuk, durustgina;
rostakam – haqiqiy, chin.

2. Aqlli/chiroyli (qiyofa haqida):
zakki – zakiy;
avliyo – zo‘r fahmlovchi;
ketvorgan – juda chiroyli.
3. Shakl/hajm:
vajohatli – gavdali;
kattakon – juda katta;
gungursday – jussasi katta, gavdali, gumbazday.

Ikkala tilda ham eng ko‘p rang-baranglik “salbiy xususiyat” semantik sinfini tashkil qiluvchi kollokvializmlar orasida qayd etildi. Ingliz tilida quyidagi semantik maydonlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:
1. “Puli yo‘q, hech vaqosi yo‘q” semantik maydoni:
broke – having little or no money;
clean – without money, broke;
flat – penniless.
2. “Omadsiz, ishi yurishmagan” semantik maydoni:
gone – ruined;
kaput – ruined, done for;
shot – ruined or worn out.
3. “Axmoq, tentak (aqldan ozgan, jinni, telba)” semantik maydoni:
cuckoo – crazy;
dopey – lethargic or stupid;
loony – crazy.
4. “Surbet, bezbet, beor, behayo, yuzsiz, o‘ziga bino qo‘ygan, mag‘rur” semantik maydoni:
cocky – jauntily conceited;
fresh – impudent, bold.
5. “Mast (narkoman)” semantik maydoni:
freaky – using drugs;
looped – drunk
switched-on – high (as on drugs).

Ushbu semantik sinfni tashkil qiluvchi o‘zbek kollokvial sifatlari orasida quyidagi semantik maydonlarning mavjud ekanligi aniqlandi:
1. Ishi yurishmagan:
nahs – ishi oldinga bosmagan, yurishmagan;
nas – nahs (ishi yurishmagan).
2. Ojiz, nochor:
laqqi – laqma;
lakalov – laqma, merov, landavur;
kuchsiz – tarkibida o‘g‘it moddalari kam, unumsiz, oriq.
3. Ichkilikboz:
alkash – ichkilikka berilgan, ruju qo‘ygan;
piyonista – spirtli ichimlikni ko‘p ichadigan.
4. Surbet, yaramas:
bez – gap ta’sir qilmaydigan, bezbet, surbet;
ikkiyuzlamachi – ikkiyuzlama (munofiq, riyokor);
irganch – jirkanch.
5. Sergap:
javraqi – hadeb gapiraveradigan;
jiqildoq – hadeb mahmadonalik qiladigan;
valqirvoqi – bo‘lar-bo‘lmas gaplarni ko‘p gapiradigan, ezma;
bijildoq – hech kimga gap bermaydigan, gap bilan hammani yengadigan, gapdon.
6. Dangasa, beg‘am:
salt-suvoy – ortiqcha tashvishi, bola-chaqasi yo‘q, takasaltang;
tepsa-tebranmas – hech gap kor qilmaydigan, biror ish qildirish juda qiyin, ortiq darajada beg‘am, beparvo, og‘ir karvon;
do‘ppiqaytaqi – parvoyi falak, hech narsadan g‘ami yo‘q.
7. Hissiyotga beriluvchan:
hissiyotchi – ichki kechinmalarga, xis-tuyg‘ularga g‘oyat beriluvchan;
hayqiroq – hayqirishga odatlangan, baqiroq;
shovqinchi – baqirib gapirishga odatlangan, arzimagan narsaga shovqin soladigan.
8. Maqtanchoq, kibrli:
chiranmachoq – maqtanchoq, kerilmachoq;
kerilmachoq – o‘ziga bino qo‘ygan.
9. Shoshqaloq:
hovliqmachi – hovliqma;

shoshqoq – shoshma-shoshar, shoshqaloq.

Xulosa va takliflar. Kollokvial sifatlarning semantik tahlili natijasida ikkala til uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar bilan bir qatorda, ayrim o'ziga xos spesifik xususiyatlarning ham mavjud ekanligi aniqlandi.

Dastlabki farqlarning biri sifatida semantik sinf va guruhlarning hajmlaridagi farqlarni keltirish mumkin. Buning natijasida, har-bir semantik sinf tarkibidan ma'lum semantik maydonlar ajralib chiqib, ular ham taqqoslanayotgan tillarda son jihatidan turlicha ko'rsatkichlarni qayd etadi.

Chog'ishtirilayotgan tillardagi o'ziga xos semantik xususiyatlardan yana biri shundan iboratki, ba'zi tushunchalar ikkala tilda turlicha so'z turkumlari tarkibidagi kollokvial birliklar bilan ifoda qilinadi. Masalan, "axmoq, tentak" tushunchasi ingliz so'zlashuv leksikasida ushbu integral belgi orqali semantik maydonga birlashtiriladi va "Inson" semantik sinfi hamda "Antroponim" semantik guruhiga mansub substantiv leksik birliklar sonining ko'pligi bilan ajralib turadi.

O'zbek tilida ushbu referentni ifodalovchi kollokvializmlarning soni ancha kam. Lekin, aynan shu tushunchaning o'zi "Salbiy xususiyatni ifodalovchi nomlar" semantik sinfiga kiruvchi katta miqdordagi o'zbek tilidagi kollokvial sifatlar uchun integral belgi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, taqqoslanayotgan tillarning ikkalasi ham sezilarli darajada keng semantik diapazonga ega bo'lib, ikkala tildagi kollokvial leksik birliklarning ma'noviy rang-barangligi semantik maydonlarni ajratib ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Qandaydir umumiy kategorial belgi asosida yagona semantik sinf yoki guruhga birlashtirilgan mana shu kollokvializmlar o'zlari mansub bo'lgan semantik maydonlar tarkibida ushbu so'zning semantikasi uchun muhim bo'lgan boshqa belgilar asosida bir-biriga qarama-qarshi ham qo'yilishi mumkin. Shu bois har doim ham kollokvializmlarni semantik sinf va guruhlarga aniq taqsimlashning imkoni yo'q bo'lib, ingliz va o'zbek tillari kollokvial leksik birliklarining klassifikatsiyasi ma'lum darajada nisbiy hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Partridge E. Slang today and yesterday. – London: Routledge, 1953.
2. Flexner S.B. American slang. – In: The American language in the 1970-s. – Sacramento: Boyd & Frazer, 1974.
3. Labov W. The logic of nonstandard English. – In: Varieties of Present-day English. – N.Y.: Macmillan, 1973.
4. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: «Высшая школа», 1986. – 295 с.
5. Green J. Encyclopedia of Language & Linguistics (Second Edition). – Elsevier Science, 2006. – 9000 pp.
6. Прошина Т.А. Нестандартная лексика английского языка // Журнал Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. – Майкоп, 2010. – с. 2.
7. Mesimova L. Colloquial words and expressions. Slang. Styles in written communication. Business communication // Web of Scholar. Vol.4, 2018. – pp.3-5.
8. Collins P. and X.Yao. Colloquial features in Word Englishes // International Journal of Corpus Linguistics, Volume 18, Issue 4., John Benjamins Publishing Company, 2013. – pp. 479 – 505.
9. Al-Alami S. Using colloquial language in prose fiction texts: An exploratory study. // Research Journal in Advanced Humanities, Volume 5, Issue 1. – Nairobi, 2024. – pp.1-15.
10. Уринбаев Б. Вопросы синтаксиса узбекской разговорной речи. Автореф. дисс... д-ра филол.наук. – Т., 1974.
11. Турсунпўлатов М. Лексика узбекской разговорной речи. Автореф. дис. канд. Филол. наук. – Т.: 1982. – 24 с.
12. Rahimov G'. Britaniya va Amerika slengining sotsiolingvistik xususiyatlari: Filol.fan.nomz. ...diss. – Samarqand, 2006.
13. Satimova D. Ingliz va o'zbek yoshlar slengining qiyosiy tahlili. Filol.fan.bo'y.fal. dok. ... diss. avtoref. – Andijon, 2020.
14. B.Sotvoldiyev. Ingliz tilida slengning paradigmatik-sintagmatik munosabati. Filol. fan. bo'y. fals. doktori diss. – Namangan, 2021. – 148 b.

Muhayyo TO'RAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: torayevamuhayyo0@gmail.com

PhD G. Soatova taqrizi asosida

SHARIF YUSUPOV IS A RESEARCHER OF KHUDOYAR KHAN PERIOD SOURCES
Annotation

In the article, the sources that covered the fate and activities of the last khan of Kokan, Khudoyor Khan, the scientist Sharif Yusupov, who made a great contribution to the development of Uzbek literature, source studies and historiography, were analyzed and made impartial comments. As a result, historical truths about the fate of Khudoyar Khan were revealed through literary and historical sources.
Key words: Source studies, archival documents, lamentation, biography, ignorance, period, correspondence, historical truth, colonialism.

ШАРИФ ЮСУПОВ – ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ИСТОЧНИКОВ ПЕРИОДА ХУДОЯР-ХАНА
Аннотация

В статье проанализированы и даны беспристрастные комментарии источники, освещавшие судьбу и деятельность последнего хана Кокана Худоёр-хана, учёного Шарифа Юсупова, внесшего большой вклад в развитие узбекской литературы, источниковедения и историографии. . В результате через литературные и исторические источники были раскрыты исторические истины о судьбе Худояр-хана.
Ключевые слова: Источниковедение, архивные документы, плач, биография, незнание, период, переписка, историческая правда, колониализм.

SHARIF YUSUPOV - XUDOYORXON DAVRI MANBALARI TADQIQOTCHISI
Anotatsiya

Maqolada o'zbek adabiyoti tarixi, manbashunoslik va tarixshunoslik rivojiga katta hissa qo'shgan olim Sharif Yusupovning Qo'qonning so'nggi xoni Xudoyorxon taqdiri va faoliyati yoritilgan manbalar tahlil qilinib, xolis mulohazalar yuritilgan. Natijada Xudoyorxon taqdiriga oid adabiy va tarixiy manbalar orqali tarixiy haqiqatlar ochiqlangan.
Kalit so'zlar: Manbashunoslik, arxiv hujjatlar, marsiya, biografiya, jaholat, davr, yozishma, tarixiy haqiqat, mustamlaka.

Kirish. O'zbek matnshunosligi va manbashunosligining bugungi kunga qadar rivojlanib, tarixiy haqiqatlarning ochiqlanishida manbashunos olimlarning xizmati taxsinga loyiqdir. Ular mumtoz manbalarga nuktadon matnshunos va manbashunos sifatida yondashib, manbashunoslikning turli amaliy masalalarini fanga olib olib kirganini alohida ta'kidlash kerak. O'zidan boy ilmiy asarlar qoldirgan ana shunday zabardast manbashunos va matnshunos olimlardan biri, filologiya fanlari doktori, professor Sharif Yusupovdir.

Ustoz haqida filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimov: "Toshkentning so'nggi 100-150 yillik tarixini, mahalla-ko'ylarini, osori atiqalarini, qo'yingki, bek amaldorlaridan qozi-yu quzotlarigacha, idora mahkama imoratlaridan boyvachchalarini yig'ilib turadigan samovarlarigacha bekami-ko'st biladigan kishi" deya ta'riflaydi. [Sharif Yusupov. 1999, 3b].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qo'qonning so'nggi xoni Xudoyorxonning ayanchli taqdiri, shahzodalarning keyingi hayoti, rus bosqinchilarining yurtimizda yuritgan siyosati borasida bir qancha tarixiy manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Tarixdan qo'rqoq, rus bosqinchilariga o'z tinchligini o'ylab taslim bo'lgan maishatparast xon sifatida tasvirlanib kelgan bu shaxs borasida ko'proq salbiy taassurotlar xalq ongida saqlanib qolgan. Bunga sabab xalqimizning qon-u joniga singib ketgan, o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi Xudoyorxon obrazidir. Asar orqali Xudoyorxon shaxsiyati maishatparast sifatida onggimizga muhrlangan.

Aslida esa xonning ayanchli qismati, murakkab hayot yo'li borasidagi ma'lumotlardan hammamiz ham xabardor emasmiz. Sharif Yusupov - ana shunday haqiqatlarni aniqlashda ter to'kkan fidoyi olimdir. Xudoyorxon borasidagi haqiqatlar bir qancha tarixshunos va manbashunos olimlar tadqiqotlarida sayqallandi. Ayniqsa, manbashunos Sharif Yusupov bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Uning "Xudoyorxon va Furqat", "Xufiya qatlamlar" kitoblari, "Xonning so'nggi ilinji" singari

maqolalari buning yaqqol dalilidir. Sharif Yusupov boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq manbalarni qiyosiy tadqiq qildi va tag zaminidagi haqiqatlarni aniqlashga intildi. Olimning ilmiy izlanishlari bejiz ketmadi. Uning tadqiqotlari natijasida ko'pgina tarixiy sirlar ochiqlandi.

Tahlil va natijalar. Xudoyorxon hayoti davomida Qo'qon xonligi taxtiga 3 marta o'tirgan ammo uning rus bosqinchilari tomonidan vatanidan ayri holda tutilgani, qolgan umrini sarson-sargardonlikda kechirishga majbur qilingani, Qo'qon taxtini necha marotaba qaytarish borasida chekkan zahmatlari xususida Sharif Yusupov o'sha davrda ijod qilgan ijodkorlarning asarlari, arxiv materiallar, yozishma va maktublardagi ma'lumotlarga tayanib mulohazalar yuritadi. Ayniqsa, bu borada olim Furqat mulohazalariga tayanadi. Olim "Xudoyorxon va Furqat" asarining debochasida ta'kidlaganidek, "Furqatning yoshlik yillari poytaxt "Xo'qandi latif"da, yurtga Sayid Muhammad Xudoyorxon hukmfarmonlik qilgan davrda o'tdi. Shu vajdan Qo'qon xonligining oxirgi yillarida, bir tomondan. Toj-taxtning mahalliy da'vogarlari, ikkinchi tomondan, ulardan ko'ra allaqancha yovuzroq va hiylagarroq bo'lgan rus bosqinchilari so'ngra xonni taxtdan ag'darish, yurtga istagancha beboshlik qilish yo'lida amalga oshirgan ne-ne ishlarni ham, bu ishlar oqibatida xalq boshiga tushgan behisob jabr-jafolarni ham bo'lajak shoir o'z ko'zi bilan ko'rgan, qayta-qayta qalbi zirqirab his etgan edi"- [Sharif. Yusupov. 1995, 3] deya keltiradi.

Bundan tashqari, Furqat xonning kenja o'g'li Fansurullobek bilan samimiy do'stona munosabatda bo'lganligi, hamda shoir "Sabog'a xitob" deb atalgan katta she'riy maktubida alohida ehtirom bilan misralar yozganligini ko'rishimiz mumkin.

Xudoyorxon uchinchi marta xonlik taxtini egallaganda rus bosqinchilari Buxoro amirligining Jizzax va O'ratepa shaharlarini egallab o'z hokimyatini o'rnatadi. Ana shu vaziyatda Xudoyorxon rus bosqinchilariga o'z xohishi bilan taslim bo'ladi shu vajdan ko'pchilik tarixchilar uni qo'rqoqqa chiqarishadi. Sharif Yusupov esa bu haqida ehtimol yaxshi qurollangan

armiyasi bor bosqinchiga bas kelolmasligini bilgani va keyinchalik kuch to'plab hujum qilish istagi bo'lgan bo'lishi mumkin tarzidagi mulohaza yuritadi.

Olim Xudoyorxon davri, uning ayanchli taqdiri, farzandllari bilan aloqador voqealarni yoritar ekan o'sha davrda yashab ijod qilgan shoir Furqat, shuningdek, Niyoziy Xo'qandiyning "Ilg'or ahli qissasi", Mulla Qori Qunduziyning "Tavorixi manzuma", Mulla Avazmuhammad So'fi Attorning "Tuhfatut tavorixi xon", Mahjur Xo'jandiyning "Tarixi Xo'qand", Shavqiy Namangoniyning "Jangnomai Xudoyorxon", Abdulg'afurning "Zafarnomai Xudoyorxon" singari yirik asarlardagi ma'lumotlarga tayanadi. [Sharif Yusupov. 1995, 36] Ushbu asarlarda so'nggi Qo'qon xoni hukmronligining turli yillari qalamga olingan. Shuningdek, Olim N.Ostroumovning "Rossiya Arxeologiya jamiyati Sharqshunoslik bo'limi "Axborot"ida chop etilgan muallifi noma'lum deb kiritilgan ikki asar haqidagi chalkashliklarni aniqlaydi. Bu ikki asarning biri muxammas bo'lib, ikkinchisi O'rmonbek vafotiga bag'ishlangan marsiyadir[Sharif Yusupov. 1995, 38].

Zavqiyshunos olim Hoshimjon Razzoqov Zavqiyning "Tanlangan asarlar"ini nashrga tayyorlash davomida "Demish xon" sarlavhali muxammasni Zavqiy qalamiga oid deya nashrga berib yuborganini aslida esa bu radifi bir xil bo'lsada qofiyasi, shaxslarga yondashuvda farq borligini aniqlaydi. Sharif Yusupov izlanishlari davomida bu muxammasni Zavqiyning do'sti, qo'qonlik shoir Usmonxo'ja Zoriy qalamiga mansubligini ma'lum qiladi.

Olim Zavqiyning muxammasi matni bilan Zoriyning muxammasi matnini solishtirar ekan, undagi farqli jihatlarni keltirib o'tadi. U Zavqiyni xon haqidagi asari yetti band - o'ttiz besh misradan iborat bo'lib, unda shoir Xudoyorxon timsolini asosan salbiy ko'rinishda tasvirlaganligini, u boshqa zamondosh ijodkorlar singari xonga achinib ham o'tirmaganligini ta'kidlaydi. Xudoyorxon vafotidan so'ng unga bag'ishlab yaratilgan muxammaslar orasida Zavqiyning asari ikki yetakchi jihati bilan ajralib turadi. Bu jihatlarning birinchisi Xudoyorxon timsolini asosan salbiy planda gavdalantirishdan, ikkinchisi esa general-gubernator fon Kaufman Xudoyorxonga nisbatan xiylagarlik va zolimlik qilganini oshkora aytishdan iborat [Sharif Yusupov. 1995, 41]. Olim Furqat, Kotib, Havoiy-Umidiy asarlarida Xudoyorxon fojeasini qalamga olganida, unga nisbatan achinish, hamdardlik tuyg'ulari mavjudligini keltiradi.

Sharif Yusupov Furqatning "Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan" nomli muxammasi haqida fikr yuritar ekan asar uch marta nashr etilganligini ta'kidlab, asar birinchi marta "Rossiya Arxeologiya jamiyati Sharqshunoslik bo'limi "Axboroti"ning 1893-yilgi sakkizinchi sonida nashr etilganligi, keyinchalik ushbu asar Abdulla Avloniyning "Adabiyot" to'plamida, inqilobdan keyin esa 1971-yilda "Mehnat va turmush" oynomasining 5-sonida filologiya fanlari doktori Sobirjon Ibrohimov tomonidan nashr etilib, bu ikki nashrda asarning so'zboshisi tushib qolganligini ta'kidlab o'tadi. Olim Furqat ijodiga yuzlanar ekan shoirning muxammasi o'sha davrda yaratilgan Kotib muxammasi bilan bir mavzuda yozilganligiga qaramay ular o'rtasida farq bor ekanligini tushuntiradi. Furqat muxammasi xon tilidan yozilgan bo'lsa, Kotib muxammasi muallif tilidan yozilgan. Furqat Xudoyorxon toj-taxtining zavolga yuz tutishining asosiy sababi qilib xonning maishatparastligi ekanligini ko'rsatishi bilan farqlashini keltirib o'tadi.

Olim Furqatning "Ahvolot" asari haqida so'z yuritar ekan shunday yozadi: "…Qo'qon xonligining so'nggi davri va Xudoyorxonning hukmdor sifatidagi faoliyati va oxirgi vaqtdagi qismati bilan bog'liq ko'pgina jihatlar haqida qimmatli manba vazifasini o'taydigan asardir". [Sharif Yusupov. 1995, 66].

Ko'pgina tadqiqotchilarimiz tomonidan kommunistik mafkura hukmronligi davrida nohaq ta'na toshlariga ko'mib tashlangan "Qasida"da Furqat Xudoyorxon hukmronligining so'nggi oylari bilan bog'liq alam-iztirobli voqealar tasviriga munosib o'rin ajratadi. Bunda u o'z xiyonatkorona qilmishlari bilan Qo'qon xonligini o'ris mustamlakachilari oyog'i ostiga tashlab berishga olib kelgan o'jar va kaltabin, mol-dunyo va amalga mukkasidan ketgan hamyurtlarini avvalgi asarlarida deyarli uchramaydigan achchiq istehzo bilan, aytish mumkinki, masxara ohangida hajv qiladi, ularning asl qiyofasi, qilmish-

qidirmishlari ustida o'quvchini o'ylantirib qo'yadigan timsollardan foydalanadi"[Sharif Yusupov. 1995, 67].

Sharif Yusupov Furqatning asarlarini tahlil qilar ekan, Qo'qon xonligi so'nggi davri va so'nggi xon Xudoyorxon haqida deyarli barcha asarlarida shoirning bu hukmdorga e'timodi, uning fojeali qismatidan qattiq iztirob chekkanligi shundoqqina sezilib turishini, "Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan" asarida u o'zini xonning duogo'yi ekanini, xonga "diyda giryon" tarzida ta'riflaganligini ta'kidlaydi.

Olim Xudoyorxon hayotining so'nggi oylari haqidagi ba'zi tafsilotlarga marg'ilonlik shoir Havoiy-Umidiyning "Maktubchai xon" manzumasini o'rganish davomida qimmatli ma'lumotlarga duch kelgadi. Manzumadan aniqlanishicha, xon Abdulrahim og'a Abdulaziz o'g'li ismli shaxs bilan qay tariqa tanishgani va fon Kaufman bilan xat almashib turishida shu inson vositachi bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi. Olim manzumadagi quyidagi baytni keltirish orqali xonning Bo'mbayda turgan vaqtdagi ahvoli haqidagi ma'lumotlarni o'quvchiga tanishtiradi.

Ki shohi Inglisdin chiqdi buyruq,
Bu yerda turmasun deb xon, bo'lub o'q.
Ki to uch kungacha qolmay yo'qolsun,
Xabar yetmay chiqib tez, yo'lni olsun.
Bu mahkumdin chiqib boshqa viloyat,
Borib orom olsun ul salomat,[Sharif Yusupov. 1995, 26]

Bu misralar tahlili orqali xonning bu davlatga ham sig'maganini, shu yerdan ham quvilganini ko'rishimiz mumkin.

Sharif Yusupov ko'pgina tarixchi, muarrixlar va shoirlarning asarlarini o'rganish mobaynida Xudoyorxon davrida soliqlar haddan tashqari og'ir bo'lganligini ta'kidlab, "Xudoyorxon taxtdan ketib, sal keyinroq Karruxda vafot etganidan so'ng xonning fojiali taqdiri xususida asar yozgan muarrix va shoirlarning shu masalada uning faoliyatini oqlamaganini qayd etadi. Zavqiy, Kotib kabi shoirlar xonning mol-dunyoga o'chligi, xatto, shariatda bo'lmagan meros solig'ini joriy etganligi, alohida ta'kidlashganligi haqida ma'lumot beradi. Olim Kotibning asariga yuzlanar ekan, bu ishda asosiy aybni xonning xos vaziri Iso avliyoga qo'yganligini quyidagi misralar orqali ifodalaganligini ta'kidlaydi:

Vasiqa mansux aylab, Mustafo shar'ini xor etti,
Yig'ib, hech kimga bermay pul-xazina beshumor etti,
Zavqiy bu ishda bevosita xonning o'zini ayblab, Xudoyorxon tilidan yozilgan quyidagi misralari orqali

Vasiqa buzg'onim, albatta boshimg'a balo bo'ldi,
Tushub el ichra g'avg'o, sho'ru sharrg'a mubtalo bo'ldi.[Sharif Yusupov.

1999, 44].

Olim Xudoyorxonning taxtga chiqishi va taxtdan ag'darilishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishar ekan, xalq ko'z o'ngida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan "vatan ozodligi uchun jon olib jon bergan xalq qahramoni, istiqlol jangchisi" sifatida ko'klarga ko'tarilgan soxta Po'latxon" aslida qonxo'r zolim bo'lganligi, Umidiy-Havoiy "Maktubchai xon" dostonida soxta Po'latxon yosh go'daklarni kundaga qo'yib chopishga zo'r bergani uchun "Zahhoki soniy" deb atashini qayd qilib o'tadi.

Olimning Xudoyorxon taqdiri va shajarasiga oid izlanishlari boshqa tarixchi olimlarning ilmiy mulohazalaridan tubdan farq qiladi. Nabijon Boqiyevning Qo'qon xonligi tarixiga oid maqolasida Xudoyorxonning onasi Musulmonqulining singlisi edi degan fikrini "puxta dalillanmagan" deya e'tiroz bildirib, Sheralibek (Xudoyorxonning otasi) Jarqinoy va So'naoy deb ataluvchi bu qizlarning biri talas, ikkinchisi bag'ish qabilasidan bo'lgan [Sharif Yusupov. 2003, 75] tarzidagi xulosalarni beradi.

Xulosa. Umuman olganda, Sharif Yusupov ilmiy faoliyati davomida ko'pgina tarixiy haqiqatlar oydinlashdi. Olim ilmiy izlanishlari davomida har bir manbani yaratilish tarixiga jiddiy e'tibor qaratdi. Boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq uning tabiatidagi sinchikovlik, tarix va adbiyot ilmiga bo'lgan muhabbati tufayli bir qancha xalq nazaridan chetda saqlangan va sir tutilgan haqiqatlar oydinlashdi. Olim ilmiy faoliyati davomida Furqat biografiyasiga, Qo'qon xoni Xudoyorxon shaxsiyatiga va shuningdek, o'sha davrda yashagan bir qancha ijodkorlar hayotiga oid bahs-munozaralarga oydinlik kiritdi.

ADABIYOTLAR

1. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. Т.: Маънавият, 1999. 3-44
2. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. Т.: Шарқ, 1995. 3-67
3. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. Т.: Маънавият, 2003. 74-81
4. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. Т.: Адабиёт ва санъат, 1984.-Б. 3-10
5. Sharif Yusupov. "Xonning so'nggi ilinji" "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2004-yil 48-son
6. Фурқат ижодиёти (Мақолалар тўплами). Т.: Фан, 1990. 224
7. Юсупов Ш. Санъат ва ҳайрат. –Т.: Маънавият, 1997. 35-45
8. Юсупов Ш. Ўзбек маърифатпарварлик адабиёти ва Фурқат. Т.: Ўзбекистон, 1992. -Б. 56-65
9. Н. Жобборов. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Ф.ф.д.... диссертация, Т.: 2004. 18-32 бет
10. www.ziyouz.uz
11. Xurshid Davron kutubxonasi.uz
12. Uzpedia.uz

Dilrabo TO'RAQULOVA,
SamDChTI tayanch doktoranti
E-mail:dilrabotoraqulova@gmail.com

TDSHU, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo tillari kafedrasi mudiri, dots.N.Xodjayeva taqrizi asosida

O'ZBEK-KOREYS ADABIY ALOQALARI VA TARJIMA

Annotatsiya

Adabiyotlar o'rtasidagi aloqalar, albatta, tegishli tillarni bilishga asoslangan bo'lsa, ayniqsa samarali bo'ladi. O'zga xalqlar hayotida asarlar yaratish har bir adabiyotda muayyan an'ana va o'ziga xos tajribaga ega xodisa. Ushbu maqolada Koreya va O'zbekiston Respublikalari o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar xususan adabiy aloqalar haqida so'z boradi. Koreys tildan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan koreys tiliga qilingan tarjimalardan misollar keltirildi.

Kalit so'zlar: adabiy aloqa, adabiyot, tarjima, madaniyat, madaniy aloqa.

УЗБЕКСКО-КОРЕЙСКИЕ ЛИТЕРАТУРНЫЕ СВЯЗИ И ПЕРЕВОД

Аннотация

Связи между литературами, конечно, особенно эффективны, если они основаны на знании соответствующих языков. Создание произведений в жизни других народов – явление, имеющее специфическую традицию и уникальный опыт в каждой литературе. В данной статье говорится о взаимных культурных связях, особенно литературных, между Республиками Корея и Узбекистан. Были приведены примеры переводов с корейского на узбекский и с узбекского на корейский язык.

Ключевые слова: литературное общение, литература, перевод, культура, культурное общение.

UZBEK-KOREAN LITERARY RELATIONS AND TRANSLATION

Annotation

Connections between literatures are, of course, especially effective if they are based on knowledge of the respective languages. Creating works in the life of other peoples is a phenomenon with a specific tradition and unique experience in every literature. This article talks about mutual cultural relations, especially literary relations, between the Republic of Korea and Uzbekistan. Examples of translations from Korean to Uzbek and from Uzbek to Korean were given.

Key words: literary communication, literature, translation, culture, cultural communication.

Kirish. Turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro ta'siri va bir birini boyitishida matbuot, tarjimonlarning roli ulkan bo'lganidek, adabiy aloqalar jarayonida tarjimalar ham katta rol o'ynaydi.

Adabiyotlarning o'zaro aloqalari, eng avvalo, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi madaniy aloqalar O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng yangicha mazmun va yangicha yo'nalish kasb etdi. Har ikki xalq o'rtasidagi ana shu ma'naviy yaqinlik Janubiy Koreya va O'zbekiston Respublikalarini iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, adabiy jihatdan yaqinlashtirdi va ular o'rtasidagi aloqalarni yanada kengaytirdi, mazmunan boyitdi.

"O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jahonning turli mamlakatlari bilan har tomonlama iqtisodiy va madaniy hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mamlakatimizning, ayniqsa, Koreya Respublikasi bilan munosabatlari har tomonlama faol rivojlanmoqda, ular yangi infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, madaniy tadbirlarni o'tkazish kabi muhim sohalar rivojida o'zaro hamkorlik qilmoqdalar. Ayni vaqtda, O'zbekiston ilmiy jamoatchiligining koreys xalqi haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradigan Janubiy Koreya tarixi, madaniyati, adabiyotshunosligiga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda" [1].

O'zga xalqlar hayotida asarlar yaratish har bir adabiyotda muayyan an'ana va o'ziga xos tajribaga ega xodisa. Bu jarayon adabiyotlar taraqqiyotining turli bosqichlarida, xilma-xil shakllarida, turli badiiy saviyada davom etib kelmoqda. Shunday davrlar bo'lganki, o'zga millat kishilarining badiiy obrazlarini adabiy jarayonning masalalaridan biri qilib qo'yilgan va unga davlat ahamiyatiga molik muammo sifatida qaralgan. Natijada respublikalarda o'tkazilgan adabiyot va san'at kunlari, o'zga millat shoir va yozuvchilarining yubileylariga, siyosiy, adabiy-madaniy tadbirlarga bag'ishlanib har-xil janrlarda ko'p asarlar yozilgan. Lekin ularning hammasi ham bir xil badiiy saviyada bo'lmagan. Sayozlari adabiy jarayonda hech qanday iz qoldirmasdan, faqat o'sha tadbir uchun "xizmat qilib", so'ng unitilib ketilgan.

O'zga millatlar hayoti to'g'risida badiiy asarlar yozish, ularning poetik obrazlarini yaratish ancha murakkab jarayon. Murakkabligi shundaki, bu mavzuga qo'l urgan ijodkor tasvir obyektini yaxshi bilishi lozim. Shunday bo'lishi kerakki, boshqa millat haqida yozilgan asarda muallifning mavzu materialini yuzaki bilishi sezilmasin, o'quvchida o'z xalqining ijodkori tomonidan yozilganidek taassurot qoldirsin. Koreys adabiyoti bir necha asrlardan buyon hozirgi kunga qadar rivojlanib kelmoqda. Shu yo'sinda ta'kidlab o'tish joizki O'zbekiston Respublikasining mustaqilikka erishishi, xalqaro ijtimoy aloqalarning globallashuvi, respublikamizning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi uchun imkoniyat yaratadi. Koreya Respublikasi O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan dastlabki davlatlardan hamda mamlakatimizning asosiy iqtisodiy hamkorlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 5-yanvarda shonli sana – O'zbekiston bilan Koreya Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlari o'rnatilganligining 25 yilligi munosabati bilan Koreya Respublikasi raxbariyatini tabriklar ekan, ikki mamlakat o'rtasida o'zaro ishonch, ochiqlik va hamfikrlik qaror topganini, bu turli sohalarda, shu jumladan madaniy-gumanitar sohada hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilayotganini katta mamnuniyat bilan ta'kidladi[6]. O'zbekistonda koreys tili, madaniyati, adabiyoti, tarixiga bo'lgan qiziqish kundan-kunga o'sib borayotganini ham aynan shu bilan izohlash mumkin. "O'zbekiston madaniyati singari, Koreya madaniyati ham umuminsoniy madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo'shgan. Uning an'anaviy, ma'naviy qadriyatlari insonni komolot cho'qqilariga ko'tarish, uni dunyoning rang-barangligini anglab yetayotgan va shu asosda o'z dunyoqarashi va borliq haqidagi tasavvurlarini takomillashtirayotgan shaxs sifatida kamol toptirish uchun imkoniyat yaratadi. Koreya madaniyati o'z ildizlari bilan uzoq moziyga borib taqaladi, bu esa o'z-o'zidan

bitmas tuganmas bu madaniy merosni o‘rganish, uning mohiyatini yoritib berish vazifasini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, koreys madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan adabiyot, xususan, o‘rta asr mumtoz adabiyoti alohida ahamiyat kasb etadi[1]. “O‘zbekiston va Koreya respublikalari o‘rtasida har tomonlama hamkorlikning chuqurlashuvida madaniy aloqalar muhim rol o‘ynaydi, zero, mashhur olim N.Berdyayev ta’kidlaganidek, “jamiyat hayotida ma’naviy ustunlik madaniyat qo‘lidadir… Jamoatchilikning qimmati va sifati madaniyat sifatining yuksaklik darajasi bilan o‘lchanadi”[1.] Adabiyot, madaniyatning mohiyatini belgilaydigan asos hisoblanadi. “Adabiyot bu so‘z san’ati” deya bejizga ta’rif berilmagan. Insoniyatning estetik qimmatini, uning ichki dunyosini, dunyoqarashi va olamga munosabatini aks ettiradigan san’atdir.

Yuqorida keltirilgan oyati karimadagi xitob ota-ona, xoja va musulmon ishboshilarga qaratilgan bo'lib, ularga o'z qaramoqlaridagi o'g'il-qizlarini, qon-qarindoshlari va yordamga muhtoj yor-u birodarlarini nikohlab qo'yishga mas'ul bo'lishlari amr etilmoqda.

Nikoh masalasi o'ta nozik masala bo'lib, bu oyati karimada kambag'allik nikohdan qochishga sabab bo'lolmasligiga ham alohida ishora kelmoqda. Binobarin, bundan ba'zi kishilarning "qo'li kaltalik"ni bahona qilib nikohni kechiktirishlari musulmonchilik aqidalariga to'g'ri kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, ko'pchilik insonlar avvallari beparvo yurgan bo'lsalar ham, oila qurgach jiddiy harakatga tushib, iqtisodiy ahvollarini yaxshilab olganlarini ko'p uchratishimiz mumkin. Shunday ekan, oila qurish nafaqat sunnat, balki baraka kaliti hamdir. Bo'y yigitlar uylanmasdan oldin ota-onasi qaramog'ida bo'ladi yoki faqat o'z ehtiyojlari uchungina pul ishlab topishadi. Oilali bo'lgach esa, ayoli va farzandlarini ta'minlash, uy-joylarini yaxshilash maqsadida ko'proq ishlashga faqirlikdan chiqishga harakat qilishadi. Ushbu o'rinda "oila" konseptosferasing atrofida "baraka" ma'nosi ham birlashishini yuqoridagi oyati karimada o'z isbotini ko'rishimiz mumkin.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" nomli asarida Islom ta'limoti bo'yicha, oilaning asosi va maqsadlari xususida quyidagicha qarashlar keltirilgan: "Oila Alloh taoloning roziligini topish, Nabiy sollallohu alayhi vasallamning axloqlari, islomiy odoblari bilan o'zini ziynatlash uchun quriladi. Bu odob va axloqlar oiladan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Misol uchun, mehribonlik, halimlik, adolat va o'zaro yordamni olib ko'raylik[6]." Aslida oila – diniy axloq-odob namunalari namoyon bo'ladigan, mustahkamlanadigan makon hisoblanadi. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabat mehr-muhabbatning eng oliy ko'rinishidir. Diniy e'tiqodlar bilan sug'orilgan oilada voyaga yetayotgan yosh avlod esa ummat

uchun, vatan uchun foydasi tegadigan farzand bo'lib yetishishi shubhasizdir.

Islomda er-xotin o'rtasidagi munosabatning davomiyligini ta'minlash uchun o'ziga xos qonun-qoidalar joriy qilingan. Bunda oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a'zolari bo'lmish er va xotinning har biriga o'ziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq-huquqlari ham belgilab berilgan. Er o'z ayoli oldidagi moliyaviy burchlarini ado etish bilan birga, muomilaviy burchlarini ham sharaf bilan bajarmog'i lozim. Ular quyidagilardan iborat:

1. Er xotiniga yaxshi munosabatda bo'lishi va ularning ozorlariga chidashi lozim. Alloh taolo Niso surasida bunday deb marhamat qiladi: "Va ular ila yaxshilikda yashang". (19-oyat).

Islom ta'limotlariga binoan, er-xotin o'rtasidagi munosabat sevgi-muhabbat, rahm-shavqat va uns-u ulfat aloqasi bo'lishi lozim. Bunda, asosan, mas'uliyat erkak kishining zimmasiga tushadi. Agar er va xotin oiladagi vazifalarni sidqidildan bajarsa, ushbu oila baxt-u saodatga erishadi va bu oilada ulg'ayotgan farzandlar ham go'zal tarbiya topadi, jamiyatga foydasi tegadigan shaxs bo'lib yetishadi.

Ushbu tahlillarni "Injil" materiallari asosida tahlil qilganimizda, "oila" konseptosferasida er-xotin munosabatlari quyidagicha ekanligiga guvoh bo'ldik:

"But I want you to know that the head of every man is Christ, the head of woman is man, and the head of Christ is God". [Corinthians 11:3]

"Ammo shuni bilishingizni istaymanki, har bir erkakning boshlig'i Masih, ayolning boshlig'i erkak va Masihning boshlig'i Xudodir". [Korinfliklarga 11:3]. Ushbu oyatda Xudoning roziligini olishi uchun oilaning, ya'ni ayolning mas'uli erkak kishi ekanligi ta'kidlanmoqda. Bibliyadagi yetakchilikka erishish uchun har bir nasroniy erkak faol bo'lishi, Xudoga ergashishi, oilasiga bosh bo'lishi ko'rsatilgan.

2. Er hazil-mutoyiba va ko'ngilxushlik qilish bilan ayolini erkalatib turadi. Muhammad (s.a.v)ning o'zlari ayollariga nisbatan go'zal munosabatga, doimo xursandchilikda, ularni erkalagan, lutf ko'rsatgan va nafaqalarini doimiy ko'paytirgan holda yashaganlar. Ul zot doimo ayollari bilan hazillashib kulishar va samimiy munosabatda bo'lganlar. Oisha roziyallahu anhu: "U kishi ayollari bilan holi qolganlarida eng muloyim, karamli, serkulgu va sertabassum kishi bo'lar edilar", – deb rivoyat qiladilar.

"Injil"da esa "In the same way, husbands ought to love their wives as their own bodies. He who loves his wife loves himself."[Ephesians 5:28], "Xuddi shu tarzda, erlar o'z xotinlarini o'z tanasi kabi sevishlari kerak. Xotinini sevgan o'zini sevadi" deb bitilgan. Muqaddas kitoblarning barchasida oila mustahkamligining kaliti er-xotin o'rtasidagi sevgi, muhabbat va bir-bir qadrlash kabi tushunchalar yotadi.

3. Er xotiniga nisbatan kechirimli bo'lishi kerak. Ayolidan ba'zi xatolar o'tganda er uni kechirishi lozim. Zero, islom ta'limotiga ko'ra, xotinga muhabbat, hurmat, odob-axloq asosida muomala qilishadi, shirinsuxan, ochiq chehra, fe'li kenglik qilinadi. Shuuro surasida: "Kim avf etib, isloh qilsa,uning ajri Allohning zimmasidadir" (40-oyat).

Musulmon kishi qasd olishdan qaytib, avf etsa va bag'rikenglik bilan isloh qilsa, unga Alloh atoloning huzurida ajr-u savoblar bo'ladi. Er-xotinlar har qanday vaziyatda ham, o'z oralaridagi fazlini unutib qo'ymasliklari lozim.

Er – oila rahbari. Ayol eriga hurmat va itoatda bo'lsa, farzandlar ham otaga itoat qiladigan bo'ladi. Natijada oilada ahillik, muhabbat hukm suradi va u mustahkam bo'ladi. Ayolning eriga itoatsizligi esa oilaning buzilishi va boshqa ko'plab noxushliklarga sabab bo'ladi.

Kechirim – o'chirish, kechirish yoki qarzdan voz kechish. Kechirimlilik haqidagi Muqaddas Kitob oyatlariga ko'ra, "Agar biz kechirsak, demak, biz kimdir etkazgan azob-uqubatlardan voz kechamiz va munosabatlarni qaytadan boshlaymiz"- deb yozilgan. Kechirim inson bunga loyiq bo'lgani uchun berilmaydi, balki bu – sevgi bilan qoplangan rahm-shafqat va inoyatdir. Inson tabiatan gunohkordir. Odam Ato va Momo Havo Adam bog'ida Xudoga itoatsizlik qilishdi va gunohkor bo'lishdi. Shundan buyon inson gunoh qilishga moyildir. Rimliklar 3:23 da " Hamma gunoh qildi va Xudoning ulug'vorligidan mahrum bo'ldi" deya vahiy qilingan. Tabiiyki, oilada er-xotin bir-birlariga nisbatan gunoh

qilishadi va Muqaddas kitobda kechirimli bo'lish haqida quyidagi oyat keltirilgan: "Be kind and compassionate to one another, forgiving each other, just as in Christ God forgave you" [Ephesians 4:32] , "Xudo sizlarni Masih orqali kechirganidek, bir-biringizga mehribon va rahmdil bo'ling, bir-biringizni kechiring". Muqaddas Kitob barcha munosabatlarda kechirimlilik kuchini belgilaydi. Ayniqsa, nikohda kechirimlilik ularning hamjihatligi, sevgisi va inoyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Qur'oni karim" va "Injil" materiallaridagi "oila" konseptosferasi bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlar, oila va qarindoshlik bilan bog'liq tushunchalarning mavzuiy guruhlari; er va xotin bilan bog'liq tushunchalarning mavzuiy guruhlari orqali ifodalanadi. Oila tushunchasi yuqorida bayon etilganlardan tashqari, shubhasiz, nikoh, sevgi-muhabbat, suyanchiq, boshliq, itoatkor, kechirimlilik kabi konseptlarning to'plamidan iborat bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. The Holy Bible. DOUAY-RHEIMS VERSION 1609, 1582. – 1602 p.
2. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi. – Toshkent, 2021.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, 3-jild. – Toshkent: O'zME, 2007. – B. 97.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik, 1-tom. – Moskva, 1981. – B. 526.
5. Shayx Muhammad Sodiq. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – B. 28.
6. Shayx Muhammad Sodiq. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – B. 39.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 38.

Oybek XAMDAMOV,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:oybek_a_x@mail.ru

NamQI katta o'qituvchisi, PhD P.Botirova taqrizi asosida

ASLIYATDAGI TARIXIY DAVR RUXINI BADIIY TARJIMADA AKS ETTIRISH MASALALARI
Annotatsiya

Maqolada tarixiy mavzularda yaratilgan asarlarni tarjima qilish jarayonida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlar, badiiy tarjimada tarixiylikni qayta yaratish masalalari borasida taniqli tarjimashunos olimlar fikrlaridan na'munalar keltirilgan. Tarixiylikni badiiy tarjimada saqlash borasidagi qarashlar tavsiflangan va ularga ilmiy munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: Tarixiy asar tarjimasi, tarixiy kolorit, tarjimada tarixiy o'ziga xoslik, istorizatsiya, tarixiylashtirish, modenizatsiya, zamonaviylashtirish, arxaik va tarixiy qatlam.

ВОПРОСЫ ОТРАЖЕНИЯ ДУХА ПЕРВОНАЧАЛЬНОГО ИСТОРИЧЕСКОГО ПЕРИОДА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ
Аннотация

В статье приведены примеры мнений известных ученых переводчиков относительно аспектов, которые следует учитывать в процессе перевода произведений, созданных на историческую тематику, и вопросов воссоздания историчности в художественном переводе. Описаны проблемы сохранения историчности в художественном переводе и дан научный подход к ним.

Ключевые слова: Перевод сторического произведения, исторический колорит, историческая уникальност в переводе, историзация, модернизачия, архаический и исторический пласты.

ISSUES OF REFLECTING THE SPIRIT OF THE ORIGINAL HISTORICAL PERIOD IN ARTISTIC TRANSLATION
Annotation

The article presents examples of the opinions of well-known translation scholars regarding the aspects that should be taken into account in the process of translating works created on historical themes, and the issues of re-creating historicity in artistic translation. The problems of preservation of historicity in literary translation are described and a scientific approach is given to them.

Key words: Translation of a historical work, historical colour, historical uniqueness in translation, historicization, modernization, archaic and historical layers.

Kirish. O'zbek adabiyoti jahon adabiyotining ajralmas bir qismidir. Uning eng yaxshi namunalarini dunyo tillariga tarjima qilishda badiiy tarjimaning alohida o'rni bor. Badiiy adabiyotda ilgari surilgan tarixiy merosni asrab avaylash, buyuk bobokalonlarimiz qilgan ishlarini qadriga yetish va ularga munosib avlod bo'lish kabi ilg'or, bunyodkor g'oyalar yoshlarimizning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz. Ayni paytda o'zbek kitobxonlari jahon adabiyoti namunalaridan, rus, ingliz, nemis, turk va boshqa xorij kitobxonlari esa bizning buyuk adiblarimiz asarlaridan boxabarlar.

Tarixiy mavzuda yaratilgan har bir asar hozirgi zamon kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi. Tarixiy asarlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunday asarlar davr ehtiyojiga muvofiq tarzda ko'plab tarixiy va arxaik lisoniy vositalarni o'z ichiga oladi. Bunday vositalar kitobxon ko'z o'ngida o'sha davr ruxini, manzarasini, nafasini jonlantiribgina qolmay, bu bilan birga ular asarning badiiy-estetik ta'sirchanligini ham oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Tarixiy davr ruhini tarjimada qayta yaratish borasida bir qator olimlar tadqiqot va izlanishlar olib borganlar. Tarjimashunos olim A.Fyodorov, Slovak olimi A. Popovich. Sofiya universiteti professori Anna Lilova, Nemis tarjimashunos olim Professor A.Noybert o'z ilmiy izlanishlarida fikr bildirganlar. O'zbek tarjimashunos olimlaridan G'.Salomovning "Tarjima tashvishlari" risolasida, tarjimashunos olim Qudrat Musayev o'zining Tarjima nazariyasi asoslari kitobining Tarjimada tarixiylik va milliylik deb nomlanuvchi qismida atroflicha to'xtalganlar. Mavlon Javbo'rievning "воссоздание национального характера и исторического колорита в художественном переводе (на материале немецкого перевода романа А. Якубова «Сокровища Улугбека»)", ya'ni "Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy koloritni qayta yaratish" (Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi"

romani nemischa tarjimasi misolida) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada badiiy tarjimada tarixiylikni qayta yaratish masalalari borasida taniqli tarjimashunos olimlar fikrlaridan na'munalar keltirilib, tarixiy faktlarga asoslangan asarlarni tarjima qilish jarayonida tarjimon ijodkor oldidagi mas'uliyat va tarjimon ega bo'lishi kerak bo'lgan zaruriy mahoratlar haqida bayon qilingan. O'zbek va xorijiy tarjimashunos olimlar fikrlari qiyoslangan va qiyolash-taqqoslash, tahlil usullardan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar. Qadimgi davrda yaratilgan asarni uning hozirgi til holatiga o'girishni tabdil deyiladi. Buni A.Fyodorov "внутриязыковой перевод" (til qobig'idagi tarjima) deb, bir tilning o'tmish davrida bitilgan matnini shu tilning hozirgi zamon holatiga qayta kodlashtirish deb tushuntiradi. Slovak olimi A. Popovich ham shunga yaqin fikr bildiradi. Unga ko'ra matnni bir til doirasida uning o'tmish davridan hozirgi holatiga transformatsiya qilish, deb ta'riflanadi[1]. Agar matn boshqa tillarga o'girilsa, tarjima hisoblanadi. Matn qanday asar bo'lmasin, agarda boshqa tillarga tarjima qilinmasa undan dunyo bexabarligicha qolaveradi. Tarjimashunos olim G'.Salomov ta'kidiga ko'ra, tarjima "zuryodiylik" (matn tug'dirish) xususiyatiga ega. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani dastlab rus tiliga, undan keyin nemis, turk tiliga, so'ngra ingliz, boshqa tillarga tarjima qilindi. Bir asar bir tilga tarjima qilindimi, demak yana boshqa tillarga tarjima qilish uchun yo'l ochiladi. Tarixiy asarlar tarjimasi nafaqat bizdan olis davrda yaratilgan original asarni bugungi o'quvchilarga tanishtiradi, balki o'zi yana yangi matnlarni, boshqa tillardagi yangi-yangi talqinlarning yaratilishiga asos bo'la oladi.

Tarixiy mavzudagi asarlarni hozirgi davr tillariga tarjima qilish muammolariga jahon tarjimashunos olimlari ham o'z munosabatlarini bildirishgan. Bunda dastlab Yevropa mutaxassis-

larining fikrlari e'tiborga loyiq. Slovak olimi Anton Popovich tarjimadagi tarixiy o'ziga xoslikni tipologik jihatdan tadqiq qilar ekan, unda quyidagi farq ko'zga tashlanishini aytadi:

Tarjimon o'z zamondoshi yaratgan asarni tarjima qiladi. Bunda sinxron (bir vaqtning o'zida) tarjima hosil bo'ladi. Asliyatdagi tarixiy davr bilan tarjimadagi tarixiy davr bir hil bo'ladi;

Tarjimon o'ziga zamondosh bo'lmagan muallif asarini ya'ni, tarixiy asarni tarjima tarjima qiladi. Odatga ko'ra tarjimon ana shunday asardagi tarixiylikni aktuallashtiradi va o'z zamondoshiga tushunarli qilishga intiladi. Bunda "istorizatsiya" (tarixiylashtirish) yoki "modernizatsiya" (zamonaviylashtirish) deb ataluvchi tamoyillar qo'llanadi. Bu holda asliyatdagi tarixiy davr bilan tarjimadagi tarixiy davr bir-biriga teng bo'lmaydi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, ayrim tadqiqotchilar tarjima va tabdil terminlarini bir-biridan ajratmagan holda qaraydilar. Sofiya universiteti professori Anna Lilova "Umumiy tarjima nazariyasiga kirish" nomli monografiyasining[2]. "Tarjimada davriy masofa" deb nomlanuvchi bobi aynan ana shu sohaga bag'ishlangan. Unda aytilishicha, asliyatda aks etgan tarixiy xoslikni to'laqonli qayta yaratish, aniqrog'i uni bugungi kitobxonga tushunarli tarzda yetkazish uchun avvalo unda aks etgan o'tmishga daxldor bo'lgan til materialini o'zga tilda qayta yaratish muammosini hal qilish lozim. Bu nafaqat birinchi darajali masala, balki juda murakkab ishdir. Davrlar o'tishi bilan asliyatninng til va uslubi shu qadar o'zgarib ketishi mumkinki, uni xatto o'sha tilning bugungi merosxo'rlari ham tushuna olmay qoladilar. Asliyat yaratilgan davr tarjima amalga oshirilgan paytdan odatda ma'lum darajada farq qiladi. Shuning uchun ham asliyat ruhini to'la-to'kis qayta yaratish mas'uliyati tarjimondan zaruriy lisoniy vositalarni to'g'ri tanlash yo'li bilan asliyat vujudga kelgan davr xususiyatini qayta yaratishni talab etadi. Ayniqsa tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarni tarjima qilish tarjimonga birmuncha murakkablik tug'diradi. Tarixiy asarlarni zamonaviy til vositalaridan foydalangan holatda o'girish tarjimada tarixiy koloritning yo'qqa chiqaradi. Bu borada tarjimashunos olim Qudrat musayev shunday yozadi. "Asliyatning arxaik xususiyati tarjimada zamonaviy so'z va iboralardan muqobil vositalar sifatida foydalanish imkoniyatini bermaydi. Shu bilan birga tarjima amalga oshirilgan davr kitobxonga yaqin, tushunarli bo'lishi ham lozim. Chunki tarjimon asarni o'z davri kitonxoni mutolaasi uchun tarjima qiladi. Bir so'z bilan aytganda, tarjimada shunday lisoniy vositalardan foydalanish kerakki, hosil bo'lgan matn kitobxonga yaxshi tushunarli bo'lsin va shu bilan birga asar yaratilgan davr uning ko'z oldida jonlanib tursin. Buning ma'nosi shuki, tarjimada tilning arxaik va tarixiy qatlamlariga murojaat qlishda siuiste'mollikka yo'l qo'yilmasin, ulardan kitobxonda asar yaratilgan davr to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin bo'lgan darajada foydalanish zarur[3]. Ko'pincha tarixiy voqea-hodisalar tasviriga bag'ishlangan asarlar tarkibida qo'llanilgan lisoniy vositalarni tarjimada asliyat ruxiga mos tarzda talqin etish bilan bir qatorda goho ularni zamonaviylashtirish hollari ham uchrab turadi. Bu hol ko'p tarjimonlarning o'z tillaridagi tarixiy va arxaik so'zlardan yaxshi xabardor bo'lmasdan, tarjima jarayonida mavjud ikki tilli lug'atlardangina foydalanishlari bilan bog'liqdir. Mazkur lug'atlar esa asosan tilning xozirgi davr so'z boyligini qamrab olishlari sababli aksariyat hollarda tarixiy tasvirini yaratishga ojizlik qiladilar.

Tarixiy asarlar ruxini tarjmada tiklash uzoq o'tmishda yaratilgan badiiy yodgorlikni boshdan oyoq o'sha davrga xos tilda tasvirlab berish lozimligini bildirmaydi. Olti, yetti yuz yil muqaddam bitilgan asarni nafaqat o'zga tillar vakillari, balki asliyat sohibi bo'lmish xalq vakillarining o'zi ham zo'rg'a tushunishi tabiiy hol. Vaqt o'tgan sari ayniqsa tarixiy asarlarning tushunarlilik darajasi pasayib boradi. Har qanday asar uning qaysi davrda yaratilganidan qat'iy nazar hozirgi davr tiliga o'girilidi. Davr bo'yog'i esa asar yaratilgan zamon lisoniy unsurlari ishtirokida tiklanadi. Asar tili, u yaratilgan davr tili in'ikosi sifatida, hech qachon o'zgarmasa, tarjima tili vaqt o'tishi bilan eskiradi, ma'lum muddat o'tgach, asarni yana keyingi davr tiliga, kitobxon talabiga moslab, qayta tarjima qilish ehtiyoji tug'iladi.

Olmon tarjimashunosligida ham o'tmishda yaratilgan asarlar tarjimasi masalasiga muayyan munosabat bildirilgan. Professor A.Noybertning fikriga ko'ra, uzoq o'tmishda yaratilgan asarlar tarjimasida ekstralingvistik (g'ayrilisoniy) muammolar muhim rol o'ynaydi[4]. Uning ta'kidlashicha, - agar badiiy asar bundan ming yil avval yaratilgan bo'lsa, undagi ekstralingvistik xoslikni tarjimada berish qiyinchiligi ikki barobar ortib, shunga ko'ra tarjima tamoyillari ham o'zgarib boraverishi tabiiydir. Bu esa qadimgi obidalar tarjimasini tarjimashunoslikning asliyatdagi tarixiy davrni qayta yaratish sohasiga shunchaki kiritib qo'yaverish to'g'ri emasligini ko'rsatadi.

Sobiq ittifoq tarjimashunoslik maktabi asoschilaridan biri A.V.Fyodorovning "Основи обшей теории перевода" deb ataluvchi kitobida tarixiy asarlarni hozirgi zamon tillariga tarjima qilish sohasiga maxsus to'xtalingan. Unda o'tmishga daxldor ilmiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni bugungi o'quvchiga tanishtirishda ortiqcha zamonaviylashtirish bo'lmasada, hozirgi zamon tillariga mumkin qadar yaqinlashtirish tamoyili ustivor bo'lishi kerakligi ta'kidlanib, bunga misol tariqasida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan rus tilida nashrga tayyorlangan Abu Ali Ibn Sino hamda Abu Rayhon Buruniylarning tanlangan asarlarini ijobiy namuna sifatida keltiriladi. Olim tarixning turli davrlarida yaratilgan badiiy asarlar tarjimasida ilmiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga nisbatan anchagina murakkab muammolarni hal etish talabi borligini uqtiradi va buni tarjimada asliyatdagi tarixiy koloritni qayta yaratish, deb ataydi. Uning ko'rsatishicha, bunday xil tarjimada asosiy til materiali albatta hozirgi zamon tili bo'lsada, tarjima tili bilan asliyat tili orasidagi "davriy masofa"ga e'tibor berish lozim.

Muhokama. O'zbek tarjimashunosligida ham ushbu sohaga oid muayyan fikrlar aytilgan. G'.Salomovning "Tarjima tashvishlari" risolasining "She'riy tasvir va nasriy bayon" deb nomlanuvchi bo'limida haqiqiy san'at asari ma'nosini tushunish uchun ma'lum tayyorgarlik talab qilinishi aytiladi va bunga hazrat Navoiy asarlari tarjimalaridan misol keltiriladi. Muallif o'z fikrini davom ettirib, bu hodisaning asosli sabablari mavjudligini quyidagicha ko'rsatib o'tadi: "Bu, avvalo, Navoiy bilan kitobxonni ajratib turadigan tarixiy davr bo'lsa, ikkinchidan, tilda yuz bergan jiddiy o'zgarishlar, lisoniy tafovut bilan izohlanadi. Binobarin, Uyg'onish davri adabiyotining yirik namoyandasi Vilyam Shekspir tilini hozirgi oddiy ingliz kitobxoni to'liq idrok eta olmasligi singari, Alisher Navoiy asarlarini oddiy o'zbek o'quvchisining tushunishi ham qiyinroq ahvolga kelib qolgan"[5]. Bunda "Farhod va Shirin"ning G'afur G'ulom amalga oshirgan nasriy bayoni Alisher Navoiyni tushunishda, qolaversa, uning xorijiy tillardagi tarjimalarini yaratilishida muhim rol o'ynaganligi asosli dalillar bilan ko'rsatib beriladi.

Tarjimada asliyatda aks ettirilgan voqelikning o'ziga xosligini qayta yaratishdagi yana bir muammo bu tarjima asarining kimga mo'ljallanganligidir. Boshqacha aytganda, tarjimon o'z ijodini kim uchun yaratyapti? – degan masala. Bu savolga professor G'.Salomov quyidagicha javob beradi: "Tarjimon uchun asosiy dastmoya, boshlang'ich material – asl nusxaning matni emas, balki unda ifodalangan axborotdir, binobarin tarjimonning maqsadi tarjima tekstini yaratishdan iborat emas, balki asliyatda aks etgan mazmunni ifodalashga qaratilgan bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, tarjimon kitobxonga qarab mo'ljalni olishi lozim"[6]. Bu jihat esa har bir asar tarjimasiga o'ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Demak, asardagi arxaik so'zlar ya'ni tarixiylik tarjima tilida ham faqat tarixiy va arxaik so'zlardan foydalanish tarjima asarni zamonaviy kitobxon tushunishini birmuncha qiyinlashtiradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki badiiy tarjima yordamida bir xalq boshqa bir xalqning adabiyotidan xabardor bo'ladi va teranroq tushunadi, ayniqsa tarixiy asar qahramonlari, ezgulik, adolat, yaxshilik ideallari o'zga xalqlar dilidan joy oladi. Muayyan bir xalqqagina, bir millatgagina xos bo'lgan qadriyatlarni, shu millat tarixini aks ettiradigan milliy badiiy asar badiiy tarjima tufayliginana banalmilal, umuminsoniy xarakter kasb etadi. Tarixiy mavzuda yaratilgan har qanday badiiy asar oradan har qancha vaqt o'tmasin, ham badiiyligi sabab, ham ozida tarixiy faktlarni mujassam etganligi sabab o'quvchilar e'tiborini o'ziga tortaveradi va shu sabab ular xorijiy tillarga to'xtovsiz, qayta-qayta tarjima qilinadi. Ijodkor tarjimon tarixiy mavzudagi asarlarni tarjima qilishdek mas'uliyatli ishni o'z zimmasiga olar ekan, u orqali boshqa millat vakili bo'lgan kitobxonlar bir millat tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar, tarixiy

shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishadilar, ularda bir millatning tarixiy o'tmishiga nisbatan hurmat tuyg'usi paydo bo'ladi va shu orqali tarjimon ham asliyat muallifi bilan bir qatorda ma'rifatli avlodni tarbiyalash; o'z zamondoshlarini tarixiy o'tmish voqealaridan va tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undashdek muhim vazifani uddalaydilar.

ADABIYOTLAR

1. Попович А. Проблемы художественного перевода. Перевод со словацкого. - Москва: Высшая школа, 1980. – 352 с.
2. Лилова А. Введение в общую теорию перевода. – Москва: Высшая школа, 1985. - С. 115-147.
3. Қудрат Мусаев. Таржима назарияси асослари: – "Фан" нашриёти, 2005. –Б.111
4. Neubert A. Pragmatische Aspekte der Übersetzung. - Leipzig. 1968. S.30-31
5. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. - 119 б.
6. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 220 б.

Nargiza XAMIDOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi
E-mail:xamidovanargiza@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

COMPARATIVE ANALYSIS OF PAIRS OF WORDS IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article presents a comparative analysis of pairs of words in French and Uzbek languages. The study explores similarities and differences in the semantic, phonetic, and morphological characteristics of selected word pairs. By examining the etymology, usage, and cultural significance of these words, the research highlights the linguistic connections and divergences between French and Uzbek. The findings contribute to a deeper understanding of the interaction between these two languages and offer insights into the broader field of comparative linguistics.

Key words: comparative analysis, French language, Uzbek language, lexical features, semantic features, grammatical features, contrastive linguistics, language teaching

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПАР СЛОВ ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данном исследовании представлен сравнительный анализ пар слов немецкого и узбекского языков с акцентом на их лексические, семантические и грамматические особенности. Анализ выявляет сходства и различия в структуре и использовании слов в этих двух языках, позволяя понять их лингвистические особенности и культурные влияния. В исследовании используется контрастирующий лингвистический подход, чтобы подчеркнуть самобытность каждого языка и способствовать лучшему пониманию их основных структур. Полученные результаты вносят вклад в области лингвистики и преподавания языков, предлагая ценную информацию для изучающих язык и преподавателей.

Ключевые слова: сопоставительный анализ, французский язык, узбекский язык, лексические особенности, семантические особенности, грамматические особенности, контрастивная лингвистика, обучение языку

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI JUFT SO'ZLARNI QIYOSIY TAHLIL QILISH

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda nemis va o'zbek tillaridagi juft so'zlarning leksik, semantik va grammatik xususiyatlariga e'tibor qaratib, ularning qiyosiy tahlili berilgan. Tahlil ushbu ikki tildagi so'zlarning tuzilishi va qo'llanilishidagi o'xshashlik va farqlarni ochib beradi, ularning til xususiyatlari va madaniy ta'sirlari haqida tushuncha beradi. Tadqiqotda har bir tilning o'ziga xosligini ta'kidlash va ularning asosiy tuzilmalarini yaxshiroq tushunishga yordam berish uchun qarama-qarshi lingvistik yondashuv qo'llaniladi. Topilmalar tilshunoslik va til o'rgatish sohalariga hissa qo'shib, til o'rganuvchilar va o'qituvchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: qiyosiy tahlil, fransuz tili, o'zbek tili, leksik xususiyatlar, semantik xususiyatlar, grammatik xususiyatlar, qarama-qarshi tilshunoslik, til o'rgatish.

Kirish. Tilni taqqoslash turli tillarning strukturaviy, funktsional va madaniy jihatlari haqida chuqur tushuncha beradigan tilshunoslikning muhim sohasidir. Roman tillari oilasiga mansub frantsuz va turkiy tillar oilasiga mansub o'zbek tillari o'ziga xos tarixiy va madaniy o'tmishga ega bo'lgan o'ziga xos lingvistik nasllarni ifodalaydi. Turli xilligiga qaramay, bu tillar tarixiy o'zaro ta'sirlar va madaniy almashinuvlar tufayli semantik sohalar va fonetik tuzilmalar jihatidan bir qancha umumiyliklarga ega.

Mustamlakachilik tarixi tufayli asosan Frantsiyada va dunyoning ko'p qismlarida so'zlashadigan frantsuz tili o'zining murakkab fonetik tuzilishi, boy so'z boyligi va global tillar va madaniyatlarga sezilarli ta'siri bilan mashhur. O'zbekistonning rasmiy tili bo'lgan o'zbek tili O'rta Osiyoda ildizlarga ega bo'lgan turkiy til bo'lib, uning fors, arab va rus tillari bilan tarixiy aloqalarini aks ettiruvchi agglyutinativ morfologiyasi va fonetik tizimi bilan ajralib turadi.

Ushbu tadqiqot fransuz va o'zbek tillaridan olingan juft so'zlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning semantik, fonetik va morfologik xususiyatlariga e'tibor qaratishdan iborat. Ushbu jihatlarni o'rganish orqali tadqiqot ikkala tilni shakllantiradigan asosiy til naqshlari va madaniy ta'sirlarni ochishga intiladi. Tahlil shuningdek, tanlangan so'z juftlarining etimologiyasi va madaniy ahamiyatini ham o'z ichiga oladi, ularning lingvistik rollarini har tomonlama tushunishga yordam beradi.

Fransuz va o'zbek so'zlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tushunish qiyosiy tilshunoslik sohasini boyitibgina qolmay, balki madaniyatlararo muloqot va qadrlashni yaxshilashga ham hissa qo'shadi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslar, til o'rganuvchilar va o'qituvchilar uchun qimmatli fikrlarni taqdim etadi, ular kelib chiqishi xilma-xil bo'lishiga qaramay, inson tillarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi.

Metodologiya. Tadqiqotda ikkala tilda semantik ekvivalentligi va qo'llanish chastotasiga qarab so'z juftlarini tanlab, sifatli yondashuv qo'llaniladi. Tahlil tanlangan so'zlarning fonetik tuzilishi, morfologik tarkibi va etimologik kelib chiqishini batafsil tekshirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu so'zlarning madaniy konteksti va ishlatilishi ularning lingvistik ahamiyatini har tomonlama tushunishni ta'minlaydi.

Tahlil va muhokama.
Fonetik tahlil
Fransuzcha: " mɛ.zɔ̃ " (uy) va o'zbekcha: "uy" (uy)
Fonetik tuzilishi:
Fransuz: /mɛ.zɔ̃/
o'zbek: /uy/
Kuzatish: Fransuz tilidagi "maison" so'zi ikki bo'g'indan iborat bo'lib, burunli tovushli tovushga ega bo'lsa, o'zbek tilidagi "uy" so'zi bir bo'g'inli bo'lib, oddiy unli tovushga ega. O'zbekcha so'zning fonetik soddaligi frantsuzcha so'zning murakkabroq fonetik tuzilishiga ziddir.

Fransuzcha: "ami" (do'st) va o'zbekcha: "do'st" (do'st)
Fonetik tuzilishi:
Fransuz: /a.mi/
o'zbek: /do'st/

Kuzatish: Har ikki so'z ham bo'g'insiz, biroq o'zbek tilidagi keskin undoshlar to'plamiga nisbatan fransuzcha so'zda unli tovushlar o'tish jarayoni yumshoqroq.

Morfologik tahlil

Fransuzcha: "fleur" (gul) va o'zbekcha: "gul" (gul)

Morfologik tarkibi:

Frantsuz: Yagona morfema

O'zbek tili: Yagona morfema

Kuzatish: Ikkala so'z ham monomorfema bo'lib, "gul" tushunchasining hech qanday affikssiz bevosita ifodalanishini ko'rsatadi.

Fransuzcha: "bibliothèque" (kutubxona) va o'zbekcha: "kutubxona" (kutubxona)

Morfologik tarkibi:

Fransuzcha: "biblio-" (kitob) + "-thèque" (saqlash)

O'zbekcha: "kitob" (kitob) + "xona" (xona)

Kuzatish: Har ikki so'z ham qo'shma ot bo'lib, "kitob" va "joy"ni bildiruvchi morfemalardan tuzilgan. Morfologik tuzilmalar har ikki tilda o'xshash semantik konstruksiyalarni aks ettiradi.

Semantik tahlil

Fransuzcha: "amour" (love) vs. o'zbek: "sevgi" (sevgi)

Semantik maydon:

Frantsuz: hissiy va romantik ma'no

O'zbek tili: Hissiy va ishqiy mazmun

Kuzatish: "Muhabbat"ning semantik sohasi har ikki tilda ham o'xshash bo'lib, hissiy va romantik o'lchovlarni qamrab oladi. Bu tilda aks ettirilgan umumiy insoniy tajribani ko'rsatadi.

Fransuzcha: "travail" (ish) va o'zbekcha: "ish" (ish)

Semantik maydon:

Fransuz: Emploi, harakat

O'zbek: bandlik, mehnat

Kuzatish: "Mehnat" tushunchasi ikkala tilda ham bandlik, ham harakatni o'z ichiga oladi, bu parallel semantik rivojlanishni ko'rsatadi.

Madaniy kontekst va foydalanish

Fransuz va o'zbek tillaridagi so'zlarning madaniy konteksti va qo'llanishi so'zlovchilarning o'ziga xos tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini aks ettiradi. Ushbu bo'limda har bir tilning madaniy kelib chiqishi ma'lum so'zlarning ma'nosi va qo'llanilishiga qanday ta'sir qilishini, shuningdek, bu so'zlar madaniy almashinuvlar tufayli vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanganligini o'rganadi.

Fransuz tilining o'zbek tiliga ta'siri

Tarixan fransuz tilining o'zbek tiliga ta'siri rus va fors kabi boshqa tillarga nisbatan nisbatan cheklangan bo'lgan. Biroq so'nggi o'n yilliklarda, ayniqsa, texnologiya, moda va oshxona kabi sohalarda madaniy almashinuv kuchaymoqda, bu fransuz tilidagi ba'zi leksik birikmalarning o'zbek tiliga o'tishiga olib keldi.

Misollar:

Texnologiya:

Fransuz tilidagi "télévision" so'zi o'zbek tiliga "televidenie" (televidenie) sifatida qabul qilingan bo'lib, u frantsuz tilining texnologik terminologiyadagi global ta'sirini aks ettiradi.

Moda:

Fransuz modasi va hashamatining global jozibasini ifodalovchi "kutyur" (kutyur) va "parfyum" (parfyum) kabi frantsuz moda atamalari o'zbek tiliga kirib keldi.

Oshxona:

O'zbek tilida "kruassan" (kruassan) va "menyu" (menyu) kabi frantsuz pazandalik atamalari qo'llanib, frantsuz oshxonasining madaniy ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbek tilining frantsuz tiliga ta'siri

O'zbek tilining fransuz tiliga ta'siri unchalik sezilmaydi, lekin o'zbek madaniyati e'tirof etilgan muayyan kontekstlarda ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, fransuz tilida so'zlashuvchilarga an'anaviy o'zbek taomlari va madaniy amaliyotlari bilan tanishtirilgan pazandachilik va madaniy almashinuvlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa. Fransuz va o'zbek tillaridagi so'zlarning madaniy konteksti va qo'llanilishi so'zlovchilarning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasi bilan shakllanadi. Fransuz tili mustamlakachilik tarixi va madaniy eksporti tufayli ko'proq global ta'sirga ega bo'lsa, o'zbek tili Markaziy Osiyoning boy merosini qo'shni madaniyatlar ta'sirida aks ettiradi. Ushbu madaniy kontekstlarni tushunish ushbu tillarning qiyosiy tahlilini boyitadi va madaniy o'zaro ta'sirlar ta'sirida lingvistik evolyutsiyaning dinamik xususiyatini ta'kidlaydi. Bu qiyosiy tadqiqot nafaqat fransuz va o'zbek tillarining lingvistik xususiyatlarini yoritibgina qolmay, balki tildan foydalanishni shakllantirishda madaniy almashinuvning ahamiyatini ham ta'kidlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Crystal, D. (2003). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell Publishing.
2. Haspelmath, M., & Sims, A. D. (2010). Understanding Morphology. Hodder Education.
3. Lewis, G. (2000). The Turkic Languages. Routledge.
4. Price, G. (2003). An Introduction to French Pronunciation. Wiley-Blackwell.
5. Poplack, S. (1980). "Sometimes I'll start a sentence in Spanish y termino en español: Toward a typology of code-switching." Linguistics, 18(7-8), 581-618.
6. Comrie, B. (1981). The Languages of the Soviet Union. Cambridge University Press.
7. Thomason, S. G., & Kaufman, T. (1988). Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics. University of California Press.
8. Johanson, L., & Csató, É. Á. (1998). The Turkic Languages. Routledge.
9. Walker, D. C. (2001). French Sound Structure. University of Calgary Press.
10. Grenoble, L. A. (2003). Language Policy in the Soviet Union. Springer.
11. Posner, R. (1997). Linguistic Change in French. Clarendon Press.
12. Turaeva, D. (2013). "Linguistic and cultural aspects of language contact: The case of Uzbek and Russian." Journal of Language Contact, 6(1), 45-68.
13. Gadžiev, M. (1991). Sovremennyi uzbekskii iazyk: Fonetika i morfologiia (Modern Uzbek Language: Phonetics and Morphology). Tashkent.
14. Matras, Y. (2009). Language Contact. Cambridge University Press.

Ramish HASANOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
E-mail:ramishxasanov09@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti dotsenti G.Oripova tahriri asosida

NEMIS TILIDAGI HABEN + CHEGARALANMAGAN FE'L BILAN YASALGAN PERFEKT SHAKLNING ASPEKTUAL MA'NOLARINING O'ZBEK TILIDA BERILISHI

Annotatsiya

Taklif etilayotgan maqolada zamonaviy nemis tilida haben qo'makchi fe'li chegaralanmagan fe'llar bilan birikishi orqali yasalgan perfekt shakllari tahlilga tortiladi. Bu shakllar yordamida ifodalangan aspektual vaziyatlar turlari aniqlanib, ularning o'zbek tilida berilish usullari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Perfekt, sifatdosh 2, chegaralanmagan fe'llar, holat va statik fe'llari, limitativ neytral fe'llar, iterativ fe'llar, aksional qiymatlar, aspektual vaziyatlar, protsessuallik, tugallaganlik, davomiylik, takroriylik, leksik- semnatik guruhlar, aspekt (tur).

УЗБЕКСКИЙ ПЕРЕВОД ВИДОВЫХ ЗНАЧЕНИЙ СОВЕРШЕННОЙ ФОРМЫ, ОБРАЗОВАННОЙ НЕМЕЦКИМ HABEN + НЕЛИЧНЫЙ ГЛАГОЛ

Аннотация

В предлагаемой статье анализируются перфектные фор-мы, образованные сочетанием вспомогательного глагола haben с непредель-ными глаголами в современном немецком языке. Определяются типы аспектуальных ситуаций, выраженных с помощью этих форм, и выявляются способы их передачи в узбекском языке.

Ключевые слова: Перфект, причастие 2, непредельные глаголы, глаголы состояния и статики, лимитативно нейтральные глаголы, итеративные глаголы, акциональные признаки, аспектуальные ситуации, процессуальность, завершенность, продолжение, повторяемость, лексико-семантические группы, аспект (вид).

UZBEK TRANSLATION OF THE ASPECTUAL MEANINGS OF THE PERFECT FORM FORMED WITH THE GERMAN HABEN + NON-FINITE VERB

Annotation

This article analyzes perfect forms formed by combining the auxiliary verb haben with non-finite verbs in modern German. The types of aspectual situations expressed with the help of these forms are determined, and the ways of their transmission in the Uzbek language are identified.

Key words: Perfect, participle 2, non-finite verbs, state and static verbs, limitative neutral verbs, iterative verbs, actional features, aspectual situations, processuality, completeness, continuation, repetition, lexical-semantic groups, aspect (type).

Kirish. Nemis tilida perfekt shakli haben, sein ko'makchi fe'llari asosiy fe'lning sifatdosh 2 bilan birikib analitik usulida yasaladi. Matnlarda haben bilan yasalgan perfekt sein bilan yasalgan perfektga nisbatan uch barobar ko'proq uchraydi, masalan bizni materialimizda sein bilan 150 misol uchragan bo'lsa, haben bilan 500ga yaqin misol mavjud.

Materiallar va metodlar. Hozirgi nemis tili grammatikasidagi haben fe'lini qo'llash uchun turli mezonlar belgilangan. Bu mezonlar birinchi navbatda haben bilan sifatdosh 2 shaklida birikuvchi asosiy fe'lning leksik-grammatik, sintaktik, semantik va aksional qiymatlari turlicha urg'u berilgan holda hisobga olinadi (qarnag: [Engel, 2009: 234-235], [Helbig, Buscha, 1987: 137 -139], [Shendels 1988 : 45-47].

Mazkur maqola haben qo'makchi fe'li chegaralanmagan (atelik) fe'llar bilan birikishi orqali yasalgan perfekt shakllarini tahlil qilish, ular yordamida ifodalangan aspektual vaziyatlarni (AV) aniqlash va ularni o'zbek tilida berilish usullarini ochib berishga bag'ishlangan.

Aspektual vaziyatlarni A.V.Bondarko (Bondarko 2002), B.H. Rizayev [Rizayev 1999, 2019] va A.Muminovalarning bildirgan fikrlariga qo'shilgan holda quyidagicha talqin qilamiz: "aspektual vaziyat - faqatgina turli lisoniy, grammatik, leksik va boshqa vositalar yordamida shakllanadigan aspektual (chegaraga yetganlik/ yetmaganlik) (tugallanganlik/tugallanmaganlik, terminativlik/ protsessuallik) bilan chegaralanib qolmay, u o'z ichiga harakat tarzlari (harakatning boshlanishini, davom etishi, takroriyligi, natijaviyligi) va ularning kombinatsiyasidan hosil bo'ladigan aspektual ma'nolarni ham qamrab oladi. ya'ni, ushbu aspektual vaziyatlar kontekst tarkibida boshqa aspektual belgilar bilan o'zaro bog'lanishi mumkin" (qarang: [Muminova 2021: 105].

B.H.Rizayev ta'kidlashicha, aspektual jihatdan perfekt shakllarini, bir tomondan, tugallanganlik, natijaviylik, faktlilik (faktlik), transformativlik, perfektivlik belgilar bilan bog'lasalar, ikkinchi tomondan, esa perfekt shakllari tugallanmaganlik, protsessualik, imperfektivlik ma'nolarini ham ifodalashi mumkinligi tan olinadi. (qarang: Rizayev 2003:7-8). Boshqacha qilib aytganda, perfektning aspektual semantik potensiali turli ko'rinishdagi 2 xil qarama qarshi (yaxtik va jarayon) aspektual belgilarni o'z ichiga oladi.

B.H.Rizayevning fikricha, perfektning aspektual ma'nosi ko'p hollarda shu shaklda keluvchi fe'l leksemasining aksional turiga bog'liq. Agar perfekt shaklida chegaralangan (transformativ) harakatni ko'rsatuvchi fe'l, ya'ni obyektiv voqeylikda bajarilishi har qanday sifat o'zgarishi bilan bog'liq harakat kelsa perfektning haben yoki sein fe'li bilan yasalishidan yoki o'timli va o'timsiz fe'l bo'lishidan qat'i nazar, bir yaxlit (selostnost) aspektda, ya'ni tugallangan turda (vidda) namoyon bo'ladi. Statik (chegaralanmagan) harakatni (holatni) ko'rsatuvchi fe'llar, ya'ni obyekt va subyektdagi hech qanday o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmagan harakatlar perfekt shaklda ko'pincha protsessual aspektida namoyon bo'ladi [Rizayev 2003:8].

Muhokama va natijalar. Chegaralanmagan fe'llar sifatida materialimizda sitzen (o'tirmoq), stehen (turmoq), wohnen (yashamoq), ruhen (dam olmoq), warten (kutmoq), erwarten (kutmoq), schlafen (uxlamoq), haben (ega bo'lmoq), besitzen (ega bo'lmoq), aussehen (ko'rinishda bo'lmoq), halten (ushlab turmoq), ausruhen (rohatlanmoq, dam olmoq), sich sehnen (sog'inmoq), schweigen (jim turmoq), beben (zilzila bo'lmoq), zittern (titramoq), sein (bo'lmoq), existieren (mavjud bo'lmoq), wissen, kennen (bir qaysi ma'lumotga, bilimga ega bo'lmoq, bilmoq) kabi fe'llar uchradi. Bu fe'llarni aksariyati subyektni

holatini bildiruvchi fe'llardir. Ularni quydagicha izohlash mumkin:

a) joy-o'rin munosabatlari bilan bog'langan holat fe'llari (sitzen, stehen, wohnen, ruhen, warten, erwarten, schlafen;

b) egalik munosabati bilan bog'langan holat fe'llari (haben, besitzen, gehören (statik), wissen, kennen);

v) holat o'zgarmasligini anglatuvchi fe'llar (aussehen, halten ausruhen, schweigen);

g) mavjudlikni bildiruvchi fe'llar (sein, existieren);

d) kimyoviy holatni bildiruvchi fe'lllar (brennen).

Holat fe'llaridan tashqari chegaralanmagan fe'llar sifatida turli harakatlarni ifodalovchi fe'llar ham qo'llanishi mumkin. Bunday fe'llar qatoriga, birinchi navbatda, limitativ neytral fe'llar kiradi (qarang: Rizayev 2003: 8). Ularning o'ziga xosligi shundaki, ikkiti qarama - qarshi bo'lgan aksional qiymatlarni, ya'ni chegaralanganlik/ chegaralanmaganlikni bir vaqtda o'z ichiga qamrab oladi. Kontekst ta'siri ostida bunday fe'llar ham chegaralangan, ham chegaralanmagan funksiyada qo'llanishi mumkin.

Keltirilgan fe'llar bilan yasalgan haben perfekt shakllari orqali turli aspektual vaziyatlar ifodalanishi va ular o'zbek tilida xilma-xil vositalar yordamida uzatilishi mumkin. Tahlil natijasida uchta protsessuallik aspeakual vazitlar quyidagi turlarga ajratildi.

I. Protsessual aspektual vaziyatlar (PAV) - perfekt shakli bilan ifodalangan holat, hodisaning o'tgan zamonda jarayonda bo'lganligi, uning oqimi ifodalanishi bilan izohlanadi. PAVni ifodalashda yuqorida keltirilgan holat va statik fe'llari qatnashadi. Bunda subyektning o'tmishda aniq bir ruhiy yoki jismoniy holatda bo'lishi, qanday xususiyatga ega bo'lganligi ifodalanadi. O'zbek tilida bunday AV turli vositalar orqali aks ettiriladi. Materialimizda quyidagi modellar uchradi:

1. fe'l-predikat + gan: Bu shakl nafaqat o'tgan zamondagi harakatni, balki uning natijasini hozirgi vaqtda saqlanishini ham ko'rsatadi.

(1) Erkannt und genau gewusst haben dies die alten Asiaten (Hesse, 79).-

(1a) Qadimgi osiyoliklar buni to'g'ri anglagan va bilgan (Xesse, 74);

(2) Hat es immer so ausgesehen? (Seghers, 242). - (2a) Nahotki uning yuzi hamma vaqt shunday bo'lgan bo'lsa? (Zegers, 239);

2. asosiy fe'lning –ib sifatdosh shakli + ko'makchi fe'l:

a) -ib + turmoq +ar +di:

(3) Ich habe aber gewußt, jetzt kommt sie, die Lenore (Seghers, 23). -

(3a) ... Lenora hozir mening yonimga kelishini sezib turardim (Zegers, 31).

b) -ib + turmoq +gan +di:

(4) Der Anruf, auf den ich gewartet habe (Seghers, 362) -

(4a) Men shu chaqiruvni kutib turgandim (Zegers, 355);

(v) -ib + o'tirmoq + gan + di:

(5) Siebert sagte: „Ich habe auf dich gewartet" (Seghers, 367) -

(5a) Seni kutib o'tirgandim-, deb gap boshladi Zibert. (Zegers, 359); g) -ib + yurmoq +ar +di:

(6) Ich glaube, ich habe mich immerfort nach ihr gesehnt. (Seghers. 125)-

(6a) Men uni doim qo'msab yurardim. (Zegers. 128);

Ushbu modellarda ko'makchi fe'l sifatida holat fe'llari turmoq, o'tirmoq, va yurish- harakat fe'li yurmoq qatnashadi va ayrim hollatlarda davomiylikni bildiruvchi payt ko'rsatqichi ham uchrashishi mumkin (6a).

3. - edi bilan birikkan modellar:

a) (7) Die Wohnung hat früher meiner Mutter gehört (Remarque, 181). -

(7a) Oldin kvartira oyimniki edi. (Remark, 106);

b) -ib +ar + edi

(8) Ich habe bis eben auf dem Balkon gesessen und gelesen. Ein aufregendes Buch. (Remarque, 343). -

(8a) Men shunchaki balkonda o'tirib kitob o'qirdim. Qiziqarli kitob. (Remark, 343);

4. bilmoq bilan modellar:

a) harakatnomi + bilmoq +gan

(9) "Ja, Pat», sagte ich, «so haben unsere Vorfahren nun gelebt!« (Remarque, 184). -

(9a) Ha, Pat, - dedim unga, - ota-bobolarimiz yashashni bilishgan! (Remark, 107);

b) haraktnomi + bilmoq + di

(10) Der Lehrer, der hat gewußt, was er tut. (Seghers. 216) -

(10a) O'qituvchi nima qilishni biladi. (Zegers, 214);

Bilmoq bilan modellarda subyektning odatiy holati tasvirlangan.

5) fe'lning semantikasi + o'zoq payt ko'rsatqichi

11) Ich nickte. "Wie lange hast du denn gelegen?" (Remarque, 185). -

(11a) To'g'ri. Qancha yotding? (Remark, 108).

"Du hast genau eine Stunde geschlafen", sagte ich und hielt ihr die Uhr hin (Remarque, 395). -

(12a) Siz roppa-rosa bir soat uxladingiz, - dedim men unga soatni uzatib. (Remark, 395);

Schlecht. Habe die ganze Nacht herumgestanden und nicht mal zwanzig Mark eingenommen (Remarque, 334). –

(13a) – Yomon. Kechasi bilan yurib, yigirma marka ham ishlamadim. (Remark, 196).

(14) Du hast dich großartig gehalten. (Remarque, 423). -

(14a) Bugun o'zingni mardona tutding. (Remark, 247-bet).

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki nemis tilida holat va statik fe'llari bilan ifodalangan protsessual aspektual vaziyatlar o'zbek tilida aksariyat holatlarda analitik harakterga ega birikmalar yordamida aks etiladi.

II. Davomiy aspektual vaziyatlar (DAV).

Protsessual vaziyatlar davomiylik ma'nosi bilan bevosita bog'langan bo'lishi mumkin. DAV aksariyat holatlarda kontekst yordamida ifodalanadi, ya'ni payt ravishlari va ko'rsatkichlari perfekt orqali ifodalangan hodisa, harakat, holatni protsessuallik ma'nosini yanada kuchaytiradi. Bizning materialimizda quyidagilar uchradi: immerfort (doim), noch immer (hanuzgacha), bisher (ayni paytgacha), bis (-gacha), etwas (bir oz), immer (hamma vaqt), stets (hamisha), wie lange (qancha), all die Jahre hindurch (bir yildan beri), Zehn Jahre lang (o'n yil davomida), lange Zeit (o'zoq vaqtgacha), die ganze Nacht (tun bo'yi), so lange (uzoq vaqtdan beri), neun oder zehn Monate (to'qqiz yoki un oy). Bu yerda keltirilgan payt ko'rsakichlari quyidagi modellarda uchradi:

Yurish-harakat fe'li yurmoq bilan modellar:

a) -ib + yurmoq +ar +di + payt ko'rsatqichi:

(15) ... ich habe mich immerfort nach ihr gesehnt (Seghers, 125). -

(15a) Men uni doim qo'msab yurardim. (Zegers, 128);

b) -ib + yurmoq + gan + payt ko'rsatqichi

(16) Ich habe sie auf sogar der Flucht, ich weiß nicht wie lange, mitge schleppt (Seghers, S. 293). -

(16a) Hatto qochib ketayotgan vaqtimizda, men uni bir necha kungacha olib yurganman (Zegers, 288);

v) -ib + yurmoq +di + payt ko'rsatqichi:

(17) Ich war eine trostlos, und ich habe lange Zeit die Schuld an mir selber gesucht (Hesse, 193). -

(17a) Uzoq vaqtgacha aybni o'z o'zimdan qidirib yurdim. (Xesse 176);

2. –ib +gan + payt ko'rsatqichi:

(18) Ich habe stets den Tod gefürchtet und bekämpft (Hesse, 126). -

(18a) Men doimo o'limdan qo'rqib yashaganman va unga qarshi kurashib kelganman (Hesse, 118);

ar + di + payt ko'rsatqichi:

(19) Nie verlangte sie was. Zehn Jahre lang hat sie denselben Mantel getragen (Remarque, 173). -

(19a) Boriga shukr qilardi u. Bitta pal'toni o'n yil kiyardi. (Remark, 101);

–ib + kelmoq + gan + payt ko'rsatqichi:

(20) "Sehen Sie: so haben Sie bisher sich selbst gesehen. (Hesse, 224) -

(20a) Qarang, ayni paytgacha siz o'zingizni xuddi shunday ko'rib kelgansiz! (Xesse, 206);

Ot + fe'l birikmasi + ar + edi + payt ko'rsatqichi:

(21) "Ich habe mir immer schon einen Hund gewünscht" (Remarque, 354)-

(21a) Ko'pdan buyon kuchukni orzu qilardim, - dedi u. (Remark, 208);

Qo'shma fe'l ko'rib turmoq, ko'rib kelmoq:

(22) Du hast ja gesehen, ohne uns geht alles drunter und drüber (Seghers, 31) -

(22a) O'zing ko'rib turibsanku, biz bo'lmasak hammasi chappasiga ketyapti (Zegers, 38). – hozirgi zamon shaklida.

(23) "Sehen Sie: so haben Sie bisher sich selbst gesehen. (Hesse, 224) -

(23a) Qarang, ayni paytgacha siz o'zingizni xuddi shunday ko'rib kelgansiz! (Xesse, 206); - payt ko'rsatqichi bilan

7. fe'lning semantikasi + o'zoq payt ko'rsatqichi:

(24) Deshalb habe ich auch damit gewartet, solange es ging (Remarque, 413).-

(24a) Shuning uchun ham imkon qadar kutdim. (Remark, 413);

(25) Ich hab hier gearbeitet, bis sie geschlossen haben (Seghers, 342). -

(25a) Ustaxona yopilguncha men bu yerda ishladim (Zegers, 334);

Ayrim misollarda protsessni davomiyligi ham payt ravishi orqali, ham o'zoq hozirgi zamon shakli -yap bilan birgalikda yoki davomiylikni anglatuvchi –ver bilan berilgan. Taqqoslang:

(26) Er hat all die Jahre hindurch sehr brav seinem Bruder geholfen (Seghers, 301) -

(26a) Har qalay bir yildan beri u akasiga chin ko'ngildan yordamlashyapti. (Zegers, 296);

(27) Ihr habt weitergeschuftet, weil er schon gepfiffen hatte. (Seghers, 214).-

(27a) Sizlar esa hushtak chaldi, deb er kavlayverdinglar (Zegers, 212).

Ayrim holatlarda nemis tilidagi protsessual vaziyat o'zbek tilida bir vaqtni o'zida davomiylikni va protsesualikni anglatuvchi –yot + gan orqali berilishi mumkin, masalan:

(28) "Haben Sie so früh schon jemand erwartet?" (Remarque, 385). -

(28a) Kallai saharlab birovni kutayotganmidiz? (Remark, 226).

Takroriylik aspektual vaziyatlar (TAV) Takrorlanish ma'nosi ham bevosita protsessuallik va davomiylik qiymatlari bilan bog'lanishi mumkin. Bu ma'no nemis tilida fe'lning leksik ma'nosi, payt ravishlari yoki kengroq kontekst yordamida ifodalanadi. Materialimizda TAVni ifodalash vositalari sifatida iterativ fe'llar, ya'ni harakatni qayta-qayta, ko'p marta takrorlash ma'nosini anglatuvchi fe'llar hauen (qayta –qayta urmoq, solmoq), rauchen (qayta-qayta tutunni ichiga olmoq - chekmoq), atmen (nafas olmoq), ravishlar oft (tez-tez, kup marta), manchmal (ba'zan) uchradi. Masalan:

a) iterativ fe'l + "biron natijaga erishilgancha" ma'nosini bildiruvchi so'z:

(29) Ich hab den Kerl mit meinem Spaten blutig gehauen (Seghers, 214) -

(29a) Men u muttahamni qonga belanguncha belkurak bilan soldim. (Zegers, 212); - takroriylik davomiylik bilan birga ifodalangan.

b) takroriylikni bildiruvchi ravish + harakat:

(30) Ich habe ihm oft das Leben gerettet (Seghers, 246). -

(30a) Men uni juda ko'p o'limdan saqlab qolganman (Zegers, 242);

(31) Sie haben mir manchmal heimlich zugesteckt (Seghers, 303) -

(31a) O'sha vaqtda siz meni boshqalardan berkitib boqib turardingiz. (Zegers, 298). Takroriylik qiymati davomiylik ma'nosi bilan qo'shilib kelishini biz keltirgan (29) misolda kuzatamiz. O'zbek tilida takroriylik aspektual vaziyatlar iterativ fe'llar orqali, masalan, solmoq (qayta-qayta urmoq) (29a), ravishdosh juda ko'p (bir necha marta) (30a) orqali aks ettirilgan. (31a) misolda takroriylik davomiylik bilan qushilib kelganini -ib + turmoq + ar yordamida ifodalangan.

Xulosa. Xulosa sifatida qo'yidagilarni keltirish mumkin:

1. Nemis tilida chegaralanmagan fe'llar + haben bilan yasalgan perfekt shakli protsessuallik, davomiylik va takroriylik ma'nolari bilan bog'liq aspektual vaziyatlarni aks etishi mumkin.

2. Protsessualik ma'nosi davomiylik va takroriylik qiymatlar bilan bevosita bog'liq va aspektual vaziyatlarni ifodalashda kontekstual vositalar, ya'ni payt bilan bog'liq kursatqichlar katta ahamiyatga ega.

3.O'zbek tilida ko'rsatilgan aspektual vaziyatlar turli vositalar orqali ifodalanishi mumkin, ya'ni nafaqat o'tgan zamon, balki hozirgi zamon shakllari, sintetik va aksariyat hollarda analitik usullari va kontekstual vositalari yordamida.

4. Ikkala qardosh bo'lmagan nemis va o'zbek tillarida o'xshash aspektual vaziyatlar turlari mavjudligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Bondarko A.V. Teoriya znacheniya v sisteme funksionalnoy grammatiki: Na materiale russkogo yazika / Ros. akademiya nauk. In-t lingvisticheskix issledovaniy kulturi. M.: 2002. - 736 s.
2. Muminova A.O. Hozirgi zamon nemis va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aspektual semantikasi. Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.- Samarqand, 2021. - 171b.
3. Ризаев Б.Х. Аналитические средства семантического поля финитивности в современном немецком языке. - Самарқанд, 2019. - 156 с.
4. Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. – Т.: Фан, 1999. - 121 с.
5. Ризаев Б.Х. Аспектная семантика перфектных и плюсквамперфектных форм немецкого глагола. – Самарканд, 2003. – 89 с.
6. Engel U. Deutsche Grammatik. Neubearbeitung. München: Iudicium Verlag. 2009.
7. Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik. Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. 10, unveränd. Aufl. – Leipzig: Verlag Enzyklopädie, 1987.
8. Shendels E. Deutsche Grammatik. M.: Издательство «Высшая школа». 1988.
9. Hesse H. Der Steppenwolf. Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1974. – 215 S.
10. Hesse H. Cho'l bo'risi. (Akbarov M. tarjimasi) - Toshkent, 2015 - 264 б.
11. Remarque E. M. Drei Kameraden. Roman. - Köln: Verlag Kiepenheuer & Witsch, 1991 - 586 S.
12. Remark E. M. Uch og'ayni. (Nizom Komil tarjimasi). – Toshkent: Jahon adabiyoti jurnali, 1998 – 334 s.
13. Seghers A. Die Toten bleiben jung. Aufbau-Verlag Berlin und Weimar, 1991 – 695s
14. Zegers A. Barhayot o'liklar. - Toshkent: O'zbekiston davlat baddiiy adabiyot nashriyoti. 1962 – 663s

Maftuna ELMIRZAYEVA,
QarDU Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: elmirzayevamaftuna1211@gmail.com

QarDU Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent Nizmova Mohinur taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA IJTIMOIY HIMOYAGA OID TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK TAHLILI

Annotatsiya
Ushbu tadqiqot leksikografiyada ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy himoya atamalarini o'rganish uchun rasmiy-tarkibiy tahlil olib boradi. Qiyosiy ob'ektiv orqali biz ijtimoiy himoya terminologiyasining leksik tarkibiy qismlari, semantik tuzilmalari va lingvistik xususiyatlarini o'rganamiz, bu tushunchalarning lingvistik va madaniy kontekstlarda qanday ifodalanishidagi o'xshashliklar, farqlar va naqshlarni tushuntirishga qaratilgan.
Kalit so'zlar: Leksikografiya, rasmiy tahlil, strukturaviy tahlil, ijtimoiy himoya, terminologiya, qiyosiy tilshunoslik, semantik tuzilmalar, lingvistik xususiyatlar, etimologiya, foydalanish naqshlari, madaniy kontekst, tarixiy dinamika, global ta'sirlar.

TERMS FOR SOCIAL PROTECTION IN ENGLISH AND UZBEK FORMAL-STRUCTURAL ANALYSIS IN LEXICOGRAPHY

Annotation
This study conducts formal-structural analysis in lexicography to study the terms of social protection in English and Uzbek. Through a comparative lens, we study the lexical components, semantic structures and linguistic features of social protection terminology, aimed at explaining similarities, differences and patterns in how these concepts are expressed in linguistic and cultural contexts.
Key words: Lexicography, formal analysis, structural analysis, social protection, terminology, comparative linguistics, semantic structures, linguistic features, etymology, patterns of use, cultural context, historical dynamics, global influences.

ОБУЧЕНИЕ ТЕРМИНАМ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ФОРМАЛЬНО-СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ В ЛЕКСИКОГРАФИИ

Аннотация
В данном исследовании проводится формально-структурный анализ для изучения в лексикографии терминов социальной защиты на английском и узбекском языках. Через сравнительную линзу мы изучаем лексические компоненты, семантические структуры и лингвистические характеристики терминологии социальной защиты, которая направлена на объяснение сходств, различий и закономерностей в том, как концепции выражаются в лингвистическом и культурном контекстах.
Ключевые слова: Лексикография, формальный анализ, структурный анализ, социальная защита, терминология, сравнительная Лингвистика, семантические структуры, лингвистические характеристики, этимология, модели использования, культурный контекст, историческая динамика, глобальные влияния.

Kirish. Leksikografiya lug'atlarni va tillar ichidagi so'zlarning tuzilishini tizimli o'rganish sifatida lingvistik tizimlarning dinamikasi to'g'risida bebaho tushunchalarni beradi. Leksikografiya sohasida rasmiy-tarkibiy tahlil leksik birliklarning murakkab arxitekturasini ochish, ularning semantik tuzilmalari, etimologik ildizlari va foydalanish naqshlariga oydinlik kiritish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda biz leksikografiyada ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy himoya atamalarini o'rganish uchun rasmiy-tarkibiy yondashuvni qo'llaymiz.

V.G.Gak leksikografiya tarixi yoritilgan mashhur "Leksikografiya
taraqqiyotining ayrim qonuniyatlari haqida" deb nomlangan maqolasida
lingvistik faoliyatda o'quv lug'atchiligiga "umumiy lug'atchilikdan yaqinda
ajralib chiqqan yangi tarmoq" degan qarashga tanqidiy yondashadi va chuqur
ilmiy tahlil asosida aslida o'quv lug'atchiligi umumiy lug'atchilikdan emas,
umumiy lug'atchilik o'quv lug'atchiligidan ajralib chiqqan degan xulosaga
keladi. U zamonaviy o'quv leksikografiyasi nazariyotchilarining o'quv lug'atini
tuzishda umumiy leksikografik qoidalarga asoslanish, tayanish haqidagi
fikrlariga munosabat bildirar ekan, pedagogikaning eng qat'iy, mustahkam
obyektga asoslanishi, ya'ni uning predmeti tez taraqqiy etib borayotgan texnika

yoki insonning olam borasidagi bilimlari emas, ta'lim oluvchining bosqichma-
bosqich takomillashib boruvchi psixofiziologik xususiyatlari ekanini ta'kidlaydi.

"Shunday ekan, – deydi olim, – zamonaviy o'quv leksikografiyasining nazariy
va amaliy taraqqiyotida asosiy e'tiborni o'quv xarakteridagi ilk lug'atlar
tahliliga qaratish maqsadga muvofiq".

Ijtimoiy himoya, shaxslar va jamoalarni turli xil xavf va zaifliklardan himoya qilishga qaratilgan ko'plab siyosat va dasturlarni o'z ichiga olgan holda, zamonaviy farovonlik tizimlarining asosiy ustuni bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy himoya bilan bog'liq terminologiya nafaqat ijtimoiy qadriyatlar va ustuvorliklarni aks ettiradi, balki ijtimoiy ta'minot nutqini shakllantiradigan tarixiy, madaniy va institutsional dinamikani ham qamrab oladi. Ijtimoiy himoya terminlarini rasmiy-tarkibiy tahlil qilish orqali biz ingliz va o'zbek tillarida ulardan foydalanish va evolyutsiyasini tartibga soluvchi asosiy lingvistik tuzilmalar va qonuniyatlarni ochib berishni maqsad qilganmiz. Ushbu tadqiqot lingvistik va madaniy kontekstlarda ijtimoiy himoya terminologiyasini bir-biriga moslashtirishga imkon beradigan qiyosiy asosni qabul qiladi, bu tushunchalarning qanday ifodalanganligi va kontseptsiyalashganligining o'xshashliklari, farqlari va tendentsiyalarini aniqlaydi. Leksik komponentlar, semantik tuzilmalar va lingvistik xususiyatlarni o'rganish orqali biz ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy himoya terminologiyasining rivojlanishini shakllantirgan tarixiy, madaniy va global ta'sirlarni aniqlashga intilamiz. Lug'atlar, leksikalar va ixtisoslashtirilgan terminologiya ma'lumotlar bazalarini o'z ichiga olgan turli xil

lingvistik manbalardan kelib chiqib, biz ikkala tilda ham ijtimoiy himoya terminlarining etimologiyasi, semantik evolyutsiyasi va foydalanish qonuniyatlarini o'rganamiz. Ushbu terminlarning rasmiy xususiyatlarini o'rganib chiqib, biz ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati va lingvistik ko'rinishlari haqida chuqurroq tushunchalarni ochib berishni, ijtimoiy farovonlik nutqining ingliz va o'zbek lingvistik kontekstlarida qanday tuzilganligi va etkazilganligi to'g'risida aniq tushunchalarni taqdim etishni maqsad qilganmiz. Bunda ushbu tadqiqot leksikografiya, qiyosiy tilshunoslik va ijtimoiy siyosatning keng sohalariga ijtimoiy himoya terminologiyasining rasmiy-tarkibiy xususiyatlari to'g'risida yangi tushunchalar berish orqali hissa qo'shadi. Til va ijtimoiy siyosat o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish orqali biz til, madaniyat va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik haqidagi tushunchamizni boyitishga intilamiz, turli lingvistik va madaniy kontekstlarda ijtimoiy himoyaga ko'proq ma'lumotli va rang-barang yondashuvlarga yo'l ochamiz.lngliz va o'zbek tillaiida pedagogika sohasidagi terminlar leksikografiyasining tahlil qilmganda turli tuzilishdagi leksik birliklar bilan ifodalanadi.

Terminologiyaning ushbu sohasida leksik shakllaming strukturaviy turlarini o'rganish maxsus birliklarning ikkita asosiy turini airatib ko'rsatishga imkon beradi, xususan

Sizga ta'kidlab o'tayotgan, ijtimoiy himoyaga oid terminlarni quyudagicha izohlashni joiz deb topdik:

Ijtimoiy himoyaga oid terminlarni, eng avvalo — mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohadagi tushunchalarni o'rganish.

Ijtimoiy himoyaga oid terminlarni dasblab,— davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli

a) so'z ma'nosining o 'zgarishi leksik-semantik o 'zgaruvchanlik- ya'ni bir so'z chegarasidagi ma'nolar sonining ko'payishi, uning shaklining o'ziga xosligini saqlagan holda mumkin bo'ladi;

b) so 'zning boshqa so 'zlar bilan birikishi natijasida-ya'ni so'z birikmasi hosil bo lganda, so z ma'nosi leksik-frazeologik bog'lanishlar bilan belgilanishi natijasida o'zgarishi mumkin.

"Tarjima lug'ati lug'at tiplari ichida eng uzoq tarixga egadir. Bunday lug'atlarning taraqqiyoti boshqa tip lug'atlarga asos bo'lgan. Tarjima lug'atlarining taraqqiyoti, faqat boshqa tip lug'atlar kelib chiqishiga emas, balki mazkur lug'atga xos bo'lgan tillarning grammatikasi, leksikasi, fonetikasi kabilarga e'tibor berilishiga ham sabab bo'lgan".

Ijtimoiy himoya bo'yicha terminologik birikmaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Vakolat (in english Competence) -terminologik birikma sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlanish, nogironlikni qo'llab-quvvatlash va pensiya ta'minoti kabi sohalarni qamrab oladigan ijtimoiy himoya bilan bog'liq ko'plab tushunchalar, siyosat va dasturlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kenglik aralashmaning ijtimoiy ta'minot tizimlarining turli jihatlarini etarli darajada aks ettirishini ta'minlaydi.

Aniqlik (in english Precision)-murakkab ichidagi har bir atama diqqat bilan aniqlanadi va belgilanadi, ijtimoiy himoya sohasida aniq ma'no va foydalanish bilan belgilanadi. Ushbu aniqlik muloqotda aniqlik va aniqlikni ta'minlaydi, akademik, siyosat va professional kontekstlarda samarali nutq so'zlashga imkon beradi. Example term: "Social Security"("Ijtimoiy Xavfsizlik")

Definition: A government program designed to provide financial assistance to individuals and families in times of need, typically through retirement benefits, disability benefits, and survivor benefits.(Ushbu atama shaxslar va jamoalarning iqtisodiy xavfsizligi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli ijtimoiy himoya choralarini o'z ichiga oladi.)

Muvofiqli. (in english Consistency)- murakkab turli xil kontekstlar va hujjatlar bo'yicha izchillik va bir xillikni ta'minlash uchun standartlashtirilgan til va terminologiya konventsiyalaridan foydalangan holda o'z terminologiyasida izchillikni saqlaydi. Doimiy terminologiya inshootlari muvofiqligi va turli manfaatdor tomonlar va tizimlar o'rtasida o'zaro ishlashni ta'minlaydi.

Example Term: "Unemployment Insurance" ("Ishsizlik Sug'urtasi")

Definition: A government program that provides temporary financial assistance to individuals who have lost their jobs, typically through layoffs or job loss, and meet certain eligibility criteria. (Ushbu atama o'z terminologiyasida izchillikni saqlaydi va shu bilan birga uni turli kontekstlarda va yurisdiktsiyalarda qo'llashda moslashuvchanlikni ta'minlaydi.)

Moslashuvchanlik (in english Flexibility)- o'ziga xosligiga qaramay, birikma rivojlanayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstlarga moslashuvchan va moslashuvchan bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy himoya sohasidagi yangi o'zgarishlar, yuzaga keladigan muammolar va o'zgaruvchan ustuvorliklarni o'z ichiga oladi, bu uning terminologiyasini doimiy ravishda takomillashtirish va kengaytirishga imkon beradi.

Kirish imkoniyati (in english Accessibility)- murakkab foydalanuvchilarning keng doirasi, shu jumladan siyosatchilar, amaliyotchilar, tadqiqotchilar va keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi uchun mo'ljallangan. Texnik yoki jargon-laden til ustidan u baxtsiz hodisalar, osonlik bilan turli tinglovchilar tomonidan tushunilishi mumkin, deb aniq va to'g'ri termin ish bilan.

Ko'p tillilik (in english Multilingualism)- tobora o'zaro bog'liq bo'lgan dunyoda terminologik birikma ko'plab tillarda ishlab chiqilishi va saqlanishi mumkin, bu madaniyatlararo aloqa va hamkorlikni osonlashtiradi. Murakkabning ko'p tilli versiyalari ijtimoiy himoya terminologiyasining global auditoriya uchun qulay va dolzarb bo'lishini ta'minlaydi. Example Term: "Pension"

Definition: Regular payments made to individuals upon reaching retirement age, typically funded by contributions from the individual and/or their employer over the course of their working life. (Jismoniy shaxslarga pensiya yoshiga etganida amalga oshiriladigan muntazam to'lovlar, odatda, ish hayoti davomida shaxs va yoki ularning ish beruvchisining badallari hisobiga moliyalashtiriladi.)

Ushbu atama turli tillar va madaniyatlarda keng tushuniladi, bu madaniyatlararo aloqalarni va ijtimoiy himoya sohasidagi hamkorlikni osonlashtiradi.

Dinamiklik (in english Dynamicity)- murakkab dinamik va ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstdagi o'zgarishlarga javob beradi, muntazam yangilanishlar, qayta ko'rib chiqish va kengaytirish mexanizmlari mavjud. Ushbu dinamiklik aralashmaning paydo bo'layotgan muammolarni hal qilishda va ijtimoiy himoya sohasida ilg'or tajribalarni ilgari surishda dolzarb va dolzarb bo'lib qolishini ta'minlaydi. Example Term: "Universal Basic Income (UBI)"

Definition: A form of social security in which all citizens or residents of a country receive a regular, unconditional sum of money from the government, regardless of their employment status or income level. (Ijtimoiy ta'minot shakli, unda mamlakatning barcha fuqarolari yoki rezidentlari, ish holati yoki daromad darajasidan qat'i nazar, hukumatdan muntazam, shartsiz pul oladilar.)

Ushbu atama o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar va ijtimoiy ehtiyojlarga javob beradigan, ijtimoiy ta'minot siyosatida moslashuvchanlik va innovatsiyalarning muhimligini ta'kidlaydigan ijtimoiy himoyaga rivojlanayotgan yondashuvni aks ettiradi.

Umuman olganda, terminologik birikma ijtimoiy himoya organizmlar ijtimoiy himoya sohasidagi asosiy tushunchalar va amaliyotlarni kontseptsiyalash va yetkazish uchun keng qamrovli, aniq, ongli, moslashuvchan, qulay, ko'p tilli va dinamik jarayon.

Ijtimoiy himoya bo'yicha terminologik birikma ijtimoiy ta'minot sohasidagi asosiy tushunchalar va amaliyotlarni tushunish va muhokama qilish uchun keng qamrovli va aniq asoslarni o'z ichiga oladi. Uning asosiy xususiyatlarini o'rganib chiqib, biz ijtimoiy himoya kabi murakkab sohalarda samarali aloqa va bilimlarni tarqatishda terminologik birikmalarning ahamiyati va foydaliligi to'g'risida chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.

Murakkabning keng qamrovliligi uning sohani yaxlit tushunishga imkon beradigan ijtimoiy himoya tushunchalari, siyosati va dasturlarining keng doirasini qamrab olishini ta'minlaydi. Ushbu kenglik manfaatdor tomonlarga turli xil ijtimoiy ehtiyojlar va muammolarni har tomonlama hal qilishga

imkon beradi. Bundan tashqari, uning aniqligi muloqotda aniqlik va aniqlikni ta'minlaydi, siyosatni samarali ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashga yordam beradi.

Terminologiyada izchillik ijtimoiy himoya sohasida izchillik va o'zaro muvofiqlikni ta'minlash uchun juda muhimdir. Murakkabning standartlashtirilgan til va terminologiya konventsiyalariga sodiqligi turli hujjatlar, kontekstlar va manfaatdor tomonlar bo'yicha izchillikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, uning moslashuvchanligi rivojlanayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstlarga moslashishga imkon beradi, vaqt o'tishi bilan dolzarbligi va qo'llanilishini ta'minlaydi.

Asosan,terminologik birikmalarni ishlab chiqishda, ijtimoiy himoya kabi muhim ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan sohalarda muhim ahamiyatga ega. Murakkabning aniq va sodda tildan foydalanishi uni foydalanuvchilarning keng doirasi, shu jumladan siyosatchilar, amaliyotchilar, tadqiqotchilar va keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, uning ko'p tilli versiyalari madaniyatlararo aloqa va hamkorlikni osonlashtiradi, global miqyosda uning dolzarbligi va foydaliligini oshiradi.

Ijtimoiy himoya bo'yicha terminologik birikmani muhokama qilish uning aloqani kuchaytirish, bilim almashish va ijtimoiy ta'minot sohasidagi siyosatni ishlab chiqish vositasi sifatida ahamiyatini ta'kidlaydi. Oldinga siljish, tarkibni yanada takomillashtirish va kengaytirish, shuningdek tegishli manfaatdor tomonlar orasida undan foydalanish va qabul qilishni targ'ib qilish bo'yicha harakatlar inklyuziv va samarali ijtimoiy himoya siyosati va amaliyotini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, aralashmaning rivojlanayotgan ijtimoiy ehtiyojlar va muammolarga javob berishini ta'minlash uchun davom etayotgan tadqiqotlar va hamkorlik zarur bo'lib, oxir-oqibat yanada adolatli va barqaror jamiyatlarni amalga oshirishga hissa qo'shadi.

Ushbu munozara bo'limi ijtimoiy himoya bo'yicha terminologik birikmaning asosiy xususiyatlarini tahlil qiladi va uning ijtimoiy ta'minot sohasidagi siyosatni ishlab chiqish, tadqiqotlar va amaliyotga ta'sirini o'rganadi. Tuzatishlar sizning maqolangizning aniq yo'nalishi va topilmalari asosida amalga oshirilishi mumkin.

Ijtimoiy himoya bo'yicha terminologik birikma ijtimoiy ta'minot sohasidagi asosiy tushunchalar va amaliyotlarni

tushunish, muloqot qilish va rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Komplekslik, aniqlik, izchillik, moslashuvchanlik, mavjudlik, ko'p tillilik va dinamiklikning asosiy xususiyatlari orqali birikma turli xil ijtimoiy ehtiyojlar va muammolarni hal qilish uchun mustahkam va moslashuvchan platformani taqdim etadi.

Ijtimoiy himoya tushunchalari va siyosatining keng doirasini qamrab olgan holda, birikma ijtimoiy ta'minot tizimlarini yaxlit tushunishni ta'minlaydi, siyosatni samarali ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashga yordam beradi. Uning terminologiyadagi aniqligi va izchilligi muloqotda aniqlik va aniqlikni ta'minlaydi, sohada izchillik va o'zaro muvofiqlikni rivojlantiradi. Bundan tashqari, aralashmaning moslashuvchanligi rivojlanayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstlarga moslashishga imkon beradi, vaqt o'tishi bilan dolzarbligi va qo'llanilishini ta'minlaydi. Uning qulayligi va ko'p tillilik ijtimoiy himoya terminologiyasini global auditoriya uchun ochiq qiladi, madaniyatlararo aloqa va umumiy muammolarni hal qilishda hamkorlikni rivojlantiradi.

Murakkabning dinamik tabiati unga ijtimoiy himoya sohasidagi rivojlanayotgan tendentsiyalar va o'zgarishlarga javob berishga imkon beradi, bu uning so'nggi tadqiqot natijalarini, siyosat yangiliklarini va ijtimoiy ehtiyojlarni aks ettirishini ta'minlaydi. Tarkibni muntazam ravishda yangilash, qayta ko'rib chiqish va kengaytirish orqali manfaatdor tomonlar xabardor bo'lib turishlari va o'zlarining yondashuvlarini rivojlanayotgan sharoitlarga moslashtirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy himoya bo'yicha terminologik birikma aloqa, bilimlarni tarqatish va ijtimoiy ta'minot sohasidagi siyosatni ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oldinga siljish, tarkibni yanada takomillashtirish va kengaytirish, shuningdek tegishli manfaatdor tomonlar orasida undan foydalanish va qabul qilishni targ'ib qilish bo'yicha harakatlar inklyuziv va samarali ijtimoiy himoya siyosati va amaliyotini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Doimiy izlanishlar, hamkorlik va innovatsiyalar orqali biz ijtimoiy himoyani tushunish va amalga oshirishni takomillashtirishni davom ettirishimiz mumkin, natijada yanada adolatli va barqaror jamiyatlarni amalga oshirishga hissa qo'shamiz.

ADABIYOTLAR

1. Гак В. Г. О некоторых закономерностях развития лексикографии (учебная и общая лексикография в историческом аспекте) // Актуальные проблемы учебной лексикографии / Сост. В.А. Редькин. Рус.яз.,Москва, 1977, – 27.
2. Ўзбек тили лексикологияси. Масъул муҳаррирлар: А.Ҳожиев, А.Ахмедов. Фан, Тошкент, 1981, – Б. 305.
3. Alpaydin, E. (2020). Introduction to Machine Learning. MIT Press.
4. Bishop, C. M. (2006). Pattern Recognition and Machine Learning. Springer.
5. Hastie, T., Tibshirani, R., & Friedman, J. (2009). The Elements of Statistical Learning: Data Mining, Inference, and Prediction. Springer.
6. Murphy, K. P. (2012). Machine Learning: A Probabilistic Perspective. MIT Press.
7. Russell, S. J., & Norvig, P. (2016). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.
8. Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида): Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2016. – 230 б.
9. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фанлари док. …дис.- Тошкент: 2016. – 254 с.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 200-2008. 1-ж. – 80 с. 2-ж. – 1 с. - ж. – 8 с. 4-ж. – 0 с. 5-ж. – 591 б.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: 2000. – Б. 10.
12. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» Давлат Илмий Нашриёти.: 2002. – 158 б.

Mashhura YULDOSHEVA,
NamDU tayanch doktoranti
E-mail: yuldoshevamashhura05@gmail.com

NamDU professori, filologiya fanlari doktori H.Usmonova taqrizi asosida

SOCIOPRAGMATIC ANALYSIS OF DYSPHEMISMS USED IN A WORK OF ART

Annotation

In this study, the expression of expressive speech movements was analyzed using the dysphemistic units used in the speech of characters in Tahir Malik's story "The smallest Crime". In the study, the theory of speech acts expressed by Brown and Levinson and the manifestation of the principle of politeness in Leach's language were studied. In the analysis, the level of use of speech acts represented by dysphemia in the speech of communicators and cases of violations of the maxim of appreciation (maxim of approval) were studied.

Key words: types of speech acts, morality, euphemism, dysphemism, dysphemic euphemism, taboo, cocoism, politeness principle, face threat.

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДИСФЕМИЗМОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИЕ ИСКУССТВА

Аннотация

В данном исследовании была проанализирована экспрессия экспрессивных речевых движений с использованием дисфемистических единиц, используемых в речи персонажей рассказа Тахира Малика «Самое маленькое преступление». В исследовании изучались теория речевых действий, высказанная Брауном и Левинсоном, и проявление принципа вежливости в языке Лича. В ходе анализа изучен уровень использования речевых актов, представленный дисфемией в речи коммуникаторов и случаи нарушения максимы признательности (максимы одобрения).

Ключевые слова: виды речевых действий, мораль, эвфемизм, дисфемизм, дисфемический эвфемизм, табу, кокоизм, принцип вежливости, угроза лицом к лицу.

BADIIY ASARDA QO'LLANGAN DISFEMIZMLARNING SOTSIOPRAGMATIK TAHLILI (TOHIR MALIK "ENG KICHIK JINOYAT" QISSASI TAHLILI ASOSIDA)

Annotatsiya

Ushbu tadqiqoda Tohir Malikning "Eng kichik jinoyat" qissasidagi obrazlar nutqida qo'llanilgan disfemistik birliklari yordamida ekspressiv nutq harakatlarining qanday ifodalanishini tahlil qilingan. Tadqiqotda Braun va Levinson tomonidan ifodalangan nutq aktlari nazariyasi va Lichning tilidagi xushmuomalalik tamoyilining namoyon bo'lishi o'rganilgan. Tahlilda komunikatorlar nutqida disfemiya bilan ifodalangan nutqiy aktlardan foydalanishi darajasi va qadrlash maksimali (approbatsion maxim) ning buzilish holatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: nutq akt turlari, axloq, evfemizm, disfemizm, disfemik evfemizm, tabu, kokomizm, xushmuomalalik tamoyili, yuzga tahdid.

Kirish. Badiiy matnning ijtimoiy xoslanishida evfemizm va disfamezmlar ning o'ziga xo o'rni bor. Bu birliklar muloqotda komunikatorlarning yoshi, jinsi, maqomi va kasbi kabi sotsiopragmatik omillarga nisbatan turlicha qo'llanadi. Odatda insonlar o'zaro muloqotda disemiyadan qochishadi, chuni buydan birliklar tinglovchilarni haqorat qilishga qaratilganligi, negative politeness (salbiy xushmuomalalik) ni namoyon bo'lishi bilan xarakterlidir. Shu tarzda, ma'ruzachi birinchi holatda tabu referentining salbiy assotsiatsiyasini yaxshilashga harakat qiladi (va shunday qilib, yuzning yo'qolishining oldini oladi), ikkinchisida uning salbiy yukini kuchaytiradi (bu ochiq-oydin haqoratga olib kelishi mumkin). Shu sababli, disfemiya orqali til foydalanuvchisi tinglovchining yoki kommunikativ harakatda ishtirok etgan uchinchi tomonning yuziga ataylab zarar etkazish uchun berilgan tushunchaning eng kam qabul qilinadigan tomonlarini kuchaytiradi. Biroq, evfemizm so'zlovchi va qabul qiluvchining yuzlarini saqlab qolish uchun lingvistik himoya vazifasini bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Disfemizmga O.S.Axmanovaning "Tilshunoslik atamalari lug'ati" "Disfemizm (kakofemizm) isp. Disfemismo, ya'ni muayyan matndagi predmet, narsa-hodisa nomini nisbatan qo'pol, vulgar ifoda bilan almashtirish. Ziddi: Evfemizm…" deya izoh berib o'tilgan. Jahon tilshunosligida D.Lourens, A.N.Rezanova T.V.Boyko, T.S.Bushuyevalar, O.V.Potapova disfemizmni evfemizm bilan yonma-yon tadqiq etadilar. O'zbek tilshunosligida M. Mirtojiyevning "O'zbek tili semasiologiyasi" kitobida disfemizm haqida to'xtalib o'tilgan. X. Qodirovaning "Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlaridan foydalanish mahorati"

dissertatsiyasida disfemizmlar leksik-semantik, pragmatik jihatdan atroflicha tadqiq etilgan hamda "Abdulla Qodiriy asarlarida qisqacha evfemik va disfemik ma'noli birliklari lug'ati" tuzgan. O'zbek tilshunosligida evfemizmlarlar tadqiqiga oid ilmiy ishlar ko'proq, ammo disfemizmlar nisbatan kam o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqoladagi ma'lumotlar Tohir Malikning "Eng kichik jinoyat" qissasida qo'llangan disfemistik birliklar bilan ifodalangan nutq aktlarini tahli qilishda Braun va Levinson (1987), Lich nazariyalari asosida qilib olingan va disfemizmlar qo'llangan nutqlar ajratilgan, ular ifodalagan ma'nolar nutq aktlari asosida tasniflangan. Disfemizmlarni nutqa qo'llash bo'yicha sotsial jihatdan farqlari sotsiopragmatik aspektda o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda milliy ma'naviyat muammosi globallashgan bugungi kunda milliy mentalitetni ifodalaydigan evfemik va disfemik vositalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Evfemizm va disfemizmlarning paydo bo'lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog'liq. Evfemizm nafaqat til hodisasi (ifoda etayotgan shaxs nuqtayi nazaridan noqulay bo'lgan birliklar o'rnida qo'llangan so'z, so'z birikmasi yoki gap), balki insonning nutqiy vaziyatni qaysidir ma'noda o'zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo'ladi. Maqbul so'z qo'llana turib, so'zlovchi tomonidan man etilgan (tabu) birliklar qo'llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosoz muhit yumshatiladi. Man etilgan so'zlar esa insoniyat bilan tengqur deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi[1]. O'zbek tilida evfemik birliklar bilan oppozitsiyada turuvchi disfemizmlarni tadqiq etish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Disfemizmlar evfemizmlar bilan voqelik yoki shaxsga munosabat belgisi asosida ziddiyatda bo‘lib, disfemizmni qo‘llashdan asosiy maqsad denotatga salbiy bo‘yoq berish va shu bilan axborot qabul qiluvchida salbiy munosabat uyg‘otishdir. Badiiy nutqdagi disfemizatsiyani individual usul (priyom) sifatida baholash mumkin. Bu individuallik evfemiyadagi individuallikka nisbatan birmuncha ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Faqat “pragmatika nuqtayi nazaridan tegishli til vositasining evfemikligi yoki kakofemikligi kuzatuvchi (tinglovchi)ga bog‘liq bo‘ladi”[2]. Sababi komunikatorlar tomonidangina bu so‘zning salbiy yoki ijobiy ma’noda qabul qilishlariga qarabgina oydinlashadi. Disfemizmlar og‘zaki nutqda keng tarqalganligiga qaramasdan adabiy nutqda ularning qo‘llanishi taqiqlangan, bu esa ularning o‘rganilishiga ta’sir etmay qolmaydi[3] shuning uchun o‘zbek tilshsunosligida disfemizmlar kam tadqiq etilgan. Disfema – denotatga subyektiv munosabatning manfiy tomonga ketishi bilan bog‘liq pragmatik hodisa [4] bo‘lib, badiiy matnda personajlar nutqiga xos disfemizmlar gohida faqat salbiy munosabatni, ba’zan esa ularning ma’naviy tubanliklarini salbiy munosabati bilan uyg‘un ifodalash vazifasini bajaradi. [5, 20] Quyida Tohir Malikning “Eng kichik jinoyat” qissasidagi personajlar nutqida qo‘llangan disfemizmlarni quyidagicha ma’noviy guruhlarga ajratdik:

I. Qarg‘ish anglatuvchi disfemik ifodalar. Qarg‘ish o‘z-o‘zidan disfemik kayfiyat uyg‘otadi:

(1) “Kelib-kelib ro‘zaning birinchi kuni o‘g‘rilikka tushasanmi, uying kuygur! Men bu pullarni o‘g‘ilginamga deb yig‘yapgandim, iloyim o‘liginga buyursin!” [10]

(2) Men o‘g‘ringni pishirib yeymanmi, sen menga pulimni topib ber! [10]

(3) Nomozimni o‘qimay, ro‘zangni tutmay yurganimda indamagan eding. Gapingga kirib, ro‘zangni tutganimda, topganimga baraka berish o‘rniga sho‘rginamni quritasanmi? [10, 4]

(4)Men bolamdan ajray deb o‘tiribman. Yaxshi kelib qoldingiz, siz guvohsiz, bolamga bir narsa bo‘lsa, bu xotinning urug‘ini kuydiraman[10].

(5) Bozorning havosini olgan Mohinaning toqati uch yilga arang yetdi. Oxiri “Bunaqa erni yer yutsin”, dedi-yu kki yoshli qizi Zarinani bag‘riga bosib, otasining uyiga qaytib keldi[10]

Bu disfemik xarakterda qarg‘ish ifodalar Mohina buvining uyidan o‘limligiga asrab yurgan puli o‘g‘irlab ketilganda yoki turmushidan nolib aytilgan bo‘lib, norozilik qifoyasida so‘zlovchining nutqini ifodalagan. Aynan asarda bu obraz nutqida yuzga tahdid soluvchi (FTA) birliklarni juda ko‘p qollashini tahlildan kuzatdik.

(6)…O‘tgan hafta biqinim og‘rib do‘xtirga borsam, aperaysa qilish kerak, deydi… “Hoy, aperaysang qancha turadi?” desam, “siz yaxshi xotinga o‘xshaysiz, sizga to‘rt yuz dollar”, deydi. “Aperaysang bilan qo‘shmozor bo‘l, o‘lsam o‘la qolay, o‘sha to‘rt yuz dollarni bollarim xudoyi – pudoyiga ishlatar”, deb ketvordim [10].

Bozorda sotuvchilik qiluvchi ayol nutqidan olingan bo‘lib, shifokor uning opratsiya qildirishi lozimligi aytganda, undan ko‘ra bu pulni xudoyi qilgan yaxshi ekanligi aytadi. Bu obraz nutqida qo‘llangan bu qarg‘ish orqali ayolning dunyoqarashi tor, ilmdan bebahra va o‘z sog‘ligini qadrlamaydigan, eski xurofotga, bid’atlarga ishonuvchan ayol ekanligini anglashiladi. Qissada aynan qarg‘ish anglatuvchi disfemimlarni qo‘llash ko‘pincha ayollar nutqiga xos ekanligini kuzatdik.

II. Mazxara, kinoya anglatuvchi disfemik ifodalar.

(7) Aslida bu xotinni “ledi” gina emas, “qirolicha xonim” deb atashi ham Zarina uchun farqsiz bo‘lgani sababli ayni choqda bunday deb ulug‘lanishi pesga o‘sma qo‘ygandek o‘rinsiz tuyilib, g‘ashi kelsa-da, itoat bilan:

Xo‘p bo‘ladi. Misis, - dedi.

Uning mutelik ohangidagi bu javobini eshitgan xotinning jahli chiqdi. Ola-kula bo‘lgan ko‘zlarini zarinaga qadab:

- Misis emas, mis Hamelton! Qulog‘ing karmi? – deb baqirdi[10].

Bu o‘rinda Zarina “pesga o‘sma qo‘ygandek” deb Amerikada xizmatkorlik qilayotgan xonadon bekasiga nisbatan qo‘llagan, sababi yoqimsiz, ko‘rimsiz va juda qo‘pol ayol bo‘lgani uchun, yuzga tahdid soluvchi metaforik disfemizmni qo‘llagan. Chunki mis Hameltonning o‘zi ham muloqotda negative politeness (salbiy xushmuomalalik) strategiyasidan foydalanadi. Buni “Qulog‘ing karmi?” deb haqoratni qo‘llaganidan ham bilishimiz mumkin. Dialogda komunikatorlar o‘rtasidagi muloqot (xizmatkor va uy bekasi) assimetrik ekanini ko‘ramiz.

(8) Janjalning boshini anglamagan bo‘lsa-da, ikki qo‘shni orasidan qora mushuk o‘tganini sezib, avvaliga iziga qaytmoqchi bo‘ldi. Keyin shunday ulug‘ ayyom kunida ham urishadilarmi-ya, yarashtirib qo‘ysam, avobga qolaman, degan niyatda kirib kelaverdi. Uning paydo bo‘lishi Mohinaga yoqdi, Xolnisaning esa enasini qotirdi[10].

(9) Hatto kapir dahlizda ko‘ringanida avvaliga “endi nunga nima bor ekan, ko‘zim uchib turuvdi”, deb ensasi qotdi [10].

(10) - Aslida seni ham, sheriklaringni ham hibsga olish, sus qilishning hech hojati yo‘q edi, - deganda umidvor ko‘zlarida nur chaqnadi. Ammo keyingi gap nurni so‘ndirdi, hatto jonini sug‘urib olganday bo‘ldi: - O‘sh joyning o‘zida otib tashlash kerak sendaqalarni. Amerikaning boshiga bitgan balosanlar senlar! Ushbu kontekslar tarkibida qo‘llangan qora mushuk disfemik birikma urishib qolgan ikki qo‘shni o‘rtasidagi salbiy munosabatni ko‘rsatish uchun qo‘llangan. Ensasini qotirmoq, ko‘zi uchib turmoq kabi frazeologik disfemizmlar ham suhbatlashishni, ko‘rishni istamaslik kabi salbiy munosabatni aks ettirib, FTA – yuzga tahdid soluvchi, negative politeness (salbiy xushmuomalalik)ni shakllantiruvchi vositalardir. Qissada qo‘llangan disfemizmlarni quyidagi ma’noviy guruhlarga ajratdik:

III. So‘kish va haqoratni ifodalovchi disfemik ifodalar.

Muloqotda disfemizmlardan suhbatdoshini xafa qilish, kamsitish, yoqtirmasligini ifodalash, obosizlantirish uchun foydalanadilar [6].

(11) Sen borayotgan mamlakat butun dunyoni qopib, talayotgan, inson qonlarini ichayotgan quturgan bir it-ku! Sen borib, o‘sha itni emib yotasanmi? [10]

It so‘zi matnda “badfe’l”, “badxulq” tushunchalarini beribgina qolmay, quturmoq so‘zi bilan birikma holida qo‘llanganda “qonxo‘r” ottenkasini ham ifodalab kelgan, do‘stining ish izlab Amerikaga ketishi oldidan aytilgan bu so‘zlar orqali shaxslarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ham o‘z aksini topgan.

(12) - Hoy, mening bolamga tuhmat qilmagan bitta siz qoluvdingizmi? Siz avval o‘zingizning go‘rsoxtangizni eplab oling, keyin mening bolamga osiling! [10]

(13) Mohinaning “tekintomoqqa toqatim yo‘q” degan qonuni Suhrobga qo‘llanilmagan holda kelinga tadbiq etilib, bozorga chiqishga da’vat etilganda juvon bechora chidolmay ketib qoldi. [10, 18]

(14)- Balki Venesuelada shunaqadir, lekin men Osiyodan kelganman, O‘zbekiston degan mamlakat bor, eshitganmisiz?

Braun bu gapni eshitib, ko‘zlarini kattaroq oshib qarashga urindi.

- Rostanmi? – dedi bilagiga labini artib. – O‘zbekistondanmisan?

- Eshitganmisiz?

- Nega eshitmay, demak, sen polovxo‘r ochlardan ekansan-da! – Braun shunday deb qah-qah otib kulib yubordi[10].

(15) …Senga o‘xshagan o‘z yurtining ulug‘laridan yuz minglab yopirilib keladi Amerikaga. Bular orasida olimi ham bor, artisiti ham bor… Tasavvur qilyapsanmi: yuz minglab! Hashaki olimlar, bozordan qochgan artistlar Amerikada achib-bijib yotibdi. Millionlab pashshaxo‘rdalar orasidan bitta Eynshteyn chiqmaydi, bitta Shvartsneger chiqmaydi. Senam shularning bittasisan. Tag‘in omading kelib bu ishni topibsan… [10]

Misollar ko‘rinib turibdiki, ba’zan haqorat mazmunida qo‘llangan bunday birliklar adresantning ijtimoiy mavqeyi, turmush-tarzi, e’tiqodi, fe’l atvori kabi bir qancha sotsial omillarga bog‘liq bo‘ladi, bunday holatda olima N.Ahmedova aytganiday, har qanday konnatativ ifodada denotativ ma’noning saqlanishi, so‘zlovchi o‘zining pragmatik maqsadini namoyon etishda ana shu sema (belgi) dan uzoqlashmasligini ta’kidlaydi [7].

(16) Voy, Muattar opa, hozir tog'imdan havo o'tmayapti-yu, ovqatga balo bormi?

Sho'rginam qurib qoldi-ku, eshitmadigizmi? - dedi Mohina yig'lamsirab [10].

O'zini Jek deb tanishtirgan o'g'il gapni kalta qildi: Onamning barja xohishlarini so'zsiz bajarasan. Onamdan shikoyat eshitgan kunim dumingni tugib yuboraman. Mendan bir sent ham ololmayan. Orqangga bir tepaman-u, chiqib kelgan joyingga kirib ketasan!

(17) - Sen ikki qulog'igga quyib ol: Jek bilan iskashib qolganingni sezsam, oyog'ingdan ostiraman[10].

(18) Hozirgina kelib o'tirsa "qoch", bola, behos aksirib uchirib yubormay, yana onangnikiga kirib ketmagin, deb masxaralashi tayin edi. O'zidan pastroq martabadagi odamga bunday gaplarni dadil ayta oluvchi suhrob bu on Maks ro'parasida dumini qisgan it kabi turardi. [10]

(18) - Uylangansan, deb eshituvdim, xotining ko'rinmaydimi?

Xotinni bir tepib kelgan joyiga ketkizvordim.

Nega?

Shalava ekan, bilan-ku hozirgi tovuqlarga ishonib bo'lmaydi.

Qarab, surishtirib olmaysanmi? [10]

(19)…- Nega? Sovg'ani berdim, endi ketishim kera. Ledi Hamelton g'azablanishlari mumkin…

Ledi dedingmi? – Edenburg shunday deb jimlaydi. U tirjaygan paytda qoziq tishlari ko'rinib, yanada qo'rqinchli tus olgani uchun Zarina beixtiyor yuzini burdi. U esa davom ettirdi: - U sassiq cho'chqa hali ham tirikmi? Cho'chqaning "ledi" bo'lganini endi eshitishim. Sen karmisan? Ichkariga kir, deyapman! [10]

Tilshunoslikda bunday so'zlar vulgarizmlar deb ham ataladi. Bunday haqorat so'zlarida o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turgan bo'ladi va salbiy munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday so'zlar ko'proq nominativ ma'nolariga ko'ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi [8, 40]. Badiiy asarda haqorat so'zlari, asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi.

Asardagi qahramonlarning nutqida qo'llangan disfemizmlarning sotsiopragmatik aspektda tahlil qilib, ayrimlarini jadvalda ko'rsatdik:

№	Kontekst	Disfemizm shakli	Nutqiy akt turi	Disfemizm anglatgan ma'nosi	Gender farqlanishi
1	Men bu pullarni o'g'ilginamga deb yig'yapgandim, iloyim o'liginga buyursin!	birikma	perlokutiv	qarg'ish	Ayol nutqida
2	Shalava ekan, bilan-ku hozirgi tovuqlarga ishonib bo'lmaydi.	leksema	representativ	haqorat	Erkak nutqida
3	Hozirgina kelib o'tirsa "qoch", bola, behos aksirib uchirib yubormay, yana onangnikiga kirib ketmagin	ibora	direktiv	dag'dag'a, mensimaslik	Erkak nutqida
4	Nega eshitmay, demak, sen polovxo'r ochlardan ekansan-da! – Braun shunday deb qah-qah otib kulib yubordi.	birikma	representativ	mazax, kulgi	Erkak nutqida
5	Siz avval o'zingizning go'rsoxtangizni eplab oling, keyin mening bolamga osiling!	leksema	direktiv	haqorat	Ayol nutqida

Bu birliklarni faqat nutq akti yoki diskursiv hodisa sifatida aniqlash mumkin, ma'lum bir vaziyat kontekstida foydalanuvchilar tomonidan o'z-o'zidan va nutqiy muloqot vaqtida yaratilgan cheksiz miqdordagi evfemistik va disfemistik foydalanish mumkin. Allan va Burridjning (2006) "disfemistik evfemizm" va "evfemistik disfemizm" deb atagan terminlari bilan kvaz-evfemizm va kvaz - disfemizm sifatida mos keladi. Disfemistik evfemizmlar disfemistik qiyofada bo'lishiga qaramay, do'stlik, guruh ichidagi o'ziga xoslik yoki yaqinlikni ko'rsatish vositasi sifatida ijobiy qo'llaniladigan so'z va iboralardan iborat. Evfemistik disfemizmlar esa evfemistik niqoblanganiga qaramay, qasddan haqoratli bo'lgan ifodalarni anglatadi. [9, 36] Demak, disfemizmlar konteksda voqealinishiga qarab ijobiy ma'no kasb etishi mumkin, bu esa faqat adresat va adresant o'rtasidagi tushunarli bo'lishi mumkin. Misol: - O'zimizga kelganing yaxshi bo'libdi. Har holda sinashta bo'lib qolgansan. Uncha -buncha ishni o'zimizdan o'rgangansan. Senga har qanaqa ishni ishonib topshiraverish ham mumkin. Bilaman, senga o'xshagan tirranchalar, - Mengliyev shunday deb kulimsirab qo'ydi, "tirranchalar" degan so'zni haqarot yoki dashnom emas, erkalash ohangida aytgani uchun Shuhrat ham kulimsiradi, - katta bir bosqinchlikmi yoki qotilliknimi ochib dabdaba qilishga shoshilishadi. (25-bet)

Xulosa. Badiiy asarda qo'llangan disfemizmlar boshqalarni qo'rqitish, masxara qilish, kamsitish, norozi qilish, nafrat va hurmatsizlikni ifodalash uchun qo'llanganligini kuzatdik. Tohir Malikning "Eng kichik jinoyat" qissasida muallif obrazlarning dunyoqarashi, ma'naviy olami va madaniyatini ochib berishda disfemizmlardan unumli foydalangan. Qissada o'g'irlik, giyohvandlik bilan bog'liq jinoiy ishlar qalamga olinganligi hamda obrazlarning salbiy xarakterga ega ekanligi bois ularning nutqida so'kinish, haqorat va ayollar nutqida esa qarg'ish ma'nosidagi disfemizmlarning qo'llanishi ko'proq ekanligi aniqlandi. Demak, odobsizlik va haqorat uchun qo'llangan bunday birliklar yuzga tahdid soluvchi (FTA) vositalar sirasiga kirib, salbiy munosabtni ifodalash uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. X. Qodirova, O'zbek tilida evfemizm va disfemizm, "Bookmany print" Toshkent – 2022. 5-bet
2. A. primov. N. maxsudova, Badiiy tafakkur va adabiy jarayon. 15-jild. Urgangch- 2019. 65-bet
3. Жўраева Н. Француз ва ўзбек тилларида эвфемик ва дисфемик бирликларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. https://doi.org/10.5281/zenodo.748146   199-bet
4. Xurshida Qodirova, O'zbek tilida evfemizm va disfemizm, "Bookmany print" Toshkent – 2022 41-bet
5. Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Filol. fan. nomz. … avtoref. – Toshkent, 2012. 20 -bet.
6. Lukasz Zarzycki, the Anatomy of polish Offensive Words. John Benjamins B. V. – 2024. 112-B.
7. А.Шаймарданова,Ўзбек тилида маъно кучайтирувчилар. Узбек тилшунослиги: тараққиет тамойиллари, илмий муаммолар, истиқболдаги вазифалар. Тошкент - 2 0 1 3. 44-b.
8. M. Yo'ldosheva, Z.Isaqov, Sh. Haydarov. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent – 2010 A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 40-bet
9. Andrea Pizarro P., books.google.co.uz Taboo Revisited: Novel Insights from Cognitive ... 2018 -Walter de Gruyter GmbH. Berlin/Boston. 36-bet
10. Tohir Malik "Eng kichi jinoyat" qissa, www.ziyouz.com/ tohirmalik.uz, 2-, 3-, 4-, 5-, 7-, 8-, 10-, 13-, 15-, 18-, 22-, 41-, 42, 60-, 70 –betlar